



ISLOM KARIMOV

MAMLAKATIMIZNI YANADA
OBOD ETISH VA
MODERNIZATSİYA QILISHNI
QAT'İYAT BILAN
DAVOM ETTIRISH YO'LIDA

21






ISLOM KARIMOV

MAMLAKATIMIZNI YANADA
OBOD ETISH VA
MODERNIZATSIIA QILISHNI
QAT'IYAT BILAN
DAVOM ETTIRISH YO'LIDA

21



TOSHKENT
«O'ZBEKİSTON» NASHRIYOT-MATBAA İJODİY UYİ
2013

UO'K: 323(575.1)

KBK 66.3 (50')

K 25

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlarining 21-jildidan davlatimiz rahbarining 2012–2013-yillarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda, Vazirlar Mahkamasining majlisida, turli xalqaro anjumanlarda, marosimlarda so'zlagan nutqlari va ma'ruzalarini hamda tabriklari o'rinn olgan.

ISBN 978-9943-01-980-5

ISBN 978-9943-01-980-5



9 789943 019805

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2013

TAQDIRIMSAN, BAXTIMSAN, ERKIN VA OZOD VATAN!

Aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Bugun biz mamlakatimiz hayotidagi unutilmas tarixiy voqea – O‘zbekistonimiz mustaqillikka erishgan kunning yigirma bir yilligini nishonlamoqdamiz.

Ana shu buyuk sana bilan, xalqimiz asrlar davomida intilib, orziqib kutgan, haqiqatan ham, barchamiz uchun eng ulug‘, eng aziz bayram bo‘lmish O‘zbekistonning Mustaqillik kuni bilan siz azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbimdan tabriklash men uchun katta baxtdir.

Men ishonaman – asrlar, zamonlar o‘tar. Ammo barchamizga o‘zligimizni anglash, insoniy sha’nimizni, qadr-qimmatimizni, o‘z yurtimizga egalik qilish huquqini, tilimiz, muqaddas dinimizni, qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni qaytarib bergen bu ulug‘ ayyom Vatanimiz tarixida oltin sahifa bo‘lib, abadiy saqlanib qolajak.

Qudrli yurtdoshlarim!

O'z-o'zidan ayonki, kishilik tarixida, dunyo xaritasida davlatlar shakllanishida yigirma bir yil juda qisqa muddatdir. Lekin O'zbekistonimiz shu davr mobaynida, hech shubhasiz, yuz yillarga teng bo'lgan masofani bosib o'tdi.

Biz eski mustabid tuzum, uning asoratlari va mafkurasidan butunlay voz kechib, tobelik va qaramlik davriga barham berib, kechagi nochor, o'zini o'zi boqishga kuchi yetmagan o'lordan bugun o'zining kuch-qudrati va salohiyatiga tayangan, o'z sarhadlari, xalqining tinch va osuda hayotini himoyalashga qodir bo'lgan, xalqaro hamjamiyatda munosib o'rin egallagan, tez va barqaror sur'atlar bilan o'sib borayotgan mustaqil va suveren davlatlar qatoriga ko'tarilganimizni yaqqol namoyon etmoqdamiz.

O'tgan davr mobaynida biz oldimizga qo'ygan buyuk vazifa – zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar safiga kirish, fuqarolik jamiyati barpo etish, hayotimizni, iqtisodiyotimizni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish hisobidan qo'lga kiritgan yutuq va yuksak marralarimizning xalqaro maydonda e'tirof etilayotganini, Vatanimiz salohiyati, moddiy, iqtisodiy va intellektual kuch-qudratimiz tobora oshib, shahar va qishloqlarimiz-

ning qiyofasi va chehrasi o‘zgarib, ochilib bora-yotganini bugun hech kim inkor etolmaydi.

Ko‘pchilikni hayratda qoldirayotgan bunday haqiqatni tasdiqlab beradigan ko‘pgina raqam va ma‘lumotlarni keltirish qiyin emas.

Shular qatorida istiqlol yillarida O‘zbekiston iqtisodiyoti qariyb 3,7 barobar, aholimizning real daromadlari jon boshiga 7 barobar, o‘rtacha pensiya miqdori qariyb 9 barobar, oylik ish haqi esa 18 barobar oshgani, odamlarimizning umr ko‘rish darajasi o‘rtacha 7 yilga uzaygani, yoqilg‘i va g‘alla mustaqilligiga, o‘zimizni o‘zimiz go‘sht, sut va boshqa iste’mol mollari bilan to‘liq ta’minlashga erishganimiz bularning yaqqol tasdig‘idir.

Bularning barchasi, avvalo, mustaqillikka erishgan birinchi kunlardan boshlab «Islohot – islohot uchun emas, avvalo, inson uchun» degan prinsipni hayotga tatbiq etganimizning amaliy samarasi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

O‘tgan yillar mobaynida yurtimizda uy-joy hajmining ko‘rsatkichi qariyb 2 barobar oshgani, oilalarning 98,5 foizi o‘zining shaxsiy uy-joyi yoki kvartirasiga, qishloqlarda yashayotgan oilalarning 97,5 foizi shaxsiy tomorqasiga ega bo‘lganini ayni shu maqsadda amalga oshirgan milliy dasturlarimizning natijasi, deb qabul qilamiz.

Bundan yigirma bir yil oldin har o'nta oiladan bor-yo'g'i bittasi shaxsiy mashinaga ega bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda har uchta oilaning bittasida avtomobil mavjud ekani, har uch nafar yurt-doshimizdan biri internet tarmog'idan foydalanib kelayotgani xalqimizning farovonligi tobora ortib borayotgani, uning emin-erkin yashayotganini namoyon etadi.

Shu borada yana bir misol keltirish o'rinnlidir.

Bugun barcha davlatlarni katta tashvishga solayotgan, hali-beri davom etayotgan, jahon miqyosida eng dolzarb, eng og'ir masala bo'lib turgan moliyaviy-iqtisodiy inqirozni hisobga olgan holda, O'zbekiston oxirgi yetti yil davomida dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida o'rtacha 8–8,5 foiz iqtisodiy o'sishga erishayotgani mammakatimiz salohiyati barqaror rivojlanib borayotganining yaqqol dalilidir.

Barchamiz Vatanimizni ravnaq toptirish yo'lda erishgan marralarimizni dastlabki qadamlar sifatida qabul qilib, bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz darkor.

Bugun shiddat bilan tez o'zgarayotgan globallashuv davrining keskin talablariga, dunyo bozorida tobora kuchayib borayotgan shafqatsiz raqobat kurashiga bardosh bera oladigan, faqat

qut'iyatlik bilan oldinga intilayotgan, o‘zining uzoqni ko‘zlagan taraqqiyot strategiyasiga ega bo‘lgan davlatgina rivojlanishning katta yo‘lida o‘z ezcgu maqsadlariga erishmog‘i mumkin.

Zamonning o‘zi o‘rtaga qo‘yayotgan ayni shunday o‘tkir talablarni inobatga olgan holda, bizning oldimizda turgan eng ustuvor vazifamiz – boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, jamiyatimizning barcha jabhalarini erkinlashtirish jarayonlarini yangi bosqichga ko‘tarish, hayotimizning darajasi va sifatini yanada yuksaltirishdir.

Biz uchun beba ho boylik bo‘lmish tinchlik va osoyishtalikni, jamiyatimizdagi mehr-oqibat, fuqarolar va millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylash hamisha e’tiborimiz markazida turishi lozimligini aslo unutmasligimiz kerak.

Bugungi notinch va murakkab zamon, yaqin va uzoq yon-atrofimizda, mintaqamizda ko‘pdan buyon davom etayotgan nizo va qarama-qarshilik, tobora keskinlashib borayotgan vaziyat bizning doimo ogoh, doimo hushyor, sergak va sezgir bo‘lib yashashimizni, xavfsizligimizga tahdid so-

layotgan har qanday balo-qazoning oldini olishimizni tulab etmoqda.

Mustaqil taraqqiyot yo'lida amalga oshirgan, ong-u shuurimizni, hayotimizni tubdan o'zgartirgan ishlarimizga baho berar ekanmiz, biz erishgan yutuq va marralarni qo'lga kiritish oson bo'limganini ta'kidlashimiz o'rnlidir.

Bu yo'lida el-yurtimiz qanday murakkab va tahlikali sinov, to'siq va g'ovlarni yengishda turli yovuz va zo'ravon harakatlar oldida bosh egmasdan, o'z e'tiqodidan qaytmasdan kelgani, avvalo, o'zining mehnatsevarligi, mardligi va matonati hisobidan bugungi yorug' kunlarga yetib kelganimizni hech qachon unutmasligimizni istardim.

Hozirgi kunlarda ham bizning tanlagan yo'limizga shubha tug'dirish, kechagi davrni ko'rmagan, tajribasi yetarli bo'limgan yoshlarni yo'ldan ozdirishga, istiqlolimizning ma'nomazmunini soxtalashtirishga, bizni yana eski qolip va tobelikka qaytarishga urinadigan kuchlar va harakatlar kam emas.

Lekin bu kuchlar bir haqiqatni anglab olishi kerak. Bugun biz kechagi – 90-yillardagi o'ta sodda, hech qanday siyosiy tajribaga ega bo'limgan odamlar emasmiz.

Biz bugun mustaqillik yillarida katta qiyinchilik va sinovlarda toblangan, dunyoqarashi, siyosiy va fuqarolik saviyasi, ijtimoiy faolligi o'sib borayotgan, o'zbekona aytganda, biz bugun oqni qoradan ajrata oladigan xalqimiz.

Bizning xalqimiz, avvalo, yigirma bir yil davomida voyaga yetgan, mustaqil fikrlashga, yuksalib borayotgan ong-u tafakkurga ega bo'lgan navqiron avlodimiz porloq kelajagimizga katta ishonch bilan qaraydi va o'z tanlab olgan yo'lidan hech qachon – men takror aytaman – hech qachon ortga qaytmaydi.

Bugun jahon hamjamiyati bilan hamqadam bo'lib, uzoq va yaqindagi xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik, hamkorlik va o'zaro manfaatli aloqalarini yanada mustahkamlash, chet el investitsiyalarini va eng zamonaviy texnologiyalarni olib kelish maqsadida yurtimizda qulay iqlim va imtiyozli sharoitlarni yanada kengaytirish, bizga xayrixoh bo'lgan davlatlar bilan sheriklik munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish – bularning barchasi doimo diqqatimiz markazida bo'lishi shart.

Fursatdan foydalanib, shu muazzam maydonda jam bo'lgan xorijiy mamlakatlarning elchilari va xalqaro tashkilotlarning vakillari-

gu, barcha mehmonlarimizga bugungi tanta-namizda bayram quvonchini biz bilan baham ko'rayotganlari uchun sizlarning nomingizdan, butun xalqimiz nomidan minnatdorlik bildirish-ga ruxsat etgaysiz.

Bugungi shukuhli damlarda bizning tayan-chimiz va suyanchimiz, umidimiz bo'l mish yosh-larimizga qarata aytmoqchiman:

Qadrli farzandlarim, hech qachon unutmang:

Siz kimning, qanday ulug' zotlarning avlodisi!

Siz qanday noyob va betakror meros vorisla-risiz!

O'z kuch-g'ayratingiz, bilim va qobiliyatingiz-ga, buyuk Vatanimiz qudratiga suyanib, marrani baland oling, aziz bolalarim!

Sizning erishadigan har bir g'alabangiz – yur-timiz g'alabasi, O'zbekiston g'alabasidir!

Azizlarim, qadrdonlarim!

Barchangizni bag'rimga bosib, Mustaqillik bayrami bilan yana bir bor samimi tabriklab, sizlarga sihat-salomatlik, baxt va omad, xona-donlaringizga fayz-u baraka tilayman.

Bugun mana shunday yorug' kunlarga yet-kazgan, ezgu ishlarimizda O'zi madadkor bo'lган Yaratganimizga shukronalar aytamiz.

Yurtimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!
Mustaqilligimiz abadiy bo'lsin!

*O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining
yigirma bir yilligiga bag'ishlangan tantanali
marosimdagи tabrik so'zi,
2012-yil 31-avgust*

BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNING MUHIM OMILI

Muhtaram konferensiya qatnashchilari, xonimlar va janoblar!

Siz, qadrli mehmonlarimizni, nufuzli xalqaro institutlar – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Juhon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot bankining va killarini, yetakchi olim va mutaxassislar, biznesmenlar, dunyoning 45 ta mamlakatidan tashrif buyurgan barcha konferensiya ishtirokchilarini qutlash, sizlarga o‘zimning chuqur hurmat-ehtiromimni hamda anjuman ishida ishtirok etayotgанингиз учун самимиј миннатдорлигимни bildirish menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Bugungi anjuman uchun «O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati» degan mavzuning tanlanishi bejiz emas. Bu, birinchi navbatda, O‘zbekiston mustaqilligining dastlabki kunlaridan boshlab iqtisodiyotning ushbu tarmog‘ini jadal rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berilgani bizga eski mustabid, rejali-

taqsimot tizimidan qolgan inqirozning o‘ta o‘tkir muammolarini hal etishda eng muhim omil, ta’bir joiz bo‘lsa, lokomotiv bo‘lib xizmat qilgani bilan bog‘liq.

Mazkur sohani tez sur’atlar bilan taraqqiy top-tirish va umuman, mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish bo‘yicha biz tanlagan model 2008-yilda boshlangan, bugungi kunda, afsuski, chuqurlashuv tendensiyasiga ega bo‘lib borayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqirozning salbiy va halokatli oqibatlarining oldini olish hamda bartaraf etishda O‘zbekiston uchun hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Jahon miqyosida yangi retsessiya va bankrotlik to‘lqini, stagnatsiya va ishlab chiqarishning pasayish xavfi tobora ortib borayotgani, qarzdorlik majburiyatlari va budjet taqchilligi o‘sayotgani, ishsizlik muammosi, aholi hayot darajasi va turmush sharoitining keskin yomonlashuvi, shuning natijasida odamlarning umumiyligini noroziligi va ijtimoiy keskinlik kuchayib borayotgani xavotirga solmay qo‘ymaydi.

Bank sektorini yangi pul massasi, shuningdek, moliya bozorini turli derivativalar, ya’ni ikkilamchi mahsulotlar hisobidan nazoratsiz ravish-

da to'ldirish davom ctayotgani nafaqat inqirozdan chiqish muddatining cho'zilishiga, balki milliy valutalarning yanada qadrsizlanishi va shu bilan bog'liq oqibatlarga olib kelishi mumkin. Buning ustiga, katta miqdordagi valuta mablag'lari real iqtisodiyotga yetib bormasdan, jahon iqtisodiyotida asosan, spekulyativ holatlar va stagnatsiya jarayonini kuchaytirmoqda.

Qisqacha aytganda, yuzaga kelayotgan ahvol jahon iqtisodiyotidagi muammolarni tezda hal etish imkonini bermayapti.

Shu narsa tobora ayon bo'lmoqdaki, inqirozdan chiqish jarayoni hali yana uzoq davom etishi kutilmoqda va uning qachon tugashi haqida oldindan bir narsa deyish ko'p jihatdan qiyin bo'lib qolmoqda.

Biz mazkur konferensiya doirasida inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish va bartaraf etishning muhim omili bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida to'plagan tajribamiz asosida sizlar bilan fikr almashishni istar edik.

O'z-o'zidan ravshanki, yalpi ichki mahsulotning 80 foizi va mehnatga layoqatli aholining kamida 70 foizi iqtisodiyotning ushbu sektori

ulushiga to‘g‘ri keladigan, yuksak rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda yuz yillar davomida to‘plangan boy tajriba bizni juda qiziqtiradi. Bu biz uchun nihoyatda muhimdir.

Men mana shu zalda ko‘plab xorijiy mehmonlarimizni ko‘rib turganimdan g‘oyat mamnunman. Sizlarning ushbu konferensiyada ishtirok etayotganingiz, yalpi majlislar, seksiya yig‘ilishlaridagi chiqish va ma’ruzalariningiz, o‘zbekistonlik hamkasblaringiz bilan qilgan yaqin muloqotlaringiz, yurtimizning turli shaharlariga tashrif buyurib, ba’zi obyektlarni borib ko‘rganizingiz, o‘zaro bahs va fikr almashuvlar – bularning barchasi mazkur forumni har tomonlama boyitib, unda fikrlar rang-barangligini ta’minalashga, bu anjumanning sizlar kutgan natijalarni berishiga ishonchim komil.

Buning uchun sizlarga samimiyl minnatdorlik bildiraman.

Qadrli do‘stlar!

O‘ylaymanki, bugun o‘zimizga bir savolni berish har tomonlama mantiqiy bo‘ladi. Ya’ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilash nima bilan, qanday omil va sabablar bilan bog‘liq edi?

Buning sabablarini qisqacha bayon etadigan bo‘lsak, ular quyidagilardan iborat.

Birinchidan, jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiyotning muhim tarkibini tashkil qiluvchi tarmoq bo‘lgan kichik biznes ichki bozorni zarrur tovar va xizmatlar bilan to‘ldirishning asosiy manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Kichik biznes nafaqat iqtisodiyotdagi ma’lum bir bo‘shliqlarni to‘ldiradi, balki uni diversifikasiya qilish va barqaror sur’atlar bilan rivojlantirishni ta’minlashda o‘ta muhim rol o‘ynaydi.

Tadbirkorlik biznesi aholi bandligi va daromadining o‘sishini ta’minlashda, ayniqsa, bizning sharoitda qanday muhim ahamiyat kasb etishini baholashning o‘zi qiyin. Quyidagi raqamlarni e’tiborga oladigan bo‘lsak, shunday xulosa chiqarish mumkin.

Agar 2005–2011-yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida 5 milliondan ortiq yangi ish o‘rnini tashkil etilgan bo‘lsa, ularning 60 foizdan ortig‘i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hissasiga to‘g‘ri keladi. Buning natijasida hozirgi vaqtda mamlakatimizda ish bilan band bo‘lgan jami aholining 75 foizdan ko‘proq‘i ushbu sohada mehnat qilmoqda.

O‘ylaymanki, ana shu raqamlarning o‘ziyoq ko‘p narsani anglatadi va ijtimoiy-iqtisodiy taraq-qiyotning ishonchli yo‘ldan borayotganidan dalo-lat beradi.

Ikkinchidan, tuzilishiga ko‘ra ixcham, qarorlar qabul qilishda tezkor va harakatchan, yangi tartib-qoidalarni qisqa muddatda o‘zlashtiradigan kichik biznes jahon va mintaqalar bozorlaridagi talab va konyunktura o‘zgarishlariga ancha tez moslashadi.

Uchinchidan, kichik biznesni tashkil qilish va yuritish katta xarajat hamda kapital qo‘yilmalarni talab etmaydi. Bu esa ishlab chiqarishni tez va oson modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik qayta jihozlash, yangi turdagি mahsulotlarni o‘zlashtirish, ularning nomenklaturasini muntaзам yangilab borish va raqobatdoshligini ta’minlash imkonini beradi.

To‘rtinchidan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va salbiy oqibatlariga yirik korxonalarga nisbatan ushbu sohaning bardosh bera olish qobiliyati ancha yuqoridir.

Faqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish hamda ushbu sohaning mamlakatimiz iqtisodiyotida ustuvor mavqega ega bo‘lishi natijasida biz 2008–2009-yillarda

global inqirozning salbiy oqibatlarini ortiqcha qiyinchilik va talafotlarsiz yengib o'tish, ishlab chiqarishni jahon bozori konyunkturasi o'zgarishlarini hisobga olgan holda qisqa mudatlarda qayta tashkil etishga muvaffaq bo'ldik.

Sanoatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik turmog'ining o'sish sur'atlari 2008–2009-yillarda o'rtacha 23–24 foizni, xizmatlar va servis sohasining o'sish sur'atlari esa 15–16 foizdan kam bo'limgan ko'rsatkichni tashkil etdi.

Beshinchidan, kichik tadbirkorlik nafaqat daromad manbayi, balki odamlarning ijodiy va intellektual qobiliyatini ro'yobga chiqarish vositasи hamdir. Mazkur soha har bir kishiga o'z iste'dodi va imkoniyatlarini namoyon etish uchun zamin tug'dirmoqda, shu tariqa tashabbuskor, omilkor, mustaqil faoliyat yurita oladigan, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishga qodir insonlar toifasini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Bir so'z bilan aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'rta sinfni shakllantirish uchun muntazam kengayib borayotgan baza bo'lib xizmat qilmoqda. O'rta sinf esa, ma'lumki, har qanday demokratik jamiyatning asosi bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda aynan shu sohani rivojlantirish hisobidan jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy barqarorlikdan manfaatdor bo‘lgan, mamlakatimizni taraqqiyot va demokratik islohotlar yo‘lidan rivojlantirishda faol kuch bo‘lib maydonga chiqayotgan ijtimoiy qatlam shakllanmoqda.

Ishonchim komilki, ana shu va boshqa omillarni chuqur anglash O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga qaratilgan ulkan e’tiborning sabablarini tushunish imkonini beradi.

Shuni aytishning o‘zi kifoyaki, 20 yil avval O‘zbekistonda xususiy tadbirkorlik deyarli yo‘q edi, bugun esa mavjud barcha xo‘jalik subyektlarining 90 foizdan ortig‘ini kichik biznes korxonalari tashkil etadi. Hozirgi kunda yalpi ichki mahsulotning 54 foizi, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 22 foizi va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 98 foizi aynan shu soha hissasiya to‘g‘ri kelmoqda.

O‘ylaymanki, konferensiya qatnashchilari bizning o‘tgan yillar mobaynida bu sohada erishgan yutuqlarimizni munosib baholaydilar.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, mamlakatimiz tarixida azal-azaldan xususiy tadbirkor-

lik muhim o'rin tutib kelgani ko'p jihatdan kichik biznesning jadallik bilan rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Biz ajdodlarimizdan meros bo'lgan tadbirkorlik an'analari, ota-bobolarimizning asrlar davomida o'z yeri, o'z mulki va kasb-korini e'zozlab, qadrlab, har tomonlama asrab-avaylab kelgani bilan haqli ravishda faxrlanamiz.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Yana bir g'oyat muhim masala, ya'ni O'zbekistonda tadbirkorlik va kichik biznes sohasi aynan qanday prinsiplar asosida, qanday zaminda rivojlanayotgani haqida qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Bu haqda gapirganda, avvalambor, soha rivoji uchun mustahkam qonunchilik va huquqiy baza shakllantirilgani va muntazam takomillashtirib borilayotgani, biznes uchun imtiyoz va preferensiyalar berish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta jihozlash hamda modernizatsiya qilish masalalarida davlat tomonidan tizimli ravishda yordam ko'rsatilayotganini ta'kidlash lozim.

O'tgan asrning 90-yillari boshlaridayoq konstitutsiyaviy norma va tamoyillar asosida qabul qilingan «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-lashtirish to'g'risida», «Mulkchilik to'g'risida»gi

qonunlar qisqa muddatda sanoat, savdo, umumiylar ovqatlanish va xizmatlar sohalaridagi o'n minglab, yuz minglab davlat mulki bo'lgan obyektlarni xususiy mulkka aylantirish uchun sotish, mulkni ijara berish prinsiplarini birinchi navbatda qishloq xo'jaligida joriy etish imkonini yaratdi.

Mamlakatimizda 2000-yilda qabul qilingan «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida»gi Qonun xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy rol o'ynadi. Ushbu qonunda fuqarolarning tadbirkorlik faoliyatida erkin ishtirok etishi uchun barcha asosiy kafolat va shartlar mustahkamlab qo'yilgan, tadbirkorlik va biznes subyektlarining huquqlari hamda qonuniy manfaatlari muhofaza etilgan.

Soliqqa tortish masalasi doimiy ravishda e'tiborimiz markazida bo'lib kelmoqda. Faqat 2005-yildan 2012-yilgacha bo'lgan davrda mikrofirma va kichik korxonalar uchun aylanma mablag'dan olinadigan yagona soliq to'lovi stavkasi 2,5 barobar kamaytirilib, 13 foizdan 5 foizga tushirildi, xalq amaliy san'ati va oilaviy biznes obyektlari esa umuman soliqqa tortilmaydi yoki eng kam stavka bo'yicha soliqqa tortiladi.

Alohida e'tiborga molik jihat shundaki, biz jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida ko'pgina

davlatlar kabi inqirozga qarshi dasturlar doirasida soliq stavkalarini nafaqat oshirmadik, balki aksincha, kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi stavkasini kamaytirdik, xaridorgir bo'lган ишлаб чиқаришга икситослашган корхоналарни 5–7 yilga soliq to'lovidan ozod qildik, ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilaydigan, modernizatsiya qiladigan korxonalarни esa bojxona to'lovlaridan butunlay ozod qildik.

Faqat 2011-yilning o'zida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan soliq imtiyozlarining umumiyligi miqdori 500 million dollardan oshdi. Korxonalar ushbu mablag'ning 35 foizini ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilishga, 25 foizini ishchilarni rag'batlantirishga yo'naltirdi.

Davlatning ishlab chiqarish, ijtimoiy va kommunikatsiya-transport infratuzilmasini rivojlantirishga qo'shayotgan hal qiluvchi hissasini e'tiborga oladigan bo'lsak, uning kichik korxonalar hamda tadbirkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish borasidagi rolini baholashning o'zi qiyin.

Bu borada mamlakatimizda tashkil etilgan «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasini

va «Angren» erkin industrial zonasida yuksak texnologiyalar asosida samarali faoliyat ko‘rsatayotgan biznes subyektlari tajribasini misol tariqasida keltirish mumkin.

«Navoiy» sanoat zonasida muhandislik tarmoqlari, logistika, ta’minot tizimlari qurilishiga davlat tomonidan 100 million dollarga teng miqdordagi mablag‘ sarflandi. Bu o‘nlab zamonaviy ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishga xorijiy sarmoyadorlarni faol jalb qilish imkonini berdi.

Bu yil tashkil qilingan «Angren» sanoat zonasasi uchun umumiyligi qiymati 60 million dollar dan ziyod bo‘lgan ishlab chiqarish infratuzilmasi va kommunikatsiya tarmoqlarini shakllantirish bo‘yicha maxsus dastur ishlab chiqildi va amalga oshirilmoqda.

Bularning barchasi nima uchun, qanday maqsadlarni ko‘zlab amalga oshirilmoqda?

Biz kichik biznes sohasi bunday keng ko‘lamli ishlarni to‘liq o‘z zimmasiga olishi mushkul ekanini yaxshi tushunamiz. Chunki kichik biznes bunday katta xarajatlarni ko‘tara olmaydi. Shuning uchun davlat tomonidan tadbirkor va ishbilarmonlar ehtiyojini to‘liq qondiradigan, ularni rag‘batlantiradigan shart-sharoitlarni yara-

tish maqsadida zarur infratuzilma va kommunikatsiyalar barpo etilmoqda. Bu tabiiy hol va uning mohiyati barchaga ayon bo‘lishi kerak.

Biz bugungi kunda tashkil etayotgan, alohida imtiyozlarga ega bo‘lgan bunday erkin iqtisodiy zonalarga kiritilayotgan xorijiy sarmoyalar miqdori 30 million dollardan ortiq bo‘lsa, o‘sha obyektlar infratuzilmasi yuz foiz davlat tomonidan moliyalashtiriladi.

Ayni ana shu omillar iqtisodiyot va tadbirdirkorlikning jadal sur’atlar bilan o‘sishini ta’minlayotgan, davlatimiz tomonidan ko‘rilayotgan rag‘batlantiruvchi chora-tadbirlar hisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlikni shakllantirish va kengaytirishni rag‘batlantirishda optimallash-tirish va imtiyozli kreditlash masalalari hal qiluvchi omil bo‘lmoqda.

Faqat 2011-yil yakunlariga ko‘ra, ushbu tarmoqni rivojlantirish va rag‘batlantirishga mamlakatimiz banklari tomonidan 2,5 milliard dollarga teng qiymatdagi kreditlar ajratildi, bu berilgan umumiy kreditlar hajmining 26 foizini tashkil etadi.

Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Islom taraqqiyot banki

kabi xalqaro moliya institutlari, BMT tuzilmalari, Arab Muvofiqlashtirish guruhi mamlakatlari, Janubiy Koreya, Xitoy, Germaniya hukumatlari, boshqa davlatlar va tashkilotlar tomonidan bu borada ko'rsatilayotgan katta yordamni yuksak qadrlaymiz. Mazkur davlatlar va tashkilotlar tomonidan o'tgan yillar davomida iqtisodiyotimizning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ini moliyalashtirish uchun 1,5 milliard dollardan ortiq kredit resurslari ajratildi.

Bu haqda gapirar ekanman, O'zbekistondagi barcha tadbirkorlar nomidan va shaxsan o'z nomidan BMT hamda bank tuzilmalari rahbarlari va namoyandalariga, bugungi anjumanimizda ishtirok etayotgan xorijiy davlatlar elchixonalari vakillariga O'zbekistonda biznes sohasining shakllanishi va muvaffaqiyatli rivojlanishiga qo'shayotgan hissasi uchun yana va yana bir bosamimiyl minnatdorlik izhor etaman.

Bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va professional tayyorgarlikka ega bo'lган yoshlargina sifatli, jadal va innovation taraqqiyotning eng muhim sharti va garovi bo'la olishi, aynan ular mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlashi mumkin-

Ilgliga kimnildir ishontirish yoki buni isbotlab berishning hojati yo‘q, deb o‘ylayman.

Ana shu g‘oyat muhim jihatni e’tiborga olgan holda, O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash masalasi davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishi etib belgilangan. Mana, 15 yildirki, mamlakatimizda kadrlar tayyorlashning noyob tizimi amalga oshirilmoqda.

Bu tizimning mohiyati 9+3 tamoyili asosida 12 yillik umumiy majburiy bepul ta’lim tizimiga o‘tishdan iborat. Bunda umumta’lim maktablari-dagi 9 yillik tahsildan so‘ng yoshlar keyingi 3 yil mobaynida kasb-hunar kollejlarida yoki o‘z xohishiga ko‘ra akademik litseylarda o‘qishni davom ettiradi.

Odatda, litseylar oliy o‘quv yurtlari va universitetlar huzurida, maktab ta’limidan keyingi o‘qishni davom ettirish uchun tashkil qilinadi.

O‘tgan yillar davomida qariyb 1,5 ming yangi, eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan o‘rta maxsus, kasb-hunar o‘quv yurtlari – kollejlar barpo etilib, ularda 3–4 ta zamonaviy mutaxassislik bo‘yicha kasb-hunarga ega bo‘lish va kamida ikkita chet tilini o‘rganish imkoniyati yaratilgan.

Faqat so‘nggi 5 yil davomida ushbu o‘quv yurtlarini 2 million 500 ming nafardan ortiq yoshlar tamomlab, hozirgi vaqtda mamlakatimizda yangi barpo etilgan zamonaviy korxonalar va fermer xo‘jaliklarida mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizning saflarini to‘ldirmoqda.

Men ishonaman, siz, aziz mehmonlarimiz – bugungi forum ishtirokchilarining ko‘pchiligi Toshkent, Samarqand, Buxoro va mamlakatimizning boshqa shaharlaridagi kollejlar va litseylarga tashrif buyurib, bo‘lajak kadrlar – mutaxassislar tayyorlash darajasi va sifati bilan tanishish asnosida bu so‘zlarimizga ishonch hosil qilish va ularning amaliy tasdig‘ini ko‘rish imkoniga ega bo‘lganlar.

Men sizlar bilan yana bir o‘ta muhim masala yuzasidan fikrlashmoqchiman.

Biz O‘zbekistonda biznes yuritishni istagan insонlar va, albatta, siyosatchilar, diplomatlar, xorijiy mehmonlar bilan turli mavzularda ko‘p suhbatlashganmiz.

Menga biz bugun barpo etayotgan jamiyat o‘z oldiga qanday maqsadlarni qo‘ygani haqida savol berishganida, men ularga quyidagicha javob beraman.

Agar siz bu savolga to‘liq javob olishni, bizning bu borada amalga oshirayotgan ishlarimizni o‘z ko‘zingiz bilan ko‘rib, ishonch hosil qilishni istasangiz, bizning kollej va litseylarimizga boring. Mayli, hammasiga emas, faqat bir nechtasi-ga borib ko‘ring, deb aytaman.

Aynan shu maskanlarda O‘zbekistonning ertangi kunini ko‘rasiz. Bu dargohlarda yangi avlod voyaga yetmoqda. Biz yigirma bir yildan buyon, milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, mustaqil taraqqiyot yo‘lidan boryapmiz.

Yurtimizdagи bugungi odamlar, bugungi o‘zbekistonliklar erkin fikrlaydigan, o‘z kuchiga ishonadigan, sobiq Ittifoqda mavjud bo‘lgan turli illat va kayfiyatlardan mutlaqo xoli bo‘lgan insonlar-dir. Bu – bizning avlod!

Eski zamonda yuqorida o‘tirib hamma narsani biladigan, hamma narsani hal qiladigan bosh kotib bor, degan kayfiyat bilan yashar edik. Tabiiyki, biz bunday kayfiyat bilan rivojlana olmas edik. Sobiq tuzum aynan shuning uchun ham barbod bo‘ldi, tarqalib ketdi. Chunki u taraqqiy etishga qodir emasdi.

Butun dunyo, demokratik jahon hamjamiyatini qanday rivojlanayotgan bo‘lsa, shunday rivoj-

lanishimiz kerak edi. Biz mustaqillikka erish-ganimizdan so'ng aynan shu yo'lni tanladik.

O'ylaymanki, buning amaliy tasdig'ini ko'raman desangiz, hozirgi yoshlarimiz bilan, oly o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda ta'lim olayotgan, ularni bitirib chiqayotgan yigit-qizlarimiz bilan ko'proq suhbatlashting. Shunda siz bugun O'zbekistonda qanday avlod voyaga yetayotganiga va u o'zining ertangi yorug' istiqbolini qanday tasavvur etayotganiga ishonch hosil qilasiz.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Sir emaski, biznesning erkin faoliyat ko'r-satishining asosiy majburiy shartlaridan biri, birinchi navbatda, **tadbirkorlik erkinligining kuchli huquqiy kafolatlarini ta'minlash, ularni so'zda emas, amalda bajarish, davlat, huquqtartibot, nazorat organlari va tuzilmalari tomonidan ularning faoliyatiga noqonuniy aralashuvlarga chek qo'yish** hisoblanadi.

Tadbirkorlik subyektlarining davlat, huquqni muhofaza etuvchi va nazorat organlari bilan o'zaro munosabatlarida tadbirkorlar huquqlarining ustuvorligi tamoyili qonunchilik darajasida joriy etilgan, bunda qonunchilikdagi har qanday

qarama-qarshilik va nomuvofiq o‘rinlar tadbirkorlar foydasiga talqin qilinishi kerak. Kichik biznes subyektlarida ular ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab uch yil davomida rejali soliq tekshiruvlarini o‘tkazishni taqiqlaydigan va keyinchalik barqaror faoliyat yuritayotgan, soliq qonunchiligi va tartib-intizomga qat’iy rioya qilayotgan soliq to‘lovchilarda tekshiruvlar o‘tkazishni cheklaydigan tartib joriy etilgan.

2005-yildan boshlab tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning ruxsat berish tizimidan xabardor qilish tizimiga o‘tildi. O‘z biznesini ochish uchun tadbirkorga ikki kundan ortiq bo‘lмаган muddat talab etiladi va bu qoida rivojlangan davlatlarda amal qilayotgan mezonlarga javob beradi.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydigan institutsional va bozor infratuzilmasini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tovarxonashyo birjasи bozorda narxlar shakllanishi va yuqori likvidli xomashyo resurslari va tovarlariдан teng foydalanish imkoniyatini yaratishning eng muhim vositasi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda birja savdolarining izchil yo‘lga

qo‘yilgan mexanizmi mavjud bo‘lib, u har bir tadbirkorga xomashyo resurslaridan birja savdolari orqali teng va hech qanday to‘sqliarsiz foydalanish imkoniyatini bermoqda.

Joriy yilda mamlakatimizda eksport qiluvchi korxonalar, shuningdek, xorijiy investorlar uchun qo‘shimcha rag‘bat va imtiyozlar berildi. Shu yilning iyul oyida Xalqaro moliya korporatsiyasi bilan hamkorlikda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada ko‘proq erkinliklar berish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilib, ular asosida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ikkita farmoni qabul qilindi.

Mamlakatimizda statistik, moliyaviy va soliq hisobotlarini taqdim etish, soliq va majburiy to‘lovlarni to‘lash, ro‘yxatga olish va ruxsat berish jarayonlarini amalga oshirish, xo‘jalik sudsulariga da’vo arizalari va tavsiyanomalar kiritish bo‘yicha elektron tizimni keng joriy etish ko‘zda tutilgan bo‘lib, bu o‘z navbatida davlat, nazorat qiluvchi organlar bilan tadbirkorlik subyektlari o‘rtasidagi bevosita aloqalarni sezilarli darajada qisqartirish yoki butunlay bekor qilish imkonini beradi.

Tasdiqlangan choralar joriy yilning 1-avgustidan boshlab biznesni ro‘yxatga olish paytidagi tartib-qoidalar sonini 2 barobar qisqartirish imkonini berdi, ro‘yxatdan o‘tishdan avval birlamchi ustav jamg‘armasini shakllantirish bo‘yicha talab bekor qilindi, tadbirkorlik subyektlarining sud xarajatlari 2,5 barobar qisqartirildi.

Davlatning tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvini tubdan kamaytirish maqsadida joriy yilda ruxsat berishga oid 80 ta tartib-qoida, shuningdek, litsenziyalanadigan faoliyat turlarining 15 tasi bekor qilindi, moliyaviy hisobotlarni topshirishning shakllari va davriyligi 1,5 barobar qisqartirildi. Bundan tashqari, 2013-yilning 1-yanvardidan boshlab 65 ta statistik hisobot shakli va 6 ta soliq hisoboti shaklini bekor qilish, ularni topshirish davriyligini 2 barobardan ziyod qisqartirish haqida qaror qabul qilindi.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, mammakatimizda qabul qilingan qonunchilik talablariga ko‘ra, **davlat organlarining noqonuniy qarorlari, mansabdor shaxslarning xatti-harakati yoki harakatsizligi, shuningdek, qonunchilikka zid tarzda qabul qilingan idoraviy hujjat tufayli tadbirkorlik subyektiga**

yetkazilgan zərər davlat tomonidan qoplanadi.

Hurmatlı anjuman ishtirokchilari!

Bugun biz o‘z mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab tanlab olgan **mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish, tadrijiy rivojlanish yo‘li va mashhur besh tamoyil asosida barpo etiladigan fuqarolik jamiyatini shakllantirish modeli** tarixan qisqa muddatda iqtisodiyotni barqaror rivojlanirishning mustahkam poydevorini yaratishni ta’minladi, jahon molivaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlariga ishonchli ravishda qarshi turish, dunyodagi sanoqli mamlakatlar qatorida iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning yuksak barqaror sur’atlariga erishish imkonini berdi, deb aytish uchun barcha asoslаримиз bor.

So‘nggi 6 yil davomida mamlakatimizda yalpi ichki mahsulot yiliga 8,2 foizdan kam bo‘lmagan sur’atlar bilan o‘sib bormoqda. Yalpi ichki mahsulot, 2000-yil bilan solishtirganda, 2,9 barobar, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 2,6 barobar oshdi, iqtisodiyotga jalb qilingan investitsiyalar hajmi 3,4 barobar, jumladan, to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar miqdori 20 barobardan ko‘proq o‘sdi.

Bu nimadan dalolat beradi? Bu shundan dalolat beradiki, xorijiy sarmoyadorlar bizga ishonmoqda. Bu chet el investorlari kiritgan sarmoyular o‘zini oqlashi va O‘zbekistonda biznes qoidalarining hech qachon buzilmasligiga bo‘lgan ishonchni bildiradi. Shuning uchun ham bizning yurtimizga kiritilayotgan to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning oqimi keskin ortib bormoqda. Demak, biz jahon biznes olamiga, dunyo hamjamiyatiga dadil kirib boryapmiz. Demak, bizga katta ishonch bilan qarashmoqda. Bu biz uchun nihoyatda muhim. Men bu masalaga juda katta e’tibor bilan qarayman.

Osiyo taraqqiyot banki ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromad so‘nggi 7 yil davomida 3 barobar ko‘paygan. To‘lov balansi joriy hisobining doimiy profitsiti ta’minlanmoqda, jami tashqi qarzning yalpi ichki mahsulotga nisbatan 10–12 foiz darajasida bo‘lishiga erishilmoqda, davlat ichki qarzi deyarli nol darajada qolmoqda, yetarli miqdordagi valuta zaxiralari saqlanib turibdi.

Bularning barchasi mehnatkash va mehmondo‘sit xalqimizning mamlakatimizning ertangi

kuniga bo'lgan ishonchini tobora mustahkamla-moqda.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, konferensiyaning barcha ishtirokchilariga yana bir bor o'zimning yuksak hurmatim va samimiy minnat-dorligimni bildirishga ijozat bergaysiz.

O'zbekiston zaminiga xush kelibsiz!

Barchangizga sihat-salomatlilik, baxt va omad yor bo'lishini tilayman.

E'tiboringiz uchun rahmat.

*«O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati» mavzusidagi xalqaro konferensiya ochilishidagi nutq,
2012-yil 14-sentabr*

ZAMONAVIY, GO‘ZAL VA BETAKROR

Poytaxtimizdagi «Bunyodkor» sport kompleksining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ishtirok etdi.

Mamlakatimizda istiqlol yillarida Prezidentimiz rahnamoligida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida beqiyos islohotlar amalga oshirib kelinmoqda. Bolalar sporti, ayniqsa, «millionlar o‘yini» deya ta’riflanuvchi futbol rivojiga yuksak e’tibor qaratilayotgani tufayli futbol O‘zbekistondagi eng ommaviy sport turlaridan biriga aylandi. Zero, e’tibor va g‘amxo‘rlik bor joyda o‘sish, o‘zgarish ro‘y beradi. Yurtimizning eng olis qishloqlariga ham ko‘rk bag‘ishlab turgan betakror sport majmualari, stadionlar, suzish havzalari ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan sa’y-harakatlarning amaliy ifodasidir. So‘nggi yillarda barcha viloyat va tumanlarimizda qariyb 1500 ta zamonaviy bolalar sporti inshooti barpo etilib, zarur jihoz va anjomlar bilan ta’minlangani ham fikrimiz tasdig‘idir.

Prezidentimiz tashabbusi va g'oyasi asosida eng ulug‘, eng aziz ayyomimiz – Mustaqilligimizning 21 yilligi arafasida qurib bitkazilgan, ilgari tasavvur qilishimiz ham qiyin bo‘lgan zamonaviy «Bunyodkor» futbol majmuyi barchamiz uchun ajoyib sovg‘a bo‘ldi.

Mustaqilligimiz bergan imkoniyatlarning hayotimizdagi ifodasi bo‘lgan bu kabi insho-otlar barkamol avlodni tarbiyalash, el-yurtimiz farovonligini yanada oshirishga xizmat qilishi barobarida, xalqimizning buyuk bunyodkorlik sa-lohiyatini ham yaqqol namoyish etib turibdi.

2012-yil, 28-sentabr. Toshkentda «Bunyodkor» sport kompleksining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zлади.

– Bugun biz o‘zbek sporti hayotida, qolaversa, O‘zbekiston tarixida chuqur iz qoldirayotgan kat-ta voqeа – «Bunyodkor» deb nom olgan yangi, zamonaviy, go‘zal va betakror sport majmuasini ishga kiritish marosimiga to‘plandik, – dedi Islom Karimov. – Bu unutilmas voqeанинг аhamiyati va mohiyatiga ramziy ma’no va mazmun beradi-gan yana bir sana – ayni shu kunlarda ko‘pgina ma’lumotlarga ko‘ra o‘zbek futbolining maydon-

ga chiqqaniga roppa-rosa 100 yil to‘lishi, hech shubhasiz, barchamizga alohida ruh va xursand-chilik bag‘ishlaydi, bugungi marosimni haqiqiy tantana darajasiga ko‘taradi.

Shu fursatdan foydalanib, ushbu marosimda qatnashayotgan siz azizlarga qaratib qalbimdag‘i so‘zlarni aytmoqchiman.

Avvalo, mana shu fayzli va shukuhli oqshomda sizlar bilan – qadrli hamyurtlarim, sport va futbol ishqibozlari bilan birga bugungi tantanada qatnashish men uchun katta baxtdir.

Bunday ulug‘vor va hashamatli, o‘zida 7 ta zamnaviy futbol maydonini, bolalar va o‘smirlar futbol maktabi, yotoqxonalar, basseyn va boshqa bir qator kerakli obyektlarni mujassam etgan, jami 56 gektar yerni egallagan bu majmua poytaxtimiz – azim Toshkentimizda qisqa davrda qad rostlagani, haqiqatan ham, barchamizga mo‘jizaday tuyuladi.

Dunyodagi eng zamonaviy sport maskanlaridan kam joyi yo‘q, yirik xalqaro turnirlarni yuqori saviyada o‘tkazishga moslashgan bu bu-yuk inshootga boqib, biz kim edik, bugun kim bo‘ldik, mustaqil bo‘lib taraqqiyot yo‘lida nimalarga, qanday yuksak marralarga erishdik, degan shukronalik hissiyoti beixtiyor qalbimizni

to‘ldiradi, desam, adashmagan bo‘laman, dedi Prezidentimiz.

Hech shubhasiz, bunday go‘zal, har qanday yuksak talablarga javob beradigan salobatli va ko‘rkam sport majmuasini barpo etganimiz biz uchun eng ustuvor, eng oliy maqsad bo‘lmish bolalarimizni, yoshlarimizni ham jismoniy, ham ma’naviy jihatdan sog‘lom avlod etib o‘stirish, sportchilarimiz, futbolchilarimizning jahon sport maydonlarida yuksak marralarni egallashiga, O‘zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishning garovi sifatida xizmat qilajak.

Lo‘nda qilib aytganda, bunday zamonaviy inshootlar O‘zbekistonning kuch-qudratini mustahkamlashda, «O‘zbekiston – kelajagi buyuk davlat» degan shiorni amalga oshirishda ishonchli zamin bo‘lajak.

Davlatimiz rahbari butun xalqimizning dili-dagi orzu-istiklarni ifoda etar ekan, mamlakatimizda bunday buyuk inshootlar ko‘payishi, yurtimiz ko‘rkiga ko‘rk qo‘shishini, ular xalqimizga xizmat qilishini, sportchilarimizga yanada yuksak g‘alabalar yor bo‘lishini, bundan sport muxlislari qalbida faxr-iftixor tuyg‘ulari jo‘sh urishini tiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi yangraydi.

...Maydonga «Umid nihollari», «Barkamol avlod», Universiada musobaqalarini aks ettiruvchi badiiy va sport jamoalari chiqadilar. Ular ijrosida O'zbekistonda sportni rivojlantirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimiz o'rtasida sportni, shu jumladan, futbolni ommalashtirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli ishlarni ifoda etuvchi badiiy kompozitsiyalar namoyish etildi.

Ta'kidlash joizki, yosh avlodning futbol bilan shug'ullanishi uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratib berish, jahon va qit'a championatlari, xalqaro musobaqalarda O'zbekiston sharafini munosib himoya qilishga qodir bo'lgan mahoratli futbolchilar tayyorlashni ta'minlash maqsadida mamlakatimizda qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Xususan, Prezidentimizning 2011-yil 19-yanvardagi «2011–2013-yillarda respublikada futbolning moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va uni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bu borada muhim ahamiyat kasb etayotir. Unda yurtimizda futbolni ommaviylashtirish, futbol bo'yicha maktab-internatlar, bolalar va o'smirlar maktablari, professional futbol klubla-

ri va terma jamoalarda o‘quv-mashq jarayonining yuksak sifatini ta’minlash, futbolchilar, murabbiylar hamda hakamlarning mahorat va malaka darajasini oshirish, stadionlar qurish, mavjudlari ni talab darajasida ta’mirlash kabi ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

«Bunyodkor» stadionida yaratilgan shart-sharoitlar hatto Yevropadagi ayrim dongdor klublar uchun ham havas qilishga arzigulikdir. Futbolni rivojlantirish, o‘zbek futbolining yorqin kelajagini ta’minlovchi iste’dodli sportchilarni tarbiyalash maqsadida «Bunyodkor» futbol majmuasida bolalar va o’smirlar futbol maktabi barpo etilgan. Ushbu maktab kelajakda xalqaro maydonlarda Vatanimiz sharafini munosib himoya qilishga qodir, iqtidorli va istiqbolli futbolchilarni tarbiyalash uchun mo‘ljallangan. Bu yerda o‘quvchilarning puxta bilim olishi, o‘z iqtidor va mahoratini oshirishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan.

...Yon-atrofga qaraymiz. Quvonchdan, hayratdan ko‘zları yonib turgan yoshlar zo‘r hayajon og‘ushida stadionni tomosha qilishmoqda. Chindan ham oqshom chog‘i tashqi tomondan qara-ganda ham, ichkariga kirganda ham kamalakdek tovlanayotgan, ko‘zni qamashtiruvchi jozibaga

ega «Bunyodkor» stadioni xalqimizning bunyodkorlik salohiyatini yuksak darajada butun borliqqa namoyon etib turibdi.

— Bunday chiroyli stadionni ilk marotaba ko'rib turishim, — deydi tantanaga tashrif buyurgan mehmonlardan biri, o'zini qo'shrabotlik Azamat Jaynarov deb tanishtirgan yigit. — Ushbu futbol majmuyini televizor orqali tomosha qilib, rosa havasim kelgandi. Mana, bugun o'z ko'zim bilan ko'rdim. Bundan boshim osmonga yetdi. Ta'riflashga til ojiz. Xuddi mo'jizalar olamiga tushib qolgandek his etayapman o'zimni. Prezidentimizga mingdan ming rahmat. Istiqlol sharoфati, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan yetib bo'lmas orzu-umidlarimiz ro'yobini ko'rayapmiz. Bunday ezgu ishlar uchun nafaqat sportchilarimiz, balki har birimiz yuksak mas'uliyatni his etib, Vatanimiz taraqqiyoti yo'lida kamarbasta bo'lmosg'imiz shart.

Mamlakatimizda sportning barcha turlari qatorni futbolni rivojlantirish, yuksak mahorat va professional ko'nikmalarga ega yosh futbolchilarni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz rahbarining 2006-yil 1-mayda qabul qilingan «O'zbekistonda futbolni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qaroriga

binoan Futbolni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tuzilgan. Mazkur hujjatga muvofiq, yurtimizda yangi stadionlar barpo etilmoqda, mavjudlari rekonstruksiya qilinmoqda, bolalar va o'smirlar futbol maktablarini zamonaviy sport inventarlari bilan ta'minlash, malakali murabbiylar va hakamlar tayyorlash ishlarini yanada kuchaytirish yuzasidan keng ko'lami ishlar olib borilmoqda.

Eng zamonaviy talablar asosida qurilgan «Bunyodkor» stadioni Vatanimiz bo'ylab izchil davom etayotgan bunyodkorlik ishlarining amaldagi yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 34 ming o'rinali stadion tribunalarida tomoshabinlar uchun mo'ljallangan o'rinalar pastki va yuqori qavatlarga bo'lingan. Shuningdek, bu yerda nogironlar uchun mo'ljallangan alohida sektor mavjud. Stadionda sportchilar va muxlislar uchun yaratilgan sharoit hamda qulayliklar eng zamonaviy talablarga javob beradi. Xususan, birinchi qavatda sportchilar, hakamlar, murabbiylar, futbol ma'murlari uchun mo'ljallangan xonalar, oshxonalar, matbuot anjumanlari zali, futbol klubi muzeyi mavjud. Stadionning ikkinchi qavatida uchta restoran, fitnes markazi barpo etilgan.

«Bunyodkor» stadionining muhandislik ta'minotiga alohida e'tibor bilan yondashilgan.

11x7,5 metr o'lchamdagি ikkita videotable muxlislarga futbol uchrashuvini har tomonlama ko'rish imkoniyatini beradi. Tashrif buyurgan muxlislarga ma'lumotlarni tez va sifatli yetkazish imkonini yaratadigan zamonaviy audiosistema, reklamalarni namoyish qilish uchun futbol maydoni chetida videobort moslamalari o'rnatilgan. Musobaqalarni to'g'ridan to'g'ri efirga uzatuvchi tele va radiotranslatsiya tizimi, sharhlovchilar xonasi xalqaro standartlar darajasida.

...Tantana davomida mamlakatimizning ikki nomdor jamoasi – «Bunyodkor» hamda «Paxtakor» futbolchilari maydonga chiqishdi. FIFA referisi, Osiyoning to'rt karra eng yaxshi hakami Ravshan Ermatov boshqarib borgan bellashuvda durang natija – 3:3 hisobi qayd etildi. Minglab muxlislarning qo'llab-quvvatlab turishlari, har bir kiritilgan golning olqishlanishi kechaga alohida ko'tarinkilik baxsh etdi.

Davlatimiz rahbari Islom Karimovning futbolni rivojlantirishga qaratayotgan doimiy e'tibori va g'amxo'rliги o'zining beqiyos samaralarini bermoqda. FIFA referisi Ravshan Ermatovning jahon futboldagi yuksak mavqeyi, nogiron-amputant futbolchilarimiz ikki marotaba jahon championligiga sazovor bo'lgani, yosh

futbolchilarimizning Meksikada o'tgan jahon championatidagi muvaffaqiyatli ishtiroki, «Bunyodkor», «Paxtakor», «Neftchi», «Nasaf» kabi klublarimizning Osiyo championlar ligasi va Osiyo futbol konfederatsiyasi kubogi bellashuvlaridagi qiziqarli o'yinlari buning dalilidir.

FIFA prezidenti Yozef Blatter mamlakatimizga tashrif buyurganida, «Sizlarning bolalaringiz mutlaqo boshqacha. Ularning ko'zlari yonib turadi», degan edi. Nufuzli tashkilot rahbarining, umuman, xalqaro hamjamiyatning O'zbekiston farzandlari haqida bildirayotgan bunday bahosi, albatta, har birimizga faxr bag'ishlaydi.

«Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi!» Prezidentimiz tomonidan yuksak ishonch va ezgu orzu-umid bilan aytilgan bu qanotbaxsh so'zlarning naqadar hayotiyligini vaqtning o'zi tasdiqlamoqda. Ishonchimiz komilki, bunday qulay sharoitlar, yaratib berilayotgan beqiyos imkoniyatlar barcha sportchilarimiz qatori futbolchilarimizni ham hech kimdan kam emasligini dunyo uzra namoyon etishga, jahon arenalarida ona Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilishga undaydi.

...Tantanada san'atimiz ustalari va yosh iste'dod sohiblari ijrosida yangragan qo'shiqlarda

Vatan, Istiqlol tarannum etildi. Xalqimiz bunyodkorligi sharaflandi. Qo'shiqlar ohangida yonatrosda minglab nurafshon chiroqlar yog'dusi jo'shqinlikni aks ettirdi. Sharlar havoga ko'tarilib, musaffo osmonimiz uzra rang-barang mushaklar otiladi. Biri-biridan chiroyli manzaralar, ko'rinishlar namoyon bo'ladi. Bu go'zallik, baravj xonishlar, yurtdoshlarimizning zavq-shavqi dilda eng aziz tuyg'u – Vatanga muhabbat hissini jo'sh urdiradi.

2012-yil 28-sentabr

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARI

Qadrli ustoz va murabbiylar!

Muhtaram yurtdoshlar!

Bugun, mana shu qutlug‘ ayyomda barchamiz uchun eng aziz, eng qadrli bo‘lgan farzandlari-mizga bilim va tarbiya berishdek ulug‘ ishga butun borlig‘ini bag‘ishlagan siz, hurmatli o‘qituvchi va murabbiylarni chin qalbimdan tabriklab, ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyorman.

Aziz do‘sstar!

Haqiqatan ham, dunyodagi ming-minglab kasblar orasida ikkita buyuk kasb – shifokorlik va o‘qituvchilik kasbi borki, ular, toki hayot bor ekan, o‘zining ma’no-mazmuni va olivjanobligini, ahamiyati va hurmatini hech qachon yo‘qotmaydi.

Bugun biz O‘qituvchi va murabbiylar kuni deb nom olgan go‘zal bayramimizni nishonlar ekanmiz, o‘zining iste’dodi va mahoratini, ko‘z nuri va qalb qo‘rini baxsh etib, yosh avlodimizga bilim, ilm-u fan sirlari va odamiylik saboqlarini o‘rgatadigan sizdek mo‘tabar zotlarga har qancha tahsin va tasannolar aytsak, arziydi, albatta.

Shu bois bugun sizlarning qo'lingizda ta'lif va tarbiya, hayotga yo'llanma olgan, o'zini sizlarning oldingizda umrbod qarzdor deb his etadi-gan barcha insonlar nomidan, o'quv maskanlarida ta'lif olayotgan millionlab o'quvchilar nomidan «Rahmat sizga, muallim, ta'zim sizga, ustozlar!» deb minnatdorlik bildirishimiz har tomonlama o'rinnlidir.

O'zbekistonimizning taraqqiyoti yo'lida, biz o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga ko'tarilishdek ulug'vor vazifani amalga oshirishda siz azizlarning qo'shayotgan beqiyos hissangizni baholash uchun yana bir fikrga alohida to'xtalish zarur, deb bilaman.

Hech kimga sir emas, bugungi kunda faqat yuksak bilimli, zamonaviy, mustaqil fikrlaydigan, intellektual rivojlangan va amaliy kasb-hunarlargacha ega bo'lgan yoshlargina mamlakatning buyuk kelajagini ta'minlashi mumkin.

Ana shunday o'ta og'ir va o'ta dolzarb, istiqbolimizni hal qiladigan maqsadga erishish uchun ta'lif sohasida chuqur va puxta o'ylangan milliy dasturlarimizni tayyorlash va amalga oshirishda bizning oxirgi 15 yil davomida qilgan ishlarimizni butun dunyo tan olmoqda.

Buning yaqqol tasdig‘ini shu yil fevral oyida Toshkent shahrida «Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusida bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya misolida ko‘rish mumkin. Ana shu anjumanda BMT va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning vakillari, dunyodagi eng dong‘i chiqqan universitetlarning olim va professorlari tomonidan O‘zbekistonning bu sohada erishgan yutuqlari, mamlakatimizning ta’lim modeli yuksak e’tirof etilgani Vatanimizning jahondagi obro‘-e’tiborini yangi bosqichga ko‘tarishga katta xizmat qildi, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Yoshlаримизнинг ong-u tafakkurini, butun hayotini tubdan o‘zgartirib borayotgan, ilg‘or xorijiy tajribалами, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan bunday dasturlarni amalga oshirish, avvalo, siz azizlarning og‘ir va murakkab mehnatingiz evaziga bo‘layotganini hech kim hech qachon inkor etolmaydi. Va sizlarning bu ezgu maqsadga erishish yo‘lidagi oliyjanob xizmatlarингизни, yurtimizda erkin, obod va farovon hayot qurish borasida ko‘rsatayotgan fidoyiligингизни ja Miyatimiz, xalqимиз doimo yuksak qadrlaydi.

Shu ma'noda, 1-oktabr sanasini bundan 16 yil oldin mamlakatimizda O'qituvchi va murabbiylar kuni – umumxalq bayrami deb e'lon qilganimiz siz, azizlarga, sizlarning mashaqqatli, shu bilan birga, sharaflı mehnatingizga el-yurtimiz, shaxsan o'zimning yuksak hurmat va ehtiromimning yaq-qol ifodasi, desam, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.

O'zbekistonning ta'lim sohasiga qaratayotgan ulkan e'tiborini tasavvur qilish uchun quyidagi ba'zi bir raqamlarni keltirish o'rinali, deb o'ylayman.

Mamlakatimizda har yili davlat budjeti xarakatlar qismining 35 foizdan ziyodi ta'lim sohasiga yo'naltirilmoqda. Keyingi o'n yilda o'qituvchi va murabbiylarning maoshi iqtisodiyotimizning real sohasidagi ish haqi miqdoridan o'rtacha 1,5 barobar ko'p o'sgani, pedagog xodimlar mehnatini baholash va rag'batlantirishning zamonaviy tizimi joriy etilganini alohida qayd etish lozim.

Shu o'rinda yana bir misolga e'tiboringizni jalb etmoqchiman.

O'zbekistonda ta'lim sohasini rivojlantirish va isloh etishga yo'naltirilayotgan yillik xarakatlar yalpi ichki mahsulotning 10–12 foizini tashkil etmoqda. Vaholanki, dunyodagi ko'plab mamlakatlarda bu ko'rsatkich 2–5 foizdan oshmaydi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda 9763 ta umumta'lim maktabi, 300 dan ziyod musiqa va san'at maktabi, 143 ta akademik litsey, 1406 ta kasb-hunar kolleji, 59 ta oliy o'quv yurtida katta hajmdagi qurilish va rekonstruksiya ishlari olib borilgani, ularning moddiy-texnik va o'quv-metodik bazasi mustahkamlanib borayotgani ta'lim tizimida biz amalga oshirayotgan islohot-larning miqyosi va ko'lami naqadar ulkan ekani-dan dalolat beradi.

Qadrli vatandoshlar!

Bugun dunyoda, yon-atrofimizda ro'y berayotgan notinchlik, qarama-qarshilik va ziddiyatlar, hech shubhasiz, hammamizni o'ylan-tirishi tabiiy.

Men siz, hurmatli o'qituvchi va murabbiylar-ni bu muammolarning barchasini qalbidan, yura-gidan o'tkazib, ulardan to'g'ri xulosa chiqarib yashaydigan insonlar sifatida bilaman.

Ayrim qabih kuchlar tomonidan o'zining strate-gik maqsadlarini ko'zlab, yovuz niyat bilan amalga oshirilayotgan bunday g'arazli ishlardan xal-qimizni, ayniqsa yoshlарimizni ogoh etish, millat va elatlarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishga urinishlarning haqiqiy ma'nosini, ularning qan-day og'ir oqibatlarga olib kelishi mumkinligini

ochib berishda, odamlarni hushyor va sezgir bo‘lib yashashga, musaffo osmonimizni, tinch hayotimizni ko‘z qorachig‘idek asrash va qadrlashga da‘vat etishda men birinchi navbatda sizlarga ishonaman va bundan buyon ham barchangizni o‘zimning maslakdoshim, deb bilaman.

Men davlat rahbari sifatida siz jonkuyar muallim, murabbiy va domlalarning, barcha ma’rifat ahlining o‘z tanlagan kasbingizdan rozi va mamnun bo‘lib yashashingiz uchun, Vatan oldida, kelajak oldida qilayotgan ulug‘ xizmatlaringizni munosib taqdirlash, hayotimizda yuksak obro‘-e’tibor topishingiz uchun ham qonuniy, ham moddiy, ham amaliy zamin tug‘dirib berishni o‘zimning nafaqat vazifam, balki sharaflı burchim, deb hisoblayman.

Aziz va muhtaram ustozlar!

Sizlarni O‘qituvchi va murabbiylar kuni – umumxalq bayrami bilan yana bir bor samimi tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt-u saodat, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik tilayman.

Umrингиздан baraka topping, hech qachon kam bo‘lmang, qadrli ustozlar!

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.*

2012-yil 28-sentabr

XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASIDAGI NUTQ

9-oktabr kuni xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi bo‘lib o’tdi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zлади.

Davlatimiz rahbari, avvalo, bu voha boshqa hech qaysi hudud bilan qiyoslab bo‘lmaydigan tabiat, saxovatli tuprog‘i, ko‘hna tarixi va boy madaniyati, mana shu yerda har qanday qiyinchiлик va sinovlarga bardosh berib, ona yurtiga sadoqat bilan yashayotgan, o‘z kuchiga ishongan, o‘z qadr-qimmatini yaxshi biladigan, mard va matonatli odamlar yurti ekanini, samimiylilik, to‘g‘rilik, qanday achchiq bo‘lmasin, haqiqatni ochiq aytish, mavjud vaziyatni haqqoniy baholash kabi xususiyatlar aynan shu Xorazm eliga mansubligini, bunday fazilat va alomatlarni yuqori baholab, viloyat ahliga yana bir bor o‘zining yuksak hurmatini izhor etishini ta’kidladi.

Bugungi kunda butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi, Xorazm viloyatida ham barqaror o‘sish

sur'atlari ta'minlanib, katta yutuq va marralar qo'lga kiritilmoqda. Buning tasdig'ini viloyat mehnatkashlari turli tarmoqlarda – bu sanoat, qurilish, qishloq xo'jaligi, madaniyat, sog'liqni saqlash, ilm-u fan, ta'lim-tarbiya, sport sohalari bo'ladimi – bularning barchasida erishayotgan salmoqli natijalar misolida ko'rish, kuzatish mumkin.

Viloyat iqtisodiyoti tobora yuksalib, joriy yil yakuni bo'yicha 9 foizga yetishi kutilmoqda. Sanoat sohasida oxirgi besh yil mobaynida 40 foizdan ziyod o'sishga erishildi. Ushbu tarmoqni rivojlantirish, uning salohiyatini oshirishda so'nggi vaqtda mamlakatimiz miqyosida o'zini oqlagan ijobjiy tajriba viloyatda keng qo'llanilmoqda. Ya'ni, iqtisodiy nochor korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun ularning tijorat banklari balansiga o'tkazilayotgani Xorazm vohasida ham ijobjiy natija bermoqda.

Hozirga qadar viloyatdagi kasodga uchragan 22 ta korxonaga 21 milliard so'mdan ziyod investitsiya yo'naltirilib, ularda raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Shu asosda 2 mingga yaqin ish o'mni qayta tiklangani, jumladan, Hazorasp ip-yigiruv fabrikasi, «Unixo» qo'shma

korxonasi, «Hazorasp gilamlari» kabi 12 ta korxonaning ishlab chiqarish quvvati modernizatsiya qilingani e'tiborga molik.

Yengil sanoat sohasi rivojlanishida «Bog'ot tekstil», «Kottonteks», «Darital tekstil», «Jilasun», «Koboteks» va «O'ztek Shovot» kabi korxonalarining hissasi katta bo'lmoqda.

Men bugun fermerlar bilan uchrashganimda, «O'ztek Shovot» korxonasining ishga tushgанини eshitib, xursand bo'ldim. Shovotlik fermerning aytishicha, odamlar har kuni bu zamonaviy bino ni tomosha qilib o'tayotgan ekan. Bu ko'p narsani bildiradi. Bu bino shunchaki chiroy berish uchun emas, balki qishloqda yashayotgan ayollarni, qizlarimizni ish bilan ta'minlash, ularning hayotini yaxshilashga xizmat qilishini odamlar yaxshi tu-shunadi, dedi Prezidentimiz.

Sessiyada viloyat iqtisodiyotining o'sish sur'atlari, barcha tarmoqlarning rivojlanayotgani e'tirof etilgan holda, yalpi hududiy mahsulot tar-kibida sanoat sohasining ulushi mamlakatimiz bo'yicha erishilgan marralardan ancha orqada qolayotgani qayd etildi.

Shu haqda gapirganda, muhim bir masalani esimizdan hech qachon chiqarmasligimizni istardim, dedi Yurtboshimiz. Xorazm vohasini ta-

raqqiy topgan hududlar qatoriga chiqarish, biz ko'zlagan ko'pgina marralarga erishish yo'lida, avvalo, odamlarni ish bilan ta'minlash, daromadini oshirishda, ishlab chiqarish sur'atlarini o'stirish, qolaversa, butun Xorazm o'lkasining qiyofasini o'zgartirishda aynan sanoat sohasining rivoji ustuvor o'rinni egallashi kerakligini anglab olishimiz zarur.

Biz bu haqda ko'p gapiramiz, lekin amaliy ishlarga kelganda, bu sohada bирyoqlama rivojlanish, asosan, yengil sanoat hisobidan o'sish bo'layotganidan ko'z yumib bo'lmaydi. Xorazm viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xususan, tomat ishlab chiqarishni keng yo'lga qo'yish kerak. Mavjud konserva zavodlarining texnik uskunalarini eskirganini hisobga olgan holda, zamonaviy texnologiyalar asosida ishlaydigan yangi korxonalarini qurish lozim.

Qishloq xo'jaligida joriy mavsumda ham qiyinchiliklar kam bo'lmadi. Lekin shunga qaramasdan, hosil yaxshi bo'ldi. Bu yil xudoning o'zi yo'limizni ochib berdi. Lekin kelgusi yilda bunday sharoit bo'lmasi ligi mumkin. Shuning uchun shartnoma tuzayotganda chuqur o'ylab ish tutish, fermerlarning manfaatlarini har tomonlama hisobga olish kerak. Bugun fermer-

lar paxtaning katta daromad berishini yaxshi tushunyapti, lekin jahon bozorida uning narxi o‘ynab turganini ham esdan chiqarmaslik lozim. Shu ma’noda, fermerlar nafaqat dehqon, nafaqat agronom, balki, avvalo, iqtisodchi bo‘lishi kerak. Manfaat va yana bir bor manfaat ustun bo‘lishi zarur.

Xorazmda boshqa ekinlar qatorida sholi ham ekish mumkin. Lekin shartnoma majburiyatlarni – bu g‘allachilik bo‘ladimi, paxtachilik bo‘ladimi – so‘zsiz bajarganidan keyin ekish zarur. Davlat fermerning manfaatini ko‘zlashi, fermer ham davlatning manfaatini unutmasligi darkan. Shundagina adolat bo‘ladi, shundagina ishda tartib bo‘ladi, dedi Islom Karimov.

Majlisda bunday vazifalarni amalga oshirish uchun har tomonlama chuqur o‘ylangan, Xorazm vohasining sharoiti va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, hukumatimiz boshchiligidagi alohida dastur ishlab chiqish va amalga oshirish vaqt kelgani uqtirib o‘tildi.

Bu dasturda faqat yengil sanoatni emas, balki mashinasozlik, qurilish materiallari ishlab chiqarish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirishga, mamlakatimizda ko‘p yillar davomida sinab kelinayotgan tajriba – ya’ni taraqqiy topgan davlat-

larning firma va kompaniyalari bilan birgalikda qo'shma korxonalar tashkil etish eng to'g'ri va o'zini oqlaydigan yo'l ekaniga e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlandi.

Qo'shma korxonalarni tashkil etishning eng afzal va ustuvor tomoni shundaki, bizga sherik bo'lgan xorijiy kompaniyalar hisobidan investitsiyalar olib kelish, shu bilan birga, mana shu korxonalarda biz ishlab chiqaradigan mahsulot-larning chet davlatlarda bozorini, xaridorini topish kabi jiddiy muammolarni yechish ham ancha oson bo'lishini tushunish, anglash qiyin emas, al-batta, dedi Islom Karimov.

Shu ma'noda, bugungi kunda Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari soni 2000-yilga nisbatan 1,6 barobar oshib, sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi esa 60,5 foizni tashkil etayotgani alohida e'tiborga sazovor.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida joriy yilda tijorat banklari tomonidan 172 milliard so'mlik kreditlar ajratilib, bu ko'rsatkich keyingi besh yil davomida 3,5 barobar o'sganini qayd etish joiz.

Shu yilning 9 oyida yaratilgan 47 mingdan zi-yod yangi ish o‘rnining 60 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisobidan tashkil etilgani, ish bilan band aholining 80 foizga yaqini aynan shu tarmoqda mehnat qilayotgani bu sohaning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyati ham beqiyos ekanini ko‘rsatadi.

Bu haqiqat yaqinda Toshkent shahrida «O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli va ahamiyati» mavzusida o‘tkazilgan xalqaro konferensiyada yana bir bor o‘z tasdig‘ini topdi. Ana shu anjumanda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki va boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlarning va-killari, dunyodagi 45 dan ortiq xorijiy davlatdan 250 nafarga yaqin ko‘zga ko‘ringan iqtisodchilar, olimlar, biznes olamining yirik namoyandalari ishtirok etdi. Ularning hammasi bir narsaga tan beryaptiki, O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji uchun har tomonlama qulay sharoit yaratilgan. Ular bu soha nafaqat iqtisodiyotni, balki odamlarni, butun aholining ong-utafakkurini, hayotini tubdan o‘zgartirmoqda, deb e’tirof etayotgani barchamizga mammuniyat yet-

kazadi va bundan yigirma bir yil oldin iqtisodiyotimizni isloh qilish maqsadida biz tanlagan yo'l – o'zbek modeli naqadar to'g'ri ekanini yana bir marta tasdiqlaydi.

Xorazm viloyati uchun xizmat ko'rsatish bilan bog'liq muhim sohalardan biri – bu turizm ekanini barchamiz yaxshi bilamiz, dedi davlatimiz rahbari. Turizm infratuzilmalarini, xususan, Urganch va Xiva shaharlarida ixcham mehmonxonalar tizimini rivojlantirish, sayyoohlarga xizmat ko'rsatadigan inshootlarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi 10 yilda mehmonxonalar soni qariyb to'rt barobar ko'paygani, sayyoqlik firmalarini tashkil etish ishlari faollashgani natijasida Xorazm viloyatiga tashrif buyurayotgan mehmonlar soni 3 barobardan ziyod ortdi. Shu bilan birga, sessiyada bu yo'nalishda hali juda ko'p ish qilish kerakligi ta'kidlandi. Xususan, sayyoohlар sonini yanada oshirish uchun chet davlatlarga qatnaydigان charter reyslarni, xorijiy mehmonlarga xizmat ko'rsatadigan yangi obyektlar sonini ko'paytirish, turizm infratuzilmasini rivojlantirish ana shunday vazifalar qatoriga kiradi.

Xorazm viloyatida zamonaviy yo'l va kommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish masalasiiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda bu yo'nalishda tasdiqlangan dastur doirasida viloyat hududidan o'tadigan xalqaro va davlat ahamiyatiga molik 230 kilometrdan ortiq avtomobil yo'llarida keng ko'lamli qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Shuningdek, 750 metr uzunlikdagi 5 ta ko'priksi qurish va rekonstruksiya qilish bo'yicha qariyb 322 milliard so'm hajmidagi ish bajarilmoqda. Yaqinda «Buxoro – Nukus» avtomobil yo'lining Xorazm viloyatini mamlakatimizning boshqa hududlari bilan bog'laydigan 60 kilometr uzunlikdagi tarmog'i qurib bitkazildi. Joriy yil oxiriga qadar ana shu yo'nalishda yana 40 kilometr yo'l qurilib, transport qatnovi ochiladi.

Mustaqillik yillarda 341 kilometr uzunlikdagi «Navoiy – Uchquduq – Sulton Uvaystog‘ – Nukus» temiryo'lining ishga tushirilishi, hech shubhasiz, shimoliy hududlarimizning qiyofasini butunlay o'zgartirib, Xorazm vohasining rivojini mutlaqo yangi bosqichga ko'tarishda katta o'rinc olganini izohlab berishning hojati yo'q.

Aytish kerakki, bu yo'lning mohiyati va qimmati yillar o'tishi bilan yanada ortib boradi. Bu yo'l

mintaqadagi boy yer osti zaxiralarini o‘zlashtirish, yangi ish o‘rinlarini tashkil etish, oldimizda turgan ulkan rejalarни amalga oshirishda so‘zsiz beqiyos ahamiyat kasb etadi, deb qayd etdi Prezidentimiz.

Sobiq Ittifoq davrida Amudaryodan ponton ko‘priklar orqali yo‘lovchilar va transport qatnovi qanday qiyinchilik va xavf-xatarlar bilan amalga oshirilar edi. Keyingi yillarda Amudaryo uzra bir emas, ikkita ulkan, muhtasham ko‘prik barpo etildi va shu tariqa yillar davomida yechilmasdan kelgan o‘ta muhim iqtisodiy-ijtimoiy masala hal qilindi.

Viloyatda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlar yanada keng miqyosda davom ettirilishi sessiyada qayd etib o‘tildi. Bu borada kelgusi besh yilda yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish uchun viloyat bo‘yicha 450 milliard so‘mga yaqin mablag‘ yo‘naltirish ko‘zda tutilmoxda, dedi davlatimiz rahbari.

Ma’lumki, Xorazm vohasi o‘zining ko‘p ming yillik qishloq xo‘jalik madaniyatiga ega, o‘z ishining chinakam ustasi va fidoyisi bo‘lgan mirishkor dehqonlar aynan shu zaminda nom qozongan.

Viloyat fermerlari bu yilning o‘zida 132 ming tonnadan ziyod don yetishtirib, shartnoma majbu-

riyatini ortig‘i bilan bajarishga va qariyb 70 milliard so‘m daromad olishga erishganlari tafsinga munosibdir. Shu kunlarda esa, xorazmlik mohir paxtakorlar 258 ming tonnalik yuksak xirmon bunyod etish yo‘lida fidokorona mehnat qilib, ko‘zlagan marraga tobora yaqinlashmoqda.

Xorazm viloyatida yer sharoitining og‘ir holati, tuproqning sho‘rlanishi qanday katta va mashaqqatli mehnatni talab qilishini vohadagi yerkarning 54 foizi kuchsiz, 33 foizi o‘rtacha, 13 foizi esa kuchli sho‘rlangani ham isbotlab beradi. Bunday murakkab sharoitda dehqonchilik qilish, yuqori hosil olish, ochig‘ini aytganda, hammaning ham qo‘lidan kelmaydi. Buning uchun qancha-qancha mehnat, qancha mahorat, o‘z kasbiga, o‘z yeriga sadoqat, qolaversa, katta mardlik talab qilinishi dehqonchilik bilan tanish odamlarga yaxshi ayon.

Birgina mana shu mavsumni oladigan bo‘lsak, voha mehnatkashlari ko‘plab tabiat noqulayliklari va iqlim qiyinchiliklariga duch kelganini ko‘rish, kuzatish qiyin emas. Xususan, o‘tgan yili noyabr oyidayoq sovuq va ayoz kunlarning boshlanib ketgani, qishning uzoq davom etgani yerni shudgorlash, sho‘r yuvish, kuzgi ekinlarni saqlab qolishda dehqonlar uchun katta muammolarni tug‘dirdi.

Yoz faslida esa qirq kun davomida havo haroratining keskin yuqori bo'lib turgani, jazirama qum va tuz bo'ronlari hosil taqdirini xavf ostida qoldirib, Xorazm dehqonlarini yana bir bor jiddiy sinovdan o'tkazdi.

Prezidentimizning, shu fursatdan foydalanib, men mana shu yuksak minbardan turib, bunday og'ir vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqayotgani uchun Xorazmning mirishkor dehqonlari va fermerlari, barcha mehnatkashlari oldida ta'zim qilishni o'zim uchun ham qarz, ham farz, deb bilaman, degan so'zlari sessiya ishtirokchilari tomonidan qizg'in olqishlar bilan kutib olindi.

Qishloq xo'jaligida mo'l hosil yetishtirishning omil va mezonlari ko'p. Ob-havoning qulay kelishi, navning to'g'ri tanlanishi, agrotexnik tadbirlarning o'z vaqtida sifatli o'tkazilishi, eng muhim, dehqonlarimizning yer bilan tillashib, unga butun mehrini berib ishlashi – ana shular jumlasidandir. Shular qatorida yana bir o'ta muhim omil borki, dedi Islom Karimov, bu tuproq unumдорligini oshirish, yerning meliorativ holati va irrigatsiya tizimini yaxshilash bilan bog'liq. Ushbu maqsadda qabul qilingan maxsus dastur doirasida so'nggi besh yilda Xorazm viloyatiga davlat budgetidan

80 milliard so‘mga yaqin mablag‘ ajratildi, bu esa mamlakatimizda shu borada ajratilgan mablag‘ning 11 foizini tashkil etadi. Ana shu mablag‘ hisobidan 220 kilometrlik kollektor-drenaj tarmoqlarida qurilish va rekonstruksiya, 6,5 ming kilometrlik tarmoqda esa ta’mirlash va tiklash ishlari amalga oshirildi. Buning natijasida viloyat bo‘yicha 170 ming hektardan ziyod sug‘oriladigan maydonning meliorativ holati yaxshilandi.

Eng muhim, ana shu hududlarda paxta hosildorligi o‘rtacha 2,3 sentnerga, g‘alla hosildorligi esa 2,7 sentnerga ko‘paygani Xorazm dehqon va fermerlarining kosasini oqartirishga, daromadlari ni oshirishga xizmat qilmoqda.

Bu borada boshlangan ishlarni izchillik bilan davom ettirish maqsadida kelgusi besh yilda davlat budgetidan Xorazm viloyatiga yana 225 milliard so‘m mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoqda. Bundan tashqari, yangi yildan boshlab viloyatdagi irrigatsiya tizimlarini rekonstruksiya qilish bo‘yicha Islom taraqqiyot bankining 90 million dollardan ziyod kredit mablag‘ini jalb etgan holda, umumiyligi qiymati 120 million dollar bo‘lgan loyihani amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.

Ana shunday keng ko‘lamli ishlar natijasida 144 ming gektarga yaqin sug‘oriladigan yerning meliorativ holatini, 225 ming gektardan ortiq yerning esa suv bilan ta’milanishini yaxshilashga erishiladi.

Xorazm vohasida xalqimizni boqadigan yerning meliorativ holatini yaxshilash, unumdorligini oshirishga qaratilgan katta kuch va mablag‘lar sarflash bilan birga, qishloq xo‘jaligi sohasi samarasini oshirishda o‘z yechimini kutayotgan ishlar hali ko‘p ekaniga majlisda alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, ishni to‘g‘ri tashkil qilish, ilg‘or va sinalgan agrotexnik tajribalarni keng yoyish, 15–25 yil davomida ishlatib kelinayotgan, es-kirgan qishloq xo‘jaligi texnikasini zamonaviy traktor va mexanizmlar bilan almashtirish, Xorazm sharoiti va iqlimiga, shu tuproqqa mos keladigan sifatli urug‘ va yangi navlarni yetishtirish va joriy etish, fermerlik harakatining oldida turgan ko‘pgina vazifalarni hal qilish va uning samadorligini oshirish kabi o‘ta muhim, alohida e’tiborni talab qiladigan muammo va masalalar ustida ishlash dolzarb vazifalardan ekani qayd etildi. Bu borada, avvalambor, viloyat rahbariyati va jamoatchiligi, mavjud ilmiy muassasalar,

tajribali agronom va mutaxassislarning o‘rni va mas’uliyati katta ekaniga urg‘u berildi.

Biz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab inson manfaatlarini ta’minlash masalasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o‘zgarishlarning mazmun-mohiyatini belgilab kelayotgani haqida, o‘ylaymanki, ko‘p gapirishga hojat yo‘q, deb o‘z fikrini davom ettirdi Yurtboshimiz.

Biz uchun doimo ustuvor vazifa bo‘lgan ana shunday siyosatning amaliy samarasini butun yurtimiz qatori Xorazm viloyatida ham ko‘p-ko‘p misollarda ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda viloyatda aholining real daromadlari jon boshiga 2000-yilga nisbatan 9,2 barobar ko‘paygani, shu davrda o‘rtacha ish haqi 16,8 marta, pensiya va ijtimoiy nafaqalar salkam 11 marta ortgani odamlarimizning farovonligini ta’minlashga muhim hissa bo‘lib qo‘shilmoqda. Buning yaqqol ifodasini birgina misol, ya’ni yurtimizda ishlab chiqarilayotgan zamonaviy yengil avtomobillarni aholi tomonidan sotib olish hajmi tobora ortib borayotgani tasdiqlaydi. Mamlakatimizda avtomobil ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan 1996-yildan boshlab Xorazm viloyati aholisi 60 mingdan ziyod ana shunday avtomobillarni

xarid qilgan, boshqacha aytganda, hozirgi vaqtda har beshta oiladan ikkitasida zamonaviy avtomobil mavjud.

Yana bir dolzarb masala – Xorazm viloyati uchun g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lgan aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash borasidagi ishlarni olaylik, dedi Islom Karimov. Viloyatda keyingi o'n yilda 815 kilometrdan iborat ichimlik suv tarmoqlari yangilanib, 28 ta suv taqsimlash inshooti rekonstruksiya qilindi. Natijada 174 ta aholi punktidagi 200 mingga yaqin aholining ichimlik suv ta'minotining yaxshilanishiga erishildi.

Shu bilan birga, Juhon bankining 11 million AQSH dollari miqdoridagi mablag'i hisobidan Urganch shahri va tumani, Osiyo taraqqiyot bankining qariyb 13 million dollarlik kredit mablag'i evaziga Yangiariq, Xiva va Qo'shko'pir tumanlari aholisining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi. Ana shunday ishlar natijasida keyingi o'n yilda viloyatda aholini markazlashgan tarmoqlar orqali ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasini 64 foizdan 74 foizga ko'tarishga erishildi.

Bu albatta katta yutuq, lekin bu raqam bizni qoniqtirmasligi kerak. Ko'p kasalliklar nimaning hisobidan paydo bo'ladi? Avvalo, suvning toza

emasligi hisobidan. Xorazmga xos buyrakda tosh yig‘ilish kasalligi va boshqa kasalliklarni bartaraf etish uchun aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash masalasida qattiq ishlashimiz, bu muammoni to‘la yechishimiz kerak, dedi davlatimiz rahbari.

Kelgusida xalqaro moliya institutlarining 60 million dollarlik mablag‘ini jalb etgan holda, bu boradagi ishlarni yanada kengaytirish, jumladan, Urganch, Xiva va Pitnak shaharlaridagi eskirgan kanalizatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish, yangi tozalash inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilmoqda. Bu, o‘z navbatida, ana shu shaharlarning ekologik holatini yaxshilash, aholining turmush sharoiti va sifatini yanada oshirishda muhim o‘rin tutadi.

Viloyatda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida turarjoy massivlarini kompleks qurish ishlari ham izchil olib borilmoqda. O‘tgan uch yil mobaynida 32 ta massivda 1 ming 160 ta uy-joy 43 kilometrdan ziyod gaz tarmog‘i, 70 kilometr suv tarmog‘i, 30 kilometr elektr tarmog‘i, 35 kilometr avtomobil yo‘llar va boshqa infratuzilma obyektlari bilan birga qurib foydalanishga topshirilgani diqqatga sazovordir. «Mustahkam oila yili» deb nom olgan joriy yilning o‘zida viloyat-

ning 20 ta qishloq massivida 650 ta ana shunday uy-joy barpo qilinib, o‘z egalariga tayyor holda topshiriladi.

O‘z-o‘zidan ravshanki, bunday har tomonlama qulay va obod uylarda odamlarning kayfiyati va qarashlari, ertangi kunga ishonchi ham boshqacha bo‘ladi. Bunday uylar xonadon bekalari – ayollarimizning og‘irini yengillashtirishga, hayot tarzini o‘zgartirishga, turmush sharoitini yaxshilashga olib kelishi muqarrar, deb ta’kidladi davlatimiz rahbari.

Xorazm vohasida sog‘lijni saqlash sohasini yanada yaxshilash, yangi, zamonaviy darajaga ko‘tarish maqsadida keyingi besh yil davomida 16 milliard 200 million so‘m mablag‘ yo‘naltirildi. Jumladan, Respublika ixtisoslashtirilgan urologiya va kardiologiya markazlarining viloyat filiallari, Bog‘ot va Yangiariq tuman tibbiyot birlashmalari, viloyat davlat sanitariya-epidemiologiya nazorat markazi va 6 ta qishloq vrachlik punktida keng ko‘lamli qurilish-rekonstruksiya va jihozlash ishlari amalga oshirildi. Bularning barchasi, tabiiyki, turli kasalliklarning oldini olish, onalar va bolalar salomatligini yaxshilash, inson umrini uzaytirishning mustahkam zamini bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yosh avlodimizni dunyoda hech kimdan kam bo‘limgan, har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash masalasi O‘zbekistonda olib borila-yotgan davlat siyosatining eng muhim, eng ustuvor yo‘nalishi ekani yaxshi ma’lum. Barchamiz bugun chuqur anglab oldik – faqatgina zamona-viy, mustaqil fikrlaydigan, jahonning manaman degan mamlakatlaridagi tengdoshlari bilan bella-sha oladigan, jismoniy va ma’naviy jihatdan bar-kamol yoshlar biz boshlagan ishlarni munosib davom ettirish va yangi bosqichga ko‘tarishga qodir bo‘ladi. Shuning uchun ham biz bu hal qiluvchi vazifani mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, uning xalqaro maydondagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirish, taraqqiy topgan demokratik davlatlar qatoridan mustahkam o‘rin egallashining asosiy sharti va garovi deb bilamiz, deb qayd etdi Yurtboshimiz.

Ana shunday yuksak va ezgu maqsadga erishishda Xorazm viloyatida aholi, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini hayot qoidasi-ga aylantirish, jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish borasida katta ishlar qilinmoqda. Sessiyada buning isboti sifatida ba’zi bir raqam-larga e’tibor qaratildi.

Agar 2003-yilda viloyatdagi umumta'lim maktablarining faqat 63 foizida sport zallari mavjud bo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, bu raqam 88 foizni tashkil etmoqda. Bolalar sportini rivojlantirish dasturi doirasida o'tgan uch yil davomida 85 ta sport inshooti qurilib, foydalanimishga topshirilgani, ularning 80 foizdan ziyodi qishloq joylarda ekani yoshlarimizning, ayniqsa, qiz bolalarning sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun har tomonlama qulay imkoniyatlar tug'dirmoqda.

Bu haqda gapirganda, futbol bo'yicha 16 yoshgacha bo'lgan o'smirlar O'zbekiston temma jamoasi kuni kecha 4 milliarddan ortiq odam yashaydigan Osiyo qit'asining championi degan yuksak sharafga erishganini katta g'urur bilan ta'kidlamoqchiman, dedi Yurtboshimiz o'z fikrini davom ettirar ekan.

Tabiiyki, bunday g'alabaga erishish oson emas. Barcha zarur shart-sharoitlarni yaratgan, sportni keng ommaviy harakatga aylantirgan taqdirdagina bunday ulkan yutuqlarga erishish mumkin. Afsuski, bugungi kunda dunyoda sportni butunlay boshqacha ma'no va maqsadlarda tushunish holatlarini ham yo'q emas. Hamma narsa pulga qurilgan,

pul bilan hisoblanadigan sport shaxsan men uchun sport emas, dedi Islom Karimov.

Yaratilgan zamonaviy sharoitlar tufayli xorazmlik maktab o‘quvchilaridan 1 ming 500 nafari respublika miqyosida, 140 nafari esa xalqaro miqyosdagi sport musobaqalarida ishtirok etgani ni ta’kidlash joiz. Eng muhimi, yosh avlod tarbiyasi bo‘yicha olib borayotgan, mana shunday chuqur o‘ylangan ishlarimiz hisobidan bolalaramiz jismonan sog‘lom va baquvvat bo‘lib voyaga yetmoqda.

Hozirgi vaqtida viloyatdagi 91 ta akademik litsey va kasb-hunar kollejida 96 ming 300 nafar yigit-qiz zamonaviy bilim va amaliy kasb-hunarlarni egallamoqda. Har yili ularning 30 ming nafardan ortig‘i kollejlarni bitirib, hayotga yo‘llanma olmoqda.

Ana shunday yoshlarni munosib ish bilan ta’minalash, ularning mustaqil hayotga qadam qo‘yishi, oyoqqa turib olishi uchun har tomonlama yordam va ko‘mak berish – bu davlatimiz, jamiyatimizning bugungi kundagi eng muhim, aytish mumkinki, eng hal qiluvchi vazifasi va u doimo e’tiborimiz markazida bo‘lishi zarur, deb ta’kidladi Prezidentimiz.

Viloyatda kollej bitiruvchilarini tadbirkorlikka keng jalb etish maqsadida ajratilayotgan kreditlarning hajmi keyingi uch yilda 10 barobar oshib, joriy yilda 3 milliard so‘mni tashkil etgani, albatta, e’tiborga molik.

Ayni vaqtda sessiyada yosh mutaxassislarni ish bilan ta’minlash masalasini yana bir bor tanqidiy ko‘z bilan qarab chiqish, bu borada yechilmagan muammolarni hal etish uchun barcha choralarни ko‘rish, avvalambor, shahar va tuman hokimlari, tegishli rahbarlarning mas’uliyatini yanada oshirish zarurligi uqtirib o’tildi. Viloyatda bandlik masalasi qanday hal qilinayotgani ayni shu nuqtayi nazardan tahlil etildi. Yuqorida aytilganidek, joriy yilning 9 oyida 47 mingdan ziyod yangi ish o‘rni yaratilgani ijobiy baholandi. Lekin o‘rganishlarga ko‘ra, viloyatda bugungi kunda 34 ming 700 nafarga yaqin fuqaro, ya’ni mehnatga layoqatli bo‘lgan aholining 5,1 foizi ishga joylashishga muhtoj hisoblanadi. Bu raqamlar, foizlar o‘z yo‘li bilan, lekin haqiqiy ishlashni istaydigan odamlarga albatta ish topib berish kerak. Binobarin, bandlik masalasi bo‘yicha olib borayotgan ishlarni yanada kuchaytirish, xususan, sanoat, kichik biznes va xususiy

tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasida yangi ish o'rirlari tashkil etishga alohida e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlandi.

Xorazm vohasida qurilish va obodonchilik sohasida olib borilayotgan katta-katta ishlarni viloyat markazi bo'lmish Urganch shahri misolida yaqqol ko'rish mumkin. Urganch shahrini zamonaviy shaharsozlik talablari asosida qayta qurish maqsadida umumiyligi qiymati 112 milliard so'mni tashkil etadigan dastur ishlab chiqilib, keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari boshlab yuborildi.

Hozirgi kunda Xorazmiy ko'chasida birinchi qavatini savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari egallaydigan 12 ta ko'p qavatli turarjoy binosi, 10 ta savdo va maishiy xizmat ko'rsatish obyektlarini qurish ishlari yakuniga yetkazilmoqda. Shuningdek, har biri 25 o'rinali 3 ta mehmonxona qurilishi boshlangan.

Ayni vaqtda Xorazmiy ko'chasining markaziy chorrahasida 4 ta zamonaviy supermarket hamda 38 ta servis va xizmat ko'rsatish obyektida ham qurilish ishlari yakuniga yetib bormoqda.

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Urganch filiali uchun bunyod etilgan muhtasham yangi o'quv binosi bugun shahar-

ning ko'rkiga ko'rk qo'shib turibdi. Bu yerda endi 160 o'rinli talabalar turarjoy binosini qurish mo'ljallanmoqda. Shular qatorida «Yoshlar ko'li» bog'ining muhandislik kommunikatsiyalari, infratuzilmasini yangitdan barpo etish ko'zda tutilmoqda. Ushbu hududdagi «Kichkintoylar bog'i»da ochiq suv havzasasi qurish, zamonaviy attraksionlar o'rnatish ishlari olib borilmoqda.

Aytish kerakki, joriy yilning o'tgan davrida 1 milliard 800 million so'm mablag' hisobidan shaharning kanalizatsiya tarmoqlari rekonstruksiya qilinib, Xorazmiy ko'chasida 3 kilometrdan zi-yod ichimlik suv tarmog'i o'tkazilgani, markaziy ko'chalar va irrigatsiya tizimlari bosqichma-bos-qich ta'mirlanayotgani shahar obodonchiligiga muhim hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Bundan tashqari, bu yerda shu yilning o'zida 70 ta ko'p qavatli uy-joy kapital va joriy ta'mirlanib, zamonaviy qiyofa kasb etganini qayd etish lo-zim, dedi Yurtboshimiz. Shu bilan birga, Urganch temiryo'l vokzalini kapital rekonstruksiya qilish, jumladan, yangi perron va ochiq yozgi pavilyon qurish, vokzal oldidagi maydonni obodonlashtirib, ko'rkam xiyobon, avtomobillar bekatи va fav-

vora barpo etish bo'yicha tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Bunday bunyodkorlik ishlari viloyatdagi boshqa shahar va tumanlarda ham olib borilayotgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

Sessiyada tashkiliy masala ko'rildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga ko'ra, 2012-yilning yanvar oyidan buyon Xorazm viloyati hokimi vazifasini bajarib kelayotgan Po'lat Razzaqovich Bobojonov viloyat hokimi etib saylandi.

Prezidentimiz bugungi kunda rahbarning mas'uliyati, uning odamlar bilan ishlash mahorati haqida alohida to'xtalib, quyidagilarni bayon etdi.

Rahbarlik haqida, rahbar shaxsning o'mni va ta'siri haqida gapirganda, hozirgi kunda hayotimizda ko'pgina ijobiy va salbiy misollarni uchratish mumkin. Ming afsuski, ishni o'zibo'larchilikka tashlab, har qadamda paydo bo'ladigan muammo va masalalarni yechish o'rniga, ular o'z-o'zicha yechimini topar, deb beparvolikka, loqaydlikka berilib yuradigan rahbarlar ham kam emas.

Bu fikrni boshqacha ifodalab, bamisoli harbiylarni boshqaradigan qo'mondonlarni o'zimizga tasavvur qiladigan bo'lsak, ular, avval jangga

kiraylik, u yog'i o'zi ma'lum bo'ladi, degan tu-shuncha bilan qancha-qancha janglarni boy ber-gani, qancha yo'qotishlarga yo'l qo'yganini ta-rixdan yaxshi bilamiz. O'ylaymanki, hayotimizda hali-beri uchrab turadigan bunday noma'qul qa-rashlar bilan ish tutadigan odamning rahbar vazi-fasini egallahsga haqqi yo'q.

Hayot – bu, avvalo, kurash demakdir. Har ku-nimiz aslida kurashdan iborat. Bu kurash nima uchun, qanday maqsadlar uchun qaratilgan? Bu kurash, birinchi navbatda, erkinlik, tinchlik uchun, hayotimiz farovonligi, bolalarimizning ke-lajagi uchun qaratilgan. Shu ma'noda, har qaysi rahbarning zimmasida juda katta mas'uliyat bor-ligini hech qachon unutmaslik kerak.

Biz bugun yon-atrofimizda, aytish mumkinki, butun dunyoda notinchlik, qarama-qarshilik va keskin ziddiyatlar ro'y berayotgan o'ta murakkab bir zamonda yashayapmiz, dedi davlatimiz rahba-ri. Shunday tahlikali vaziyatni e'tiborga oladigan bo'lsak, avvalambor, qanday betakror va go'zal Vatan bizga nasib etgani, hayotimiz tobora yuksa-lib, obod va farovon bo'lib borayotganining qad-riga yetib, shukronalik hissi bilan, yurtimizning tinchligi, xalqimizning hamjihatligini har tomon-lama asrash va mustahkamlash, doimo sergak,

sezgir va hushyor bo‘lib yashashimizni bugun hayotning o‘zi talab etmoqda. Biz boshimizdan kechirayotgan bugungi zamonning o‘zi har birimizdan o‘z joyimizda, o‘z lavozimimizda o‘zimizga yuklangan vazifani mas’uliyat bilan bajarish, el-yurtimiz oldidagi burchimizni sidqidildan ado etishni talab qilmoqda.

Oldimizda turgan mana shunday ulkan vafalarni amalga oshirishda men ko‘pni ko‘rgan, ko‘hna tarix va madaniyatga ega, ne-ne suronli davrlarni boshidan kechirmasın, o‘zligini asrab, hamisha, har qanday vaziyatda ham hamjihat bo‘lib, bir-biriga yelkadosh bo‘lib, mardlik va matonat ko‘rsatib, katta umid va ezgu niyatlar bilan yashayotgan Xorazm xalqiga ishonaman. Sizlarning mehnatkashlik, olivjanoblik, mehmondo‘stlik kabi fazilatlariningizni, shirin shevangizni, betakror san’atingizni men yuksak qadrlayman, dedi Yurtboshimiz o‘z nutqining nihoyasida.

Sessiya majlisida Bog‘ot tumanidagi «Bog‘ot» fermer xo‘jaligi rahbari Sharifboy Rajabov, mehnat faxriysi Kenjaboy Ortiqov, Urganch davlat universiteti magistranti Nodira Yangiboyeva va boshqalar so‘zga chiqib, Prezidentimiz nutqida Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlan-tirishning eng muhim ustuvor yo‘nalishlari har

tomonlama chuqur tahlil etilib, kelgusidagi dol-zarb vazifalar aniq belgilab berilganini, voha ahli bildirilgan fikrlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, islo-hotlar samarasini yuksaltirish, barcha soha va tar-moqlar bo‘yicha qabul qilingan dasturlarni izchil amalga oshirish uchun astoydil mehnat qiladi, deb ta’kidladilar.

* * *

Prezidentimiz Islom Karimov shu kuni Xonqa tumanidagi «Istiqlol» fermer xo‘jaligi dalalarida fermerlar bilan muloqotda bo‘ldi. Paxta yig‘im-terimining borishi bilan qiziqdi.

Hamza Jumaniyozov rahbarlik qilayotgan mazkur fermer xo‘jaligi 67,6 hektar yer maydoniga ega. Xo‘jalik a‘zolari bu yil 48 hektar maydonda mo‘l hosil yetishtirdi. Davlatga paxta va g‘alla sotish shartnoma majburiyatlarini muntazam bajarib kelayotgan xo‘jalikda hosildorlik yildan yilga oshib bormoqda. Fermer xo‘jaligida meva-sabzavot, poliz yetishtirish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik ham yo‘lga qo‘yilgan. Xo‘jalikda tashkil etilgan tikuvchilik sexi va novvoyxonada ko‘plab yoshlar ish bilan ta‘minlangan.

– Bu yil paxtachilik uchun qulay yil bo‘ldi. Bu sohada erishayotgan muvaffaqiyatlarimizni chu-

qur tahlil qiladigan bo‘lsak, avvalambor, yerni haqiqiy egalariga topshirganimiz, fermerlarimizda egalik hissi shakllangani, yil davomida bajariishi lozim bo‘lgan agrotexnik tadbirlar o‘z vaqtida amalga oshirilayotgani, dehqonlarimizga unumli mehnat qilishi uchun yaratib berilayotgan shart-sharoit va imkoniyatlar bugungi yutuqlarimizning muhim omili bo‘lmoqda, – dedi Yurtboshimiz.

Davlatimiz rahbari yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, defoliatsiya tadbirlari hosilning tez, bir tekis va sifatli pishib yetilishida katta o‘rin tutishi to‘g‘risida to‘xtalar ekan, bugun fermerlarimiz faoliyati natijasini yuqori samaradorlik bilan o‘lchash eng to‘g‘ri yo‘l ekanini ta’kidladi. Bugun fermerlik harakati rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo‘ymoqda, dedi Prezidentimiz. Fermer o‘zi yetishtirgan mahsulotni o‘zi qayta ishlashi, shu orqali qishloqda sanoatni jadal taraqqiy ettirishi lozim. Ishlab chiqarishning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishi, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yo‘lga qo‘yishi, hududlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy ravnaqiga, aholi farovonligini oshirishga, odamlarni, birinchi navbatda, yoshlarni ish bilan ta‘minlashga faol hissa qo‘sishi lozim.

Fermerlar bilan muloqot chog‘ida odamlarimizning ong-u tafakkuri, hayotga qarashi, tabab va ehtiyojlari o‘zgarayotgani, shuning barabarida, shahar va qishloqlarimiz yanada chiroy ochib borayotgani ta’kidlandi. Ayniqsa, yoshlarimizning o‘z oldiga aniq maqsadlarni qo‘yib, dadil intilayotgani, turli sohalarda katta yutuqlarga erishayotgani butun xalqimiz qalbini g‘ururga to‘ldirayotgani qayd etildi.

Prezidentimiz Islom Karimov Urganch shahri markaziy qismini rekonstruksiya qilish dasturiga asosan amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Qurilish va shaharsozlik ishlarida Xorazmnинг o‘ziga xos tabiiy iqlim sharoitini e’tiborga olish lozim, dedi Islom Karimov. Yer ostidagi suvlarni qochirish, uning sathini pasaytirish uchun kollektorlar tizimini takomillashtirish zarur. Shu bilan birga, landshaft arxitekturasidan keng foydalanish, ko‘kalamzorlashtirish ishlarini voha tuproq va iqlim sharoitidan kelib chiqib tizimli tashkil qilish shaharni rivojlantirish yo‘lidagi qurilish va bunyodkorlik ishlari jarayonida e’tibor markazida bo‘lishi darkor.

Mamlakatimizda barcha sohalarda erishilayotgan ulkan muvaffaqiyatlar, xalqimiz farovonligi

muttasil yuksalib borayotgani cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi. Qo'lga kiritilayotgan yutuqlarimizni yanada mustahkamlash, erkin va farovon hayot, farzandlarimizning saodatli kelajagi uchun doimo kurashib yashashimiz shart. Xorazm viloyatida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, odamlar tafakkuridagi o'zgarishlar hamda ulug'vor maqsadlar bu haqiqatni yaqqol tasdiqlab turibdi.

2012-yil 9-oktabr

O'ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA MEHNATKASHLARIGA

Muhtaram do'stlar!

Mamlakatimiz oldida turgan ezgu maqsadlarni amalga oshirish, ko'p tarmoqli iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan o'sishini ta'minlash, uning eksport salohiyatini yuksaltirish, el-yurtimiz farovonligini oshirish yo'lida qo'lga kiritayotgan yutuq va marralarimiz barchamizni albatta quvontiradi va ertangi kunga bo'lgan ishonchimizni yanada kuchaytiradi.

Shular qatorida paxtachilik sohasida joriy yilda 3 million 350 ming tonnadan ziyod yuksak xirmon bunyod etib, katta mehnat g'alabasiga erishganimiz, hech shubhasiz, hammamizga churqur mammuniyat yetkazadi.

Bu g'alabaning osonlik bilan emas, o'ta og'ir sharoitda, mashaqqatli mehnat va fidoyilik hisobidan qo'lga kiritilgani uning mohiyati va ahamiyatini, qadr-qimmatini yanada oshiradi va barchamizni ruhlantiradi.

Bu haqda gapirganda, aytish kerakki, o'tgan yil kuzda – yangi mavsumga tayyorgarlik paytida

boshlangan yog‘ingarchilik, qorli va ayozli kunning fevral oyiga qadar cho‘zilib ketgani, buning natijasida yerlarning sho‘rini yuvish, ekishga tayyorlash bilan bog‘liq qiyinchiliklar yuzaga kelgani, yoz oylarida esa havo haroratining keskin darajada yuqori bo‘lgani, turli qishloq xo‘jaligi zararkunandalari va kasalliklar ko‘paygani dehqonlarimiz uchun jiddiy tashvish va muammolar tug‘dirmasdan qolmadi.

Bularning barchasi dala mehnatkashlaridan, haqiqatan ham, katta mardlik, mustahkam iroda va qat’iyatni talab qildi va mo‘l hosil yaratish yo‘lida butun imkoniyat, bor kuch-g‘ayratni safarbar qilishga to‘g‘ri keldi.

Mana shunday murakkab bir sharoitda erishgan yutuqlarimiz, ya’ni mamlakatimiz bo‘yicha paxta hosildorligi o‘rtacha 26,5 sentnerni tashkil etib, 5 yillik o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan 1,6 sentnerga oshgani, yetishtirilgan hosilning yog‘in-sochinli kunlarga qoldirmasdan, g‘oyat qisqa muddatda – 35 ish kunida yig‘ib-terib olingani, uning 90 foizi yuksak sifat bilan yuqori sortlarga topshirilgani har qaysi dehqon, har qaysi fermer, har qaysi mutaxassisdan haqiqiy matonat va jasorat namunasini, uyushqoqlik va safarbar-

lik ko'rsatishni talab qilganini hammamiz yaxshi tushunamiz.

Bugungi imkoniyatdan foydalanib, siz, aziz paxtakorlarimizning har biringizni bag'rimga bosib, o'z zimmangizga olgan shartnoma majburiyatlarini sharaf bilan ado etganingiz bilan chin qalbimdan tabriklashni o'zim uchun ham qarz, ham farz, deb bilaman.

Qadrli yurtdoshlar!

Bugun, mana shu quvonchli ayyomda paxta tayyorlash bo'yicha boshqalarga o'mnak va namuna bo'lib, mamlakatimizning ulkan xirmoniga munosib hissa qo'shgan viloyat va tumanlar, fermer xo'jaliklarining nomlarini hurmat bilan tilga olishimiz o'rnlidir.

Bu haqda so'z yuritganda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Navoiy, Buxoro, Samarqand viloyatlarining paxtakorlari birinchilardan bo'lib yuksak marraga yetib kelganlari, gektaridan o'rtacha 30–35 sentnerdan hosil olishga erishganlarini alohida ta'kidlash lozim.

Amudaryo, Kegeyli, Chimboy, Paxtaobod, Shahrixon, Mingbulloq, Oltinko'l, Pop, Do'stlik, Oqoltin, Bo'ka, Buvayda, O'zbekiston, Navbahor, Vobkent, Narpay, Ishtixon, Sherobod, Koson,

Gurlan tumanlarida hosildorlik o‘rtacha 35–40 sentnerga yetgani, ayniqsa, e’tiborlidir.

Beruniy tumanidagi «Akrom», Amudaryo tumanidagi «G‘ayrat», Shahrixon tumanidagi «Aziz», Peshku tumanidagi «Fattoyev», Navbahor tumanidagi «Diyorbek Sulaymonov», Kattaqo‘rg‘on tumanidagi «Hosil», Oqoltin tumanidagi «Nurafshon orzu», Dang‘ara tumanidagi «Yoqubjon Dadamirza», Xonqa tumanidagi «Ismoil ota» fermer xo‘jaliklarining gektaridan 45–50 sentnerga yetkazib hosil olishga erishgani fermerlik harakatining imkoniyatlari naqadar katta ekanini yana bir bor namoyon etdi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.

Ana shunday o‘ta og‘ir, shu bilan birga, sharaflı mehnat evaziga yetishtirilgan mo‘l hosil mamlakatimizning qayta ishlash korxonalarini yuqori sifatli xomashyo bilan ta’minlashi va undan paxta tolasi, ip-kalava, tekstil mahsulotlari, yog‘, sovun, kunjara kabi 25 dan ziyod turdag‘i mahsulot olinishini, paxta tolasini eksport qilish hisobidan keladigan valuta mablag‘larini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, dehqonlarimizning qadoq qo‘llari bilan yaratilgan bu yuksak xirmonning naqadar bebahoh boylik eka-

nini katta minnatdorlik bilan qayd etish, albatta, o'rinli bo'ladi.

Bu yilgi hosilning asosiy omil va mezonlari haqida gapirganda, avvalambor, ishni to'g'ri tashkil etish, qishloq xo'jaligi sohasini chuqur isloh qilish va uni samarali boshqarishni zamonaviy darajaga ko'tarish, dalada ishlayotgan insonlarning mehnatini munosib qadrlash va rag'batlantirish bu borada eng muhim ahamiyat kasb etayotganini ta'kidlash lozim.

Qo'lga kiritilgan bu yutuq zamirida yana bir asosiy mezon sifatida taraqqiy topgan davlatlar tajribasida o'zini har tomonlama oqlagan fermerlik harakatiga o'tish, bu sohaning rivoji uchun barcha huquqiy, tashkiliy va moliyaviy shart-sharoitlarni yaratib berish bo'yicha amalga oshirgan katta-katta ishlarimiz mujassam ekanini, o'ylaymanki, barchamiz yaxshi tushunamiz.

Shular qatorida yana bir muhim omil borki, bu qishloq xo'jaligi mehnatkashlarining o'z mehnatidan manfaatdorligi, ularning yerga, mulkka, o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotga egalik hissiyoti tobora kuchayib, ong-u tafakkuri, dunyoqarashi yuksalib borayotgani bilan bog'liq, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Hurmatli do'stlar!

Barchamizga ayonki, xalqimizning «Sen yerni boqsang – yer seni boqadi», degan hikmatli gapida chuqur ma'no bor va bu haqiqatni hech qachon unutmasligimizni istardim.

Biz bundan besh yil oldin boshlagan sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash dasturi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat budgetidan 800 milliard so'm, jumladan, shu yilning o'zida 210 milliard so'm mablag' sarflanib, 1 million 200 ming gektardan ortiq ekin maydonining meliorativ holati yaxshilangani hosildorlik darajasini oshirishga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgani haqida har qancha gapirsak arziydi, albatta.

Miqyosi va ahamiyatini tasavvur qilishning o'zi qiyin bo'lgan bu ishlarimiz nafaqat tuproq unumidorligi va hosildorlikni ko'tarish, umuman olganda, tabiatimizni, atrof-muhitni yaxshilash, aholi salomatligini mustahkamlashdek ustuvor vazifalarni amalga oshirishda samarali zamin bo'lmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Shu bilan birga, joriy mavsumda seleksiya masalasiga, har qaysi hududning iqlim va tuproq sharoitiga mos bo'lgan yangi navlarni tanlab ekishga alohida e'tibor qaratilgani, g'o'za parva-

rishida zamonaviy ilm-fan yutuqlari, ilg‘or agro-texnologiyalar, turli kasalliklarga qarshi biologik kurash usullari keng joriy etilgani, eng muhim, defoliatsiyaning o‘z vaqtida va sifatli o‘tkazilgani erishilgan yutuqni ta’minlashda alohida o‘rin tut-ganini qayd etish lozim.

Yuqorida zikr etilgan ana shunday tadbir va islohotlarni amalga oshirishda o‘z hissasini qo‘shtigan barcha olim va agronomlar, iqtisodchilar, turli soha mutaxassislariga minnatdorlik bil-dirgan holda, bu borada hali qiladigan ishlarimiz ko‘p, desak, bu ham to‘g‘ri bo‘ladi.

Avvalo, qo‘lga kiritgan marralarimizni yanada mustahkamlash, kelgusi yil hosili haqida, jumladan, yangi mavsumga tayyorgarlik ko‘rish, ekin maydonlarini sifatli shudgorlash, irrigatsiya tar-moqlarini tartibga keltirish kabi masalalar ustida o‘ylashimiz tabiiy, albatta.

Bu borada fermerlik harakatining samaradorligini yanada oshirish, uni zamon talab qilayotgan yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish, bu soha oldida turgan muammolarni hal qilish eng muhim vazifalarimiz qatoriga kiradi.

Ayniqsa, fermer xo‘jaliklarining ilg‘or xorijiy agrotexnologiyalar, ilm-fan yutuqlarini har tomonlama puxta o‘zlashtirishi, ularning moddiy-

texnik bazasini mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyatlар yaratish, yoshlarni fermerlik ishiga keng jalb etish maqsadida oliy o'quv yurtlari, kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirish, fermerlarimizning kasb mahoratini, xo'jalik yuritish, tashkilotchilik salohiyatini oshirish bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lishi zarur.

Aziz va muhtaram yurtdoshlar!

Mana shunday shukuhli damlarda bizdan marhamatini ayamasdan, o'z pano힒ida asrab kelayotgani, doimo yo'limizni ochib berayotgani uchun Yaratganimizga shukronalar aytamiz.

Barchangizni bugungi yuksak mehnat g'alabasi bilan yana bir bor tabriklab, sizlarga sihat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka tilayman.

Hech qachon kam bo'l mang, halol mehnatingizning rohatini ko'ring, azizlarim, qadrdonlarim!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2012-yil 19-oktabr*

INSON MANFAATI, HUQUQ VA ERKINLIKLARINI TA'MINLASH, HAYOTIMIZNING YANADA ERKIN VA OBOD BO'LISHIGA ERISHISH – BIZNING BOSH MAQSADIMIZDIR

Qadrli do'stlar!

Muhtaram mehmonlar!

Avvalo, siz azizlar bilan mana shu go'zal va muhtasham saroyda uchrashib turganimdan, shu fursatdan foydalanib, barchangizga chuqur hurmatimni bildirish, sihat-salomatlik, bardamlik, tinchlik-omonlik tilashdan baxtiyorman.

Bugun biz O'zbekistonimizning yangi tarixi-dagi qutlug' sana – xalqimiz uchun mustaqil taraqqiyot yo'lini belgilab, milliy davlatchilik, yangi siyosiy-ijtimoiy tizim barpo etish, demokratik davlat va fuqarolik jamiyati qurishning huquqiy poydevorini yaratib bergen Konstitutsiyamizning 20 yilligini bayram qilmoqdamiz.

Ana shu ulug' ayyom bilan sizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni chin qalbimdan samimiy muborakbod etish menga katta mamnuniyat bag'ishlaydi.

O'zbekistonimizning mustaqil taraqqiyot yillarda erishgan barcha-barcha yutuq va marralari,

uning ulkan sur'atlar bilan o'sishi avvalo Konstitutsiyamizning hayotbaxsh quadrati va salohiyatini, unda mujassam bo'lgan prinsiplar, qoida va normalarning naqadar chuqur o'ylangani, har tomonlama mustahkam asosga ega ekanini yaqqol namoyon etadi.

Tarixan qisqa bir davrda hayotimizda bo'-layotgan keskin o'zgarishlar va yangilanishlarni chuqur anglash, tasavvur etish uchun biz kecha kim edig-u, bugun kim bo'ldik, degan tabiiy savolni berish o'rinni, deb bilaman.

Hech kimga sir emas, sobiq Ittifoq tarkibida O'zbekiston o'z salohiyati va aholisining hayot darajasi bo'yicha eng qoloq respublikalardan biri bo'lib, bugungi kunda demokratik yangilanish va taraqqiyot yo'lidan qat'iy qadamlar bosib borayotgan, kuch-qudrati tobora yuksalib, zamonaviy ko'p tarmoqli iqtisodiyotga ega bo'lgan, o'z xalqining farovonligini oshirishga qodir mamlakatga aylanib bora-yotgani misolida bu fikrning yaqqol tasdig'ini ko'rish mumkin.

O'tgan davrda bizning qanday og'ir qiyinchiliklar, muammo, tahdid va sinovlarni yengib o'tishimizga to'g'ri kelgani hammamizga yaxshi ma'lum. Lekin bularning barchasiga qaramasdan,

O‘zbekiston iqtisodiyoti yigirma yil davomida 3,5 barobardan ziyod o‘sdi.

Agarki, shu davrda mamlakatimiz aholisi qariyb 9 million kishiga ko‘payib, 30 millionga yaqinlashib borayotganini inobatga oladigan bo‘lsak, o‘tgan vaqt mobaynida yalpi ichki mahsulotning jon boshiga 2,5 barobar oshganining o‘zi ko‘p narsadan dalolat beradi.

Bu haqda so‘z borganda, 2008-yildan buyon davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz sharoitida O‘zbekistonda 2008–2012-yillarda, ya’ni oxirgi besh yilda yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sish sur’ati dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida 8,2 foizdan kam bo‘limgan darajani tashkil etgani, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning barqarorligi va mutanosibligi, davlat budgeti va to‘lov balansining profitsit bilan bajarilishi, eksport va oltin-valuta zaxiralarining ko‘payishi ta’minlanayotganini aytishning o‘zi kifoya.

Osiyo taraqqiyot bankining ma’lumotlari bo‘yicha, mamlakatimiz aholisining daromadlari keyingi uch yilda 3 barobar ko‘paygan.

Ayni shu yo‘lda, shu maqsadlarga erishishda Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo‘yilgan tamoyil va normalar, shuningdek, biz tanlagan va bugun dunyoda e’tirof etilgan, «o‘zbek modeli»

deb nom olgan taraqqiyot modeli mujassam top-gan.

Shular haqida gapirganda, avvalambor, tadrijiy taraqqiyot konsepsiyasini amalga oshirish, iqtisodiyotni mafkuradan xoli bo‘lishi, demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich joriy qilish, qonun ustuvorligini ta’minalash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini tan olish va o’tish davrida uning ta’sirini oshirish, mamlakatimizning o’ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi prinsiplarni ko‘zda tutamiz.

Bu haqda so‘z yuritganda, ta’kidlash kerakki, har qanday demokratik tizim negizida yotgan – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud-huquq tarmoqlarining vazifa va vakolatlarini aniq belgilab qo‘yish, ularning manfaatlar muvozanatini va bir-birini tiyib turishini ta’minalash, siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish tamoyilla-**riga asoslangan siyosiy tizimni shakllantirish bo‘yicha puxta o‘ylangan, zamonaviy demokratik talablarga javob beradigan islohotlarning ta’sirini ko‘ramiz.**

Bu – sobiq sovet davridagi markazlashgan rejali-taqsimot tizimidan voz kechish va bozor iqtisodiyotining butun dunyoda qabul qilingan

tamoyillariga o'tish, O'zbekistonda strategik taraqqiyotning eng muhim ustuvor yo'nalishi sisfatida **xususiy mulkning daxlsizligini mustahkamlash demakdir.**

Bu – ayni paytda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tez va jadal rivojlanishini ta'minlash, shu asosda bugungi kunda jamiyatning eng muhim va hal qiluvchi qatlami, ijtimoiy-siyosiy barqarorlik kafolati, mamlakatni islohetish va modernizatsiya qilish hamda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlaydigan o'rta sinf – **ya'ni mulkdorlar sinfini shakllantirish natijasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamic.**

Hozirgi vaqtida O'zbekistonning shiddat bilan o'sib, tobora rivojlanib borayotgan mamlakatga, inson, uning huquqlari, manfaat va erkinliklarini haqiqiy qadriyat deb biladigan demokratik, ijtimoiy-siyosiy va fuqarolik institutlariga ega bo'lgan mustaqil va suveren davlatga aylanishini ta'minlab bergen **yana ko'plab hal qiluvchi omillarni misol qilib keltirish mumkin.**

Shu bilan birga, barchamiz yaxshi tushunamiz: demokratlashtirish va liberallashtirish, biz uchun prinsipial jihatdan mutlaqo yangi bo'lgan davlatni shakllantirish – **bu bir-ikki yilda hal etiladigan vazifa emas, balki muayyan muddat bilan che-**

garalanib qolmaydigan uzoq va uzlusiz jaryon ekanini yaxshi anglaymiz, albatta.

Shu ma'noda, 2010-yil noyabr oyida qabul qilingan Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiysi O'zbekiston mustaqilligining birinchi kunlaridan boshlangan **demokratik yangilanish va modernizatsiya jaryonlarining mantiqiy va qonuniy davomidir, desak, har tomonlama to'g'ri bo'ladi.**

Islohotlarni bosqichma-bosqich, izchillik va tadrijiy rivojlanishning davomiyligi asosida amalga oshirish tamoyillaridan kelib chiqqan holda, mazkur Konsepsiya, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, dunyoda tub o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi zamonda ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy islohotlarning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishning **uzoq muddatga mo'ljallangan milliy strategiyasidir.**

Mustaqil taraqqiyotimizning o'tgan yillarida to'plagan oz bo'lsa-da, lekin g'oyat mazmunli tajribamiz bir haqiqatni takror va takror tasdiqlab bermoqda. Ya'ni, faqat demokratik o'zgarishlarning hayotda o'zini oqlagan modelari negizida chuqur asoslangan siyosiy yo'l va islohotlarni izchil amalga oshirish, bugungi

dunyodagi tarixiy va real voqelikni e'tiborga olish hisobidangina bu islohotlarning muvafقاqiyati va samaradorligini, davlat va jamiyatning, aholi turmush darajasining yuksak va bar-qaror sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Demokratik islohotlarni qandaydir havoyi maqsadlar, ambitionsalar va soxta obro' topish uchun sun'iy ravishda tezlashtirish, o'z xohishini amaldagi haqiqat deb ko'rsatishga urinish odatda teskari natijaga olib keladi va buni ko'plab misol-larda ko'rish qiyin emas.

Konsepsiya ko'zda tutilgan 50 dan ziyod qonun va huquqiy-me'yoriy hujjatlar loyihamalarini ishlab chiqish va amalga oshirish dasturi bo'yicha bugungi kunga qadar mamlakatimiz Parlementi tomonidan 12 ta qonun qabul qilindi, 30 dan ortiq qonun loyihasi esa keng jamoatchilik, jumladan, xorijiy ekspert tashkilotlarni jalg etgan holda ko'rib chiqish va muhokama etish bosqichida turibdi.

Shular qatorida 2011-yilda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga (78, 80, 93, 96, 98-moddalar) o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonun davlat hokimiyati va boshqaruvini de-

mokratlashtirish sohasidagi g‘oyat muhim qadam bo‘ldi.

Mazkur Qonun Prezident – Davlat boshlig‘i bilan qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat tarmoqlari o‘rtasida yanada mutanosib konstitutsiyaviy vakolatlar taqsimotini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, unda, shuningdek, Bosh vazirga ishonchszilik votumi bildirish instituti joriy etilgan, ayrim vakolatlar Prezidentdan Senatga – Parlamentimizning yuqori palatasiga va mamlakatimiz Vazirlar Mahkamasiga berilgan, mahalliy kengashlarning vakolatlari sezilarli ravishda kengaytirilgan.

Parlamentimiz tomonidan «O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida»gi va «Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar kengashlariga saylov to‘g‘risida»gi qonunlarga kiritilgan qo‘sishimchalar ham saylov qonunchiligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, sud-huquq tizimini isloh etish va yanada liberallashtirish, «Xabeas korpus» institutini qo’llash sohasini kengaytirish bo‘yicha qonun hujjatlari qabul qilingani hamda axborot tizimini isloh etish, xususan, mamlakatimizni siyosiy jihatdan modernizatsiya qilish jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan axborot-kommuni-

katsiya texnologiyalari va televide niye tizimida so‘z erkinligini ta’minlash borasida Konsepsiya-da belgilangan vazifalar amalga oshirilganini alo-hida qayd etish lozim.

Shular qatorida «Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida», «Ijtimoiy sherikchilik to‘g‘risida», «Jamoat nazorati to‘g‘risida», «Davlat hokimi-yati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiq-ligi to‘g‘risida» va boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi ham g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Ular yurtimizda fuqarolik ja-miyatini jadal rivojlantirish, uning odamlarimiz-ning konstitutsiyaviy huquq va manfaatlarini hi-moya qilish borasidagi rolini oshirish, hokimiyat tuzilmalari faoliyati oshkoraligini kuchaytirish va boshqaruv sohasida qabul qilinayotgan qaror-lardan aholini xabardor etish kabi maqsadlarga xizmat qiladi.

Bu yil qabul qilingan «Xususiy mulkni hi-moya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafo-latlari to‘g‘risida»gi Qonunning roli va ahami-yati bag‘oyat katta, deb o‘ylayman. Bu qonunda mulk egasining huquqi ustuvor ahamiyatga ega ekani haqidagi hal qiluvchi prinsip mustahkam-lab qo‘yilgan. Bundan buyon qonunchilikda mulk egasi bilan davlat organlari munosabatlarida pay-

do bo‘ladigan barcha ziddiyat va tushunmovchi-liklar mulkdorning foydasiga hal etiladi.

Hozirgi vaqtida yangi tahrirda amal qilayotgan «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi, «Raqobat to‘g‘risida»gi, «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlar va ular asosida imzolangan «Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, shuningdek, «Statistik, soliq, moliyaviy hisobotlarni, litsenziyalanadigan faoliyat turlarini va ruxsat berish tartib-taomillarini tubdan qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Prezident farmonlari va boshqa qarorlar mamlakatimiz iqtisodiyotini bar-qaror rivojlantirish, uni diversifikatsiya va modernizatsiya qilish va buning uchun zarur ishbilarmonlik muhitini shakllantirish hamda yurtimizda investitsion muhit jozibadorligini va qulayligini oshirishning kafolati bo‘lib xizmat qilishi lozim.

Shu borada aytilgan fikrlarni yakunlab, shuni alohida ta’kidlamoqchimanki, mamlakatimizda biznes va xususiy tadbirkorlik manfaatlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan ana shu barcha qonun hujjatlari va huquqiy normalarning ijrosini monitoring qilish va nazoratga olish tashqi va jahon bozorlarida

global inqiroz avj olib borayotgan bir sharoitda o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Qadrli do‘stlar!

O‘zbekistonda demokratik islohotlarni chuqur-lashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar-ning barchasi haqida to‘xtalib o‘tish ko‘p vaqt talab etadi va o‘z-o‘zidan ravshanki, buning hojati ham yo‘q.

Yurtimizda qabul qilingan va qabul qilina-yotgan qonunlar va huquqiy-me’yoriy hujjatlar, umuman, bugun bizning amaliy hayotimizda qilayotgan barcha-barcha ishlarimiz mamlaka-timizni rivojlantirish va modernizatsiya qilish sur’atlarini qay darajada jadal ta’minlab bera-yotgani, bizni o‘z oldimizga qo‘ygan bosh maqsadimizga, ya’ni, **O‘zbekistonning dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoridan joy olishidek** buyuk maqsadga qanchalik yaqin-lashtirayotganini anglash va baholash biz uchun ayniqsa muhimdir.

Ana shunday yuksak maqsadlarga erishishning hal qiluvchi omillaridan biri bu – hech shubha-siz, mamlakatimiz aholisining ong-u tafakkuri va dunyoqarashida yuz berayotgan o‘zgarishlar, uning hayotga, mehnatga bo‘lgan munosabati, to-

bora o'sib borayotgan siyosiy va huquqiy mada-niyati, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Eski mustabid o'tmishning og'ir yuki va me-rosi hayotimizda barham topmoqda, odamlarimiz bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan dunyoda ro'y berayotgan voqealarning mohiya-tini yaxshi tushunib yetmoqda, ularning milliy manfaatlarimizga naqadar javob berayotgani yoki bermayotganini o'ziga aniq tasavvur etmoqda. Nega deganda, shuni hech qachon unutmasligi-mizni istardim, **biz ko'pni ko'rgan, kurashlarda toblangan, or-nomusimiz, qadr-qimmatimizni, muqaddas dinimiz va qadriyatlarimizni yuksak baholaydigan xalqmiz.**

Muxtasar qilib aytganda, el-yurtimiz nimalar hisobidan, qanday og'ir va mashaqqatli kunlar, sinovlarni boshdan kechirib, bugungi yutuq va mar-ralarga erishganini xolisona baholab, har qanday kibr-havo kayfiyatlariga berilmasdan, oyog'imiz yerdan uzilmasdan, ertangi yorug', hech kimdan kam bo'lmaydigan kelajagimizga ongli ravishda qadam qo'ymoqdamiz.

Bu yo'lida bizning eng katta tayanch va suyanchimiz, hal qiluvchi kuchimiz yosh avlodimizdir.

Bu – O‘zbekistonda tashkil etilgan, dunyo miqyosida katta qiziqish va havas uyg‘otayotgan mutlaqo yangi o‘quv tizimida yuksak ta’lim-tarbiya olayotgan, eski asoratlardan, qarashlардан uzoq bo‘lgan, zamonaviy kasb-hunarlarни o‘zlashtirgan, mustaqil fikrlaydigan, ertangi kunga intilayotgan bizning farzandlarimizdir.

Har yili mamlakatimizda 600 mingdan ziyod butunlay yangicha shart-sharoit va muhitda kamol topgan yosh avlod vakillari katta hayotga yo‘llanma olmoqda.

Ishonchim komil, bunday yoshlарimizning safi qancha ko‘paysa, qancha rivoj topsa, hech shubhasiz, marra bizniki, O‘zbekistonnikidir.

Hurmatli do‘stlar!

Bugungi dunyoda jadal o‘zgarib borayotgan vaziyat va jarayonlar, mavjud mojarolarning keskinlashuvi va yangi qarama-qarshiliklarning paydo bo‘lishi, ba’zi mintaqalarda etnik va konfesiylararo tafovutlar negizida vujudga kelayotgan to‘qnashuvlarning kuchayishi, hali-beri davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamda uning oqibatlari jiddiy tahdid va xatarlarni keltirib chiqarmoqda.

Yadroviy texnologiyalar va ommaviy qirg‘in qurollarining tarqalib ketish xavfi, muro-

sasizlik, radikalizm va ekstremizmning o'sishi, yangi keskinlik o'choqlarining paydo bo'lishi dunyo hamjamiyatida katta tashvish uyg'otmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida bunday jarayonlarning barchasi jahondagi yirik davlatlarning manfaatlari o'zaro to'qnashadigan mintaqamizning xavfsizligi, barqarorligi va izchil rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q, deb o'layman.

AYSEF deb atalmish koalitsion qo'shinnarning 2014-yilgacha va undan keyin qo'shni Afg'oniston hududidan olib chiqib ketilishi bilan bog'liq ravishda ushbu mamlakat va uning atrofidagi vaziyatning yanada keskinlashib, terrorizm, ekstremizm va narkotrafikning kuchayishi xavfi borligi, qisqa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatda ahvol chegaradan chiqib ketishi mumkinligi qo'shni davlatlarda jiddiy xavotir uyg'otmasdan qolmaydi, albatta.

Voqealarning ana shunday yo'nalishda rivojlanishi bugungi qarama-qarshilikning millatlar va elatlar o'rtasidagi mojaroga aylanib ketishi, Afg'onistonda fuqarolar urushining yangitdan avj olishi, mintaqada turli xavf-xatarlar paydo

bo‘lishi ko‘pgina nufuzli ekspertlar tomonidan istisno etilmayapti.

Bizning qat’iy ishonchimizga ko‘ra, vujudga kelayotgan vaziyatda voqealarning bunday salbiy ravishda rivojlanishining oldini olish uchun ancha vaqtdan buyon muhokama etilayotgan eng maqbul variant – bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida Afg‘onistoniga qo‘shni mamlakatlar va shuningdek, Amerika Qo‘shma Shtatlari, NATO va Rossiya ishtirokida muloqot guruhini shakllantirishdan iborat.

Bu guruh xatti-harakatlarining bosh maqsadi o‘zaro kurash olib borayotgan kuchlar o‘rtasida murosaga erishish va koalitsion afg‘on hukumatini shakllantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Ana shu hukumat tarkibida Afg‘onistondagi asosiy milliy-etnik va diniy guruhlar o‘z o‘rnini topgan bo‘lar edi.

Ta’kidlash kerakki, bu yechimning boshqa munosib muqobil varianti yo‘q.

O‘zbekiston o‘zining qo‘shni Afg‘oniston bilan munosabatlarini ikki davlatning milliy manfaatlarini hisobga olib, afg‘on xalqining o‘z mamlakati kelajagini o‘ylab tanlagan yo‘lini hurmat qilgan holda, ikki tomonlama asosda shakllantirib kelmoqda va bundan buyon ham shu prinsipga amal qiladi.

Xalqaro hamjamiyatda katta aks sado bergen, 2012-yilning sentabr oyida qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi qonun asosida aynan ana shunday yondashuvlar mujassamdir.

Mazkur konsepsiya davlatimizning xalqaro maydondagi asosiy prinsiplari, strategik ustuvor yo‘nalishlarini belgilab beradi va O‘zbekiston tomonidan mamlakatimiz mustaqilligining birinchi yillardan boshlab amalga oshirilayotgan strategiyaning mantiqiy davomidir.

O‘zbekiston, avvalambor, mamlakatimiz tashqi siyosatida bosh qadriyat va tamoyil bo‘lgan o‘zining uzoq muddatli milliy manfaatlarini ko‘zlagan holda:

turli harbiy-siyosiy blok va alyanslardan uzoq bo‘lishi haqida; o‘zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo‘yicha qat’iy pozitsiyaga ega bo‘lishi haqida va o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishi-ga yo‘l qo‘ymasligi haqida; ochiq, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi prinsiplarini aniq-ravshan bayon etadi.

O‘zbekiston mafkuraviy tamoyillar sababli ro‘y berayotgan turli to‘qnashuvlarga o‘zining jalb eti-

lishiga hamda qo'shni davlatlar va hududlar bilan chegaralardagi qurolli mojarolar va keskinlik o'choqlarida mamlakatimizning ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi, yaxshi qo'shnichilikning, yuzaga keladigan nizolarni faqatgina tinch yo'l bilan bartaraf etishning qat'iy tarafidir.

Mintaqamizda murakkab vaziyat vujudga kelayotgan sharoitda, uzoq va yaqin atrofimizda turli qarama-qarshiliklar tobora kuchayib boryotgan bir paytda mamlakatimiz tinchligi va farovonligini saqlash, yon-atrofimizdagi davlatlar va xalqlar bilan o'zaro bir-birini tushunish va hamjihatlikda yashash uchun shart-sharoitlarni ta'minlashga qaratilgan ana shunday tashqi siyosatgina xalqimizning asl orzu-umid va intilishlariga mos keladi.

Ishonchim komilki, O'zbekiston tashqi siyosatini ayni shu prinsiplarga asoslanib olib borishni barcha yurtdoshlarimiz, butun xalqimiz qo'llab-quvvatlaydi.

Hurmatli do'stlar!

2012-yilga mamlakatimizda «Mustahkam oila yili» deb nom berganimiz va shu asosda azal-azal-dan hayotimizning tayanchi va suyanchi bo'lib kelgan, jamiyatimizning hal qiluvchi bo'g'ini bo'lmish oila institutini yanada rivojlantirishga

qaror qilganimiz xalqimiz tomonidan katta mam-nuniyat bilan qabul qilindi.

Joriy yilga ayni shunday nom berish orqa-li hayot abadiyligini, har qaysi insonning baxt-u saodati, kelajagi, orzu-intilishlarini mujassam etadigan oilani yanada mustahkamlash va faro-vonligini oshirish, bu borada olib borayotgan barcha ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishdek oliyjanob rejalarни amalga oshirish ko'zda tutilgani hammamizga yaxshi ayon.

Shu munosabat bilan qabul qilingan Davlat dasturining ijrosi, unda belgilangan keng ko'lamlı chora-tadbirlarni bajarish natijalari, ularning amaliy ta'siri va samarasi haqida yil yakuniga ko'ra joylarda bo'lib o'tadigan yig'ilishlarda albatta bat afsil hisobot beriladi, deb o'layman.

Bugun esa, ruxsatingiz bilan, ana shu dasturning ma'no-mazmunini ifoda etgan eng asosiy va ustuvor yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirgan ishlarimiz haqida qisqacha to'xtalib o'tishni zarur deb bilaman.

Birinchi navbatda, oila institutini mustahkamlash bilan bog'liq qonunchilik va huquqiy bazani yanada rivojlantirish va takomillash-tirish masalalariga alohida e'tibor berilganini ta'kidlash lozim.

Shu borada bugun zamon talab etayotgan oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va buning uchun huquqiy normalarni shakllantirish, Oila kodeksiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, «Vasiylik va homiylik to'g'risida»gi va shunga o'xshash bir qator qonunlarni qabul qilish shular jumlasidandir.

Joriy yilda oila, birinchi navbatda **yosh oilalar-ga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, ularni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, moddiy va ma'naviy jihatdan keng qo'llab-quvvatlash** kabi o'ta muhim masalalar diqqatimiz markazida bo'ldi.

Ana shu maqsadda «Yosh oilalarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hukumat qarori qabul qilindi. Shu asosda yosh oilalar uchun 2012–2013-yillarda har biri 48 ta kvartiraga ega bo'lgan 100 ta ko'p qavatli uy qurish ishlari amalga oshirilmoqda.

2012-yilning o'zida 2 ming 400 ta kvartira foydalanishga topshirilgan bo'lsa, kelgusi yilda yana shuncha kvartira quriladi. Ana shunday uylarni sotib olishda qulay imkoniyat yaratish uchun minglab yosh oilalarga 15 yil muddatga mo'ljallangan 210 milliard so'mga yaqin imtiyozli ipoteka kreditlari berildi.

Oilalarning farovonligini va daromad manbalarini oshirish uchun tijorat banklari tomonidan qariyb 80 milliard so‘mga yaqin, kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarining biznes loyihalarini molliyalashtirish uchun esa salkam 47 milliard so‘m miqdorida mikrokreditlar ajratilgani ham ana shunday ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

Mazkur banklar tomonidan mamlakatimizda ishlab chiqarilgan, uzoq muddat foydalaniladigan mahsulotlar, xususan, mebel, maishiy texnika va boshqa uy-ro‘zg‘or buyumlarini xarid qilish uchun 71 milliard so‘mdan ziyod iste’mol kreditlari ajratilgani yosh oilalarning ro‘zg‘orini butlashda, ularning oyoqqa turib olishida katta madad bo‘ldi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Qishloqlarda maishiy xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlarning uch yil muddatga soliqlardan ozod etilgani 40 mingga yaqin ish o‘mini tashkil etishga imkon berdi.

Dastur doirasida biz **ehtiyojmand oilalarga ijtimoiy g‘amxo‘rlikni yanada kuchaytirishga alohida e’tibor berganimiz har qanday tahsinga sazovordir.**

Shular haqida gapirganda, boquvchisini yo‘qotgan, yordamga muhtoj oilalarga 8 ming 600 dan

ziyod qoramol hamda 1 million 900 mingta uy parrandasi tarqatilganini qayd etish lozim.

Joriy yilda kam ta'minlangan oilalarga mansub o'quvchilarga qiymati qariyb 28 milliard so'mdan iborat bo'lgan qishki kiyim-kechak berildi. Yangi o'quv yilida 510 mingga yaqin birinchi sinf o'quvchisi, shuningdek, uyda ta'lim olayotgan, imkoniyati cheklangan 11 mingga yaqin bola davlat budgeti hisobidan 12 turdag'i o'quv anjomlari to'plami bilan ta'minlandi.

Ayni vaqtida o'quvchi qizlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish va rag'batlantirish maqsadida 190 mingta sport kiyimlari to'plami ularga sovg'a tariqasida berilgani, 50 ming nafar bola bepul, 270 ming nafar bola esa imtiyozli asosda yozgi oromgohlarda dam oldirilganini ta'kidlash lozim.

Shuningdek, yurtimiz bo'yicha mingdan ortiq ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan yosh oilaning nikoh to'ylari homiylar mablag'lari hisobidan o'tkazib berildi.

2012-yilda yana bir dolzarb vazifa – **aholi bandligini ta'minlash** masalasiga ustuvor ahamiyat qaratildi. Bu borada kichik korxona va mikrofirmalar tashkil etish hisobidan xotin-qizlar uchun 204 mingdan ziyod yangi ish o'rni

yaratilganini alohida tilga olish zarur, deb bilaman.

Yil davomida 107 mingdan ortiq yoshlар ishga joylashtirilgани, 19 ming nafardan ziyod ishsiz yoshlар zarur kasblarga tayyorlangани, 52 ming nafar yigit-qiz esa haq to‘lanadigan jamoat ishlарiga jalb etilgани biz uchun o‘ta muhim bo‘lgan bandlik masalasini yechishda yana bir jiddiy qadam bo‘ldи.

Parlamentimiz qabul qilgan oilaviy tadbirkorlik va xususiy biznesni yanada rivojlantirish borasidagi qonunlarimiz asosida o‘tgan davr mobaynida ajratilgan kreditlarning umumiyligi miqdori 905 milliard so‘mni, jumladan, xotin-qizlarni tadbirkorlik sohasiga faol jalb etishga yo‘naltirilgan kreditlar hajmi 450 milliard so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo, Navoiy, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tadbirkor ayollar uchun Xalqaro hamkorlik bo‘yicha omonat kassalar jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 218 ming yevro miqdorida mikrokreditlar ajratildi.

Ayollarimiz, opa-singillarimizning mehnatini yengillashtirish, ularning salohiyatidan faol ijtimoiy, madaniy, sotsial va iqtisodiy sohalarda, bolalar tarbiyasida yanada sama-

rali foydalanish maqsadida ilgari ko‘rilmagan aniq chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, bu borada «Oilalarning ijtimoiy-maishiy sharoitlarini yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» hukumat qarori qabul qilinib, unga muvofiq xonadonlarning maishiy va oshxona elektr jihozlari bilan ta‘minlanishini yaxshilash, ayollarning uy-ro‘zg‘or yumushlarini yengillashtirishga qaratilgan iste’mol kreditlarini kengaytirish bo‘yicha katta ishlar qilindi.

Ana shunday chora-tadbirlar natijasida mammakatimizda elektr maishiy texnikasi ishlab chiqarish hajmi 2012-yilda avvalgi yillarga nisbatan 4 barobar oshdi.

Yurtimizdagи oilalarga uch yilga mo‘ljallangan 317 milliard so‘mga yaqin iste’mol kreditlari ajratilgani opa-singillarimizning og‘irini yengil qilish, aholining turmush madaniyatini oshirishga qaratilgani bilan ayniqsa ahamiyatlidir.

Shu o‘rinda yana bir e’tiborga loyiq masalaga to‘xtalmoqchiman. Bu yil **qishloq aholi punktlarini markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashni yanada yaxshilash** bo‘yicha ko‘rilgan qo‘shimcha chora-tadbirlarga asosan qariyb 108 milliard so‘m va 96 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ sarfla-

nib, 1 ming 220 kilometrdan ziyod yangi suv tarmoqlari barpo etildi va rekonstruksiya qilindi. Bu esa 872 ta aholi punktini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashda oilaning o'rmini kuchaytirish, **oila institutining ta'lif va tarbiya muassasalari bilan amaliy hamkorligini mustahkamlash** bo'yicha ham salmoqli ishlar bajarildi.

Bu haqda gapirganda, oila, mahalla va ta'lif muassasasi o'rtasidagi hamkorlikni, uning samarasini kuchaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilib, amalga oshirilayotganini qayd etish o'rinnlidir.

Ana shu tadbirlar hisobidan yurtimizdagи 4,5 milliondan ziyod o'quvchining 76 foizi maktablar va «Barkamol avlod» bolalar markazlarida tashkil etilgan fan, musiqa va san'at to'garaklarida, sport mashg'ulotlarida faol ishtirok etmoqda.

Yil davomida mingga yaqin umumta'lif maktabi zamonaviy kompyuter xonalari, 1 ming 150 tadan ziyod kasb-hunar kollejidagi o'quv ustaxonalari amaliy mashg'ulotlar uchun zarur bo'lgan jihozlar, xomashyo mahsulotlari bilan ta'minlandi. «Elektron ta'lif» loyihasi doirasida oliy o'quv yurtlarining kutubxona fondlarini

elektron shaklga o'tkazish borasidagi dasturiy ishlar boshlandi.

Internet tarmog'ida ishlash ko'nikmalarini egallash bo'yicha qishloq yoshlari uchun ishlab chiqilgan maxsus o'quv dasturi asosida 30 ming-ga yaqin yigit-qiz axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'z bilimini oshirishga muvaffaq bo'ldi.

«Mustahkam oila yili» dasturi asosida **sog'-liqni saqlash sohasi** bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirilganini bugun mammuniyat bilan ta'kidlashga haqlimiz.

Xususan, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillardan boshlab joriy etib kelinayotgan, xalqaro hamjamiyat tomonidan tan olingan «Sog'lom ona – sog'lom bola» dasturi doirasidagi chora-tadbirlarimiz yil davomida yangi bosqichga ko'tarildi.

Ayniqa, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, UNISEF va boshqa xalqaro jamg'armalar bilan hamkorlikda «Salomatlik – 3» loyihasi doirasida tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish, zamonaviy texnik vositalar yordamida malakali tashxis qo'yish, kasallikkarni ilk bosqichda davolash ishlari aniq reja asosida olib borildi, profilaktik tadbirlarda aholining barcha

qatlamlarini qamrab olishga alohida e'tibor qaratildi.

Bizning oliv maqsadimiz bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish uchun joriy yilda 8 million 300 ming nafar farzand ko'rish yoshidagi ayol hamda 8 million bola tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Shular qatorida 5 mingga yaqin yolg'iz keksa va nogironlar malakali tekshiruvdan o'tkazilib, ularga tegishli tibbiy yordamlar ko'rsatilganini aytish joiz.

Tibbiyot sohasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirildi.

Shu borada Toshkent shahrida 21,5 milliard so'm va qariyb 23 million AQSH dollari dan iborat mablag' hisobidan qurib bitkazilgan, eng zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan ta'minlangan Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazining kardiojarrohlik majmusi bugungi kunda o'tkir muammo bo'lib turgan yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolashda alohida ahamiyat kasb etishi bilan ayniqsa e'tiborlidir.

Ta'kidlash kerakki, «Mustahkam oila yili» jamiyatimizning ma'naviy negizlarini yanada rivojlantirish, azaliy qadriyatlarni asrab-avay-

lash, yuksak ma'naviy muhitni qaror toptirishda, milliy mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi turishda beqiyos kuch bo'lgan oilaning o'rni va nufuzini oshirishga qaratilgan ko'plab tadbirlarga, jumladan, turli ko'rik-tanlovlар, festivallar, ko'rgazma va ijodiy kechalarga boy bo'ldi.

Mamlakatimizda ijtimoiy ahamiyatga molik boshqa obyektlar qatori **zamonaviy sport inshotlari barpo etish, bu yo'nalishdagi infratuzilma tarmoqlarini yanada kengaytirish** borasidagi ishlar ham izchil davom ettirilmoqda.

Birgina joriy yilning o'zida 168 ta bolalar sporti obyekti foydalanishga topshirildi va bugungi kunda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan 1 million 600 mingdan ziyod bolalarimiz sport bilan muntazam shug'ullanish imkoniga ega bo'ldi.

Yurtimizda sport sohasini yanada rivojlantirish, o'zbek futboli rivojini yangi bosqichga ko'tarish maqsadida azim poytaxtimiz Toshkent shahrida zamonaviy «Bunyodkor» sport majmuasi qurib foydalanishga topshirilgani mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yana bir bor yorqin namoyon etdi. Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan ushbu majmua yoshlarimizni ham jismoniy, ham

ma’naviy jihatdan sog‘lom avlod etib o‘sirish, sportchilarimizning jahon maydonlarida yuksak marralarni egallashiga, O‘zbekistonimizning dunyodagi obro‘-e’tiborini yanada yuksaltirishga xizmat qilishi muqarrar.

Bolalar sportini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirayotgan tizimli ishlarimiz bugungi kunda o‘zining amaliy samarasi va hosilini bermoqda.

O‘zbekistonning futbol bo‘yicha ikkita terma jamoasi – **o‘n olti yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar** terma **jamoamiz hamda yoshlar** terma **jamoamiz Osiyo qit’asining manaman degan**, eng kuchli **mamlakatlarining terma jamoalari bilan keskin kurashlarda g‘alaba qozongani**, kelgusi yili jahon championatida ishtirok etish huquqini qo‘lga kiritgani, hech shubhasiz, nafaqat futbol ishqibozlari va sport muxlislarini, o‘ylaymanki, butun xalqimizning ko‘nglini ko‘tarib, g‘urur va iftixor yetkazdi, desam, adashmagan bo‘laman.

Fursatdan foydalanib, yosh futbolchilarimizga, Vatanimiz bayrog‘ini xalqaro maydonlarda baland ko‘tarib kelayotgan barcha sportchilarimizga, ustoz-murabbiylarga tashakkur bildirib, ularga baxt va omad tilashga ruxsat bergaysiz.

Muhtaram vatandoshlar!

«Mustahkam oila yili» Davlat dasturi bo‘yicha amalga oshirgan ishlarimiz haqida bat afsil so‘z yuritishga ko‘p vaqt kerakligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Men bu o‘rinda e’tiboringizni faqatgina bitta raqamga qaratishni joiz deb bilaman.

Dastur doirasida barcha moliyaviy manbalar hisobidan 2 trillion so‘mdan ortiq hamda 100 million AQSH dollaridan ziyod mablag‘ sarflanganining o‘zi, o‘ylaymanki, bizning amalga oshirgan ishlarimizning ko‘lami va miqyosi na-qadar keng va ulkan ekanidan yaqqol dalolat beradi.

Fursatdan foydalanib, mana shunday oliyjanob va savobli ishga o‘z hissasini qo‘sghan yurtimiz-dagi davlat va nodavlat tashkilotlar, xorijiy va xalqaro tuzilmalarga, shu zalda o‘tirgan chet davlatlarning elchilari va diplomatik vakolatxonalar vakillariga, ezgu maqsad yo‘lida sidqidildan xizmat qilgan barcha-barcha insonlarga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan samimiyy minnatdorlik bilda ramani.

Hech shubhasiz, «Mustahkam oila yili» o‘zining tub mazmun-mohiyati, ruhi va falsafasi bilan, amaliy ta’siri va natijasi bilan el-yurtimiz

xotirasida chuqur iz qoldiradi, desam, siz azizlar
shu fikrga qo'shilasiz, albatta.

Qadrli yurtdoshlar!

Endi sizlar bilan kirib kelayotgan yangi –
2013-yilga qanday nom berish haqida maslahat-
lashib olishimiz kerak.

O'tgan davr mobaynida bizning bu borada
to'plagan tajribamiz shuni ko'rsatmoqdaki, yilga
faqat chiroyli nom berish emas, bu g'oyani mut-
laq ko'pchilik, umumxalq manfaatiga daxldor
bo'lgan aniq maqsad va mazmun bilan, ta'sirchan
va samarali tadbirlar bilan to'ldirish hal qiluvchi
ahamiyat kasb etishi shart.

Lo'nda qilib aytganda, yilga nom berish negi-
zida avvalambor har bir odam, har bir oila, qo-
lavversa, butun xalqimizning xayolidan o'rinn
olgan vazifalarni amalga oshirish, taraqqiyotimizni
jadallashtirish, hayotimizni yanada farovon qi-
lish – ayni shu kabi ezgu maqsad-muddaolar tu-
rishi lozim.

Barchamizga yaxshi ayonki, har qaysi inson,
millati, tili va dinidan qat'i nazar, bu dunyoga
baxtli yashash uchun keladi. Bunday yuksak or-
zuga yetishning sharti va garovi bo'lgan omil-
lar ko'p. Lekin ular orasida hayotimizga ma'no-
mazmun beradigan, uni yanada yorug' va fayzli

qiladigan bir omil borki, u ham bo'lsa, odamning o'z uyi, o'z yurtini har tomonlama go'zal va obod qilib, shundan o'zi mammun bo'lib, rozi bo'lib yashashida yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, obod degan so'zning ma'nosini biz juda keng va chuqur tushunamiz. Obod deganda, xalqimiz, millatimiz nafaqat ko'rkar va chiroyli, shu bilan birga, tinchlik va osoyishtalik, o'zaro mehr-oqibat, ahillik, fayz-baraka hukmron bo'lgan joylarni, doimo pok niyat va sog'lom intilish bilan yashashni tasavvur qiladi.

Mustaqillik yillarida «Obodlik ko'ngildan boshlanadi» degan chuqur mazmunli ibora el-yurtimiz o'rtasida keng tarqalib, odamlarimizni bunyodkorlik tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib kelayotgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Bunday mulohaza va fikrlarni umumlashtirib, o'zbekona aytadigan bo'lsak, barchamizni harakat va intilishlarimiz negizida avvalambor yurtimiz, Vatanimizni har tomonlama obod qilish, inson erkin nafas oladigan, tinch va farovon yashaydigan hayat barpo etish g'oyasi mujassam ekanini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Ayni shunday orzu-niyatlar bilan kundalik hayotimizni to'ldirish, ularni hayotimizning maq-

sadiga aylantirish, shunday g‘oya va intilishni amalga oshirish uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etish, hech shubhasiz, bugungi kunda g‘oyat muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Aziz do‘srlar, yuqorida bayon etilgan fikr-mulohazalarning barchasini inobatga olgan holda, men kirib kelayotgan yangi – 2013-yilni mamlakatimizda «**Obod turmush yili**» deb e’lon qilishni taklif etmoqchiman.

Biz 2013-yilga shunday nom berar ekanmiz, ana shu yo‘nalishda boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish, ularni yangi, yuksak bosqichga ko‘tarishni asosiy maqsad deb bilamiz.

Shu munosabat bilan qabul qilinadigan davlat dasturida quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq, deb o‘yayman.

Birinchidan, O‘zbekistonimizda tinchlik-osoysishtalik va xavfsizlikni, fuqarolar va millatlararo ahillik va hamjihatlikni ko‘z qorachig‘idek saqlash va mustahkamlash bundan buyon ham eng muhim, hal qiluvchi vazifamiz bo‘lib qolishi darkor.

Albatta, bu masala bo‘yicha mas’ul bo‘lgan tegishli idoralar bor, kuch-qudratimiz ham yetar-

li. Lekin qachon yurt tinch va obod bo‘ladi? Qachonki har qaysi uyda, har qaysi mahallada yashayotgan odam tinchlik va osudalikning qadri-ga yetib, uni mustahkamlashni, uni himoyalashni o‘zining burchi, deb bilsa, tinchlik uchun kurash-sagina bu maqsadga erishish mumkin.

Ikkinchidan, obod hayot degan tushuncha azal-azaldan xalqimizning ong-u tafakkurida av-valambor farovonlik, to‘kinchilik, mo‘l-ko‘lchilik, qut-baraka, bozorlarda arzonchilik ma’nosini o‘zida mujassam etib keladi. Shuning uchun ham bugungi kunda xalq farovonligi tushunchasi Vatan ravnaqi va yurt tinchligi degan, biz uchun eng aziz va muqaddas bo‘lgan qadriyatlar bilan birgalikda milliy g‘oyamizning asosiy mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda.

Dasturni tayyorlashda aholi farovonligini, uning real daromadlarini oshirish, bandlik masalasini yechish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini yanada rivojlantirish, davlat tomonidan beriladigan aniq manzilli ijtimoiy yordam tizimini takomillashtirish kabi vazifalar e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, xalqimizning «Mehnatdan kelsa boylik – turmush bo‘lar chiroylik» degan maqoli zamirida mujassam bo‘lgan haqि-

qatni hayotimiz tarziga aylantirish yo‘lida yangi yilda ham katta-katta ishlarni amalga oshirishimiz zarur.

Uchinchidan, obod turmushning yana bir muhim sharti – bu inson salomatligini mustahkamlash bilan bog‘liq ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Haqiqatan ham, odamlarimiz qachon, qayerda bo‘lmasin, duoga qo‘l ochar ekan, avvalo, «Tani sog‘lik, tinchlik-xotirjamlik bo‘lsin, yurtimiz obod bo‘lsin», deb niyat qilishi bejiz emas, al-batta.

Shu bois xalqimizning salomatligini himoyalash, buning uchun sog‘liqni saqlash tizimini eng zamonaviy davolash vositalari, texnika va texnologiyalar bilan ta’minlash, profilaktika, ya’ni kasalliklarning oldini olish ishlarini yanda kuchaytirish, bu sohada fidokorona mehnat qilayotgan tibbiyot xodimlarining mashaqqatli va mas’uliyatli mehnatini moddiy va ma’naviy rag‘batlantirish masalalari biz uchun doimiy vazifa bo‘lib qoladi.

To‘rtinchidan, xalqimizning hayot sifati va darajasini yuksaltirish, jumladan, yangi uy-joylar, zamonaviy yo‘l va kommunikatsiya tarmoqlarini barpo etish, aholi punktlarini toza ichimlik suvi

bilan ta'minlash, kommunal xizmat sohasida-gi muammolarni yechish kabi dolzarb masalalar bo'yicha ham dasturda aniq chora-tadbirlar belgilanishi kerak.

Beshinchidan, biz turmushimizni yanada obod qilish vazifasini oldimizga qo'yar ekanmiz, bir haqiqatni chuqur anglab olishimiz zarur. Ya'ni, hayotimizni obod qilishning muhim sharti – bu avvalo mahallani obod qilish demakdir.

Shu borada mahalla idorasining, mahallada yashaydigan aholimizning o'zini o'zi boshqarish tizimini, kerak bo'lsa, ijtimoiy himoyalash tizimi-ni yanada takomillashtirish, mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'rni va ta'sirini yanada kuchaytirish, unga yangi huquq va vakolatlar berish bo'yicha ham keng jamoatchilik ishtirokida amaliy takliflar ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Oltinchidan, hayotimizni yanada sog'lom va obod qilish, avvalo ayol zotining jamiyatimizdagi o'rni va nufuzini, ijtimoiy faolligini yanada oshirish, xotin-qizlarning turli jabha va yo'nalishlarda qilayotgan ishlarini munosib baholash, har qaysi xonadonda uy bekasi bo'lmish opa-singillari-mizning og'irini yengil qilish asnosida turmushimizni farovon etish bilan uzviy va chambarchas

bog‘liqdir. Ana shu haqiqatni amalda qaror topti-
rish uchun bizning hali qiladigan ko‘p ishlarimiz
borligini unutmasligimizni istardim.

Albatta, 2013-yilda o‘z oldimizga mana shun-
day katta vazifalarni qo‘yar ekanmiz, ularni
ro‘yobga chiqarish uchun davlat va nodavlat tash-
kilotlar, mahalliy hokimiyat idoralari, mahalla,
xotin-qizlar, yoshlar vakillari, ziyolilarimiz, keng
jamoatchilik, butun xalqimiz faol va munosib ish-
tirok etadi, deb ishonaman.

Azizlarim, qadrdonlarim!

Kirib kelayotgan yangi yilga mamlakatimizda
«Obod turmush yili» deb nom berganimiz bizning
mustaqillik yillarida olib borayotgan siyosatimiz-
ning asosiy, bosh maqsadi bo‘lmish inson manfa-
ati, inson huquqlari va erkinliklarini ta’minlash,
hayotimizning yanada obod va erkin, ertangi ku-
nimizning yanada yorug‘ bo‘lishi yo‘lida yana bir
ulkan qadam bo‘lib xizmat qilishiga aminman.

Yana va yana bir bor barchangizga sihat-salo-
matlik, baxt va omad, xonadonlaringizga fayz-u
baraka tilayman.

*O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining
20 yilligiga bag‘ishlangan tantanali
marosimidagi ma’ruza,
2012-yil 7-dekabr*

XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASIDAGI NUTQ

14-dekabr kuni xalq deputatlari Farg‘ona viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiya-si bo‘lib o‘tdi. Sessiyada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov nutq so‘zladi.

Farg‘ona deganda, avvalambor, «Oltin vodiy» deb nom olgan, haqiqatan ham, O‘zbekistonimizning gavhari bo‘lgan go‘zal diyor ko‘z o‘ngimizda namoyon bo‘ladi, dedi davlatimiz rahbari o‘z nutqining avvalida.

Beqiyos va betakror tabiatga, insonning havasini tortadigan mo‘tadil iqlimga, so‘lim bog‘-rog‘lar, faqat shu zaminda uchraydigan, dunyoga dovrug‘i ketgan turli noz-ne’matlarga, ko‘hna tarixga ega bo‘lgan Farg‘ona viloyati haqida, uning ko‘pni ko‘rgan, hayotning, odamning qadriga yetadigan, mehnatkash va mehmondo‘sit, sodda va samimi insonlari, o‘z qo‘li bilan o‘zining ertangi kunini, yorug‘ kelajagini qurayotgan, bag‘rikeng, vallomat xalqi haqida, bu elga xos

bo‘lgan ezgu xususiyat va fazilatlar haqida alohida to‘xtalar ekan, Islom Karimov viloyat ahliga o‘z qalbida, yuragida bo‘lgan samimiy so‘zlarni, mehr-muhabbatni izhor etish katta mammuniyat va xursandchilik bag‘ishlashini ta’kidladi.

Bugungi uchrashuvimizdan maqsad, deb o‘z so‘zini davom ettirdi Yurtboshimiz, joriy yil yakuniga yetib borishi bilan o‘tgan davr mobaynida qilgan ishlarimizga xolisona baho berish, qo‘lga kiritgan yutuqlarimiz haqida fikr almashtish, ayni vaqtda hal etilmagan, yechimini kutayotgan muammolarni sizlar bilan birga muhokama qilish, oldimizda turgan vazifalarni belgilab olishdan iborat.

Farg‘ona viloyati o‘zining yer osti va yer usti boyliklari, rivojlangan sanoat va kommunikatsiya tarmoqlari, boy mehnat resurslari bilan mammakatimiz taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi.

Butun yurtimizda bo‘lgani kabi Farg‘ona viloyatida ham barqaror o‘sish sur’atlari ta’minlanib, turli sohalarda – bu sanoat, qurilish yoki qishloq xo‘jaligi bo‘ladimi, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, ilm-fan yoki madaniyat bo‘ladimi – bularning barchasida salmoqli natijalarga erishilmoqda.

Viloyat iqtisodiyotida joriy yilning yakuni bo‘yicha yalpi hududiy mahsulotning 106,7 foiz,

jumladan, qishloq xo‘jaligida 107,5 foiz, xizmatlar bo‘yicha 117,2 foiz, pudrat ishlarida 12 foiz o‘sishiga erishish kutilayotganini qayd etish lozim.

Viloyatda yalpi hududiy mahsulot hajmi 2000-yildagiga nisbatan 1,7 barobar oshdi. Bunday natijalarni qo‘lga kiritishda zamonaviy sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish, xalqaro bozorda raqobatdosh bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqaradigan yangi korxonalar barpo etish va mavjud quvvatlarni modernizatsiya qilish jarayonlarining izchil amalga oshirilayotgani hal qiluvchi rol o‘ynamoqda.

Davlatimiz rahbari o‘z nutqida ishlab chiqarish sohasi oldida turgan vazifalar haqida so‘z yuritib, o‘tgan davrda ishga tushirilgan quvvatlar, bиринчи navbatda, eng zamonaviy texnologiyalariga ega bo‘lgan korxonalar, mahalliy xomashyo, avvalambor, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash negizida chet ellik ishbilarmonlar bilan hamkorlikda barpo etilgan qo‘shma korxonalar faoliyatini atroficha tahlil etdi.

Ana shu korxonalarning imkoniyatidan to‘la foydalanish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifati va raqobatdoshligini oshirish orqali nafaqat ichki bozorimizni to‘ldirish, shu bilan birga, eks-

port hajmini ko‘paytirish va shuning hisobidan mehnatchilarimizning daromadi, hayot darajasini yuksaltirish bugungi kunda qanday dolzarb ahamiyat kasb etayotgani barchamizga yaxshi ayon, dedi Islom Karimov.

Shu maqsadda keyingi vaqtida Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodi 89 million AQSH dollari hajmidagi investitsiya va kreditlar asosida tubdan modernizatsiya qilingani, Farg‘ona azot ishlab chiqarish birlashmasiga qariyb 95 million dollarlik investitsiya jalb etilib, uning salohiyati keskin oshirilganini ta’kidlash lozim. Shular qatorida oxirgi besh yilda «Quvasoysement», «Kvars», Qo‘qon superfosfat, Qo‘qon mexanika zavodi kabi 10 dan ortiq yirik sanoat korxonasida 128 million dollardan ziyod investitsiya mablag‘i sarflanib, modernizatsiya ishlari amalga oshirilgani, albatta, e’tiborga loyiq.

Shu bilan birga, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikatsiya hisobidan viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 2000-yildagiga nisbatan 1,5 barobar ko‘payganini aytib o‘tish joiz.

Joriy yilda to‘qimachilik, oziq-ovqat va poyabzal mahsulotlari ishlab chiqaradigan 23 ta korxona tijorat banklari balansiga o‘tkazilib, ularni mo-

dernizatsiya qilish uchun 130 milliard so‘mdan ziyod investitsiya mablag‘lari yo‘naltirildi. Ana shunday ijobiy tajriba assosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan va maishiy kimyo sohasida faoliyat ko‘rsatadigan 41 korxonada ham mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etgan holda, modernizatsiya, texnik va texnologik yangilash ishlarini amalga oshirish dolzarb vazifa bo‘lib turibdi.

Yurtboshimiz nutqida viloyatda yengil sanoat sohasini rivojlantirish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ishlar qilinayotgani e’tirof etildi. Keyingi besh yilda mazkur tarmoqda xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda umumiy qiymati 91 million AQSH dollari bo‘lgan 12 ta loyiha amalga oshirilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Hozirgi vaqtida ushbu korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotning 80 foizidan ortig‘i chetga eksport qilinmoqda. Eng muhimi, bu korxonalar 1600 dan ziyod yoshlarni zamonaviy ish o‘rinlari bilan ta’minlash imkonini berdi.

Amalga oshirilayotgan ana shunday ishlar tufayli viloyatda yetishtirilayotgan paxta tolasini qayta ishlash hajmi 2000-yildagi 22 foiz o‘rniga 2011-yilda 54,7 foizga yetganini, hech shubhasiz, jiddiy o‘sish sifatida baholash o‘rinlidir.

Ilgari biz chetga faqat paxta xomashyosini sotardik. Bugun polufabrikat, ya’ni ip-kalava mahsulotini sotyapmiz. Dunyoning uzoq-yaqin o’lkalarida bizning ana shu mahsulotlarimizga talab katta. Ma’lumki, paxta tolasi – noyob mahsulot, uni yetishtirish uchun dehqonlarimiz yil davomida fidokorona mehnat qiladi. Mana shunday mehnat evaziga olingan mahsulot hisobidan ming-minglab odamlarimiz nafaqat daromad topyapti, shu bilan birga, O’zbekiston paxtasining dunyoda nom qozonishiga hissa qo’shamoqda. Shu ma’noda, bugun biz paxta xomashyosini birinchi bosqichda o’zimizda qayta ishlab, chetga sotayotganimiz, albatta, bu – katta yutuq, deb ta’kidladi Islom Karimov.

Ayni vaqtida qimmatbaho boylik bo’lgan paxta tolasini bizdan sotib olayotgan boshqa mamlakatlar uni yana qayta ishlab, tayyor mahsulotga aylantirish orqali qo’shimcha ravishda yana 2–3 karra ko’p daromad olmoqda. Savol tug‘iladi – nima uchun shu ishni biz o’zimiz qilishimiz mumkin emas?

Bir vaqtlar biz 900 ming tonna paxta tolasini sobiq Markaz ixtiyoriga jo’natardik, u yerda o’tirganlar bu boylikni kimga, qancha narxda sotayotganini respublikamizda hech kim bilmasdi.

O'sha paytlari «O'zbekiston oltin makanı» degan so'zlar ko'p aytildi. Lekin O'zbekistonning oltini, boshqa rangli metallari kimga sotilyapti, qaysi narxda sotilyapti va buning hisobidan Markaz qancha daromad ol-yapti, bu daromaddan bizga nima tushayapti – ana shu noyob boyliklar egasi bo'lmish xalqimiz bu haqda hech narsa bilmas edi. Hatto, O'zbekistonning moliya vaziri bo'laturib, bu haqda men ham bilmasdim, dedi Islom Karimov. Men Davlat plan qo'mitasida 20 yil xizmat qilganman, Moliya vazirligida 4 yil ishlaganman, binobarin, ana shu masalalar bo'yicha menda ma'lumot bo'lishi kerak edi. Bu xususda biror-bir axborot olishga intilsam, bu sening ishing emas, degan qo'pol javob olardim.

Ming shukrki, endi u kunlar ortda qoldi. Men joylarda bo'lib, dehqon va fermerlar bilan uchrashganimda bu masalalar bo'yicha ochiq va oshkora ma'lumot berishga harakat qilaman. Ayni vaqtda ularning bu borada yetarlicha xabardorligi, misol uchun, paxta yoki g'allaning jahon bozoridagi narxlari qanday ekani, bu narx-navoning nega o'sgani yoki aksincha, nega pasaygani haqida har tomonlama ma'lumotga ega ekanini ko'rib xursand bo'laman. Bu haqda

nafaqat qishloq xo‘jaligi xodimlari, balki shu yurtda yashayotgan har bir odam fikr yuritishi tabiiydir.

Bizning bilim va saviyamiz mana shunday o‘zgarib borayotganini, xalqimiz o‘z yeri, o‘zi yetishtirgan mahsulotning, mamlakatimiz boyliklarining haqiqiy egasiga aylanganini men Prezident bo‘lib har qadamda sezyapman va bu bizga katta kuch-quvvat bag‘ishlaydi. Lo‘nda qilib aytganda, ong-u tafakkuri, dunyoqarashi tobo-ra yuksalib borayotgan bunday xalqni o‘z tanlagan yo‘lidan qaytarish aslo mumkin emas, deb ta’kidladi davlatimiz rahbari.

Farg‘ona viloyatida turli xomashyo zaxiralarri va mehnat resurslari yetarli ekanini e’tiborga oladigan bo‘lsak, bu yerda paxta tolasini qayta ishlash hajmini yanada oshirish, eng asosiysi, iste’mol mollarini, tayyor mahsulot ishlab chiqarishni keskin ko‘paytirishni muhim vazifalarimizdan biri, deb hisoblashimiz zarur, deb qayd etdi Prezidentimiz.

Shuni yaxshi anglab olishimiz zarurki, paxta tolasini qayta ishlash asosida eksport qilinadigan ip-kalavani tayyor mahsulot darajasiga ko‘tarish uchun chetdan zamonaviy texnologiyalarni olib kelib o‘zimizda ishga solsak, bu, birinchidan,

mahsulotga qo'shimcha qiymat qo'shib, yangi daromad topish, ikkinchidan, yangi ish o'rinalarini ko'paytirish imkonini beradi. O'ylaymanki, buning uchun bizda barcha shart-sharoit bor, dedi Islom Karimov. Bu borada nufuzli xorijiy kompaniya va firmalarni keng jalb etish, ularning zamonaviy texnologiyalaridan, ishni tashkil qilishning samarali usullaridan foydalanish ana shu maqsadga erishishning eng maqbul yo'lidir.

Bugungi kunda zamonaviy litsey va kollejlar, oliy o'quv yurtlarimizni bitirib chiqayotgan yoshlarimizning saviyasi, malakasi shunday o'sganki, buni shu yil fevral oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada ishtirok etgan rivojlangan mamlakatlarning manaman degan yirik olimlari, ta'lim sohasi mutaxassislari va tashkilchilari ham tan oldi.

Shunday ekan, bugungi kunda chetga sotayotgan polufabrikatni tayyor mahsulotga aylantirish bo'yicha bizda ulkan imkoniyatlar mavjud, deb aytishga barcha asoslarimiz bor. Ya'ni, dunyoda hech kimdan kam bo'lmay voyaga yetayotgan, intellektual va ma'naviy darajasi, zamonaviy kasb-hunar va yetakchi xorijiy tillarni bilishi jihatidan taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlari bilan bahslashishga, kerak bo'lsa, kurashish-

ga, har qanday murakkab vazifani uddalashga qodir bo‘lgan yoshlarimiz bugun hayotga kirib kelyapti. Bu barchamizga g‘urur va iftixor yetkazadi, albatta.

Men viloyat va tumanlarda bo‘lganimda, deb fikrini davom ettirdi Yurtboshimiz, odamlarning, ayniqsa, yoshlarimizning modaga qarab, did bilan zamonaviy kiyinishini ko‘rib chindan ham havasim keladi. Bir vaqtlar bu masalada qandaydir xijolat tortib yurgan bo‘lsak, bugun manzara tubdan o‘zgaryapti. O‘tgan yili Namanganda yosh bir tadbirkor tashkil etgan tikuv fabrikasi faoliyati bilan tanishgan edim. U yerda tikilayotgan zamonaviy kostumlar chet ellarning eng yaxshi kompaniyalari mahsulotidan aslo qolishmaydi. Demoqchimanki, bugun bizning turmush madaniyatimiz ham yuksalib bormoqda. Bu, o‘z navbatida, xalqimizning erkin va farovon yashayotganining namoyoni hamdir.

Inson bu dunyoda hayotdan mammun bo‘lib, uning ne’matlaridan bahramand bo‘lib yashashi kerak. Ya’ni faqat mehnat qilish emas, Xudoning buyurganini bajarib, shu bilan birga, bergen ne’matiga shukr qilib yashash oqilona va baxtli hayot kechirishning asosiy belgisi, desak, yanglishmagan bo‘lamiz.

Keyingi yillarda mamlakatimizda keng tarqalgan «Biz hech kimdan kam bo‘lmaqanmiz va hech kimdan kam bo‘lmaymiz» degan shiorni bugun yurtimizda hamma, hatto yoshlariimiz ham biladi. Men sizlardan, sizlarning timsolingizda ana shunday oliyjanob da’vatni qo‘llab-quvvatlagan butun xalqimizdan minnatdorman, deb ta’kidladi Yurtboshimiz.

Sessiyada qo‘shma korxonalar sonini ko‘paytirish, ana shu asosda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, ayniqsa, qishloq joylarda aholini ish bilan band etish, odamlarni doimiy daromad manbayi bilan ta’minlash, hayot sifatini oshirish masalasi-ga alohida e’tibor qaratildi.

Albatta, bu borada Farg‘ona viloyatida ko‘plab amaliy ishlar qilinganini e’tirof etish joiz. Viloyatda xorijiy sarmoya ishtirokida 107 ta korxona tashkil etilgani ham buning tasdig‘idir. Lekin mavjud qo‘shma korxonalarining asosiy qismi – 68 tasi yoki 63 foizi Farg‘ona, Qo‘qon, Marg‘ilon va Quvasoy shaharlarida joylashgani bu borada nomutanosiblik borligidan dalolat beradi. Holbuki, ba’zi hududlarda, masalan, Furqat va Quva tumanlarida birorta ham qo‘shma korxona tashkil etilmagan.

Viloyatda ro‘yxatga olingan qo‘shma korxonalarining 12 tasi yoki 11 foizi faoliyat ko‘r-

satmayapti. Ularning asosiy qismi Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlari, Dang'ara, Rishton tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Men, bugungi fursatdan foydalanib, shu masalada boshqalarga o'rnak bo'layotgan shahar va tumanlarning rahbarlariga rahmat aytmoqchiman, deb qayd etdi Prezidentimiz. Ayni vaqtida bu sohada qoloqlikka yo'l qo'yayotgan mutasaddi shaxslarga o'rinli bir savol bermoqchiman: sizlarga bu masalada nima to'siq bo'lib turibdi? Yoki sizlar bosh bo'lgan hududlarda yosh bo'ladimi, o'rta yosh bo'ladimi, ish izlab yurgan odamlar yo'qmi? Ishlayman, o'z mehnatim bilan oilamni boqaman, deb yurgan odamlarning, katta umid bilan hayotga qadam qo'yayotgan yosh yigit-qizlarning ko'ziga biz qanday qarashimiz mumkin?

Bunday korxonalarning kelajakni ko'zlab ish olib borishda, ertangi kunga ishonch uyg'otishda qanday katta ahamiyatga ega ekanini qachon tushunib yetamiz?

Aytish kerakki, bu masalada eskicha yonda-shuv, o'zibo'larchilik kayfiyati bilan uzoqqa borib bo'lmaydi. Vaqt bor ekan, bunday tanqidiy gaplardan xulosa chiqarib olish zarur. deb o'ylayman. Rahbarlik vazifasi bizga vaqtinchalik, ta'bir joiz bo'lsa, nasiya qilib berilgan.

Xalq ishonchi bor ekan, shu ishonchga munosib bo‘lish kerak. Yetakchi degan odam rahbar bo‘lib uzoqni ko‘ra olyapmanmi, boshqalarga o‘rnak bo‘lyapmanmi, deb doimo o‘ziga savol berishi lozim. Ishlash, ishslash va yana ishslash, avvalo, o‘z ustida ishslash kerak. Yuzaki ishlar bilan yuradigan odamlarni xalq hech qachon hurmat qilmaydi, dedi davlatimiz rahbari fikrini davom ettirib.

Bugungi kunda el-yurtimiz, ayniqsa, yosh avlodimizning dunyoqarashi, fikrlash darajasi shunday tez sur’atlar bilan o‘smoqdaki, endi nomiga rahbar bo‘lib o‘tirish bilan hech narsaga erishib bo‘lmaydi.

Hozirgi vaqtida, qanday qiyin bo‘lmasin, aholini ish bilan band etish masalasini eng muhim vazifamiz deb bilishimiz kerak. Yangi-yangi korxonalar qurish hisobidan ish joylarini ko‘paytirish uchun investorlarni «otang – yaxshi, onang – yaxshi» deb ko‘ndirish, hamkorlik qilish uchun yurtimizga olib kelish lozim.

Men hokimlarni Prezidentning joylardagi vakillari, deb ta’riflaganman. Agar siz mening va killarim bo‘lsangiz, Prezident bugun o‘rtaga qo‘yayotgan fikrlar, g‘oyalar bilan yashashingiz kerak emasmi?

Qo'shma korxona degani, birinchi navbatda, zamonaviy ishlab chiqarish, zamonaviy ish o'rirlari degani. Lekin bunday korxonalarini tashkil etishda, avvalo, ishlab chiqariladigan mahsulotni kimga, qaysi bozorda sotish haqida o'ylash zarur, dedi Islom Karimov.

Hozirgi kunda dunyoda nima uchun shunday og'ir moliyaviy-iqtisodiy inqiroz yuz bermoqda? Buning asosiy sababi ishlab chiqarilayotgan mahsulotni sotish qiyin bo'layotgani bilan bog'liq. Mana, masalan, Yevropa ba'zi mahsulotlarni sotib olmayapti. Inqirozni boshidan kechirayotgan ayrim davlatlar bizning eksportga chiqarayotgan mahsulotlarimizning narxini ham, hajmini ham kamaytirmoqda. Lekin, endi shunday ekan deb, «Olma pish – og'zimga tush», deb o'tirishimiz kerakmi? Zamon qiyinchiliklariga taslim bo'lish emas, bu qiyinchiliklarni yengib yashashga o'rganishimiz zarur, deb ta'kidladi Yurtboshimiz.

Barchamizga ma'lumki, Farg'ona viloyati o'zining qadimiyligi dehqonchilik mакtabiga ega, tuproqdan zar undirishga qodir bo'lgan haqiqiy mirishkorlar yurti hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda viloyat mehnatkashlari 250 ming hektar maydonda dehqonchilik qilib, otabobolarimizning boy tajribasi, zamonaviy ilm-

fan yutuqlari asosida paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik va boshqa tarmoqlarni jadal rivojlantirib kelayotganlari tahsinga sazovordir.

Joriy yilda farg‘onalik omilkor dehqonlar 650 ming tonna don, 282 ming tonna paxta hosili yetishtirib, shartnoma majburiyatlarini muvaffaqiyatli ado etishdi.

Bu yilgi mavsumda paxta hosili yog‘in-sochinli kunlarga qoldirilmasdan, 45 kunda yig‘ib-terib olingani, uning 75–80 foizi yuqori sortlarga topshirilgani, aytish kerakki, paxtachilik sohasida kam uchraydigan hodisadir.

Fursatdan foydalanib, bunday yuksak marralarga erishish yo‘lida o‘zini ayamasdan fidokorona mehnat qilgan dehqon va fermerlarimizga, barcha qishloq mehnatkashlariga o‘z nomimdan, xalqimiz nomidan chuqur minnatdorlik bildirishni o‘zim uchun ham qarz, ham farz deb bilaman, deb ta’kidladi Prezidentimiz.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi sohasida yer va suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish, tuproq unumdarligini oshirish eng dolzarb masala bo‘lib turibdi.

Viloyatni yetarli suv zaxirasi bilan ta’minalash maqsadida olib borilayotgan amaliy ishlar natija-

sida sig‘imi 350 million kub metr bo‘lgan Markaziy Farg‘ona suv omborining birinchi navbatdagi qurilishi yakunlanib, yangi mavsumda uni foydalishga topshirish ko‘zda tutilmoqda. Bu dehqon va fermerlarimiz uchun suv ta’midotida katta imkoniyatlar tug‘diradi.

Shuningdek, Rishton, Oltiariq, Yozyovon, Bag‘dod tumanlarida 56 ming hektar maydonning meliorativ holati va suv ta’midotini yaxshilash uchun Jahon bankining salkam 68 million 500 ming dollar, «Beshariq», «Furqat-1» va «Dang‘ara» nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish uchun Osiyo taraqqiyot bankining 33 million 500 ming dollardan ortiq kredit mablag‘ini jalb etish ko‘zda tutilmoqda. Bularning barchasi qishloq xo‘jaligi rivojini yangi pog‘onaga ko‘tarish, dehqonlarimiz mehnatini yengillatish, xalqimiz farovonligini oshirishga qaratilgani bilan, ayniqsa, e’tiborlidir.

Majlisda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish borasida Farg‘ona viloyatida yutuqlar bilan birga, hal qilinishi kerak bo‘lgan qator muammolar ham mavjud ekani qayd etildi.

Masalan, keyingi uch yil davomida viloyat xo‘jaliklariga 30 milliard so‘mdan ortiq mablag‘, turli texnika va transport vositalari yetkazib beril-

gan bo‘lsa-da, mashina-traktor parklarining holati bugungi kun talablari darajasida, deb bo‘lmaydi.

Farg‘ona viloyatining tuproq sharoiti haqida gapirganda, aytish kerakki, viloyatning 48 foiz yeri turli darajada sho‘rlangan. Biz bu holatni to‘g‘ri tushungan holda, shu muammoni yechish uchun barcha imkoniyatlarni izlayapmiz: har yili milliardlab so‘m mablag‘ni ayni shu maqsadga yo‘naltiryapmiz, dehqonlarimizga sharoit yaratib beryapmiz, eng zamonaviy ekskavator va boshqa texnikalarni sotib olyapmiz. Agar biz shuni qilmasak, bugun qanday ahvolga tushar edik? Oxirgi 3–4 yilda qilgan ishlarimiz dehqonga yengil nafas olishga imkon bermoqda. Jumladan, viloyat bo‘yicha so‘nggi besh yilda Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi doirasida jami 56 milliard so‘mdan ziyod budget mablag‘i sarflanib, katta hajmdagi ishlar bajarildi.

Bu yo‘nalishdagi loyihalarni izchil davom ettirish uchun kelgusi yilda davlat budgetidan qariyb 28 milliard so‘m mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoxda. Bu qo‘srimcha ravishda 27 ming gektardan ortiq sug‘oriladigan yerning meliorativ holatini yaxshilash imkonini bera-

di. Shu bilan birga, viloyatda bu o‘ta muhim masalada ayrim kamchilik va nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmoqda.

O‘tgan besh yil davomida viloyat bo‘yicha mavjud kollektor-drenaj tarmoqlarining o‘rtacha 51 foizi ta’mirlangan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich Beshariq tumanida 31 foizni, Bag‘dod, Yozyovon, Oltiariq, Rishton tumanlarida 40–47 foizni tashkil etmoqda.

«Sen yerni boqsang, yer seni boqadi» degan maqolni men, avvalo, mirishkor dehqonlardan eshitganman. Shu ma’noda, yer ham tirik jon, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Shunday ekan, nima uchun ajratilgan mablag‘larni o‘zlashtirish masalasida Farg‘ona viloyatida kamchiliklar bor? Nima uchun ajratilgan mablag‘larni bir tumandan olib boshqasiga berishga majbur bo‘lyapmiz?

Mana, misol uchun, Beshariq tumaniga ajratilgan 620 million so‘mdan ziyod mablag‘ning 216 millioni, Dang‘ara tumani bo‘yicha qariyb 800 million so‘m mablag‘ning 130 million so‘mi o‘zlashtirilmagan. Shu sababli bu mablag‘larni Toshloq va Buvayda tumanlaridagi meliorativ tadbirlarni amalga oshirish uchun qo‘sishimcha tarzda yo‘naltirishga to‘g‘ri kelgan.

Bir tumanda rahbarlar, mutaxassislar ishlayapti, ikkinchisida esa dangasalikka berilgan yoki bu ishning ahamiyatini yaxshi tushunmaydi. Bilib qo'yinglar, agar yerimizning dardiga darmon bo'lib, tuproq unumдорligini oshirishga erishmasak, o'z ko'zlagan maqsadlarimizga yetish qiyin bo'ladi, dedi Prezidentimiz.

Yurtimizda mustaqillik yillarida fermerlik harakatini bugungi kun talablari asosida rivojlantirish uchun zarur huquqiy-me'yoriy zamin yaratish, ularning o'z mehnatidan manfaatdorligi, yerga, mulkka, o'zi ishlab chiqaradigan mahsulotga ega-lik hissini kuchaytirish, fermer xo'jaliklarining samaradorligi va rentabelligini oshirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar hayotga izchil joriy etilmoqda. Lekin hammamiz yaxshi tushunamizki, hayot hech qachon bir joyda to'xtab turmaydi, zamon o'zgaryapti, aholining soni, talabi va ehtiyojlari ortib bormoqda.

Shu borada boshlagan ishlarimizni yangi, yusak bosqichga ko'tarish, fermerlik harakatini haqiqatan ham hayotimizdag'i hal qiluvchi kuchga aylantirish maqsadida yaqinda «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tad-

birlari to‘g‘risida»gi Prezident Farmoni qabul qilinib, unda mazkur sohani tashkiliy jihatdan mustahkamlash, fermer xo‘jaliklarining iqtisodiy mustaqilligi va moliyaviy barqarorligini oshirish bo‘yicha dolzarb vazifalar belgilab berildi.

Fermer xo‘jaliklarini nafaqat yuqori hosil oladigan, ayni vaqtda yetishtirilgan hosilni qayta ishslash, turli zamonaviy servis xizmatlari bilan shug‘ullanadigan ko‘p tarmoqli xo‘jalik subyektlariga, tuman darajasida haqiqiy boshqaruvchiga aylantirish kabi vazifalarni amalga oshirishda yaqinda tashkil etilgan O‘zbekiston Fermerlari kengashi, jumladan, ushbu kengashning Farg‘ona viloyati va tuman bo‘limlari o‘zining ijobiylari ta’siri va ahamiyatini ko‘rsatadi, deb ishonaman, dedi mamlakatimiz rahbari.

Majlisda Farg‘ona viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, bu muhim tarmoq uchun har tomonlama qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan ishlar atroflicha tahlil etildi. Avvalo, bu sohaning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi 2000-yildagiga nisbatan deyarli 2 barobar oshgani va 2011-yil yakuni bo‘yicha 61,2 foizni tashkil etayotgani ijobiylari baholandi.

Faqat joriy yilning o‘zida yuzdan ortiq kichik korxonani barpo etish va modernizatsiya qilish uchun 238 milliard so‘mlik investitsiya sarflandi. Natijada kichik biznes subyektlari tomonidan 387 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, 38 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Shunisi e’tiborliki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mahalliy xomashyo asosida zamnaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasiga chuqur kirib bormoqda. O’tgan uch yil davomida viloyat bo‘yicha 9 ta g‘isht zavodi ishga tushirilgani, ayniqsa, Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlari, Rishton, So‘x tumanlarida qurilish industriyasi korxonalari faoliyati yo‘lga qo‘yilgani bu fikrni tasdiqlaydi. Ana shu obyektlarda 6,5 mingdan ziyod yangi ish o‘rni tashkil etilgani aholi g‘oyat zinch yashaydigan Farg‘ona sharoitida qanday muhim ahamiyatga ega ekani hammanizga yaxshi ayon, albatta.

Shu ma’noda, viloyatda ish bilan band aholining salkam 80 foizi aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilayotgani bu tarmoqning naqadar katta imkoniyatlarga ega ekanidan dalolat beradi. Bunday o‘zgarish mammakatimizda o‘rta sinfni shakllantirishda beqiyos

ahamiyatga ega, deb fikrini davom ettirdi Yurtboshimiz.

O'rta sinf – mulk egasi, O'zbekistonning bugungi va kelajagini hal qiladigan kuch. Bu sinf jamiyatda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashdan eng ko'p manfaatdor bo'lgan ijtimoiy qatlamdir. Mulk egasi hech qachon bekorchi ishlarga vaqt sarflamaydi. Chunki u doimo ish bilan, mehnat bilan band. Fermerlarimiz ham ayni shu qatlamga mansub bo'lib, qishloq joylarda ertangi kunimiz poydevorini yaratishda o'z hissasini qo'shamoqda.

O'zbekistonda o'ta boylar ham, o'ta qashshoqlar ham bo'lmaydi, degan tamoyil biz tanlagan yo'l – «o'zbek modeli»ning ajralmas qismini tashkil etishi sizlarga yaxshi ma'lum. Biz tanlagan bu tizim, bu yo'lni xalqimiz qo'llab-quvvatlamoqda. Ana shu maqsad yo'lida o'zini ayamasdan mehnat qilayotgan yurtdoshlarimizga har qancha rahmat aytsak arziydi.

Mustahkam oila yilida amalga oshirgan ishlarimiz ayni shu maqsadlar, ya'ni o'rta sinfni mustahkamlash masalasi bilan chambarchas bog'lanib ketgan bo'lib, jamiyatimizda tadbirkorlikni, ayniqsa, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishda yangi bir bosqichni boshlab berdi. Oilaviy tadbirkorlik deganda, oila deganda, av-

valo uning tayanchi bo‘lgan opa-singillarimizni tushunamiz, ularning bu borada ham faollik ko‘rsatayotgani hammamizni quvontiradi. Fur-satdan foydalanib, mamlakatimizning barcha ayollariga ana shunday xizmatlari uchun o‘z minnatdorligimni bildirmoqchiman, dedi Prezi-dentimiz.

Majlisda ijtimoiy soha rivoji, avvalo, zamonaviy transport-kommunikatsiya tarmoqlarini ta-raqqiy ettirish bo‘yicha butun mamlakatimiz qatori Farg‘ona viloyatida ham jiddiy ishlar amalga oshirilayotgani ta’kidlandi.

Bu borada bundan uch yil avval Angren shahrida tashkil etilgan Xalqaro logistika markazining ahamiyati, ayniqsa, katta bo‘lmoqda. Bu markaz bugungi kunda Farg‘ona vodiysi bilan mamlakati-mizning boshqa hududlari o‘rtasida avtotransport vositasida yuk tashish infratuzilmasini yanada takomillashtirishga xizmat qilmoqda.

Joriy yilning 9 oyida mazkur markazdan Qam-chiq dovoni orqali 5 million 200 tonna yuk tegishli manzillarga yetkazib berildi. Ana shu yuklarning deyarli yarmi Farg‘ona viloyatiga to‘g‘ri keldi.

Shular haqida gapirganda, avvalo, Qamchiq dovoni orqali barpo etilgan kommunikatsiya tarmog‘ini – zamonaviy avtomobil yo‘lini ish-

ga tushirganimiz qancha-qancha muammolarni yechish, Farg‘ona vodiysiini mamlakatimizning boshqa mintaqalari bilan ishonchli tarzda bog‘lash, korxonalarни zarur materiallar bilan ta’minlash, odamlarning uzog‘ini yaqin qilishda qanday beqiyos ahamiyat kasb etganini, o‘ylaymanki, izohlab o‘tirishning hojati yo‘q, deb qayd etdi Islom Karimov.

Ayni vaqtida iqtisodiyotimizning bamisolи qon tomiri bo‘lgan bunday transport-kommunikatsiya tizimlarini yanada takomillashtirish uchun yana ko‘p ishlar qilishimiz zarurligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Shu borada Farg‘ona vodiysida, jumladan, Farg‘ona viloyatida mana shunday logistika markazlari, ya’ni xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan turli yuklarni jamlash, tashish va xaridorga yetkazib berishga ixtisoslashtirilgan markazlarning faoliyatini zamon talablari darajasiga ko‘tarish, buning uchun maxsus dastur ishlab chiqib, joriy etish zarurligiga Yurtboshimiz nutqida alohida e’tibor qaratildi.

Yana bir muhim ijtimoiy vazifa – Farg‘ona viloyati aholisini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni yaxshilash bo‘yicha ham katta loyihalar amalga oshirilmoqda. Buni keyingi o‘n yilda 2 ming 120

kilometrlik suv tarmog‘i yangitdan qurilib, viloyat aholisining markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta’minlanish darajasi 91,2 foizga yetkazilgani ham ko‘rsatib turibdi.

Ana shunday keng ko‘lamli ishlarning izchil davomi sifatida Osiyo taraqqiyot bankining qariyb 97 million dollar mablag‘i hisobidan Qo‘qon shahrida yangi tozalash inshootlarini qurish hamda oqova suv tarmoqlarini, shuningdek, Farg‘ona, Marg‘ilon shaharlari va Rishton tumani markazida suv tarmoqlarini rekonstruksiya qilish loyihasini 2015-yilga qadar amalga oshirish mo‘ljallanmoqda.

Yana bir dolzarb masala, ya’ni viloyatda xizmat va servis sohasining o‘sishi mamlakatimizdagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha orqada qolayotgani majlisda afsus bilan qayd etildi. Bu boradagi raqam Farg‘ona viloyatida 2011-yil yakuni bilan 43 foizni, mamlakatimiz bo‘yicha esa 50,5 foizni tashkil etayotgani ham buni yaqqol ko‘rsatib turibdi. Sessiyada mazkur holatni ijobjiy tomonga o‘zgartirish uchun Vazirlar Mahkamasi bu masalani alohida o‘rganib chiqishi zarurligi uqtirib o‘tildi.

Bugun Farg‘ona shahrida barpo etilgan ayylanma yo‘lni ko‘rib xursand bo‘ldim, dedi Islom

Karimov so‘zini davom ettirib. Bu yo‘l tim-solida men Farg‘onani yangitdan kashf etgan-dek bo‘ldim. Bu yo‘l Farg‘ona shahri rivojiga har tomonlama kuchli turtki berishi shubhasiz. Kommunikatsiya paydo bo‘lsa, albatta uning atrofida do‘konlar, xizmat ko‘rsatish shoxob-chalari, go‘zallik salonlari, dam olish joylari, eng muhimi, yangi-yangi ish joylari ham paydo bo‘ladi.

Bugungi kunda eng o‘tkir masalalardan biri bo‘lmish odamlarni ish bilan band qilish maq-sadida Farg‘ona viloyatida amalga oshirayotgan ishlarni yanada jadallashtirish, uning samarasini oshirish, birinchi navbatda, kollejlarni bitirib chiqayotgan yoshlarni egallagan kasb-hunariga qarab ish bilan ta’minalash borasida ham ko‘p ish qilishimiz kerak, deb ta’kidladi davlatimiz rahbari.

O‘tgan o‘quv yilida kollej bitiruvchilarining 58 mingtasidan 7 mingtasi ishga joylashtirilmay qolgani ham bu masalada muammolar borligini ko‘rsatadi.

Odamlarning, ayniqsa, yoshlarning taqdirini, kelajagini hal qiladigan bu masalaga e’tiborni yanada kuchaytirish, shu ishga mutasaddi bo‘lgan rahbar va xizmatchilarining mas’uliyatini oshirish

lozim. Bir so‘z bilan aytganda, bu masala doimiy ravishda kun tartibida turishi zarur.

Ayni shu muammoning to‘g‘ri yechimini topish, har qaysi odamning kuchi va qobiliyatiga yarasha ish topib berish, shu orqali ularni daromad bilan ta’minlash hisobidan xalqimiz, avvalo, qishloqda yashaydigan aholining kayfiyatini ko‘tarish, ularni hayotdan rozi qilish mumkin ekanini unutmasligimiz kerak, dedi Yurtboshimiz.

Zamonaviy uy-joy va kommunikatsiya tarmoqlari barpo etish, umuman, obodonchilik masalasi aholi turmush madaniyatini oshirishning asosiy mezoni, faoliyatimizning bosh maqsadi bo‘lib kelayotgani yaxshi ma’lum. Mamlakatimizda kirib kelayotgan Yangi – 2013-yilga «Obod turmush yili» deb nom berganimizni, avvalambor, O‘zbekistonda shu borada olib borilayotgan davlat siyosatining uzviy va mantiqiy davomi sifatida qabul qilish o‘rinli bo‘ladi. Bugungi kunda yurtimizda qurilayotgan namunaviy uy-joy massivlari ni kommunikatsiya tarmoqlari va ijtimoiy infratuzilma obyektlari bilan birgalikda kompleks holda barpo etish bo‘yicha samarali tizim yaratilgani ana shunday ezgu maqsadga xizmat qilmoqda.

Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida yer resurslari cheklangan bo‘lishiga qaramasdan,

ana shunday uy-joylarni qurish uchun 4 sotix o‘rniga 6 sotix yer ajratib berish bo‘yicha ishlar izchil amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlash joiz.

Aytish kerakki, o‘tgan uch yil mobaynida Farg‘ona viloyatidagi 1 ming 325 ta oila shahar sharoitidan kam bo‘lmagan zamonaviy, qulay uy-joylarga ega bo‘ldi. Joriy yilda esa viloyatning 28 ta massivida jami 700 ta namunaviy uy-joy qurilishi yakuniga yetkazilmoqda.

Prezidentimiz bu boradagi ishlarni 2013-yilda ham davom ettirish, 29 ta massivda namunaviy loyihalar asosida yana 700 ta uy-joyni sifatli va o‘z vaqtida qurib bitkazish choralarini ko‘rish lozimligini uqtirib o‘tdi.

Yurtimizda aholi salomatligini mustahkamlash masalasiga berilayotgan ulkan e’tiborning amaliy natijasini Farg‘ona viloyatida ham ko‘pgina missollarda yaqqol ko‘rish mumkin. Masalan, keyingi ikki yilda 25 milliard so‘m mablag‘ hisobidan Marg‘ilon shahrida zamonaviy tug‘uruq kompleksi, yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Qo‘qon shahrida 7 ta oilaviy poliklinika, Farg‘ona shahrida viloyat onkologiya dispanseri va boshqa tibbiyot maskanlari rekonstruksiya qilindi va bunday ishlar davom ettirilmoqda.

Yosh avlodni dunyoda hech kimdan kam bo‘lmaq, har tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash maqsadida viloyatda ta’lim-tarbiya, madaniyat va sport inshootlarini qurish ishlariiga alohida e’tibor berilmoqda. Buning isbotini o’tgan yetti yilda jami 8 ta akademik litsey va 100 ta kasb-hunar kolleji, 11 maktab, 16 ta musiqa va san’at maktabi, 115 ta sport obyekti, joriy yilning o’zida esa 13 ta maktab, 3 ta kasb-hunar kolleji, 730 o’rinli yotoqxona qurilgani va rekonstruksiya qilingani misolida ko‘rish mumkin. Yaqinda men gazetada Marg‘ilonda bunyod etilgan zamonaviy musiqa maktabining suratini ko‘rib, qani endi, yosh bo‘lsam, men ham shunday maktabga kиrib o‘qigan bo‘lardim, deb beixtiyor orzu qildim. O‘ylaymanki, barcha ota-onalar bugungi kunda farzandlarimiz uchun yaratilayotgan sharoitlarni ko‘rib, ularga havas qilishi tabiiy.

Yuqorida zikr etilgan barcha raqamlar, albatta muhim, lekin ularning negizida turgan eng og‘ir va murakkab masala – yosh avlodni jismoniy va ma’naviy barkamol etib tarbiyalash vazifasining mohiyati va ahamiyatini hech narsa bilan o‘lchab, qiyoslab bo‘lmaydi.

Takror aytaman, bizning bu boradagi yutuqlarimizni ko‘rib, O‘zbekiston shunday ishlarga

qodir ekan, deb, dunyo jamoatchiligi qoyil qolmoqda. Shunday ekan, bu ishlarimizni, albatta, oxiriga yetkazishimiz, bunday ta'lim dargohlarini nafaqat qurish va jihozlash, balki farzandlarimizga ta'lim-tarbiya berish uchun eng yuksak mala-kali o'qituvchi va mutaxassislarni jalb etish, ularning bilim va malakasini zamon talablari asosida oshirib borishga eng muhim, g'oyat mas'uliyatli vazifa, deb qarashimiz lozim.

Mana, kuni kecha Buyuk Britaniyaning nufuzli Maplecroft konsalting kompaniyasi tomonidan investitsiya muhiti eng qulay bo'lgan davlatlarning ro'yxati e'lon qilindi. Dunyodagi 175 ta mamlakatni qamrab olgan ana shu ro'yxatda O'zbekiston yetakchi 20 ta davlat qatoridan joy olgan. Bu nimaning dalolati? Bu, birinchi navbatda, amalga oshirayotgan islohotlarimizga, bizning kelajagimizga, yoshlarimizga bo'lgan ishonchning dalolati, desak, ayni haqiqat bo'ladi, deb ta'kidladi Prezidentimiz.

So'nggi yillarda qadimiylar Marg'ilon va Qo'qon shaharlarining qiyofasi mutlaqo o'zgarib, ular O'zbekistonimizning eng zamonaviy va go'zal shaharlariga aylanib borayotgani barchamizni quvontiradi. Xususan, Marg'ilon shahrida amalga oshirilgan katta hajmdagi bunyodkorlik ish-

lari natijasida ko'plab yangi binolar, madaniyat va ma'rifat maskanlari barpo etildi, Pirsiddiq me'moriy majmuasi, Ulug'mozor ziyoratgohi, Jahan otin Uvaysiy maqbarasi va muzeyi kabi tarihiy-madaniy yodgorliklar qaytadan tiklandi.

Qo'qon shahrida amalga oshirilgan ulkan miqyosdagi qurilish va obodonlashtirish ishlari hisobidan shaharning markaziy qismidagi ko'rimsiz imoratlar o'rnida zamonaviy binolar qad rostladi. Jumladan, O'rda, Ozodlik, Chorsu va Kimyogarlar maydonlari, temiryo'l vokzali, Hamza Umurov nomidagi kinoteatrning tubdan rekonstruksiya qilingani, Turkiston va Alisher Navoiy ko'chalarida amalga oshirilgan keng ko'lamli bundaykorlik ishlari Qo'qonni chinakam latif, har tomonlama obod shaharga aylantirdi.

Esimda bor, men o'tgan yili Qo'qonda bo'lib, ana shu ishlar bilan tanishganimda shahar qiyofasining mutlaqo o'zgarganini ko'rib, xursand bo'lgan edim. Lekin Qo'qon shahri vakillari bilan uchrashuv va suhbatlar chog'ida ularning bildirgan fikrlari, yuz-ko'zlaridagi quvonch va minnatdorlik, odamlarning ko'tarinki kayfiyati menda, ayniqsa, unutilmas taassurot qoldirgan edi. Bugungi imkoniyatdan foydalanib, Qo'qon ahliga yana bir bor o'zimning samimiyl hurmatim va

ezgu tilaklarimni izhor etmoqchiman, dedi Islom Karimov.

Esingizda bo‘lsa, o‘tgan yilning oktabr oyida viloyat faollari bilan bo‘lgan uchrashuvda viloyat markazi bo‘lmish Farg‘ona shahrini tubdan qayta qurish va rekonstruksiya qilish dasturi haqida ham atroficha gaplashib olgan edik, deb so‘zida davom etdi davlatimiz rahbari. Ana shu majlisda bildirilgan fikr-mulohazalar, amaliy takliflar asosida Farg‘ona shahrining bosh rejasini amalga oshirish, 2012–2015-yillarda ijtimoiy va transport-kommunal infratuzilma obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish bo‘yicha maxsus dastur qabul qilingan edi. Ushbu dastur ijrosi uchun barcha manbalar hisobidan 1 trillion so‘mdan ko‘proq mablag‘ sarflash ko‘zda tutilganining o‘zi bu borada amalga oshiriladigan ishlarning ko‘lami va miqyosi naqadar katta ekanini ko‘rsatib turibdi.

Joriy yilning o‘tgan davrida ana shu dastur doirasida 164 milliard so‘m va 12,4 million AQSH dollari hajmidagi mablag‘ o‘zlashtirilib, avvalamboz, 11 kilometr uzunlikdagi shahar halqa yo‘li va 2,8 kilometrlik mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo‘llari qayta ta’mirlanmoqda.

Shu bilan birga, 225 tadan ortiq ijtimoiy-mashiy bino va xizmat ko‘rsatish obyekti, 2 ta ko‘p

qavatli uy-joy, 2 ta bozor, 5 ta istirohat bog‘i va xiyobonlar, 8 ta favvora yangitdan barpo etildi. Shuningdek, 13,5 kilometr ichimlik suv va 5,5 kilometr gaz tarmoqlari o‘tkazildi, 32 ta transformator, 105 kilometr uzunlikdagi elektr tarmog‘i kapital ta’mirlandi.

Ana shunday katta ko‘lamdagи ishlar tufayli 16 mingta xonadon va ijtimoiy soha obyektlarining ichimlik suvi, tabiiy gaz, elektr va issiqlik energiyasi bilan ta’milanishi yaxshilandi.

Amalga oshirilgan bunday ishlar haqida gapirganda, aholi, ayniqsa, yoshlarning madaniy dam olishi, bo‘s sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi uchun qo‘sishimcha qulayliklar yaratish maqsadida Farg‘ona shahrida 28 ta bolalar maydonchasi, bolalar sport kompleksi va akvapark qurilib, 9 ta zamonaviy attraksion o‘rnatilgani, Yoshlar markazi va viloyat drama teatri binolari kapital rekonstruksiya qilinganini ta’kidlash lozim.

Hozirgi vaqtda ming o‘rinli San’at saroyi va besh yuz tomoshabinga mo‘ljallangan amfiteatr, Mustaqillik ko‘chasidagi savdo markazi va uning atrofidagi xizmat ko‘rsatish obyektlari qurilishi jadal sur’atlar bilan davom ettirilmoqda. Shular qatorida shaharda xalqaro talablarga javob beradigan 20 ming o‘rinli zamonaviy stadion va fut-

bol maktabini yaqin muddat ichida foydalanishga topshirish mo'ljallanmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, ana shu ishlarimizning barchasi Farg'onani tom ma'noda go'zal va betakror shaharga aylantirishga munosib hissa bo'lib qo'shilishi muqarrar.

Butun yurtimizda amalga oshirilayotgan bunday o'zgarishlarni ko'rganda, biz bekorga yashamadik, o'zimizning kuch-g'ayratimiz, aql-zakovatimiz, bilim va tajribamizni mana shunday ulug' ishlarga bag'ishladik, deb boshimizni baland ko'tarib, g'urur va iftixor bilan aytishga har tomonlama haqlimiz, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo'shilasiz. Mening tilagim bitta: Farg'onaning qiyofasini tubdan o'zgartirayotgan mana shunday obod va chiroyli shahar va qishloqlar shu saxovatli zaminda yashayotgan Farg'ona xalqiga buyursin, dedi Yurtboshimiz.

Prezidentimiz rahbarning bugungi kundagi o'mi va mas'uliyati haqida atroficha to'xtalib, jumladan, quyidagi fikrlarni bayon etdi.

Aytish kerakki, amal har qanday odamni sinaydi. Biz bunday hollarni ko'p ko'rganmiz. Sirti yaltiroq – ichi qaltiroq rahbarlarni ham ko'rganmiz. Lekin odamlarni baribir aldab bo'lmaydi.

Men viloyatlarga borib, rahbarlarni mas’uliyatli lavozimlarga tavsiya qilayotganimda, bilamanki, sizlar bu odamga emas, avvalo, Prezidentga ishonasizlar. Prezident bizni hech qachon aldamagan deb, tavsiya etilayotgan nomzodga ishonch bildirasizlar va shu tariqa mening zimmamga, mening gardanimga juda katta mas’uliyat tushadi. Men doimo ana shu mas’uliyat hissini chuqur anglab, sezib yashayman.

Bugun zamon tez o‘zgaryapti, deymiz. Lekin zamon emas, odamlar tez o‘zgaryapti. Bunday sharoitda rahbarlik qilishning o‘zi tobora qiyin bo‘lib boryapti. Shu o‘rinda biz kimning, qanday buyuk zotlarning, qanday buyuk xalqning farzandlari ekanimizni yana bir bor esga olishingizni istardim. Yetakchilik mas’uliyatini o‘z bo‘yniga olgan har qaysi odam bu haqiqatni hammadan ham ko‘ra ko‘proq anglashi, el-yurtga qaratilgan har qanday zarbani o‘ziga olishga qodir bo‘lishi lozim, dedi davlatimiz rahbari.

Sessiyada tashkiliy masala ko‘rildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tavsiyasiga ko‘ra, 2011-yilning noyabr oyidan buyon Farg‘ona viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi bo‘lib ishlab kelayotgan Shuhrat Madamnovich G‘aniyev viloyat hokimi etib saylandi.

Sessiyada O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Farg'ona viloyati bo'limi raisi E. Siddiqova, «Mahalla» xayriya jamoat fondi Farg'ona viloyati bo'limi raisi A. Yo'lbarssov, Farg'ona davlat universiteti talabasi G. Ergasheva so'zga chiqdilar.

Yurtboshimiz o'z nutqini yakunlar ekan, jumladan, shunday dedi:

Men siz, azizlarni yaxshi bilaman, barchangizni chin qalbimdan hurmat qilaman, barchangizni yaxshi ko'raman. Farg'ona ahli bilan bo'ladigan har bir uchrashuv menga katta ma'naviy oziq beradi.

Agarki boshqa sabab bo'limganda ham, ayni sizlar bilan yana bir bor diydor ko'rishish uchun ham Farg'onaga kelishim kerak edi. Sizlar bilan har safar uchrashganda men o'zimning eng yaqin qadrdonlarim bilan ko'rishgandek, suhbat qurgandek bo'laman. Ayni vaqtda boshqa uchrashuvlar ham beixtiyor xayolimga keladi.

1989-yil 23-iyun kuni men Toshkentda O'zbekiston rahbari etib tayinlandim. 25-iyun kuni esa Farg'ona viloyatiga kelib, mana shu binoga kirdim. Garchi respublika miqyosidagi mas'ul lavozimlarda, jumladan, Davlat plan qo'mitasida, Moliya vazirligida ko'p yillar ishlagan, Qashqadaryo viloyati rahbari bo'lib xizmat

qilgan bo‘lsam-da, Farg‘ona viloyatida meni hali ko‘pchilik tanimasdi.

O‘sha paytda bu yerda qanday og‘ir va qaltis vaziyat hukm surgani barchangizga, o‘ylaymanki, yaxshi ma’lum. Obkom binosini avtomat taqqan desantchilar qurshab olgan, ko‘chalarda ham qurolli soqchilar. Tez orada Qo‘qonga qarab yo‘l oldim. Yo‘l-yo‘lakay uchragan odamlarning kayfiyati nihoyatda tushkun, ularning qiyofasida g‘am-tashvish yaqqol sezilib turardi. Qo‘qonda, ming afsuski, uchta yosh yigit desantchilar bilan bo‘lgan to‘qnashuvda halok bo‘lgan ekan. Albatta, bunday og‘ir vaziyatda rasmiy shaxslar bilan uchrashuvlar bo‘ldi-yu, lekin xalq vakillari bilan, Qo‘qon ahli bilan ochiq va oshkora muloqot qilishning imkonni bo‘lmadi. O‘sha kunlarni men hali-beri unutmayman, dedi Islom Karimov. Haqiqatan ham, bugungi tinch va osoyishta hayotning qadriga yetish, uni har tomonlama asrabavaylash uchun ana shunday kunlarni barchamiz hech qachon unutmasligimiz, o‘tmishdan saboq chiqarib yashashimiz darkor.

Yaratganimizga shukrki, mana endi xalqimiz, jamoatchiligidan bilan bo‘ladigan uchrashuvlar hammamizga mammuniyat, baland ruh bag‘ishlaydi. Tilagim shuki, mana shunday uch-

rashuvlar ko‘proq bo‘lsin, nafaqat majlislarda, balki yaxshi kunlarda, to‘ylarda, bayramlarda diydor ko‘rishish barchamizga nasib etsin. Hammamizni yanada yorug‘ va quvonchli kunlarga yetkazsin, dedi Yurtboshimiz o‘z nutqining niho-yasida.

2012-yil 14-dekabr

O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI

Aziz yurtdoshlarim!

Qadrli do'stlar!

Yangi yilga sanoqli daqiqalar qolgan mana shu shukuhli damlarda yurtimizga qutlug' qadamlar bilan kirib kelayotgan 2013-yil bilan siz, azizlarni chin qalbimdan tabriklash, barchangizga o'zimning chuqur hurmatimni bildirish, samimiy tilaklarimni izhor etish men uchun katta sharaf, katta baxtdir.

O'tgan davr mobaynida boshimizdan kechirgan, el-yurtimiz hayotida ro'y bergan voqealarni, amalga oshirgan ishlarimizni baholar ekanmiz, o'z poyoniga yetayotgan 2012-yilni shukronalik tuyg'usi bilan, mammuniyat bilan kuzatishga to'liq asoslarimiz bor.

Buning isbotini, avvalambor, Vatanimizning oldida turgan buyuk maqsad va muddaolarga erishish, zamonaviy, erkin va mustaqil davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida amalga oshirayotgan ulkan ishlarimizda, iqtisodiyotimizning barqaror sur'atlar bilan o'sishida, aholimizning

yashash darajasi va sifati yuksalishida, yurtimizning qiyofasi tobora chiroy ochayotganida, mamlakatimizning xalqaro maydonda obro‘-e’tibori va o‘rni kuchayib borayotganida ko‘rishimiz, anglashimiz qiyin emas.

Shu borada bir haqiqatni hech ikkilanmasdan aytishni o‘zimning burchim, deb bilaman.

O‘zbekistonimizning bugungi kunda butun dunyo tan olayotgan yuksak marralarga erishishi-da, bir so‘z bilan aytganda, obod va farovon hayot barpo etishda, avvalo, shu saxovatli zaminda yashayotgan har qaysi insonning munosib hissasi borligini, bu yutuqlarning barchasiga xalqimizning kundalik og‘ir va mashaqqatli mehnati, mardligi va matonati, bir yoqadan bosh chiqarib, yagona oila bo‘lib, yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalikni, o‘zaro hurmat va mehr-oqibatni ko‘z qorachig‘idek asrab yashayotganimiz mustahkam zamin bo‘layotganini hech qachon unutmasligimizni istardim.

Mamlakatimizning taraqqiyot sur’atlarini, hayotimizda ro‘y berayotgan tub o‘zgarish va yangilanishlarning miqyosi va ko‘lamini o‘zimizga tasavvur qilish uchun, birinchi navbatda, quyidagi raqam va ko‘rsatkichlarga e’tibor berishimizni o‘rinli, deb bilaman.

2012-yilda jahon miqyosida moliyaviy va iqtisodiy inqiroz davom etayotgan bir paytda, ko‘pchilik mamlakatlarda o‘sish o‘rniga pasayish holatlari yuz berayotganiga, jiddiy ijtimoiy muammolar va yon-atrofimizda keskinlik, turli qarama-qarshilik kuchayib borayotganiga qaramasdan, O‘zbekistonimizda iqtisodiyotimiz barqaror sur’atlar bilan rivojlanib, bu boradagi ko‘rsatkich 8,2 foizni, oxirgi uch yil yakuni bilan 27,7 foizni tashkil etganining o‘zi ortiqcha ta’riflashga va izohlashga o‘rin qoldirmaydi.

O‘tayotgan yilda davlat budgeti umumiy xarajatlarining 59 foizi aynan sotsial sohalarga, ya’ni aholining ehtiyojini qondirishga yo‘naltirilganini alohida ta’kidlash lozim, deb hisoblayman.

Faqatgina joriy yilning o‘zida aholimizning real, ya’ni amaldagi daromadlarining o‘rtacha 17,5 foizga oshgani, davlat budgetidan oylik oladigan xodimlarning ish haqi, nafaqa va stipendiyalar miqdori o‘rtacha 26,5 foizga o‘sganini qayd etish zarur.

Daromadlar oshishi bilan aholimizning banklarda saqlanayotgan omonatlari hajmi o‘tayotgan yilda 34,6 foizga, oxirgi uch yilda esa 2,4 karraga ko‘paygani hayotimiz tobora farovon bo‘lib

borayotganining yaqqol ko'rsatkichi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

O'z yakuniga yetayotgan yilda mamlakatimiz miqyosida 9,3 million kvadrat metr, shu jumladan, qishloq joylarda 7,2 million kvadrat metr uy-joy foydalanishga topshirilganining o'zi ham shunday xulosa chiqarishga asos bo'lishi muqarrar.

Hayotimizni tubdan o'zgartirayotgan bunday misollarni mamlakatimizning turli soha va jabhalaridan yana ko'plab olib kelish mumkin.

O'zbekiston qo'lga kiritayotgan bunday marralarning mustahkam zamini odamlarimizning, avvalo, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan yoshlarimizning dunyoqarashi, siyosiy va ijtimoiy faolligi, grajdanlik pozitsiyasi tobora kuchayib borayotganida, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Bularning barchasi shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zining, oilasining taqdirini biz uchun yagona Vatan bo'lmish O'zbekiston taqdiri bilan uzviy va chambarchas bog'liq holda ko'rayotganidan dalolat beradi. Va hayotga bunday yondashish ertangi kunimizning mustahkam poydevoriga aylanib bormoqda.

Ayni shu fursatdan foydalanib, hayotimizda yuz berayotgan ana shunday o'zgarish va

yangilanishlarning ijodkori va bunyodkori bo‘lmish siz, aziz yurtdoshlarimga mamlakatimizning taraqqiyoti, uni dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga ko‘tarishdek ezgu maqsadlarimizni amalga oshirish yo‘lidagi munosib xizmatlaringiz uchun chin qalbimdan minnatdorlik bildirishni ham qarz, ham farz deb bilaman.

Muhtaram do‘stlar!

Bugun, mana shu munavvar daqiqalarda yangi yilga pok va qutlug‘ niyatlar bilan qadam qo‘yar ekanmiz, Ollohdan avvalo o‘z marhamati va nazarini ayamasdan, beba ho ne’mat bo‘lmish tinchlik va osoyishtalikni, ahillik va bag‘rikenglikni, qut-barakani yanada ziyoda qilishini, bundan buyon ham doimo yo‘limizni ochib berishini so‘raymiz.

Biz kirib kelayotgan yangi – 2013-yilga mamlakatimizda «Obod turmush yili» deb nom berdik. Buning zamirida xalqimiz, Vatanimiz istiqbolini, shu muqaddas zaminda yashayotgan har bir inson, har qaysi oilaning orzu-umidlarini ro‘yobga chiqarish, shahar va qishloqlarimizni yanada obod, hayotimizni yanada farovon etishga qaratilgan amaliy intilishlarimiz mujassam ekani, o‘ylaymanki, barchamizga yaxshi ayon.

Yangi yilda iqtisodiyotimizning o'sish sur'atlarini 8,0 foizdan kam bo'lмаган даражага ко'тариш, унинг рақобатдoshligini күчайтириш, модернизация va diversifikatsiya qilish, мулкдорлар kafolatini yanada oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, fermerlik harakatini keng qo'llab-quvvatlash, xalqimizning vijdoni bo'lmish mahalla vakolatlarini yanada kengaytirish bo'yicha boshlagan ishlarimizni, hech shubhasiz, izchil davom ettiramiz.

Shu borada aholining real daromadlarini ko'paytirish, jumladan, ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va stipendiyalar 23 foizdan ko'proq oshirishi ko'zda tutilmoqda.

Yangi yilga mo'ljallangan bunday dastur va rejalarimizning barchasi 2013-yilning o'tib bora-yotgan eski yildan aslo kam bo'lmasligiga, hayotimizning har tomonlama fayzli va barakali, sermazmun bo'lishiga xizmat qiladi, inshoollo.

Aziz va muhtaram vatandoshlarim!

Barchangizni bag'rimga bosib, kirib kelayotgan yangi – 2013-yil bilan yana bir bor tabriklayman.

Mana shu go'zal ayyomda qalbim to'rida bo'lgan eng ezgu, eng olrijanob tilaklarimni siz azizlarimga izhor etmoqchiman:

Yangi yil har bir inson, har bir oilaga sihat-salomatlik, baxt-u saodat va omad olib kelsin!

Vatanimiz tinch, xalqimiz omon bo'lsin!

Yaratganimiz el-yurtimizni o'z panohida saqlasın!

Yangi yil barchamizga muborak bo'lsin!

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2012-yil 31-dekabr*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 21 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Hurmatli askar va serjantlar, ofitser va generallar, Qurolli Kuchlarimiz faxriylari!

Sizlarni va barcha yurtdoshlarimizni mammalakatimiz hayotidagi qutlug‘ sana – Vatan himoyachilari kuni va Qurolli Kuchlarimiz tashkil etilganining 21 yilligi bilan chin qalbimdan samimiy muborakbod etish menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari o‘tgan tarixan qisqa davrda murakkab shakllanish yo‘lini bosib o‘tdi va bugungi kunda son jihatdan ixcham, harakatchan, zamonaviy talablarga javob beradigan, yaxshi tayyorgarlikka ega bo‘lgan armiya sifatida o‘zini namoyon etmoqda.

Qurolli Kuchlarni izchil isloh etish davomida prinsipial yangi tashkiliy-shtat tuzilmalarini, harbiy boshqaruvi tizimlarini, turli qo‘sishin turlari harakatlarini muvofiqlashtirish va ularning hamkorligini ta’minlash mexanizmlarini shakllantirish, harbiy xizmatchilarning professional tayyorgar-

ligini va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni tubdan yaxshilash bo'yicha ko'lami va ma'nomazmuniga ko'ra ulkan va beqiyos ishlar amalgalashirildi.

Dunyodagi vaziyat shiddat bilan o'zgarib, xavfsizlikka nisbatan tahdid va xatarlar tobora kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda Qurolli Kuchlarni modernizatsiya qilish va ularning jangovar tayyorgarligini, mamlakatimizga qarshi qaratilgan har qanday tajovuzga o'z vaqtida va munosib zarba berish qobiliyatini oshirishni ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Yuzaga kelayotgan murakkab sharoitda yadroviy texnologiyalar va ommaviy qirg'in qurollari ning tarqalish xavfi, tobora kuchayib borayotgan qarama-qarshilik, siyosiy va diniy radikalizm va ekstremizm, chegaralarimizga bevosita yaqin hudozlarda mojarolarning davom etayotgani, birinchi navbatda, AYSEF deb atalmish xalqaro koalitsion kuchlarning Afg'onistondan 2014-yilgacha va undan keyin olib chiqib ketilishi ko'zda tutilayotgani bilan bog'liq ravishda keskinlikning yanada ortib borayotgani jahon hamjamiyatida haqli ravishda xavotir uyg'otmoqda. Bunguni kunda dunyoda kiberjinoyatchilik, kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan

holda salbiy informatsion ta'sir o'tkazish kabi xalqaro xavfsizlikka nisbatan ilgari ko'rilmagan xavf-xatarlarning avj olayotganiga yetarli baho bermasdan, ularning oldini olmasdan, beparvo bo'lib yashash mutlaqo mumkin emas.

Mintaqamizda tashqi kuchlar o'rtasidagi manfaatlar kurashining kuchayib borayotgani vaziyatni yanada chigallashtirmoqda. Chegaraga yaqin hududlarda buzg'unchi to'dalar va qo'poruvchi-terrorchi guruhlarning faollashuvi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, siyosiy va millatlararo ziddiyatlarning keskinlashib borayotgani oqibatida harbiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishi mumkin bo'lgan jiddiy tahdid va xatarlar paydo bo'lmoqda.

Sarhadlarimizga bevosita yaqin hududlarda murakkab vaziyat yuzaga kelayotgani, birinchi navbatda, yuqorida zikr etilgan xavf-xatarlarning oldini olish va bartaraf etish, yurtimizda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash bo'yicha kechiktirib bo'lmaydigan chora-tadbirlar ko'rishni taqozo etmoqda. Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda katta aks sado berayotgan hujjat, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2012-yil sentabr oyida qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyat konsepsiya-

sini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonun aynan ana shu maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Mazkur hujjatda O‘zbekistonning turli harbiy-siyosiy blok va alyanslarga qo‘silmashligi, o‘zining suvereniteti va hududiy yaxlitligini himoya qilish bo‘yicha qat’iy pozitsiyaga ega ekani, o‘z hududida xorijiy davlatlarning harbiy bazalari joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymasligi, mustaqil, izchil va faol tashqi siyosat olib borishi haqidagi prinsiplar aniq-ravshan bayon etilgan.

Ayni vaqtida Qurolli Kuchlarimizning salohiyati va jangovar tayyorgarligini har tomonlama mustahkamlash, mamlakatimiz suvereniteti va uning davlat chegaralarini himoya qilish choralarini kuchaytirish borasidagi ishlarni davom ettirish ana shu tashqi siyosiy strategiyani izchil amalga oshirish, O‘zbekistonning xavfsizligi va barqarorligini ta’minlashning eng muhim sharti va kafolatidir.

Qurolli Kuchlarni qo‘llash strategiyasi va taktikasini yanada takomillashtirish, jangovar operatsiyalarni olib borish bo‘yicha zamonaviy tajribani chuqur va puxta egallash, shuningdek, sheriklarimiz bo‘lgan mamlakatlardagi o‘quv va tadqiqot markazlarida qo‘mondonlik tarkibining malaka oshirishi bo‘yicha uzoq muddatga mo‘ljallangan

rejalarni amalga oshirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Davlat chegaralarimizni qo'riqlash va himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish, bo'linmalarni real vaqt mezonlari asosida samarali boshqarish imkonini beradigan zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari va texnologiyalarini qo'shnlarni boshqarish tizimiga keng joriy etish bo'yicha boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirish va chuqurlashtirish darkor.

Qo'shnlarning o'quv, jangovar tayyorgarligi ma'no-mazmunini tubdan o'zgartirish Qurolli Kuchlar qo'mondonligining ustuvor vazifasi hisoblanadi. Tezkor-taktik, qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlarini puxta rejorashtirish, ularni jangovar sharoitlarga imkon qadar to'la yaqinlashtirgan holda olib borish tizimini takomillashtirish masalalari ham g'oyat jiddiy e'tiborni talab qilmoqda. O'quv mashqlari davomida modellashtirish va simulatsiya usullaridan faol va keng foydalanish, mamlakatimiz hududiga suqilib kirishga urinadigan buzg'unchi to'dalar, qo'poruvchi-terrorchi guruhlarni bartaraf etish bo'yicha jangovar operatsiyalarni olib borishning turli model hamda variantlarini sinab ko'rish muhim ahamiyatga ega.

Qurolli Kuchlarni zamonaviy qurol-aslaha va texnika bilan qayta ta'minlashni davom ettirish doimiy e'tiborimiz markazida bo'lishi shart. Bu sohada sheriklarimiz bo'lgan xorijiy mamlakatlar bilan xalqaro harbiy-texnik hamkorlikni yaxshilash va uning ko'lamini kengaytirish zarur.

Harbiy kadrlar, birinchi navbatda, chuqur bilimga ega bo'lgan va zamonaviy fikrlaydigan, intellektual yetuk ofitserlarni, shuningdek, bugungi kunda armiyamizning o'zagini tashkil etayotgan yuksak professional malakali kichik komandirlar – serjantlarni tarbiyalash tizimini tubdan yaxshilash ham Qurolli Kuchlar qo'mondonligi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi darkor.

Bu borada harbiy bilim yurtlari va serjantlar maktablarida harbiy kadrlarga harbiy soha va harbiy san'at rivojidagi asosiy tendensiyalarini aks et tiradigan, prinsipial jihatdan yangi mutaxassislik va ilm-fan yo'nalishlarini jangovar harakatlarni olib borishning xorijiy tajribasi, zamonaviy shakl va metodlarini hisobga olgan holda o'rgatish oldimizda turgan ishlarning eng mas'uliyatli jabhasi, desam, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Armiyada ofitserlar, serjantlar va oddiy askarlarda yuksak ma'naviy fazilatlar, mustahkam iro-

da, Vatan taqdiri uchun mas’uliyat hissini kamol toptirish, harbiy jamoalarda sog‘lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlar tizimini tubdan yaxshilash Qurolli Kuchlarimiz barcha bo‘g‘inlari komandirlarining alohida muhim vazifasidir.

Shuni yaxshi anglab olish kerakki, bugungi kunda harbiy xizmatga chaqirilayotgan yoshlar avvalgi yillardagi muddatli harbiy xizmatchilardan mutlaqo farq qiladi. Hozirgi vaqtida mustaqillik yillarida tug‘ilib voyaga yetgan, mamlakatimizdagi litsey va kollejlarda eng zamonaviy ta’lim-tarbiya olgan yigitlar armiya saflariga kirib kelmoqda. Ular zamonaviy axborot, kompyuter texnologiyalarini, xorijiy tillarni puxta egallagan va eng asosiysi – hayot haqida o‘zining mustaqil fikri va qarashiga, axloqiy-ma’naviy qadriyatlariga ega bo‘lgan yoshlardir.

Muddatli harbiy xizmatchilarning, milliy armiyamizning ana shunday yangi qiyofasini hisobga olgan holda, eski qolip va mezonlardan qat’iy voz kechib, mavjud Umumqo‘sishin ustavlari, qo‘llanmalari, qoida va yo‘l-yo‘riqlarini, o‘quvtarbiya ishlarini, qo‘sishnlarning jangovar xizmat faoliyatini tashkil etishning shakl va metodlarini tubdan qayta ko‘rib chiqish zarur.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlarimizning bosh maqsadi Qurolli Kuchlarimiz saflarida xizmat qilayotgan yoshlarda qat’iy iroda va xarakter, hayotiy pozitsiyani shakllantirish, ularning yuksak insoniy fazilatlar sohibi va jismoniy chiniqqan bo‘lishlariga erishish, o‘z bilim va malakasini takomillashtirish, fan-texnika yangiliklarini egalash, mamlakatimizda xavfsizlikni ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni himoya qilish borasidagi o‘zining harbiy burchini sidqidildan ado etish uchun intilib yashashga xizmat qiladigan muhitni mustahkamlashdan iborat bo‘lishi kerak.

Bu vazifani amalga oshirishga Mudofaa vazirligi qoshida tashkil etilgan Jamoatchilik kengashini, madaniyat, san’at, sport namoyandalari, mamlakatimiz keng jamoatchiligi vakillarini faol jalg etish lozim.

Yurtimizda 2013-yilning Obod turmush yili deb e’lon qilinishi munosabati bilan harbiy xizmatchilarни uy-joy bilan ta’minlash, zamonaviy harbiy shaharchalar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish, ularda bugungi kun talablariga, harbiy xizmatchilar va oila a’zolarining ehtiyojlariga javob beradigan barcha qulayliklarni yaratishga qaratilgan davlat dasturlarini izchil

amalga oshirish Mudofaa vazirligi, harbiy tuzil-malarga ega bo‘lgan vazirlik va idoralarning rah-barlari, harbiy okruglar qo‘mondonligining eng muhim vazifasidir.

Qurolli Kuchlarimiz oldiga qo‘yilgan bunday dolzarb vazifalarini amalga oshirish Mudofaa vazirligi, Birlashgan shtab, harbiy okruglar va qo‘sishin turlari qo‘mondonlari, brigada komandirlari, barcha ofitserlar tarkibi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondonining milliy armiyamiz tashkil etilganining 21 yilligi bayrami munosabati bilan qabul qilingan Direktivasida bayon etilgan ko‘rsatma va qoidalarni so‘zsiz bajarishni taqozo etadi.

Hurmatli vatandoshlar!

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 21 yilligi munosabati bilan sizlarni yana bir bor tabriklar ekanman, bugungi kunda milliy armiyamiz saflarida murakkab va mas’uliyatli vazifani, Vatan oldidagi o‘zining muqaddas burchini sharaf bilan ado etib, mardlik va jasorat namunasini ko‘rsatib kelayotgan barcha harbiy xizmatchilarga chin qalbimdan minnatdorlik bildiraman.

Yangi 2013-yilda sizlarga mustahkam sog‘liq, yurtimiz tinchligi va osoyishtaligi yo‘lidagi oliy-janob faoliyattingizda yutuq va zafarlar, kuchg‘ayrat, oilalarингизга baxt-u saodat, fayz-u baraka yor bo‘lishini tilayman.

Islom KARIMOV,

*O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo‘mondoni.*

2013-yil 11-yanvar

BOSH MAQSADIMIZ – KENG KO'LAMLI ISLOHOTLAR VA MODERNIZATSIYA YO'LINI QAT'IYAT BILAN DAVOM ETTIRISH

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

Vazirlar Mahkamasining bugungi kengaytirilgan majlisi kun tartibiga qo'yilgan asosiy masha - bu O'zbekistonning 2012-yildagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlarini muhokama etish va 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlarini tasdiqlab olishdan iborat.

O'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekanmiz, avvalambor shuni ta'kidlashimiz kerakki, global jahon iqtisodiyotida hali-beri saqlanib qolayotgan jiddiy muammolarga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiyotning mutanosibligi ta'minlandi.

Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tar-kibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning na-tijasida xomashyo bo'lмаган тайyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobjiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.

Inflatsiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi.

2012-yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkor-lar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Shularga qaramasdan, davlat budgetining daro-madlar qismi bo'yicha ko'rsatkichlari to'liq bajarildi, erishilgan profitsit yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,4 foizni tashkil etdi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish-

ga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Bugungi kunda, dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat qarzining ortib borishi bilan bog'liq muammolar saqlanib qolayotgan bir sharoitda, O'zbekistonimiz chetdan qarz olish bo'yicha puxta o'ylangan siyosat olib borishi natijasida davlatimiz qarz hajmining ulushini nisbatan past darajada ushlab qolishga va o'z majburiyatlariga to'liq javob beradigan mamlakat sifatida barqaror obro'e'tiborini saqlab qolishga erishdi. 2013-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonning jami tashqi qarzlari miqdori yalpi ichki mahsulotga nisbatan 16,0 foizdan oshmagani, bu ko'rsatkich esa xalqaro mezonlar bo'yicha «o'rtachadan ham kam» darajada baholangani buni isbotlab bermoqda.

Mamlakatimiz moliya-bank tizimi barqaror va ishonchli faoliyat yuritib, yuqori ko'rsatkichlarni namoyon etib kelmoqda. 2012-yilda bank tizimining jami kapitali 24,3 foizga, so'nggi uch yilda esa ikki barobar ko'paydi.

Bugungi kunda kapitalning yetarlilik darajasi 24,0 foizdan oshib, bu esa qabul qilingan umumiylar xalqaro standartlardan 3 barobar ortiqdir. 2012-yil

yakunlari bo'yicha bank tizimining likvidligi 65,0 foizdan ortmoqda, bu esa talab etiladigan minimal darajadan 2 barobar yuqoridir.

2010-yilda mamlakatimizning atigi 13 ta tijorat banki ijobiy xalqaro reytingga ega bo'lган bo'lsa, ayni paytda ularning soni 28 taga yetdi.

Banklar faoliyatida, o'tgan yillardagi kabi, investitsiya faoliyatiga katta e'tibor qaratildi.

2012-yilda iqtisodiyotning real sektoriga yo'naltirilgan kreditlar hajmi 2011-yilga nisbatan 1,3 barobar oshdi. Ajratilgan kreditlarning 76 foizdan ziyodi uch yildan ortiq muddatga berilgan uzoq muddatli kreditlar ekani, ayniqsa, e'tiborga molik.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining o'tgan yil natijalarini baholaganda, Xalqaro valuta jamiq'armasi missiyasi rahbari Veronika Bakalu xonimning ushbu missiyaning O'zbekistonda 2012-yil noyabr-dekabr oylaridagi ishi natijalari bo'yicha bildirgan fikrlarini keltirish o'rini, deb bilaman. Uning ta'kidlashicha, «O'zbekiston iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan o'smoqda. Soliq-budget va tashqi faoliyat sohalaridagi mustahkam pozitsiya, bank tizimining barqarorligi, davlat qarzining kamligi va tashqaridan qarz olishga ehtiyojkorlik bilan yon-

dashish mamlakatni global inqirozning salbiy oqibatlaridan himoya qildi».

O‘ylaymanki, bunday xolisona baho ko‘p narsadan dalolat beradi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

2012-yilda mamlakatimizning yuqori sur’atlar bilan barqaror o‘sishini ta’kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini, avvalambor, iqtisodiyotimizga yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar, investitsiyalar tobora o‘sib borayotganida, bu ko‘rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur.

O‘tgan yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko‘rsatkich 2011-yilga nisbatan 14 foizga o‘sdi. Jami investitsiyalarning 22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig‘ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko‘prog‘i to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalardir.

E’tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo‘naltirildi.

Shu borada faqat o‘tgan yilning o‘zida umumiy qiymati 1 milliard 600 million dollardan ortiq bo‘lgan kapital qo‘yilmalar o‘zlashtirilib, 205 ta yirik investitsiya obyekti qurib bitka-zildi.

2012-yilda qurilishi nihoyasiga yetkazilgan eng yirik obyektlar haqida gapirganda, Navoiy issiqlik elektr stansiyasida Yaponianing «Mitsubishi» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan 478 megavolt quvvatga ega bo‘lgan bug‘-gaz qurimasining ishga tushirilganini alohida qayd etish lozim.

Ushbu loyihaning amalga oshirilishi yiliga qo‘sishimcha ravishda 2 milliard 800 million kilovatt soat elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Shuningdek, bu loyiha hisobidan shartli yoqilg‘i iste’molini 1,8 marta kamaytirishga, har yili 400 million kub metr gazni tejash yoki 110 million dollardan ortiq mablag‘ni iqtisod qilishga erishamiz.

Avtomobil sanoatida Germanianing dunyoga mashhur «MAN» kompaniyasi bilan hamkorlikda Samarqand viloyatida yiliga 3 mingta yuk avtomobili ishlab chiqarish quvvatiga ega bo‘lgan yangi kompleksni bunyod etishning ikkinchi bosqichi yakunlandi.

Ushbu korxonada jahondagi eng yuksak standartlar asosida jihozlangan yuqori texnologik ishlab chiqarish tashkil etildi. Aytish kerakki, katta hajmdagi yuklarni tashiydigan eng zamonaviy avtomobillar ishlab chiqaradigan mazkur korxona nafaqat mamlakatimiz ehtiyojini qoplaydi, balki bu mashinalarni eksport qilishni ham ta'minlaydi.

Muborak gazni qayta ishlash zavodida 258 ming tonna suyultirilgan gaz va 125 ming tonna kondensat ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan zavodning birinchi navbati foydalanishga topshirildi, «Sho'rtanneftgaz» korxonasida esa propan-butan qorishmasi asosida 50 ming tonna suyultirilgan gaz ishlab chiqaradigan qurilma o'rnatildi.

Yana bir yirik loyiha – umumiy qiymati 250 million dollardan ortiq bo'lgan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ikkinchi navbatini qurish ishlari davom ettirilmoqda. Bu boradagi ishlar yakuniga yetgach, korxonada yiliga 600 ming tonnagacha kaliyli o'g'it ishlab chiqarish imkonini paydo bo'ladi va bu mahsulotning 350 ming tonnadan ko'prog'i eksport qilinadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, 2012-yilda Surg'il koni bazasida, hatto, dunyo mezonlari bo'yicha ham noyob bo'lgan, qiymati 25 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan Ustyurt gaz-

kimyo kompleksi qurilishi boshlandi. Mazkur obyektning qurilishi 2016-yilda nihoyasiga yetka-ziladi va bu korxona 4 milliard 500 million kub metr tabiiy gazni qayta ishlash, 400 ming tonna polietilen va 100 ming tonna polipropilen ishlab chiqarish imkonini beradi.

Ushbu loyiha texnologik jihatdan dunyodagi eng ilg‘or loyihalardan biri bo‘lib, eng yuksak darajadagi gaz-kimyo texnologiyalarini joriy etishni ko‘zda tutadi. Bu, o‘z navbatida, tabiiy gazdan 97 foizgacha etan, propan va boshqa qimmatbaho komponentlarni ajratib olishni ta’minlaydi.

Mazkur loyihada yetakchi xorijiy banklar konsorsiumi, davlat kafolatlarini jalb etmagan holda, loyihalarni moliyalashtirish prinsiplari asosida ishtirok etmoqda.

Dunyodagi yirik «Tomson Reyter» biznes-axborot agentligining moliya sohasidagi jahonga mashhur «Projekt faynens interneshnl» jurnali ushbu loyihaning noyobligi va ishga novatorlik bilan yondashish natijasi ekanini qayd etib, Ustyurt gaz-kimyo kompleksi qurilishini neft-gazkimyo sanoatidagi yilning eng yaxshi loyihasi, deb tan oldi. Bu, hech shubhasiz, barchamizga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

2012-yilda Janubiy Afrika Respublikasining «Sasol» kompaniyasi va Malayziyaning «Petro-nas» korporatsiyasi bilan hamkorlikda qiymati 4 milliard dollardan ziyodni tashkil etadigan, toza-langan metan asosida sintetik suyuq yoqilg‘i ish-lab chiqarish bo‘yicha katta istiqbolga ega bo‘lgan yirik loyihani amalga oshirish boshlandi.

Ushbu loyiha asosida barpo etiladigan zavod dunyodagi sanoqli korxonalardan biri bo‘lib, u sintetik suyuq yoqilg‘i – suyultirilgan gaz, avia-kerosin va «premium klass» toifasidagi, ya’ni «Yevro-4» standartidan kam bo‘lмаган дизель yoqilg‘isi ishlab chiqaradi.

Shu o‘rinda avtomobil, temiryo‘l va kommunikatsiya sohalaridagi qurilish ishlariga qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

O‘tgan davrda qariyb 500 kilometrlik to‘rt polosali zamonaviy avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yakunlandi. Shundan 163 kilometri sement-beton va 335 kilometri esa asfalt-beton bilan qoplangan yo‘llardir.

Uzunligi 116 kilometr bo‘lgan «Guliston – Ohangaron» avtomobil yo‘li, Qo‘qon shahrini ay-ланib o‘tadigan avtoyo‘l foydalanishga topshirildi, Samarqandni Toshkent, Qarshi va Olot shaharlari bilan bog‘laydigan yo‘llar rekonstruksiya qilindi.

Temiryo‘l transport kommunikatsiyalarini yanada rivojlantirish ishlari, temiryo‘l tarmoqlarini elektrlashtirish loyihalari izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Bu ishlar poyezdlardan foydalanish xarajatlarini 20 foizga kamaytirish, yo‘lovchi va yuk tashish tezligini 1,3 barobar oshirish, 830 kilometrlik «Toshkent – Termiz» temiryo‘lini to‘liq elektrlashtirish imkonini beradi.

2012-yilda uzunligi 240 kilometr bo‘lgan temiryo‘lni qayta tiklash ishlari davom ettirildi. Uzunligi 70 kilometrdan ortiq bo‘lgan «Dashtobod – Jizzax» temiryo‘l tarmog‘i bo‘ylab yuk va yo‘lovchi poyezdlar harakati yo‘lga qo‘yildi.

O‘tgan yili telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va modernizatsiya qilish bo‘yicha ham katta ishlar bajarildi. Bu borada ko‘zda tutilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish doirasida uzunligi 180 kilometrdan ziyod bo‘lgan «Boysun – Denov», «Urgut – Shahrisabz» optik tolali aloqa liniyasi ishga tushirildi.

Farg‘ona, Navoiy, Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida teleuzatish moslamalarini o‘rnatish orqali bosqichma-bosqich raqamli televide niye ga o‘tish amalga oshirildi. Bu aholini mamlakatimiz bo‘yicha raqamli televide niye bilan qamrab olish darajasini 42 foizga yetkazish imkonini berdi.

Yangitdan tashkil etilgan «Navoiy» va «Angren» erkin industrial-iqtisodiy zonalari bugungi kunda mamlakatimizning ishlab chiqarish salohiyatini modernizatsiya qilishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda alohida o‘rin egalla-moqda.

«Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasini tashkil etilganidan buyon bu yerda 12 ta korxona qurilib, foydalanishga topshirildi. 2012-yilda ular tomonidan qariyb 80 milliard so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Akkumulator simlari, avtomobil gaz ballonlari, mobil va statsionar telefonlar, modemlar va internet uchun qo‘srimcha moslamalar ishlab chiqarish bo‘yicha korxonalar tashkil etish kabi yuqori texnologiyalar asosidagi yana yettita loyiha amalga oshirish bosqichida turibdi.

Shu borada to‘plangan tajribani va Toshkent viloyatidagi ishlab chiqarish hamda resurs salohiyatidan foydalanish, Farg‘ona vodiysidagi korxonalar bilan barqaror iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yishning kelajakda muhim ahamiyatga ega ekanini hisobga olgan holda, «Angren» maxsus industrial zonasini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilingan edi.

Mazkur industrial zonada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarga, kiritilgan investi-

tsiyalar hajmiga qarab, 3 yildan 7 yilgacha bo‘lgan muddatga keng ko‘lamli soliq va bojxona imtiyozlari hamda preferensiyalar berildi, ularning infratuzilma obyektlari va kommunikatsiyalarga kafolatli ravishda ulanishi ta’minlanmoqda.

Hozirgi kunda «Angren» maxsus industrial zonasi hududida qiymati 186,0 million dollarlik 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Shular qatorida zarurat va ehtiyoj baland bo‘lgan turli tayyor mahsulotlarni va butlovchi buyumlarni ishlab chiqarish, shuningdek, yangi shakar zavodini qurish, tayyor charm buyumlar ishlab chiqaradigan kompleksni barpo etish alohida o‘rin tutadi.

Umumiyligi 245 million dollarlik yana 22 ta rentabelli loyihani amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqilmoqda va buning uchun zarur hujjalilar tayyorlanmoqda.

Qo‘lga kiritgan tajribamiz shuni tasdiqlab bermoqdaki, mamlakatimizning boshqa mintaqalarida ham «Navoiy» va «Angren» kabi maxsus industrial zonalarni, zamonaviy logistika tizimlari va transport infratuzilmalarini yaratish bo‘yicha boshlagan ishlarimizni davom ettirish maqsadlarimizga javob beradi.

Hurmatli majlis ishtirokchilari!

O'tgan 2012-yilda **mamlakatimiz agrar sektorining deyarli barcha tarmoqlarida** ulkan yutuq va natijalar qo'lga kiritildi.

Albatta, 2012-yilda ham, so'nggi yillardagi kabi, yangi mavsumga tayyorgarlik ko'rish davrida yog'ingarchilik ko'p bo'lgani, bahorning kech kelgani va namgarchilikning yuqori bo'lgani, yoz faslida havo haroratining haddan ziyod oshib ketgani qishloq xo'jalik ishlarini amalga oshirishda jiddiy muammo va qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi.

Shunga qaramasdan, 2012-yilda O'zbekistonda deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari – g'alla, paxta, sabzavot, poliz ekinlari va uzumdan yuqori hosil olindi. Mamlakatimiz dehqonlari mo'l hosil yetishtirishdi – 3 million 460 ming tonnadan ortiq paxta, 7 million 500 ming tonna g'alla, 2 million tonnadan ziyod kartoshka va 9 million tonnadan ortiq sabzavot hamda poliz mahsulotlari yig'ibterib olindi.

Bularning barchasi, avvalambor, dehqonlari-miz, fermer va mexanizatorlarimiz, qishloq xo'jligi mutaxassislarining o'zini ayamasdan qilgan fidokorona mehnati, boy tajribasi va o'z ishiga bo'lgan sadoqatining amaliy natijasidir. Bir so'z

bilan aytadigan bo‘lsak, bu yutuqlar barcha resurs va imkoniyatlarimizni to‘la safarbar eta olganimizning natijasidir.

Bugun mana shu yuksak minbardan turib, barcha qishloq mehnatkashlariga ularning mardligi va matonati, mamlakatimizning taraqqiyoti va ravnaqiga qo‘shayotgan ulkan hissasi uchun o‘zimning chuqur hurmatim va samimiyl minnatdorligimni bildirish menga katta mamnuniyat bag‘ishlaydi.

Mamlakatimizda, xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda, qishloq xo‘jaligini iqtisodiy isloh etish bo‘yicha o‘ta muhim chora-tadbirlarning amalga oshirilayotgani, qishloqda bozor munosabatlarini joriy etish va xususiy mulkchilik shaklini rivojlantirish, fermerlik harakatini qo‘llab-quvvatlash uchun huquqiy, tashkiliy hamda moliyaviy shart-sharoitlarni tug‘dirib berish bunday yuksak natijalarni qo‘lga kiritishda hal qiluvchi omil bo‘lmoqda, desam, hech qanday mubolag‘a bo‘lmaydi.

Bugungi kunda fermer xo‘jaligi haqli ravishda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining yetakchi bo‘g‘iniga, uni tashkil etishning asosiy shakliga aylandi. Hozirgi vaqtida fermerlik harakati o‘z tarkibida 66 mingdan ziyod fermer xo‘jaligini

birlashtirmoqda. Mamlakatimizdagи jami haydaligan yerlarning 85 foizdan ortig'i, yetishtiriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining asosiy qismi aynan fermerlar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Kun sayin mustahkamlanib, hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakati O'zbekistonda o'zini to'la oqladi va bunga hech qanday shubha bo'lishi mumkin emas, desam, o'ylaymanki, barchamizning umumiyl fikrimizni ifoda etgan bo'laman.

Fermerlarimizning ong-u tafakkurida o'z yeri va ishlab chiqarayotgan mahsulotiga nisbatan egalik hissiyoti yildan yilga tobora mustahkamlanib, ularning o'z mehnati natijasidan manfaatdorligi oshib bormoqda. Eng asosiysi – odamlarimizning ongi va dunyoqarashi tubdan o'zgarmoqda, bebaho boyligimiz bo'lgan yer va suv resurslaridan samarali hamda oqilona foydalanish uchun mas'uliyat tuyg'usi kuchaymoqda.

So'nggi yillarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar fermer xo'jaliklari vakolatlari ni sezilarli ravishda kengaytirdi.

Shu bilan birga, tan olish kerakki, fermerlik harakatining Fermer xo'jaliklari uyushmasi shaklidagi tashkiliy tuzilmasi qishloq xo'jaligini isloh etish va sohada ishlab chiqarish samaradorligini

oshirish, fermerlar oldida turgan vazifalarni hal etish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsata olmadi.

Fermerlik o'zining tarixiy ildizlariga ega bo'lgan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish asosida Fermer xo'jaliklari uyushmasi O'zbekiston Fermerlari kengashiga, viloyat va tumanlarda esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhim, ushbu tuzilmalarning huquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi.

Bugungi kunda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va qayta tashkil etish, ularga yer uchastkalarini uzoq muddatga ijaraga berish, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihamalarini qabul qilish bilan bog'liq deyarli birorta masala fermerlar kengashlarining bevosita ishtirokisiz hal etilishi mumkin emas.

Mazkur kengashlarning asosiy vazifasi davlat va xo'jalik boshqaruvi, joylardagi davlat hokimiyat organlari bilan munosabatlar bo'ladimi, tayyorlov, ta'minot va xizmat ko'rsatadigan tashkilotlar bilan hamkorlik qilish bo'ladimi, shuningdek, sudsarda ishlarni ko'rib chiqish bo'ladimi – hamma yerda fermerlarning huquqi va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan iboratdir.

Bir so‘z bilan aytganda, fermerlar kengashlari fermerlik harakatining o‘zagi, yo‘naltiruvchi kuchi bo‘lishi, uni qishloqni rivojlantirish va shu asnoda qishloq aholisi farovonligini oshirishda mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir qudratli ijtimoiy-siyosiy kuchga aylantirishi lozim.

2012-yilda **xizmat ko‘rsatish sohasi** ham yuqori sur’atlar bilan rivojlandi. Aholiga ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi qariyb 15 foizga o‘sdi, ushbu sohaning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi esa bugungi kunda 52 foizdan ziyodni tashkil etmoqda.

Bu jarayonda xizmatlarning yuqori texnologiyalarga asoslangan va bozor iqtisodiyotiga xos bo‘lgan turlari jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda. Jumladan, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 24,5 foizga, kompyuter dasturlash xizmatlari 18 foizga, texnologik asbob-uskunalarни ta’mirlash va ularga xizmat ko‘rsatish 17 foizga, moliya-bank xizmatlari 17,6 foizga o‘sdi.

Shu bilan birga, mamlakatimizda, ayniqsa, qishloq joylarda xizmat ko‘rsatish va servis sohasida hali-beri foydalanilmayotgan katta rezerv va imkoniyatlar mavjudligini tan olishimiz hamda bunga alohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Hisobot yilida **ta’lim sohasini** rivojlantirish va isloh etish masalasi doimiy ravishda e’tiborimiz markazida bo’ldi.

Ta’lim-tarbiya sohasining yaxlit, uzlucksiz tizi-mini shakllantirish va mustahkamlash, jumladan, umumi o’rta ta’limdan boshlab o’rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta’limgacha bo’lgan bar-cha bosqichlarda yuksak bilimli va malakali kasb tayyorgarligiga ega bo’lgan avlodni tarbiyalash jarayonini takomillashtirish ishlari izchil davom ettirildi.

Bu borada umumta’lim maktablarining 9-sinf bitiruvchilarini, ayniqsa, qishloq joylarda, olis aholi punktlarida yashaydigan qizlarni kasb-hunar kollejlarda o’qishga to’liq jalb etish masalasini tekshirish bo’yicha olib borilgan keng ko’lamli ishlar muhim ahamiyatga ega bo’ldi.

Yangi kasb-hunar kollejlari va ularning filiallari ni qurish nihoyasiga yetkazildi. 2012–2013-o’quv yilida mamlakatimizda 12 yillik majburiy ta’limga o’tish to’liq ta’minlandi.

Kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini ish bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratildi. Ushbu kollejlarining ish beruvchi korxonalar bilan koo-peratsiya aloqalarining turli shakllaridan foydalanishi, bu masalaga tuman va shahar jamoatchili-

gini jalb etish mazkur vazifani ado etishning eng muhim, hal qiluvchi yo‘nalishi bo‘ldi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kollejlarni tugatgan 450 ming nafardan ortiq bitiruvchi ish bilan ta’minlandi, ularning 43 foizi o‘zлari ishlab chiqarish amaliyotini o’tagan korxonalarga ishga joylashdi.

Mana shu imkoniyatdan foydalanib, ushbu yuksak minbardan turib, barcha tuman va shaharlар, kasb-hunar kollejlari, korxona va tashkilotlar rahbarlariga bugungi kunda mutlaq ko‘pchilik oilalarimiz uchun g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lib borayotgan ushbu mas’uliyatli ishga qo‘sghan hissasi uchun samimiyl minnatdorlik bildirmoqchiman.

O‘tgan davrda o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini malakali, pedagogik va amaliy ish tajribasiga ega bo‘lgan rahbar va o‘qituvchi kadrlar bilan yanada mustahkamlash ishlari davom ettirildi. 2012-yilda 687 ta kasb-hunar kollejining direktori attestatsiyadan o‘tkazildi. Buning natijasida ularning 119 nafari egallab turgan lavozimidan ozod etildi. O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining barcha o‘quv muassasalari tanlovlari orqali saralab olingan rahbar kadrlar bilan to‘liq ta’minlandi.

Yetarli kasbiy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lмаган 2 ming 100 nafardan ziyod ishlab chiqarish ta’limi ustasi ishlab chiqarish tajribasiga ega bo‘lgan malakali kadrlar bilan almashtirildi. Barcha rahbar va pedagog kadrlarning 21 ming 700 nafardan ortig‘i yoki 18 foizi o‘tgan yili maxsus kurslarda o‘z malakasini oshirdi.

O‘tgan yili mamlakatimizda yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o‘tkazish bo‘yicha bir pog‘onali tizimni isloh qilish hamda joriy etish ishlari nihoyasiga yetkazildi.

2013-yilning 1-yanvaridan boshlab biz uchun yangi bo‘lgan oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berish tizimi joriy etilmoqda.

Ilmiy kengashlar, asosan, nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash maskani, ayni vaqtida ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylanishi lozim bo‘lgan yetakchi oliy o‘quv yurtlari qoshida tashkil etiladi.

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining tashkiliy tuzilishi va uning nizomi tubdan qayta ko‘rib chiqildi.

2013-yilning 1-yanvaridan boshlab mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etilmoqda. Reyting tuzish vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi zimmasiga yuklanadi. Ushbu markaz reyting baholarini tuzishning hozircha vaqtinchalik tasdiqlangan metodikasi asosida Hukumatga mamlakatimizda oliy ta'limning qanday rivojlanayotgani to'g'risida har yili tahliliy ma'lumotlar taqdim etadi.

Oliy o'quv yurtlari faoliyati baholanadigan mezonlarni shakllantirishda oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati va ilmiy salohiyat darajasi indeksiga asosiy e'tibor qaratiladi va ularning har biri natijasiga ko'ra, 35 foizdan eng yuqori ballar qo'yiladi. Shuningdek, talaba va bitiruvchilarining ish beruvchilar o'rtasida so'rov o'tkazish natijasida aniqlanadigan malaka indeksiga alohida ahamiyat beriladi va bu ko'rsatkich 20 foiz bilan baholanadi. Qolgan 10 foiz boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha beriladi.

Reyting tizimini joriy etishning ma'nosi va ahamiyati faqat har bir oliy o'quv yurtining mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari orasida qanday o'rinni egallab turgani haqida xolis ma'lumotga ega bo'lishdan iborat emas.

Eng asosiysi, shu asnoda oliv o‘quv yurtlari o‘rtasida sog‘lom raqobat va musobaqa muhitini shakllantirish, shuningdek, ishimizdagi e’tibordan chetda qolib kelayotgan jihatlar va rezervlarni bahlash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash darajasi hamda sifatini yanada oshirish bo‘yicha aniq takliflarni ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Ta’lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan «Inssad» xalqaro biznes maktabining 2012-yilgi «Innovatsiyalarning global indeksi» ma’ruzasida bayon etilgan ma’lumotlarni keltirish o‘rinli, deb o‘ylayman. Ma’ruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan.

Ushbu ma’ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovatsion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo‘lib, mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha bizning mamlakatimiz 35-o‘rinni egallagan. Ta’lim tizimini rivojlanish darajasi bo‘yicha esa O‘zbekiston – shunga e’tibor beringlar – dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o‘rinni band etgan.

O‘ylaymanki, bu o‘rinda ortiqcha izohga hojat yo‘q.

Mamlakatimizda sog‘liqni saqlash tizimini yanada isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ham 2012-yilda izchil va aniq maqsadga qaratilgan ishlar amalga oshirildi.

Sog‘liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash uchun o‘tgan yili Ta’lim muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasi Ta’lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasiga aylantirildi.

Bu faqat o‘tgan yil davomida Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan 154 ta tibbiyot muassasini qurish va rekonstruksiya qilishga 255 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirish, 7,5 ming o‘ringa mo‘ljallangan shifoxonalarni va bir smenada 11 ming kishini qabul qila oladigan ambulatoriya-poliklinika obyektlarini foy-dalanishga topshirish imkonini berdi. Tibbiyot muassasalarini zamonaviy diagnostika va davo-lash uskunalarini bilan jihozlash uchun Jamg‘arma tomonidan 8 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratildi.

Respublika ixtisoslashtirilgan jarrohlik markazida zamonaviy, yuksak texnologiyalarga asoslangan tibbiyot uskunalarini bilan jihozlan-

gan, yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan bemorlarga jahon standartlari darajasida diagnoz qo‘yish va ularni davolash imkonini beradigan kardiojarrohlik bo‘limining ochilishi o‘tgan yili shu sohada qilgan eng muhim ishlarimizdan biri bo‘ldi.

Shuni mammuniyat bilan qayd etmoqchimanki, reproduktiv salomatlikni ta’minlash bo‘yicha o‘zbek modeli BMT tomonidan Sharqiy Yevropa, Boltiqbo‘yi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi mamlakatlari uchun eng yaxshi mintaqaviy dastur sifatida tavsiya etildi.

Yurtimizda sportni, avvalambor, bolalar sportini rivojlantirishga doimiy ravishda katta e’tibor qaratayotganimiz ham, hech shubhasiz, aholi salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

2012-yilda 108 ta bolalar sporti obyekti, jumladan, 16 ta suzish havzasasi, Navoiy shahrida 10 ming o‘rinli yangi stadion, Nukus shahrida tennis maktabi, mamlakatimiz hududlarida 12 ta bolalar va o‘smirlar sport maktabi foydalanishga topshirildi.

Samarqand shahrida eshkak eshish kanalini rekonstruksiya qilish ishlari nihoyasiga yetkazildi.

Ayni paytda 6 yoshdan 15 yoshgacha bo‘lgan qariyb 1 million 600 ming bola yoki yurtimizda-

gi bolalarning 35,6 foizi turli sport turlari bilan muntazam shug‘ullanmoqda.

Toshkent shahrida xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy «Bunyodkor» va «Lokomotiv», Bekobod shahrida «Metallurg» futbol stadi-onlari buniyod etildi. Sport kurashi bo‘yicha ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktabi tashkil qilindi.

Mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholini, birinchi navbatda, yoshlarni ishga joylashtirish muammosiga g‘oyat katta e’tibor berilayotgani haqida bugun ortiqcha gapirishga zarurat yo‘q, deb o‘ylayman.

2012-yilda mamlakatimizda kompleks chora-tadbirlar dasturini amalga oshirish hisobidan qariyb 1 millionta yangi ish o‘rni tashkil etildi. Bu ish o‘rinlarining 62 foizga yaqini qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik biznes va xususiy tad-birkorlikni rivojlantirish evaziga 485 ming kishi, kasanachilikning barcha shakllarini kengaytirish hisobidan esa 218 ming kishi ish bilan ta’mindan.

Ushbu ko‘rsatkichlarni mamnuniyat bilan qayd etar ekanmiz, bu vazifa joriy va kelgusi yillarda ham ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarimizning marka-zida bo‘lishi lozimligini barchamiz yaxshi ang-laymiz, albatta.

Hurmatli majlis qatnashchilari!

O‘zbekistonni 2013-yilda iqtisodiy rivojlan-tirish dasturining eng muhim ustuvor yo‘nalishlarini belgilar ekanmiz, biz, avvalo, o‘tgan yillarda iqtisodiyotimizda erishilgan marralar, istiqbolga mo‘ljallangan uzoq muddatli maqsadlar, shuningdek, jahon bozoridagi real va kutilayotgan, prognoz qilinayotgan holatdan kelib chiqamiz.

Bugun shuni tan olish kerakki, hamon davom etayotgan global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz hamda uning oqibatlarini yumshatish va bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilgan inqirozga qarshi dasturlar va ko‘rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, bu boradagi ahvol, afsuski, yaxshilanmayapti, ayrim ko‘rsatkichlar bo‘yicha esa uning yomonlashish tendensiyasi kuzatilmogda.

Dunyoning ko‘plab yetakchi mamlakatlarida davlat qarzi va milliy budgetlar taqchilligi muammozi deyarli hal etilmasdan qolmoqda, real iqtisodiyotda ishlab chiqarish pasayib bormoqda, jahon bozorida xarid talabining kamayishi davom etmoqda, ishsizlik darajasi yuqoriligidcha qolmoqda, ijtimoiy keskinlik kuchaymoqda.

Kredit oluvchilarning to‘lovga layoqatsizligi, hisob-kitob qilishga qurbi yetmayotgani moliya-bank tizimida jiddiy muammolar paydo bo‘lishiga olib kelmoqda.

Dunyoning eng yirik davlatlari markaziy banklari tomonidan real aktivlar bilan deyarli ta’minlanmagan pullarni chiqarish davom etayotgani, shuningdek, sun’iy moliyaviy vositalar – derivativlarning nazoratsiz chiqarilayotgani ko‘plab nufuzli xalqaro tahlil markazlari va ekspertlarda jiddiy tashvish uyg‘otmoqda.

Moliya va bank bozorini ortiqcha likvidlik bilan to‘ldirish, bunday siyosatni davom ettirish ulkan spekulativ «ko‘piklar» hosil bo‘lishi, zaxira valutalari va milliy valutalarning qadr-sizlanishi, inflatsiya darajasining o‘sish xavfini tug‘dirmoqda.

Tobora o‘sib borayotgan bunday muammolar bugungi kunda global inqiroz keltirib chiqarayotgan chuqur jarayonlarni faqat eski vosita va prinsiplarni tuzatish bilan hal etib bo‘lmasligidan darak bermoqda va, avvalambor, moliya va bank tizimining yangi tuzilmasini, uni nazorat qilish va tartibga solish mexanizmlarini ko‘p tomonlama asosda ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Ana shunday murakkab sharoitda 2013-yil va yaqin kelajakda hamon davom etayotgan global inqirozning barcha xavf-xatar va oqibatlarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ko‘rsatadigan ta’sirini hisobga olish alohida prinsipial ahamiyat kasb etadi.

Bugungi vaziyat o‘tgan yillar mobaynida inqirozga qarshi kurashish borasida to‘plagan tajribamizga suyanib, mamlakatimizni rivojlantirish, isloh etish va yangilash bo‘yicha erishgan sur’atlarni boy bermaslik uchun mavjud resurs va imkoniyatlarni safarbar etishni talab qilmoqda.

Ana shu vazifadan kelib chiqqan holda, 2013-yilda izchil yuqori o‘sish sur’atlarini, makroiqtisodiy barqarorlikni saqlash va iqtisodiyotimiz raqobatdoshligini oshirish eng muhim ustuvor yo‘nalishimizga aylanishi darkor.

Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo‘jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmini 11 foizga, xizmat ko‘rsatish sohasini qariyb 16 foizga oshirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushi 53 foizgacha o‘sishini ta’minlash vazifasi qo‘yilmoqda.

Yuqori qo‘srimcha qiymatga ega bo‘lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni ta’-

minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yusak darajada rivojlantirish oldimizga qo‘yilgan maqsadlarga erishishning asosiy manbayi bo‘lishi darkor.

Qishloq xo‘jaligida paxta va g‘allaning barqaror hajmini saqlagan holda, kartoshkachilik, sabzavotchilik, uzumchilik va chorvachilikni jadal rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi.

2013-yilda mutanosib va barqaror davlat budjetini shakllantirish maqsadida soliq ma’murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy budgetlarning daromad qismini mustahkamlash, butun soliq tizimini soddallashtirish va uning oshkoraligni ta’minlash bo‘yicha tegishli tadbirlar ko‘zda tutilmoqda. Shularning hisobidan soliq yuki darajasining oshmasligi ta’minlanib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan bu ko‘rsatkich 21,3 foizni tashkil etadi.

2013-yilda ham Davlat budjetining ijtimoiy yo‘naltirilganligi saqlab qolinadi. Uning xarajat-

lar qismining 60 foizdan ortig'i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratilgan.

Joriy yilda mutanosib qat'iy pul-kredit siyosatini amalga oshirish davom ettiriladi, inflatsiya ko'rsatkichlari 7–9 foizni tashkil qiladi, Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi 12 foiz darajasida saqlanadi.

Bu borada bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlash, Respublika moliyabank tizimini yanada rivojlantirish va uning barqarorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha qabul qilingan dasturda ko'zda tutilgan tadbirlarni so'zsiz amalga oshirish, bank nazoratini kuchaytirish, bank aktivlari va kredit portfeling sifatini yaxshilashga alohida e'tibor qaratiladi. Bank tizimi jami kapitalini kamida 20 foizga ko'paytirish mo'ljallanmoqda.

Hurmatli do'stlar!

2013-yil va yaqin kelajakka mo'ljallangan dasturimizni amalga oshirishda iqtisodiyotimiz va uning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik hamda texnologik yangilashni jadallashtirish va uning ko'lamini kengaytirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish markaziy o'rincutishi darkor.

Bu borada 2013-yil uchun ishlab chiqilgan va 370 dan ortiq strategik muhim loyihani amalga oshirishni ko‘zda tutadigan Investitsiya dasturi g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqsadlar uchun ajratilayotgan 13 milliard dollarning 75 foizini ichki manbalar hisobidan moliyalashtiriladigan mablag‘lar, qolgan qismini jalb etiladigan xorijiy investitsiyalar tashkil etadi.

Ishlab chiqarish qurilishi uchun mo‘ljallanayotgan jami investitsiyalarning qariyb to‘rtadan uch qismini yangi ishlab chiqarish korxonalarini barpo etish, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish uchun yo‘naltirishga to‘g‘ri kelmoqda.

Investitsiya dasturini amalga oshirishda O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tobora muhim o‘rin tutmoqda. 2013-yilda faqat Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qiymati 780 million dollarlik 34 tadan ortiq muhim loyiha, birinchi navbatda, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikda barpo etilayotgan obyektlarni moliyalashtirish rejalashtirilmoqda.

2013-yilda asosiy maqsadimiz – qurilishi boshlangan va mamlakatimizning sanoat ishlab chiqarish tarkibini tubdan o‘zgartirishga xizmat

qiladigan obyektlarni barpo etish sur'atlarining pasayishiga yo'l qo'ymaslik prinsipial ahamiyatga ega. Joriy yilda 115 ta muhim obyektni ishga tushirish ko'zda tutilmoxda.

Hamkorlarimiz bilan kelishilgan yangi obyektlar qurilishini boshlashni tezlashtirish zarur. Shular qatorida Qo'ng'irot soda zavodining ikkinchi navbatini, «Rezinotexnika» ochiq aksiyadorlik jamiyati negizida avtomobil shinalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bir qancha qo'shma korxonalarining quvvatini oshirish lozim.

2013-yilda qishloq joylarda namunaviy loyhalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish ko'lамини yanada kengaytirish alohida o'rın tushishi zarur.

Shu borada barchamiz bir fikrni chuqur anglab olishimizni istardim. **Qishloqlarda takomillashtirilgan zamonaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish va qishloq aholi punktlarini kompleks ravishda rivojlantirish** – bu, avvalo, odamlarimizning turmush tarzi va mentalitetini tubdan o'zgartirish bo'yicha ezgu maqsadlarni ko'zlaydigan qishloq aholisi hayotini sifatli tashkil etish va yaxshilashga doir uzoq muddatlidavlat dasturining asosiy ma'nomazmunini tashkil etadi.

Zamonaviy muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo‘lgan yangi va ko‘rkam uyjoy massivlarini barpo etish – mamlakatimiz qiyofasini har tomonlama obod qilishga qaratilgan, istiqbolga mo‘ljallangan muhim vazifamizdir.

Ana shu istiqbol rejalaridan kelib chiqqan holda, joriy yilda qishloq joylarda yakka tartibdagi yangi uy-joylar qurishni 8,5 mingtadan 10 mingtaga yetkazish ko‘zda tutilmoqda. 2013-yilda bu maqsadlar uchun 1 trillion 400 milliard so‘m, ya’ni o‘tgan yilga nisbatan 54 foiz ko‘p mablag‘ yo‘naltirish mo‘ljallangan.

Bu borada shuni e’tiborga olish kerakki, mazkur maqsadlar uchun tuzilayotgan pudratchi qurilish-montaj tashkilotlari, barcha hududlarda shakllantirilayotgan ularning kuchli moddiy-ishlab chiqarish bazasi nafaqat uy-joylar, balki sanoat va xizmat ko‘rsatish obyektlarini qurishga ham jalb etiladi.

2013-yil va undan keyingi yillarda dasturiy vazifalarimizni amalga oshirishda yo‘l-transport va kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Bugun mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash, iqtisodiyotimizning sifat jihatidan

yangi, zamonaviy tarkibiy tuzilmasini shakl-lantirish, hududlarimizni kompleks rivojlantirish bo'yicha barcha rejalarimizning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi infratuzilma tarmoqlarini yus-sak sur'atlar bilan rivojlantirishga uzviy bog'liq ekani haqida gapirishning hojati yo'q, deb o'ylayman.

Infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan dasturlarda yaqin istiqbolda yangi energetika quvvatlarini, elektr energiyasini uzatish tarmoqlarini barpo etish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha 26 tadan ortiq investitsiya loyihasini amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Bular, avvalambor, Tallimарjon issiqlik elektr stansiyasida umumiy quvvati 900 megavolt bo'lган ikkita bug'-gaz qurilmasini, Toshkent issiqlik elektr stansiyasida quvvati 370 megavoltni tashkil etadigan bug'-gaz qurilmasini, Angren issiqlik elektr stansiyasida quvvati 130–150 megavoltdan iborat energoblokni, Farg'ona vodiysida yangi energetika quvvatlarini barpo etish, Sirdaryo va Yangi Angren issiqlik elektr stansiyalarini bir-biri bilan bog'laydigan yuqori voltli elektr uzatish tarmog'ini qurish, Ustyurt gaz-kimyo majmuasi ning tashqi energiya ta'minotini tashkil etish kabi muhim strategik loyihalardir.

Mazkur obyektlar qurilishining yakunlanishi va ishga tushirilishi mamlakatimiz butun energiya tizimini, avvalambor, texnik jihatdan tubdan qayta jihozlash, o‘z energiya resurslarimiz hisobidan mamlakatimizning barcha hududlarini ishonchli ta’minlash imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur tizim faoliyati samaradorligini oshirish, elektr energiyasi ishlab chiqarish va uzatish jarayonida sarf-xarajatlar va texnik yo‘qotishlarni sezilarli darajada qisqartirish, energetika resurslari tarkibini optimallashtirishga xizmat qiladi.

«O‘zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi bug‘-gaz elektr stansiyalarini qurish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, elektr energiyasi iste’moli hisobini yuritish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish, elektr energiyasi ishlab chiqarish va uni transportirovka qilishda texnologik yo‘qotishlarni qisqartirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha qo‘srimcha choralarini ko‘rishi darkor.

2013-yilda xalqaro standartlarga javob beradigan 526 kilometrlik avtomobil yo‘llarini qurish va rekonstruksiya qilish, Qamchiq dovonida 71 kilometrlik avtomobil yo‘li uchastkasida rekonstruksiya ishlarini yakunlash, shuningdek, qator

ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarni barpo etish rejashtirilmoqda. Ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so‘m, shu jumladan, Respublika yo‘l jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 870 milliard so‘mdan ortiq hamda xalqaro moliya institutlari – Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Arab Muvofiqlashtirish guruhining qariyb 120 million dollarga teng mablag‘larini yo‘naltirish ko‘zda tutilmoqda.

«O‘zavtoyo‘l» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, Respublika yo‘l jamg‘armasi, Qora-qalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash hamda yo‘llar bo‘yida tegishli infratuzilmani rivojlantirishga doir belgilangan vazifalar ni so‘zsiz bajarish yuzasidan amaliy choralar ko‘rishi lozim.

Temiryo‘l kommunikatsiyalari tizimini jadal rivojlantirishga, yuk tashish hajmining asosiy qismini ta‘minlaydigan kommunikatsiya tarmoqlari bilan mamlakatimizning barcha hududlarini ishonchli tarzda bog‘lashga biz alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Joriy yilda bu borada 16 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Birinchi navbatda, 140 kilometrlik «Maroqand – Qarshi», 325 kilometrlik «Qarshi – Termiz» temiryo'l uchastkalarini elektrlashtirishni tugatish, shuningdek, harakatlanadigan tarkibni modernizatsiya qilish ishlarini amalga oshirish rejalashtirilmoqda.

«O'zbekiston temiryo'llari» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi ushbu loyihalarni amalga oshirishning borishini yana bir bor tanqidiy baholashi va tarmoq jadvallariga aniqliklar kiritib, ularning so'zsiz bajarilishini ta'minlashi lozim.

Axborot-kommunikatsiya va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi chora-tadbirlar va loyihalarni jadal amalga oshirish tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. **Biz o'zimizga shuni aniq tasavvur etishimiz kerakki, iqtisodiyotning barcha sohalariga, kundalik hayotimizga zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimlarini keng joriy etish bo'yicha tub va ijobjiy ma'nodagi portlash effektini beradigan o'zgarishlarni amalga oshirmsadan turib, istiqboldagi maqsadlarimizga erishish qiyin bo'ladi.** Biz qisqa vaqt mobaynida nafaqat axborot xizmatlari ko'rsatishning ko'plab turlari bo'yicha mavjud kamchiliklarni bartaraf etishimiz, balki

axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish borasida yuksak darajaga erishgan ilg'or mamlakatlar safiga qo'shilishimiz zarur.

Joriy yilning o'zida Jizzax, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida beshta raqamli televizion uzatgich o'rnatish yo'li bilan raqamli televideni-yeni rivojlantirish loyihalarini amalga oshirish va mamlakatimiz aholisini raqamli televideniye bilan qamrab olish darajasini 42 foizdan 45 foizga yetkazishni ta'minlash lozim.

Zamonaviy texnologiyalar asosida video-telefonlar, internet-televideniye, yuqori tezlikdagi internet, HDTV kanallarini namoyish qilish va boshqa xizmatlar ko'rsatish imkonini beradigan 2 ming kilometr uzunlikdagi keng polosali optik tolali aloqa tarmog'i qurilishini yakuniga yetkazish darkor.

Yangi tashkil etilgan Aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi, bu sohada asosiy muvofiqlashtiruvchi organ sifatida, o'tgan yilda qabul qilingan Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish va yanada rivojlantirish dasturi bajarilishini qat'iy nazoratga olishi, uning ijrosi natijalari to'g'risida Hukumatga muntazam ravishda axborot berib borishi zarur.

Bu borada «Elektron hukumat» tizimini, shu jumladan, boshqaruv jarayonlari, shuningdek, biznes sohasiga va fuqarolarga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini shakllantirish konsepsiyasini va kompleks dasturini ishlab chiqishni jadal-lashtirishga, Axborot tizimlarining idoralararo va idoraviy komplekslarni integratsiya qiladigan milliy tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Hurmatli yurtdoshlar!

Faol investitsiya siyosati mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning eng muhim sharti va manbayi bo'lmosg'i kerak. O'zbekistonda so'nggi besh yil mobaynida investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati 9 foizdan zi-yodni tashkil etmoqda va bu dunyodagi yuqori, barqaror ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida global moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotganini inobatga oladigan bo'lsak, bungi murakkab sharoitda biz erishgan bu natijaning ahamiyati va mohiyati yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Keyingi 10 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3,2 barobar oshgan bo'lsa, shu davrda to'g'ridan to'g'ri xorijiy

investitsiyalar hajmi 20 barobardan ziyod o'sgani e'tiborga sazovordir.

Strategik xorijiy investorlarni jalg etish maqsadida mamlakatimizda investorlarning o'zi uchun ham, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar uchun ham noyob kafolatlar tizimi yaratildi.

Avvalo, davlat tomonidan xorijiy investorlarning barcha huquqlari ta'minlanmoqda, ularning sarmoyalari, mamlakatimiz hududida ular tomonidan yaratilgan mulkning daxlsizligi kafolatlanmoqda, yaratilayotgan imtiyoz va preferensiyalarini kengaytirish va liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar izchil davom ettirilmoqda.

«Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatları va ularni himoya qilish choraları to'g'risida»gi Qonunga ko'ra, qonunchilik normalarining o'zlartirilishi investitsiyalash shart-sharoitlarini yomonlashtirishga olib kelgan taqdirda chet ellik investorlarga nisbatan o'n yil mobaynida investitsiya kiritilgan sanada amal qilgan qonunchilik qo'llanadi.

Yana bir qulaylik tomoni shundaki, davlat boshqaruv organlari yoki davlat hokimiyati mahalliy organlari tomonidan chet ellik investorlarning huquqlarini kamsitadigan normativ hujjatlar qabul qilingan, shuningdek, chet ellik investor-

larning xo‘jalik faoliyatiga g‘ayriqonuniy aralashishga yo‘l qo‘yilgan taqdirda, bularning oqibatida yetkazilgan zarar sud orqali mazkur organlar tomonidan qoplanadi.

Mamlakatimizda chet ellik investorning O‘zbekistonda olgan daromadlarini qaytadan investitsiya sifatida kiritish bo‘yicha hech qanday cheklovlar yo‘q – chet ellik investorning daromadi, uning xohishiga ko‘ra, har qanday shaklda ishlatilishi mumkin.

Mazkur Qonunga muvofiq, yurtimizda chet el investitsiyalari va xorijiy investorlarning boshqa aktivlari xalqaro huquqda qabul qilingan umumiy holatlarni (masalan, tabiiy ofatlar, falokatlar va boshqalarni) mustasno etganda, natsionalizatsiya qilinmasligiga yana bir bor e’tibor qaratish o‘rinlidir.

O‘zbekistonda 2012-yilda mamlakatimizning investitsiyaviy jozibadorligini yanada yaxshilashga yo‘naltirilgan bir qator qo‘srimcha muhim qonun hujjatlari va huquqiy normalar qabul qilindi.

Biz mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan investitsiya loyihibalarini amalga oshirish yo‘lida zarur bo‘lgan barcha ishlab chiqarish infratuzilmalarini davlat mablag‘lari hisobidan ta’minlash prinsipini nafa-

qat qabul qildik, balki uni amalda joriy etmoqdamiz.

Biz qiymati 50 million dollardan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo‘lgan aniq loyihalarining o‘z muddatida amalga oshirilishini ta’minlaydigan infratuzilmani loyiha hujjatlari asosida o‘z vaqtida qurish majburiyatini zimmamizga olamiz. Surg‘il koni negizida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan loyiha buning yaqqol dalilidir. Bu yerda umumiy qiymati 212 million dollarni tashkil etadigan tashqi muhan-dislik infratuzilmasini barpo etishni davlat o‘z zimmasiga olgan. «Navoiy» erkin industrial-iqtisodiy zonasasi va «Angren» maxsus industrial zonasida yaratilgan sharoitlar ham bunga misol bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimizda yaratilgan ishbilarmonlik muhiti qulay investitsiyaviy jozibadorlikning muhim tarkibiy qismi va omilidir.

O‘zbekistonda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga mos va mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddallashtirish, arzonlashtirish va ularning ochiqligini ta’minlashga yo‘naltirilgan kompleks dastur qabul qilindi.

2012-yil davomida mazkur dastur doirasi-da oltita muhim qonun, jumladan, «Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi, yangi tahrirdagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonunlar, shuningdek, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, soliq va statistik hisobotlarni qisqartirishga qaratilgan qonun hujjatlari va normativ aktlar majmuasi qabul qilindi.

Ruxsat berishga oid 80 ta tartib-taomil, litsenziyalanishi talab etiladigan 15 ta faoliyat turi bekor qilindi, statistik, soliq va molivayi hisobotlarning shakllari va davriyligi bir yarim-ikki barobar qisqartirildi. Davlat va nazorat qiluvchi idoralarning tadbirkorlik subyektlari bilan elektron shakldagi bilvosita aloqasi bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekistonda biznesni ro‘yxatga olish jarayoni «bir darcha» tamoyili asosida atigi ikki kun ichida amalga oshiriladi va bu eng yaxshi xalqaro amaliyot talablariga to‘la mosdir.

Mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlari huquqlarining ustuvorligi tamoyili joriy etilgan bo‘lib, bunda tadbirkorlik faoliyatini yuri-

tish bilan bog‘liq qonunchilikdagi bartaraf etib bo‘lmaydigan qarama-qarshilik va noaniqliklar tadbirkorlik subyekti foydasiga talqin qilinishi belgilab qo‘yilgan.

Yurtimizda ishbilarmonlik muhitini takomil-lashtirish borasidagi chora-tadbirlar o‘zining ilk natijalarini ko‘rsatayotganini ta’kidlash joiz. Juhon banki hisob-kitoblariga ko‘ra, 2012-yilda O‘zbekiston biznesni yuritish bo‘yicha reytingda 14 o‘rin yuqoriga ko‘tarildi.

Ayni paytda mazkur yo‘nalishda yana ko‘p ishlarni amalga oshirish lozimligini ta’kidlash kerak. Mamlakatimizdagi ishbilarmonlik muhiti jahon tajribasida qabul qilingan biznesni yuritish mezonlariga qay darajada mos kelishini doimo kuza-tib borishimiz va tegishli qarorlar qabul qilishimiz zarur. Vazirlar Mahkamasi bu ishga rahbarlik qiliishi, Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bu masala bilan tizimli asosda shug‘ullanishi maqsadga muvofiq bo‘lur edi.

Yangi ish o‘rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta’minlash 2013-yil va undan keyingi yillarga mo‘ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo‘nalishi bo‘lib qoladi.

Oliy Majlis tomonidan ma'qullangan dasturda 2013-yilda 970 mingdan ortiq yangi ish o'rni tashkil etish ko'zda tutilgan. Muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lган mazkur masalani hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Ushbu sohalarda qariyb 500 ming ish o'mi yaratish rejalashtirilmoqda.

Band bo'lмаган ахолини исх билин та'minlashда kasanachilikning turli shakllarini, birinchi navbatda, kasanachilar va korxonalar o'rtasidagi kooperatsiyani mehnat shartnomalari asosida kengaytirish, oilaviy biznesni rivojlantirish katta rezerv hisoblanadi. Mazkur sohalar hisobidan 280 mingdan ortiq kishini ishga jalb qilish ko'zda tutilgan.

Ish o'rinlarini tashkil qilishda, birinchi navbatda, tarmoq dasturlarini amalga oshirish, korxonalarni modernizatsiya qilish va texnologik yangilash, ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, transport va kommunikatsiya qurilishini, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini kengaytirish masalalari muhim o'rin tutadi va bu sohalarda 250 ming kishini ish bilan ta'minlash belgilangan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Ken-gashi, viloyatlar, shahar va tumanlar, xo'jalik yurituvchi subyekt va tashkilotlar rahbarlariga murojaat etib, ushbu masalani hal qilish yuzasidan tegishli aniq dasturlarni ishlab chiqish va ularning so'zsiz bajarilishini ta'minlash zarurligiga e'tiboringizni qaratmoqchiman.

Barchamiz, avvalambor, katta-kichik rahbarlar bir narsani hech qachon esimizdan chi-qarmasligimiz lozim. Har qaysi oiladagi farovonlik, yurtdoshlarimizning hayotga bo'lgan munosabati, pirovard natijada butun jamiyatimizning barqarorligi, avvalo, odamlarimizning qanday ish bilan ta'minlangani, o'z mehnatiga yarasha munosib maosh olishiga bog'liqdir.

Hurmatli do'stlar!

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni umumlash-tirib, o'tgan davrda amalga oshirgan keng ko'lamli ishlarimiz ham, joriy yildagi va undan keyingi yillardagi barcha sa'y-harakatlarimiz ham yagona ezgu maqsadga – xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishga qaratilganini yana bir bor ta'kidlamoqchiman.

Bu sohada erishilgan real raqam va ko'rsatkichlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar va o'zgarishlarning

samaradorligini yaqqol namoyon etayotganini har birimiz o‘zimizga aniq tasavvur qilishimiz lozim.

Hech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O‘tgan 2012-yilda bu ko‘rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o‘sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000-yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko‘paydi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, o‘rtacha ish haqi iste’mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi.

2013-yilda budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o‘rtacha 23 foizdan kam bo‘limgan daraja da oshirish, 2013-yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko‘paytirish vazifasi qo‘yilmoqda.

Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o‘zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o‘sib borayotgani alohida e’tiborga molikdir.

O‘tgan 2012-yilda ushbu ko‘rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko‘pi, birinchi navbatda,

tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda.

Ana shu davrda aholining banklardagi omonatlari o'sishi 34,6 foizni tashkil qildi, so'nggi o'n yilda esa 40 barobardan ziyod oshdi. 2012-yilda mamlakatimizdagi barcha investitsiyalarning 20 foizdan ortig'ini aholi investitsiyalari tashkil etgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foizi va eng kam ta'minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012-yilda atigi 8,0 barobarni tashkil etganini alohida ta'kidlashni istardim. Bu jahondagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqlanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatimizning samarasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

Odamlarning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini aholining muayyan guruhiga mansubligini anglashi ularning turmush darajasi va sifatining umumiy hamda yakuniy indikatori hisoblanadi.

Bu borada, albatta, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan bir qatorda, yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamонавиyy uy-joylar bilan ta'minlangani, odamlar istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda

obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, aholini sifatli iste'mol tovarlari, shu jumladan, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan ta'minlash, zamonaviy talablar asosida ta'lim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan bahramand bo'lish kabi hayot darajasini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlar inobatga olinadi.

O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan aksariyat indeks va ko'rsatkichlar bo'yicha katta o'zgarish va yutuqlarga erishildi. Bu haqda so'z yuritganda, shuni aytish joizki, ayni paytda oilalarning 97 foizi o'z uyiga ega, aholining 90 foizi uzoq muddat foydalaniladigan barcha asosiy tovarlar bilan ta'minlangan, har uch oiladan biri shaxsiy yengil avtomobilga ega, aholi iste'mol mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlanmoqda.

O'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, ayni paytda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini o'zini o'rta toifaga mansub deb biladi. Holbuki, 2000-yilda atigi 24 foiz aholi o'zini shu toifaga mansub deb bilar edi.

Shuni unutmaslik kerakki, o'rta sinf ulushining yuqoriligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamini va asosi, davlatning barqarorligi

va mustahkamligining, odamlarning o‘z kelajagi giga bo‘lgan ishonchining muhim omili sifatida qabul qilinadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati, aholi turmush darajasi va hayot sifatini oshirish bo‘yicha erishilgan yutuqlar yetakchi xalqaro tashkilotlar hamda ekspertlar hamjamiyati tomonidan keng e’tirof etilib, xolsona baholanmoqda.

2012-yilda Buyuk Britaniyaning xalqaro miqyosda tan olingan Legatum instituti o‘zining Farovonlik va rivojlanish indeksida O‘zbekistonni dunyo mamlakatlari orasida haqli ravishda 64-o‘ringa kiritgani e’tiborga loyiqidir.

Ijtimoiy farovonlik, jumladan, umr ko‘rish davomiyligi, oilalarning tinchligi va osoyish-taligi, ishsizlik darajasining pastligi, ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish darajasi bo‘yicha ham O‘zbekiston jahon hamjamiyatida o‘zgalar havas qiladigan o‘rinni mustahkam egallab turibdi.

Hech shubhasiz, xalqimizning tinimsiz mehnati, mardligi va matonati evaziga qo‘lga kiritgan bunday yutuqlardan va marralardan har qaysimiz g‘ururlanib, boshimizni baland ko‘tarib yashashga haqlimiz.

Qadrli do'stlar!

Biz 2013-yilni yurtimizda «Obod turmush yili» deb e'lon qildik.

Aholimizning tinch-omon hayotini ta'minlash, uning farovonligini oshirish, iqtisodiyotimizni izchil rivojlantirish, O'zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro'-e'tibori va pozitsiyasini yuksaltirish, mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha o'z oldimizga qo'yayotgan maqsadlar, miqyosi va ko'lamiga ko'ra, xalqimizning ezgu orzu-umidlari bilan hamohangdir.

Shuni alohida ta'kidlab aytmoqchiman, 2013-yilda va undan keyingi yillarda dasturiy maqsadlarimizni amalga oshirish uchun o'z salohiyatimiz, barcha imkoniyat va kuchg'ayratimizni safarbar etish bugungi kundagi eng katta va mas'uliyatli vazifamizdir.

Shu yo'lda barchangizga sihat-salomatlik, omad va yangi-yangi yutuqlar tilayman.

*2012-yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza,
2013-yil 18-yanvar*

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING RESPUBLIKA KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA BAYRAM TABRIGI

Aziz opa-singillar, muhtarama ayollar!

Avvalambor, sizlarga – O'zbekiston xotin-qizlari respublika konferensiyasining barcha ishtirokchilariga, sizlarning timsolingizda butun mamlakatimiz ayollariga o'zimning chuqur hurmatimni bildirib, anjuman ishiga katta muvaffaqiyatlar tilayman.

Bundan yigirma bir yil oldin tashkil topgan O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi o'zining joylardagi bo'limlari va tuzilmalari bilan birga o'tgan qisqa davr mobaynida, aytish mumkinki, o'ta muhim va mas'uliyatli, ulkan vazifalarni amalga oshirishda ko'pgina yutuq va marralarga erishdi. Bu tashkilotning mamlakatimiz ayollarining manfaatlari, huquq va erkinliklarini himoya qilish, ularning jamiyatimiz hayotidagi o'rmi va nufuzini oshirish borasidagi ko'p qirrali faoliyati, jahon xotin-qizlar harakatining e'tibor markazida turgan dolzarb masalalarni hal qilishga qo'shgan hissasi, ayniqsa, oxirgi yillarda uning xalqaro maydonagi obro'-e'tiborini kuchaytirishga olib keldi.

Mamlakatimiz oldida turgan ustuvor vazifalarini amalga oshirishda – bu jamiyatni demokratik yangilash bo‘ladimi, iqtisodiyotimizni isloh qilish, xalqimizning hayot darajasi va sifatini oshirish bo‘ladimi, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat sohalarini rivojlantirish bo‘ladimi – bularning barchasini mujassam qilib aytganda, O‘zbekistonimiz erishgan va dunyo hamjamiyati tan olayotgan marralarni egallash yo‘lida butun xalqimiz qatori ayollarimizning hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydigan hissasi borligini bugun yana bir bor chuqr minnatdorlik bilan e’tirof etishni zarur deb bilaman. Haqiqatan ham, ular o‘zlarining mehnatsevarligi, oqilalik va shukronalik fazilatlari, sabr-bardoshi, ertangi kunga ishonch tuyg‘usi bilan barcha qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib, boshqalarga o‘mak bo‘lib kelayotganini ko‘plab hayotiy misollarda yaqqol ko‘rish mumkin.

Shu borada o‘zimizga mos qadriyat va qarashlarimizni ifoda etadigan muhim bir masalaga e’tiborimizni qaratishni o‘rinli, deb hisoblayman.

Har qaysi oilada go‘zallik va nafosat, mehrmuhabbat timsoli, xonadonlarimiz osoyishtaligining posboni bo‘lmish, bir so‘z bilan aytganda, oilani oilaga, jamiyatimizni jamiyatga aylantira-

digan ayol zotiga qancha tasannolar aystsak, qancha ta'zim etsak – baribir barchamiz o'zimizni ular oldida doimo qarzdor, deb his qilamiz.

Faqatgina ayol zotiga mansub bo'lgan mana shunday noyob, betakror xususiyat va fazilatlar ni ta'riflash va ulug'lash, ularning kundalik turmushimizdagi ahamiyati va ta'sirini kuchaytirish, oilalarimizni yanada mustahkam qilish, shu asnoda hayotimizni har tomonlama obod, go'zal va mazmunli etish – bunday dolzarb vazifalar bugungi kunda Xotin-qizlar qo'mitasi ish faoliyatida e'tibordan chetda qolmasligini istardim.

Takror-takror aytishga to'g'ri keladi: hozirgi vaqtda oilani, xususan, yosh oilalarni mustahkamlash, og'irini yengil qilish, ular duch keladigan turli muammolarni yechish, zarur ko'mak va yordam berish ham ana shu masalalarning uzviy bir qismi ekanini yaxshi anglab olishimiz lozim.

Hech kimga sir emas, har bir ota-onaning ezgu orzusi bo'lgan sog'lom va barkamol avlodni vo'yaga yetkazish, onalik va bolalikni himoya qilish singari hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda xotin-qizlar tashkilotlari va uning joylardagi bo'linmalari faoliyatining samarasini yanada kuchaytirishni bugun hayotning o'zi talab etmoqda.

Muhtarama opa-singillarimizning o‘z bilim va professional malakasini, salohiyati va iste’dodini ro‘yobga chiqarishlari uchun, ayollarimiz, yosh qizlarimizni, ayniqsa, qishloq joylarda ish bilan ta’minalash, kasanachilik, oilaviy biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar tug‘dirib berish bugungi kunning eng dolzarb vazifalari qatoriga kiradi.

Hozirgi vaqtida dunyoda va mintaqamizda vaziyat tobora keskinlashib, o‘zaro qaramaqarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bir sharoitda oilalarda, mahallalarda faol ish olib borish, yosh avlodimizni turli zararli oqim va ta’sirlardan saqlash, azal-azaldan xalqimizga mansub bo‘lgan insoniy fazilatlarni asrash qanday muhim ahamiyat kasb etayotganini, o‘ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu borada bolalarimizni, ayniqsa, qiz bolalarni sog‘lom ruhda tarbiyalash, ularning zamонавиев bilim va kasb-hunararlarni, hayotda o‘z munosib o‘rnini egallashiga ko‘maklashish, urf-odat va marosimlarni davr talablari bilan uyg‘unlashtirish Xotin-qizlar qo‘mitasi, uning joylardagi vakillari va faollari, diniy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha maslahatchilar oldida turgan eng muhim vazifadir.

Bugungi anjumanda sizlar ayni shu yo‘nalishda olib borayotgan ishlaringizga tanqidiy baho berib, xotin-qizlar tashkilotlari faoliyatini yangi, yuqori bosqichga ko‘tarishga qaratilgan amaliy qarorlar qabul qilasiz, deb ishonaman.

Barchangizga sihat-salomatlik, kuch-g‘ayrat, ishlaringizda yangi muvaffaqiyatlar tilayman.

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.
2013-yil 25-yanvar*

O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI

Muhtarama onaxonlar, qadrli opa-singillar, dil-bar qizlarim!

Tabiat uyg'onib, tobora chiroy ochayotgan mana shu shukuhli ayyomda siz, azizlarni, siz-lar orqali butun O'zbekiston ayollarini 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni bilan chin qalbimdan muborakbod etib, ezgu tilaklarimni bildirishdan baxtiyormen.

Biz hayot falsafasi, ma'no-mazmuni va go'zalligini birinchi navbatda barchamizni dun-yoga keltirgan, oq yuvib, oq tarab voyaga yet-kazgan muqaddas Ona siymosida, ayol timso-lida ko'ramiz, ayol zotini Yaratganning tengsiz mo'jizasi, deb ulug'laymiz.

Haqiqatan ham, go'zallik va nafosat, mehr-u muhabbat, vafo va nazokat ramzi bo'lgan, o'zining mehribonligi, qalb saxovati bilan har qaysi oila-ni oila qiladigan, unga fayz-u tarovat beradigan, farzandlarimiz yuragiga o'z ona yurtiga sevgi va sadoqat tuyg'usini singdiradigan ayollarimizning

betakror fazilatlari haqida har qancha gapirsak, ularni har qancha e'zozlasak, arziydi, desam, o'ylaymanki, bugun barcha yurtdoshlarimning ko'nglidagi fikrlarni ifoda etgan bo'laman.

Qadrli opa-singillar!

Barchamizga ayonki, dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini yaqqol aks etti-radigan shunday bir mezon borki, u ham bo'lsa, jamiyatning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati, hurmati bilan belgilanadi.

Shu ma'noda, ayollarmi ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yusak madaniyati va oliyjanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan va tasdiqlaydigan xalq sifatida obro'-e'tibor qozonadi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Mustaqil taraqqiyot yillarida O'zbekistonimizni har tomonlama ravnaq toptirish, oldimizda turgan ezgu maqsadlarga erishish yo'lida butun xalqimiz qatori xotin-qizlarimizning beqiyos hissasi borligini biz hamisha minnatdorlik bilan ta'kidlaymiz.

Azaldan muhtarama ayollarimizga xos bo'lgan mehnatsevarlik, mehribonlik, shukronalik va oras-

talik, ro‘zg‘orni, umuman, oila hayotini oqilona boshqarish fazilatlari eng yuksak tahnislarga sazovordir.

Ayni vaqtida davlat idoralari boshqaruvida va ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizda – ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat kabi turli jabhalarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, «Sog‘lom ona – sog‘lom bola» singari butun dunyoda tan olingan dasturlarimizni amalga oshirishda opa-singillarimizning ibrat ko‘rsatib, samarali mehnat qilayotganini mammuniyat bilan e’tirof etamiz.

Shu borada birgina misol – mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarida mehnat qilayotgan aholining 50 foizga yaqinini aynan xotin-qizlar tashkil etayotganining o‘zi ko‘p narsani anglatadi, deb o‘layman.

Albatta, biz opa-singillarimizning mehnat va turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, farzandlarimiz, ayniqsa, qiz bolalarining zamonaviy bilim va kasb-hunar, ilm-fan cho‘qqilarini egallab, hayotdan munosib o‘rin olishlari uchun boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirishimiz kerakligini yaxshi tasavvur etamiz.

Yurtimizda 2013-yilga «Obod turmush yili» deb nom berganimiz va shu asosda Davlat das-turi qabul qilganimiz zamirida, avvalo, ana shun-day amaliy ishlarimizni yangi, yuksak bosqichga ko‘tarishdek ezgu maqsad mujassamdir.

Joriy yilda davlat budjeti xarajatlarining qariyb 60 foizini ijtimoiy sohalarga yo‘naltirish, ish haqi, pensiya, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o‘rtacha 23 foizga oshirish bo‘yicha belgilab ol-gan rejalarimiz, hech shubhasiz, bu yo‘lda yana bir salmoqli qadam bo‘ladi.

«Obod turmush yili» Davlat dasturida oila institutini mustahkamlash, ayollarning jamiyat hayotidagi roli va nufuzini yuksaltirish, ularning qobiliyat va imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, xotin-qizlarni, xususan, qishloq joylarda ish bi-lan ta’minlash, oilaviy biznes va kasanachilikni rivojlantirish, ayollarga kredit ajratish orqali ularni tadbirdorlik faoliyatiga keng jalb etish kabi biz uchun ustuvor bo‘lgan vazifalarga alohida o‘rin berilgani, ayniqsa, e’tiborlidir.

Xalqimizning hayot darajasi va sifatini yanada oshirish maqsadida zamonaviy ishlab chiqarish korxonalari, shifoxonalar, ta’lim-tarbiya, mada-niyat va san’at, sport maskanlari, kommunika-tsiya tarmoqlari, savdo va xizmat ko‘rsatish sho-

xobchalarini qurish, yangi turarjoylar, jumladan, qishloqlarimizda namunaviy loyihalar asosida 10 mingta uy-joy barpo etish, katta hajmda obodon-chilik ishlarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Shular qatorida ayollarimizning og‘irini yengil qilish masalasi ham, tabiiyki, e’tiborimiz markazi-da bo‘ladi. Xususan, xotin-qizlarning uy-ro‘zg‘or yumushlarini yengillatish maqsadida mamlakati-mizda ishlab chiqarilayotgan maishiy texnika va zarur tovarlarni xarid qilish uchun beriladigan iste’mol kreditlari hajmini 1,3 barobar oshirish mo‘ljallanayotganini qayd etish joiz.

Bunday ulkan rejalarни hayotga tatbiq etish uchun 6 trillion 650 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltirilayotganining o‘zi butun hayotimizni qamrab oladigan keng ko‘lamli maqsad va vazifalarni yaqqol ifoda etadi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Aziz opa-singillarim, qadrli qizlarim!

Ayni shu damlarda qalbimda, yuragimda siz-larga doimo saqlanib kelayotgan chuqur hurmatimni izhor etib, bir fikrni bildirmoqchiman.

Ayol zotiga, aynan sizlarga mansub go‘zal fazilatlar, hayotimizda hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik va nehr-oqibat muhitini mustahkamlash, hamjihatlik va ahillik kabi insoniy

tuyg‘ularni yanada yuksaltirish, farzandlarimizni sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash yo‘lidagi ezgu intilishlaringiz, beqiyos xizmatlaringiz uchun butun yurtdoshlarimiz, xalqimiz nomidan barchangizga ta’zim qilishni o‘zimning sharaflı burchim, deb bilaman.

Yana va yana bir bor sizlarni bahor va nafosat ayyomi bo‘lmish 8-mart bayrami bilan samimiyl tabriklayman.

Umrингиз узоқ, rizq-u nasibangiz ziyoda bo‘lsin!

Hamisha toleyingiz baland bo‘lsin!

Xonardonlarimizdan shod-u xurramlik, qutbaraka arimasin!

Xalqimiz, Vatanimiz, farzandlaringiz baxtiga doimo omon bo‘ling, azizlarim, mehribonlarim!

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
2013-yil 7-mart*

SPORT – BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING ENG MUHIM VA SAMARALI OMILIDIR

Hurmatli Homiylik kengashi a'zolari va majlis qatnashchilari!

Bugungi yig'ilishimiz kun tartibiga kiritilgan masalalarни ko'rib chiqishdan oldin mamlakati-mizda 2002-yil oktabr oyida O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan tashkil etilgan Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining ish boshlaganiga **10 yil to'lganini eslatib o'tishni istardim.**

Shu munosabat bilan Jamg'armaning ana shu o'tgan davrdagi faoliyati natijalarini qisqacha sarhisob qilsak, ayni muddao bo'ladi, deb o'ylayman.

Shu borada barchamiz uchun ezgu maqsadimizga aylanib qolgan vazifa – ya'ni «**Sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash – kelajagi buyuk davlat poydevorini qurish, dunyoda o'zimizga yuksak obro' egallash demakdir**» degan shiorni eslashimiz o'rinali bo'ladi.

Boshqacha qilib aytganda, Jamg'armani tashkil etishda biz sog'lom va barkamol avlodni

shakllantirish, sog'lom hayot tarzini keng qaror toptirish, yosh naslimizni turli salbiy ta'sirlardan asrash, bolalar sportini tom ma'noda ommaviy, umumxalq harakatiga aylantirishdek olivjanob maqsadlarni o'z oldimizga qo'yganimizni yana bir bor ta'kidlab o'tmoqchiman.

Chunki, hech kimga sir emas, har qaysi ota-onaning orzusi bo'lgan, ya'ni o'z farzandlarining jismoniy, intellektual va ma'naviy jihatdan yetuk bo'lib, hayotda munosib o'rinnegallashini eng ustuvor, eng oliy maqsad, deb bilgan mamlakat va xalqgina yuksak taraqqiyotga erisha oladi.

Muxtasar aytganda, biz bolalar sportini ta'lim-tarbiya jarayoni bilan mutanosib ravishda izchil rivojlantirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik va bu yo'lda keng ko'lamli ishlarni amalga oshirib kelmoqdamiz.

Jamg'arma faoliyatida asosiy e'tibor bolalar sportini, birinchi navbatda, qishloq joylarda rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini shakllantirish, umumta'lim maktablarida zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etish, ularni zamonaviy sport uskuna va inventarlari bilan jihozlash, shuningdek, bu inshootlardan samarali foydalanishga ko'maklashish masalalariga qaratilgani har ji-

hatdan to‘g‘ri bo‘lganini bugun hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda.

O‘tgan oxirgi 10 yil davomida Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan 1113 ta bolalar sporti obyekti, jumladan, 252 ta yangi sport kompleksi, 861 ta sport zali barpo etilgani, bularning 84 foizi qishloq joylarda qurilganini ta’kidlash lozim.

Bundan tashqari, faoliyat ko‘rsatayotgan 262 ta sport inshooti rekonstruksiya qilindi va kapital ta‘mirlandi. **Bu maqsadlar uchun 570 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirildi.** Birgina o‘tgan yilda 92 ta bolalar sporti obyekti va 16 ta suzish havzasi qurildi va rekonstruksiya qilindi.

Aytish joizki, yuqorida keltirilgan raqamlar fagatgina Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan amalga oshirilgan ishlarni ifoda etadi.

Mamlakatimiz bo‘yicha umuman bugun mavjud bo‘lgan sport obyektlari haqida gapirganda quyidagi ko‘rsatkichlarni e’tiborga olish zarur.

Bugungi kunda umumta’lim maktablarining soni 9600 tani tashkil etadigan bo‘lsa, ularning 81 foizi yangitdan qurilgan va rekonstruksiya qilin-gan sport zallariga ega.

1549 ta kollej va litseylar zamonaviy jihozlangan sport zallari bilan 100 foiz ta'minlangan.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, foydalanishga topshirilgan yangi sport inshootlarining bar-chasi O'zbekiston davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi tomonidan maxsus ishlab chiqilgan zamonaviy namunali loyihamalar asosida barpo etildi va jihozlandi.

Bolalar sporti obyektlari, avvalambor, mamlakatimizda ishlab chiqarilgan anjomlar bilan jihozlandi va qayta jihozlanmoqda. Bugungi kunda 120 turdag'i sport inventarlari va uskunalarining 114 tasi mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgani o'tgan davrda bu borada ham jiddiy qadamlar qo'yilganidan dalolat beradi.

Ayni vaqtda sport obyektlaridan to'la va samarali foydalanish unib-o'sib kelayotgan farzandlarimiz, ayniqsa, qizlarimizning sportga bo'lgan qiziqish va intilishini orttirish yo'lida muhim o'rincutadi.

Hozirgi paytda yangitdan bunyod etilgan bolalar sporti obyektlarida faoliyat ko'rsatayotgan 57,5 mingdan ortiq sport seksiyalarida 1 million 800 ming nafardan ziyod bola sport bilan shug'ullanayotgani va buning natijasida har qaysi sport inshootining kundalik o'rtacha bandlik da-

rajasi 9,2 soatga yetgani, hech shubhasiz, faoliyatimizning eng muhim samarasi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Biz uchun yana bir muhim masala – bu qizlarimizni yoshligidan sportga jalb etish, qiziqtirish bilan bog‘liq bo‘lib kelmoqda. Ertaga ona bo‘ladigan, yangi insonni dunyoga keltiradigan, oila va jamiyat tayanchi bo‘ladigan qizlarimizni yoshlikdan sport bilan oshno etish masalasiga yanada jiddiy e’tibor berishimiz, bu borada eskidan qolgan qarashlarga butunlay chek qo‘yishimiz zarur.

Turli, biz uchun ko‘p jihatdan yangi sport turlarini o‘zlashtirish va hayotga tatbiq etish maqsadida amalga oshirgan ishlarimiz misolida suv sportini rivojlantirishga oid masalalarga to‘xtalib o‘tmochiman.

O‘tgan besh yilda mamlakatimizning barcha viloyatlarida namunaviy loyihalar asosida hajmi 25 metrga 12 metr bo‘lgan 14 ta yangi, zamonaviy yopiq suzish havzasi barpo etildi, 13 ta suzish havzasi qaytadan qurildi, 83 tasi kapital ta’mirlandi. Shu davrda 110 ta suzish havzasini foydalanishga topshirildi, ularning umumiy soni bugungi kunda yurtimiz bo‘yicha 203 taga yetdi.

Yaratilgan bunday keng imkoniyatlar bolalar-ning suv sporti turlari – suzish, sinxron suzish, suvgaga sakrash, vaterpol bilan ommaviy ravishda shug‘ullanishi uchun xizmat qilmoqda.

Hozirgi vaqtida 13 ming nafardan ortiq o‘g‘il-qizlarimiz mamlakatimizda ayni shu sport turlari bilan muntazam ravishda shug‘ullanayotgani alohida e‘tiborga sazovor.

Ana shunday sa'y-harakatlarimiz natijasida so‘nggi yillarda O‘zbekiston sportchilari suv sporti turlari bo‘yicha ko‘plab xalqaro musobaqlarda yuksak natijalarga erishmoqda.

2012-yili Germaniyada bo‘lib o‘tgan suzish bo‘yicha xalqaro musobaqada mamlakatimiz terma jamoasi 9 ta oltin, 9 ta kumush va 6 ta bronza medalni qo‘lga kiritdi.

Ana shu bellashuvlarda juda faol ishtirok etgan 12 yashar Amirbek Usmonov dunyoning manaman degan davlatlaridan kelgan tengdoshlarini ortda qoldirib, 5 ta oltin va bitta kumush medalni qo‘lga kiritgani, hech shubhasiz, barchamizga chuqur mamnuniyat bag‘ishladi. Avstriya mamlakatida o‘smirlar o‘rtasida suzish bo‘yicha bo‘lib o‘tgan xalqaro turnirda ham Amirbek besh marta oltin medal sohibi bo‘ldi.

O‘zimizga bir faraz qilaylik, ilgari yoshlarimiz suv sporti bo‘yicha bunday katta yutuqlarga erisha olarmidi? Xolisona tan olib aytadigan bo‘lsak, bunday yutuq va g‘alabalar ilgari tushimizga ham kirmas edi. Bunday hayotni faqat orzu qilishimiz mumkin edi, xolos.

Eng quvonarlisi, ko‘pchilikni hayratda qoldirayotgan bunday yosh championlar qizlarimiz orasidan ham ko‘plab yetishib chiqmoqda. Misol uchun, Malayziyada o‘tkazilgan sinxron suzish musobaqalarida sportchi qizlarimiz 4 ta oltin, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalni qo‘lga kiritishdi. **Namangan viloyatining o‘smirlar va qizlar jamoalari esa vaterpol bo‘yicha Malayziyada bo‘lib o‘tgan xalqaro bellashuvda birinchi o‘rinlarni egallashdi.**

Bugun nafaqat Namangan, balki butun O‘zbekistonimiz bu qizlarga har qancha olqishlar aytsa arziydi. Chunki bir paytlar, Namanganda qizlar, ayollar ijtimoiy faol emas, degan gaplar ham bo‘lgan edi. Shu ma’noda, sportchi qizlarimiz bugun erishgan bunday yuksak marralar, albatta, barchamizni xursand qiladi.

Ma’lumki, sport olamidagi har qanday yutuq o‘z-o‘zidan kelmaydi. Sport maydonlarida erishiladigan yutuqlar – avvalo, shu yo‘lda tinimsiz

intilib, kurashib yashaydigan insonning yutug‘i, ayni vaqtda shu insonni tarbiyalab voyaga yetkazgan jamiyatning yutug‘idir.

Men ishonaman – bugun butunlay yangicha sharoitlarda o‘sib, kamol topayotgan bizning bolalarimiz, qizlarimiz bundan ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritishga albatta qodir. Shuning uchun ham bunday iste’dodli, navqiron farzandlarimizni har tomonlama qo’llab-quvvatlashimiz, ularning salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarish uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishimiz kerak.

Mamlakatimizda katta tennis va stol tennisi, badiiy va sport gimnastikasi, suzish, yengil atletika, basketbol, gandbol, voleybol, futbol, dzyudo, kurash va dunyo bo‘ylab keng tarqalgan boshqa sport turlari jadal rivojlanib, tobora ommaviyashib bormoqda.

Ayni paytda, yuqorida aytilganidek, yurtimizda 1 million 800 ming nafardan ortiq bola 30 dan ziyod sport turi bilan muntazam shug‘ullanmoqda. Bu raqam, 2003-yilga nisbatan olganda, 1,4 barobar ko‘pdir. Shu davrda maktab o‘quvchilarini jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlariga jalb etish 20,4 foizdan 40,5 foizga, jumladan, qizlar o‘rtasida 16,4 foiz-

dan 32,5 foizga o'sgani, albatta, hammamizni quvontiradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'tgan yillar davomida **qishloq joylarda bolalar sportini rivojlantirish bilan bog'liq ishlar tubdan yaxshilandi.**

Holbuki, yaqin-yaqingacha ham qishloqlarda bolalar sporti qanday qoniqarsiz ahvolda bo'lib kelgani haqida ortiqcha gapirib o'tirishning hojati yo'q, deb o'layman.

Agarki raqamlarga murojaat qiladigan bo'l-sak, **so'nggi o'n yilda qishloq joylarda bolalarning sport bilan shug'ullanishi 14,5 foizdan 39 foizga o'sganini ko'rish mumkin.** Bugungi kunda qishloqlarda sport bilan muntazam ravishda shug'ullanadigan bolalarimiz soni 2003-yilga nisbatan ikki barobar ko'pdirdi.

Hech ikkilanmasdan aytish mumkinki, o'tgan yillar mobaynida qizlarni sportga jalb qilish borasida ulkan natijalarga erishildi. 2012-yilda mamlakatimizda sport bilan shug'ullanayotgan qizlar soni, 2003-yil bilan solishtirganda, 1,6 barobar, jumladan, qishloq joylarda 1,3 barobar o'sdi.

Sportning badiiy gimnastika, suzish, sinxron suzish, tennis va boshqa turlari bilan

shug‘ullanayotgan qizlar safi sezilarli darajada kengayganini mammuniyat bilan qayd etish lozim.

Misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, **badiiy gimnastika bo‘yicha joylarda hududiy federatsiyalar va markazlarning tashkil etilgani natijasida sportning salomatlik uchun har tomonlama foydali bo‘lgan ushbu nafis turi bilan muntazam shug‘ullanayotgan qizlar soni keskin oshganini ko‘ramiz.**

E’tibor beringlar, agar 2003-yilda bor-yo‘g‘i 1700 nafar qiz bola badiiy gimnastika bilan shug‘ullangan bo‘lsa, 2012-yilda ularning soni 36 mingtaga yetdi.

Eng muhimi, qizlarimizning sport bilan shug‘ullanishi ularning nafaqat salomatligida, ayni paytda qaddi-qomati to‘g‘ri shakllanishida, yurish-turishida naqadar muhim ahamiyat kasb etayotganini bugun ota-onalarning o‘zlari quvonch bilan ta’kidlashmoqda.

Bolalarning sport bilan shug‘ullanishga qizi-qishini yanada oshirish maqsadida mamlakatimiz hududlarida sportning ko‘plab turlari bo‘yicha musobaqalar, sport festivallari, o‘rtoqlik uchrasuvlari va o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari muntazam ravishda o‘tkazilmoqda.

Misol uchun, 2003–2012-yillarda 23 mingta sport tadbiri o‘tkazilgan bo‘lsa, ularning qariyb 17 mingtasi qishloq joylarda tashkil etilganini aytish lozim. Ana shu tadbirlarda 10,5 milliondan ortiq bola, jumladan, qishloq joylarda yashaydigan 7,6 million nafar o‘g‘il-qizlarimiz ishtirok etdi.

Shuni alohida aytish kerakki, yurtimizda an‘anaviy tarzda o‘tkaziladigan, Olimpiya harakati tamoyillariga to‘liq mos keladigan uch bosqichli sport o‘yinlari – «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va Universiada musobaqalari mamlakatimiz terma jamoalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Aziz do‘sstar, sportni, birinchi navbatda, bolarlar sportini rivojlantirish borasidagi ishlarning muvaffaqiyati ushbu sohaga yuqori malakali o‘qituvchi va murabbiy kadrlarni keng jalb etish bilan bog‘liq ekani hech kimga sir emas.

Shu maqsadda o‘tgan yillar davomida bolarlar sporti obyektlarini murabbiy kadrlar, ayniqsa, ayol sport ustozlari bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘pgina ishlar amalga oshirilgani sizlarga yaxshi ma’lum, albatta.

Avvalo, murabbiylar mehnatini rag‘batlantirish bo‘yicha yurtimizda yangi, samarali tizim joriy etilgani bugungi kunda o‘zining

amaliy natijasini bermoqda. Bu borada 2012-yilda murabbiy-o‘qituvchilar soni 2003-yilga nisbatan 1,7 barobar ko‘paygani, jumladan, ayol sport ustozlarining soni 5 barobar oshganini qayd etish lozim.

Shu bilan birga, murabbiy-o‘qituvchi kadr-lar tarkibi ham sifat jihatidan o‘zgarganini, ya’ni ularning qariyb yarmi bugungi kunda o‘z sohasi bo‘yicha oliy ma’lumotga ega ekanini ta’kidlash joiz.

Yosh sportchilarimizning xalqaro, qit’a va mintaqa miqyosidagi musobaqalarda qo‘Iga kiritgan g‘alabalari bolalar sportini rivojlanti-rish borasida erishgan yutuqlarimizning yaq-qol tasdig‘i bo‘lmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, 2005–2012-yillar mobaynida **Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan qariyb 4 ming nafar bola 333 ta xalqaro sport tadbirida, turli festival va o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlarida ishtirok etganini aytib o‘tish o‘rinlidir.** Ana shu musobaqalarda qatnash-ganlarning asosiy qismi – qariyb 2400 na-fari qishloq joylarda yashayotgan o‘g‘il-qizlarimizdir.

Biz barpo etgan sport obyektlarida sportchi sifatida shakllanib, kamolga yetgan **bu yoshlar**

dunyoning 34 tadan ortiq mamlakatida bo‘lib, sportning 30 turi bo‘yicha Vatanimiz sharafini munosib himoya qilgani haqida har qancha g‘ururlanib gapirsak arziydi, albatta.

Ana shunday yosh sportchilarimiz o‘tgan davrda o‘z mahorati, azm-u shijoatini namoyon etib, 922 ta medalni, jumladan, 363 ta oltin, 282 ta kumush va 277 ta bronza medalni qo‘lga kiritgani alohida tahsinga sazovordir. **Birgina 2012-yilning o‘zida sportchi yigit-qizlarimiz 204 ta medal sohibi bo‘ldilar. Ularning 81 tasi oltin, 61 tasi kumush va 62 tasi bronza medallidir.**

Ayniqsa, o‘smir yoshdagи shaxmatchilarimizning o‘tgan yili erishgan katta g‘alabalari milliy sportimiz tarixida tom ma’noda yorqin iz qoldiradigan voqeа bo‘ldi.

Bunday misollarni davom ettiradigan bo‘lsak, 2012-yilda to‘qqiz yashar jajjigina shaxmatchimiz Nodirbek Abdusattorov Sloveniyaning Maribor shahrida tezkor shaxmat bo‘yicha o‘tkazilgan, dunyoning – shunga e’tibor bering – 126 mamlakatidan qariyb 2600 nafar sportchi ishtirok etgan Juhon championatida g‘olib chiqqani, yosh sportchimiz Nafisa Mo‘minova esa O‘zbekiston xotin-qiz shaxmatchilari ora-

sida birinchi bo‘lib Xalqaro shaxmat federatsiyasi – FIDEning xalqaro grossmeyster, degan yuksak unvoniga sazovor bo‘lganini alohida ta’kidlash lozim.

Shu bilan birga, mohir suzuvchi qizlarimiz Shohida Zohidova, Sevara Boboqulova va Gul-sanam Yo‘ldosheva sinxron suzish bo‘yicha Indoneziyada bo‘lib o‘tgan Osiyo championatining kumush medallarini qo‘lga kiritgani ham milliy sportimiz shuhratini oshirish yo‘lidagi jiddiy qadam bo‘ldi.

O‘zingiz o‘ylang, mana shu uch nafar qizimiz, o‘zbek qizlari sportning eng murakkab turi bo‘lgan sinxron suzish bo‘yicha Osiyo qit’asida kumush medalga sazovor bo‘lgani, haqiqatan ham, juda katta voqeа. Ilgari yurtimiz qizlari-ning shu borada bunday muvaffaqiyatli qatnash-ganlarini eslay olmaymiz. Bu yutuq, avvalambor, o‘zbek oilalaridagi madaniy muhit, kerak bo‘lsa, ma’naviy saviya qanday o‘zgarib, dunyoqarashi-miz, ong-u tafakkurimiz qanday yuksalib bora-yotganining isboti emasmi?

Aytish kerakki, bu uch nafar qiz Indoneziyada medal olibdi, degan shunchaki oddiy gap emas. Bu yutuqning mohiyati va ahamiyatini anglab, chuqur mulohaza yuritadigan bo‘lsak, shu mi-

solning o‘zi ham odamlarimiz, jamiyatimizning hayot tarzi, dunyoqarashi tubdan o‘zgarib bora-yotganini namoyon etmaydimi? Bu, o‘z navbatida, hayotimizda zamon bilan hamqadam bo‘lib yashashga intilishning kuchayib, demokratik qadriyatlar, avvalo, oilaviy demokratiyaning rivojlanib borayotganining tasdig‘i emasmi?

Shuning uchun ham chetdan turib bizga aq! o‘rgatadigan, O‘zbekiston haqida quruq safsata sotadigan ba’zi kimsalarning gaplari tagi puch da’volardan boshqa narsa emas.

Ishonchim komilki, mana shunday yutuqlarimizning barcha soha va tarmoqlarda yanada ko‘payib borishi tirnoq tagidan kir qidiradigan bunday kimsalarga eng o‘tkir javob bo‘ladi.

Men sport sohasida shunday marralarni qo‘lga kiritayotgan bolalarimizni bugungi kunda mammakatimizda katta kuch bo‘lib maydonga chiqayotgan millionlab O‘zbekiston yoshlarining munosib vakillari, deb bilaman. Aynan ana shunday azm-u shijoatli o‘g‘il-qizlarimiz o‘z yutuqlari misolida boshqa ming-minglab tengdoshlariga ibrat bo‘ladi, kerak bo‘lsa, ularni ham katta maqsadlar yo‘lida ruhlantiradi. Bu esa o‘zbek xalqi bugungi kunda dunyoda tobora keskinlashib borayotgan raqobat sharoitida hech qachon hech

kimdan kam bo'lmaydi, degan haqiqatni yana va yana bir bor amalda tasdiqlab beradi. Agarki bandparvoz gaplarni bir chetga yig'ishtirib qo'yib aytadigan bo'lsak, bunday bolalar biz orzu qilgan sog'lom va barkamol avlod timsoli, ertangi kunimiz uchun namuna bo'ladigan yoshlaridir.

Biz albatta Xorazmiy, Farg'oniy, Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi buyuk ajdodlarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ayni vaqtda mana shunday yoshlarimizning yutuqlarini ko'rib, bugun bizning davrimiz keldi, O'zbekistonning zamoni keldi, dunyo bizni tan olyapti, degan yuksak g'urur-iftixor tuyg'usi, katta ishonch bilan yashashimiz tabiiydir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, har qaysi viloyat yoki tuman rahbari, har qaysi yetakchi va mutasaddi shaxs bolalar sportini rivojlantirish masalasiga g'oyat jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Qayerda, qaysi sohada bo'lmasin – bu ilm-fan, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohasi bo'ladimi, agarki yilt etgan iste'dod paydo bo'lsa, bunday bolalarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali ularni, avvalo, Vatanimiz, xalqimiz qo'llab-quvvatlayotganini ja-moatchiligidimizga, yoshlarimizga yetkazishimiz,

anglatishimiz kerak. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari xodimlari, jurnalistlarimiz bunday muhim mavzularni yoritishda yanada faollik ko'rsatishlarini istardim.

Shu o'rinda alohida aytish joizki, sportda erishgan yuksak natijalari uchun sinxron suzish bo'yicha Shohida Zohidova va aykido bo'yicha Osiyo championi surxondaryolik Sarvinoz Shaydullayeva Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandi.

Yaqinda Toshkentda Xotin-qizlar bayramiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zga chiqqan S. Shaydullayevaning fikrlariga e'tibor beradigan bo'lsak, uning qanday ishonch bilan, o'z yurti haqida faxr bilan gapirgani barchamizni mamnun etadi. Men bilmadim, bunday qizlarga har tomonlama munosib kuyov bo'lish, ularning mehrini, muhabbatini qozonish uchun endi yigitlarimiz qanday marralarni zabit etishi kerak bo'lar ekan?..

Eshkak eshish sporti bo'yicha ham farzandlarimiz xalqaro musobaqalarda yuksak natijalarga erishmoqda. Fransiyada o'tkazilgan baydarka va kanoeda eshkak eshish bo'yicha 17-xalqaro musobaqada terma jamoamiz 5 ta medalni qo'lga kiritdi. Jumladan, toshkentlik Artur Nurgaliyev

va Sergey Buxalsev 2 ta oltin medalga sazovor bo‘lishdi.

Shular qatorida Dilshod Choriyev va Ramziddin Saidov dzyudo bo‘yicha Osiyo championatida oltin medallarni qo‘lga kiritishdi.

O‘zbekistonning 16 yoshgacha bo‘lgan o‘s-mirlar terma jamoasi futbol bo‘yicha Osiyo championatining final uchrashuvida Yaponiya terma jamoasi ustidan g‘alaba qozonib, Osiyo championi degan unvonga sazovor bo‘ldi.

Albatta, bu yutuqlar yosh sportchilarimiz tomonidan xalqaro musobaqalarda qo‘lga kiritilgan g‘alabalarning faqatgina bir qismi ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Eng muhimi, farzandlarimiz jahon sport maydonlarida erishayotgan bunday yutuq va natijalar mamlakatimizda bolalar sportini qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish borasida izchillik bilan olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlarimiz yuksak samara berayotganining yaqqol isboti sifatida barchamizga katta kuch-g‘ayrat va ishonch bag‘ishlaydi.

Shu borada yana bir haqiqatni hammamiz yaxshi anglaymiz. Ya’ni jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishning eng muhim natijalari xalqaro, mintaqqa va mamlakat miqyosidagi

musobaqalarda yuqori natijalarga erishish bilan birga, eng avvalo, yurtimizda bolalar salomatligini mustahkamlash, ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom yosh avlodni voyaga yetkazishda namoyon bo‘lmoqda.

2003–2012-yillarda o‘tkazilgan tadqiqotlar va har yili o‘tkaziladigan maktab yoshidagi bolalarning profilaktik ko‘rik natijalari shundan dalolat bermoqdaki, jismoniy tarbiya va sport bilan mun-tazam shug‘ullanish bolalarning jismoniy rivojlanishi va salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bu fikrning amaliy tasdig‘i sifatida o‘tgan davrda o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkir respirator virusli infeksiyalar, pnevmoniya, bronxit, skolioz bilan kasallanish holatlari sezilarli darajada kamayganini, mamlakatimizning barcha hududlari-da bolalar salomatligi yaxshilanishi kuzatilayotganini ta’kidlash mumkin.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, so‘nggi o‘n yilda 14 yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘rtacha vazn ko‘rsatkichi 43 kilogrammdan 47 kilogrammga, qizlar o‘rtasida esa 44 kilogrammdan 48 kilogrammga ortgani kuzatilmoqda.

Bolalarning bo‘yi esa o‘g‘il bolalar o‘rtasida o‘rtacha 3 santimetrga, qiz bolalar o‘rtasida esa 2,9

santimetrga o'sgani aniqlangan. **Ta'kidlash joizki, hozirgi vaqtda 92 foiz o'g'il-qizlarimizning vazni va bo'yiga doir ko'rsatkichlari Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti standartlariga to'la mos keladi va o'laymanki, bu barchamizga katta mammuniyat bag'ishlaydi.**

Shu o'rinda yana bir faktga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Agar **2003-yilda harbiy xizmatga yaroqli deb topilgan yigitlar yurtimizda 67,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2012-yilda bu ko'rsatkich 82,5 foizga yetgan.**

Aytish kerakki, bu ko'rsatkichlar shunchaki oddiy raqamlar emas. Ularning zamirida bizning mustaqillik yillarida yurtimizda dunyoda hech kimdan kam bo'lmaydigan sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida qilayotgan qancha-qancha mehnatlarimiz, shu borada erishayotgan ulkan yutuqlarimiz mujassamdir.

Ayni vaqtda bu raqamlar sport bilan muntazam shug'ullanish o'sib kelayotgan yosh avlodning salomatligi va jismoniy rivojlanishiga naqadar katta ta'sir ko'rsatayotganining yana bir yorqin dalilidir.

Takror va takror aytishga to'g'ri keladi: **bolalar va yoshlarning sport bilan ommaviy ravishda shug'ullanishi ularning xarakterini**

toblaydi, kuchli, mard va jasur bo‘lib kamol topishiga xizmat qiladi, qat’iyatli, hayot sinnovlari va qiyinchiliklarini mardona yengib o‘tishga qodir insonlar etib tarbiyalaydi. Sport bilan muntazam shug‘ullanish farzandlarimizning fe’l-atvori va turmush tarzini ijobiy to-monga o‘zgartiradi.

Bu so‘zlarning ma’nosи shuki, bugungi kunda tobora hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan, ertaga bizning o‘rnimizni bosadigan yoshlarimizga sport mana shunday noyob fazilatlarni baxsh etar ekan, biz bolalarimizni sport bilan oshno etish uchun, albatta, bor kuch va imkoniyatlarimizni yanada ko‘proq ishga solishimiz, bu borada hech narsani ayamasligimiz kerak.

Muxtasar aytganda, sport mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim vositasi bo‘lib kelmoqda va kelajakda ham shunday bo‘lib qolishi muqarrar. **Chunki sport – sog‘lom avlod, sog‘lom kelajak degani. Binobarin, fa-qat sog‘lom xalq, sog‘lom millatgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi.**

Bugun o‘tgan 10 yil davomida amalga oshirgan ishlarimizni qisqacha sarhisob qilar ekanmiz, mana shu imkoniyatdan foydalanib, korxona va tashkilotlar, kompaniya va firmalar

rahbarlari va jamoalariga, xususiy tadbirkorlariga, o‘zining moliyaviy hissasi va shaxsiy ishtiroki bilan O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirishdek ezgu ishga salmoqli hissa qo‘sghan barcha insonlarga samimiy minnatdorlik bildirmoqchiman.

Mamlakatimizdagи chet el biznesi vakillariga Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi faoliyatidagi ishtiroki, o‘sib kelayotgan yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash borasidagi xayrli ishlari uchun alohida tashakkurimizni izhor etamiz.

Bundan o’n yil oldin boshlagan ishlarimiz ana shunday keng qo‘llab-quvvatlangani tufayli O‘zbekistonda bolalar sportini rivojlantirish qisqa muddatda tom ma’noda umummilliylar harakatga aylandi, deb aytishga, o‘ylaymanki, bugun barcha asoslarimiz bor.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda o‘tgan yillar mobaynida bolalar sporti obyektlarini barpo etish, ularni yuksak malakali kadrlar bilan ta’minalash hamda ana shu imkoniyatlar asosida samarali ish olib borish bo‘yicha katta tajriba to‘plandi, boshqacha aytganda, yaxlit tizim yaratildi.

Shu ma’noda, bolalar sporti yurtimizda nafaqat katta ijtimoiy, umummilliylar harakatga aylandi,

balki O‘zbekistonimizning har tomonlama taraq-qiyotga erishishi, rivojlangan zamonaviy demokratik mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin olishi yo‘lida mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda, desak, o‘ylaymanki, ayni haqiqat bo‘ladi.

Endigi asosiy vazifamiz – bu boradagi ishlarni jahon andozalariga mos ravishda izchil davom ettirib, yangi, yuksak bosqichga ko‘tarishdan iboratdir.

Shu yo‘lda barchangizga sihat-salomatlik, yangi-yangi yutuqlar tilayman.

*O‘zbekiston Bolalar sportini
rivojlantirish jamg‘armasi Homiylik
kengashining navbatdagi yig‘ilishidagi nutq,
2013-yil 16-mart*

EZGULIK, GO'ZALLIK VA OBODLIK AYYOMI

Assalomu alaykum, aziz vatandoshlar!

Muhtaram mehmonlar!

Shu kunlarda katta-yu kichik barcha yurtdoshlarimiz bag'rini keng ochib, bahor, yasharish va yangilanish ramzi bo'lmish Navro'z ayyomini «Xush kelibsan o'lkamizga, Navro'zi olam!» deb, shod-u xurramlik bilan kutib olmoqda.

Shu munavvar tongda siz azizlarni, sizlarning timsolingizda butun xalqimizni Navro'z ayyomi bilan chin qalbimdan tabriklab, barchangizga o'zimning hurmat-ehtiromim va samimiyl tilaklarimni izhor etishdan baxtiyorman.

Qadrli yurtdoshlar!

«Nima uchun biz Navro'zni doimo sog'inib, intazorlik bilan kutamiz? Nima uchun bu sana barchamiz uchun eng sevimli, eng ardoqlaydigan bayramimizga aylanib qolgan?» degan savol berilishi tabiiydir.

Buning sababi, Navro'zi olam biz uchun eng qadimiy, asl milliy, turli mafkura va siyosatlardan xoli, urf-odatlarimizga va qadriyatlarimizga javob

beradigan bayram, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Nega deganda, Navro‘z o‘z ruhi va g‘oyalari bilan har qaysi inson ona zaminning, tabiatning ajralmas uzviy qismi ekanini, tabiatning naqadar go‘zal ekanini his qilib, uni e’zozlab, hamnafas bo‘lib yashashga undashi bilan bizga qadrlidir.

Har qanday g‘araz, ginalar va nizolardan voz kechib, tinch va osoyishta hayotning qadriga yetish, ahillik va birdamlik, elatlar orasida o‘zaro hurmat va hamjihatlik naqadar bebahoh boylik ekanini ulug‘lashi, o‘zining da’vatlari bilan Navro‘z bayrami xalqimizning qarashlariga g‘oyat hamohangdir.

Ayni ana shunday chuqur mazmun va ma’noga ega bo‘lgani tufayli, xosiyat va fayz, qut-baraka va muruvvat kabi xususiyatlarni o‘zida mujassam etishi bilan kun va tun teng keladigan sharqona Yangi yilimizni – bu go‘zal bahor ayyominibarchamiz orziqib kutamiz, e’zozlaymiz, xursandchilik bilan umummiliy bayram sifatida o‘tkazamiz.

Buning yaqqol tasdig‘ini shu kunlarda yurdoshlarimizning tobora ochilib kelayotgan tabiatdan bahra olib, sumalak va halim, go‘ja va ko‘ksomsa kabi bahoriy ne’matlar tortil-

gan dasturxonlar atrofida, yashil maydon va ko‘kalamzorlarda o‘tkazilayotgan sayil-tomoshalarda, milliy kurash va uloq chopish musobaqalalida ko‘rish va kuzatish qiyin emas.

Ayni shu betakror faslda odamlarimiz xalqimizga mansub bo‘lgan, uning odatiga aylanib ketgan qadriyatlar – bir-biriga mehr-oqibat ko‘rsatish, bemorlar, ko‘ngli yarim insonlarga beminnat yordam berish, tabarruk keksalarimizning duosini olish kabi ezgu fazilatlarni yaqqol namoyon etib, o‘z quvonchi va shodligini yaqinlari, do‘st-u yorlari, qo‘ni-qo‘shnilari bilan baham ko‘rishga intiladi.

Ona Vatanimizda yashaydigan, millati, tili va dinidan qat’i nazar, barcha-barcha yurtdoshlarmiz ana shunday xursandchilik kayfiyatiga berilib, Navro‘zni o‘z qadrdon bayramidek qabul qiladi.

Mana shunday quvonchli damlarda bugun xalqimizga katta hurmat va ehtirom bildirib, shu go‘zal maydonda Navro‘z shodiyonalarimizda ishtirok etayotgan chet mamlakatlarning muhtaram elchilari va xalqaro tashkilotlar vakillarini, xorijiy sherik va hamkorlarimizni, barcha aziz mehmonlarimizni sizlarning nomingizdan, butun xalqimiz nomidan qutlab, ularga minnatdorchilik bildirishga ruxsat bergaysiz.

Aziz do'stlarim, qadrdonlarim!

Shu yorug' lahzalarda mana shunday muhta-sham va fayzli maydonda jamuljam bo'lgan siz azizlarga, sizlarning siymongizda barcha tabarruk keksalarimiz, munis opa-singillarimizga, ko'zлari yonib turgan, xalqimizning tayanchi va suyanchi bo'lmish navqiron yoshlarimizga – mening far-zandlarimga o'zimning chuqur mehrim, sevgi va hurmatimni izhor etaman.

Barchangizni bag'rimga bosib, yana va yana bir bor bugungi dilbar ayyom bilan qutlab, yuragimda, qalbimda bo'lgan samimiyl tilaklarimi-ni bildiraman.

«Obod turmush» deb nom olgan yilimizning Navro'zi hammamizga, barcha-barcha xonadon-larga, oilalarga tinchlik-omonlik, baxt-u saodat, fayz-u baraka keltirsin!

Orzu-niyatlarimiz ushalsin, O'zbekistonimiz yanada obod va farovon bo'lsin!

Navro'zi olam barchamizga muborak bo'lsin!

*Navro'z bayramiga bag'ishlangan tantanali
marosimdagи tabrik so'zi,
2013-yil 19-mart*

MAMLAKATIMIZNING TARAQQIYOTI, EL-YURTIMIZ FAROVONLIGI, VATANIMIZNING OBRO‘-E’TIBORINI YANADA OSHIRISH YO‘LIDA MEHNAT QILISH – MUQADDAS BURCHIMIZ

Aziz do‘stlar!

Siz, hurmatli deputatlar va sessiya qatnashchilari bilan, Toshkent viloyatining faollari bilan ko‘rishib turganimdan xursand bo‘lganimni va shu fursatdan foydalanib, barchangizga o‘zimning chuqur hurmatimni bildirishdan mammunman.

Ochig‘ini aytadigan bo‘lsam, siz azizlar bilan ko‘pdan beri uchrashmaganimizni anglab, o‘zim ham sizlar bilan yaqindan uchrashib, suhbat qurishga ehtiyoj sezib yurganimni aytmoqchiman.

Sizlar bilan diydor ko‘rishib, hol-ahvol so‘rashib, bugungi hayot haqida – hayot muammosiz bo‘lmaydi, albatta – oldimizda turgan vazifalar, mavjud muammolarning yechimini topish haqida fikr almashib, tegishli xulosalar chiqarib olish kerakligini bugun hayotning o‘zi taqozo etmoqda.

Mana shunday ochiq uchrashuv va muloqlarda yon-atrofimizdagi bugungi notinch, tobora

murakkablashib borayotgan bir vaziyatda turli xavf-xatarlarning oldini olish, yurtimizdagи tinchlik va osoyishtalikni asrab, hayotimizning darajasi va sifatini yuksaltirish, uni yanada mazmunli qilish bo‘yicha ochiqchasiga gaplashib olish, sizlarning fikr-mulohaza va takliflaringizni eshitish, hech shubhasiz, ayni muddao bo‘lur edi.

Shu ma’noda, bugun faqat sessiya kun tartibiga kiritilgan masala bilan chegaralanmasdan, Toshkent viloyatining rivojlanish sur’atlari, erishilgan yutuqlar bilan birga, hali-beri yechilmasdan kelayotgan, odamlarni o‘ylantirayotgan, bezovta qilayotgan muammolar haqida atroflicha gaplashib olsak, har tomonlama to‘g‘ri bo‘ladi.

Toshkent viloyatining yurtimiz hayotidagi mavqeyi va ahamiyati haqida so‘z borganda, qaysi nuqtayi nazardan qaramaylik – bu uning tarixiy yoki jug‘rofiy o‘rni bo‘ladimi, iqtisodiy-ijtimoiy imkoniyatlari, insoniy salohiyati bo‘ladimi – mamlakatimiz taraqqiyotida katta rol o‘ynaydigan ana shunday omillar haqida, albatta, ko‘p gapirish mumkin.

Toshkent viloyati, boshqa mintaqalar bilan solishtirganda, hosildor tuprog‘i, boy mineral-xomashyo manbalari, yetarli suv zaxiralari bilan alohida ajralib turadi. O‘zining betakror

iqlimi, go‘zal tabiatini va xushmanzara maskanlari bilan har qanday kishining hayratini o‘ziga tortadi.

Viloyatning unumdar zaminida mirishkor dehqonlarning peshona teri bilan yetishtiriladigan noz-ne’matlar faqat voha aholisini emas, shu bilan birga, azim poytaxtimizda, bu ulkan shaharda yashayotgan 2 million 600 mingga yaqin odamni meva-cheva, sabzavot, go‘sht, sut, tuxum va boshqa hayotiy zarur mahsulotlar bilan uzlusiz ta’minlashga qanday katta hissa qo‘shayotganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Toshkent viloyatida iqtisodiyotimizning yetakchi tarmog‘i bo‘lmish sanoat sohasi yuqori darajada rivojlangani hammamizga yaxshi ma’lum. Bugungi kunda viloyatning mamlakatimiz sanoatidagi ulushi, Toshkent shahri bilan qo‘shib hisoblaganda, 33,5 foizni tashkil etishi ham shuni tasdiqlab beradi. Umuman olganda, mamlakatimiz bo‘yicha yaratilayotgan yalpi ichki mahsulotning 9,6 foizi, sanoat mahsulotlari ning 12,4 foizi, xizmatlarning 9,4 foizi aynan Toshkent viloyati hissasiga to‘g‘ri kelishi uning katta ishlab chiqarish salohiyatiga ega ekanini ko‘rsatadi.

Vohada yoqilg‘i-energetika majmuasi, kimyo va neft-kimyo, qurilish industriyasi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha iqtisodiyotimizning lokomotivi bo‘lgan yirik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat yuritmoqda. Bunga misol qilib AQSHning mashhur «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda barpo etilgan, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘sligi hududida noyob hisoblangan avtomobil dvigatellari ishlab chiqaradigan zamonaviy zavodni, Chirchiq, Olmaliq, Bekobod shaharlaridagi yirik sanoat majmualarini keltirish mumkin. Bu korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni nafaqat mintaqamiz, balki chet ellarda ham xaridorlar yaxshi biladi va tan oladi.

Toshkent viloyati haqida gapirganda, yana bir muhim xususiyat haqida to‘xtalib o‘tishni joiz, deb bilaman. Bu, avvalo, viloyat aholisining intellektual darajasi, bilim va tajribasi, ma’naviy saviyasi bilan ajralib turishida namoyon bo‘ladi, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman. Shu bois mana shu diyorga mehr qo‘yib, uni obod qilib kehayotgan mehnatsevar va oliyjanob insonlar haqidagi har qancha faxrlanib gapirsak, ularga minnatdorlik bildirsak, arziydi, albatta.

Hurmatli deputatlar!

Mustaqil taraqqiyot yillarida Toshkent viloyatida yaratilgan iqtisodiy salohiyatni yanada oshirish, uni poytaxt viloyati degan nomga munosib darajaga ko‘tarish uchun sizlar bilan birga amalga oshirgan ishlardan hammamiz, albatta, xabardorimiz.

Viloyatning keyingi yillardagi iqtisodiy o‘sishi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, avvalo, butun mamlakatimizda bo‘lgani kabi, bu yerda ham bar-qaror rivojlanish sur’atlari saqlanib qolayotganini ta’kidlash lozim. Buni o‘tgan 2012-yilda viloyatda yalpi hududiy mahsulot 5 foizga, sanoat qariyb 8 foizga, qishloq xo‘jaligi 6,7 foizga, pullik xizmatlar 15 foizga o‘sgani yaqqol tasdiqlab turibdi.

Agarki 2000-yilga nisbatan qiyoslaydigan bo‘lsak, yalpi hududiy mahsulot va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ikki barobar, pullik xizmatlar olti barobar, qurilish-pudrat ishlari esa uch barobardan ziyod oshganini ko‘rish mumkin.

Viloyat sanoatini el-yurtimiz, avvalo, mana shu zaminda yashayotgan insonlar manfaatini ko‘zlab rivojlantirish bo‘yicha keyingi yillarda qilgan ishlarimiz haqida ko‘p gapirish mumkin. Xususan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Bekobod metallurgiya zavodi, Chirchiq va Olmaliq sha-

harlaridagi kimyo korxonalariga keng ko‘lamli investitsiyalar jalb etilib, texnik va texnologik modernizatsiya ishlari amalga oshirildi. Shular qatorida Quyi Bo‘zsuv GESlar kaskadi, Farhod GES, Chorvoq GES, Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi singari energetika obyektlarida, Angren ko‘mir konida modernizatsiya ishlari davom ettilmoqda.

Ayniqsa, «Angren» maxsus industrial zonası faoliyati yo‘lga qo‘yilishi bilan viloyat iqtisodi-yoti uchun yangi-yangi imkoniyatlar ochilmoqda. Men bu haqda ko‘p gapirmasdan, faqat ba’zi raqamlarni keltirish bilan kifoyalanmoqchiman. Hozirgi vaqtida mazkur industrial zona hududida 186 million dollardan ortiq qiymatdagi 8 ta investitsiya loyihasi amalga oshirilmoqda. Jumladan, ishlatilgan neft mahsulotlaridan bazaviy moy tayyorlash, turli hajmdagi mis quvurlar, sanatiya-texnik va butlovchi buyumlar, sopol plitalar, ko‘mir briketi, charm buyumlar ishlab chiqarish kompleksi shunday loyihalar sirasiga kiradi. Shuningdek, bu yerda shakar ishlab chiqarish zavodi qurish mo‘ljallanmoqda. Bularga qo‘srimcha ravishda umumiy qiymati 245 million dollarni tashkil etadigan yana 22 ta loyihani amalga oshirish bo‘yicha zarur hujjatlar tayyorlanmoqda. Sobiq

«Rezinatexnika» korxonasi negizida avtomobillar va qishloq xo‘jaligi texnikalari uchun zarur mahsulotlar ishlab chiqaradigan loyiha bo‘yicha esa ishlar boshlab yuborildi.

Bir so‘z bilan aytganda, **oxirgi besh yil davomida Toshkent viloyati bo‘yicha 1 milliard 500 million dollar miqdoridagi mablag‘ sarflanib, 58 ta yirik investitsiya loyihasi to‘la amalga oshirildi. Bu ishlarning davomi sifatida 2013-yilgi investitsiya dasturi doirasida viloyatda qariyb 545 million dollar mablag‘ hisobidan 69 ta loyihami hayotga joriy etish ko‘zda tutilmoqda.**

Aziz do‘srlar, albatta, bu raqamlar haqida shunchaki gapirish oson, lekin ular qanday katta mablag‘, qanday katta mehnat hisobidan amalga oshirilayotganiga e’tibor bering. Bunday loyihalarni amalga oshirish, xorijiy investorlarni otang yaxshi, onang yaxshi, deb yurtimizga olib kelish o‘z-o‘zidan bo‘layotgani yo‘q. Buning uchun tinimsiz harakat qilish, xorijiy hamkorlarni topib, ularga barcha zarur sharoitlarni yaratib berish kerak. Masalan, mana shu «Rezinatexnika» zavodi bo‘yicha xitoylik hamkorlarimiz bilan aniq bir bitimga kelish uchun keyingi uch yil davomida qancha-qancha ish olib borishga to‘g‘ri keldi.

Yoki Toshkent viloyatining salohiyatiga salohiyat qo'shishga xizmat qiladigan «Angren» maxsus zonasini oladigan bo'lsak, bu loyiha-ga xuddiki o'zining shaxsiy ishidek qarab, uni amalga oshirishga sidqidildan hissa qo'shgan barcha mutaxassis va mutasaddilarga rahmat aystsak, arziydi.

Albatta, xalqimizning mashaqqatli va fidokorona mehnati bilan qo'lga kiritilgan bunday yutuq va marralar, reja va dasturlar barchamizga g'urur-iftixor, eng muhimi, ertangi kunga ishonch bag'ishlaydi. Lekin, biz bugun qo'lga kiritilgan yutuq va marralar bilan bir qatorda, Toshkent viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, mavjud boy imkoniyat va resurslardan yetarlicha foydalanish borasida bir qator kamchilik va oqsoqliklarga yo'l qo'yilayotganiga ko'proq e'tibor berishimiz zarur.

Ko'zga tashlanadigan muammolar haqida gapirganda, avvalo, shuni ta'kidlashimiz zarurki, viloyat sanoatining 88 foizi Olmaliq, Angren, Bekobod, Chirchiq shaharlari hamda Ohangaron, Qibray, Yangiyo'l va Zangiota tumanlari hissasi-ga to'g'ri kelmoqda. Qolgan 10 ta tumanning bu boradagi ulushi 12 foizni tashkil etadi, xolos.

Ayniqsa, Oqqo‘rg‘on, Bo‘ka, Bekobod, Quyi Chirchiq tumanlarining viloyat sanoatidagi ulushi bir foizga ham yetmasligini qanday baholash mumkin?

Hududiy sanoat tarkibida mahalliy tasarrufdagи korxonalar hissasi yildan yilga pasayib bormoqda. Oxirgi 3 yilda bu ko‘rsatkich 25,3 foizdan 22,8 foizga tushib qolgani ham shundan dalolat beradi.

O‘zingiz o‘ylang, aziz do‘stlar, bu hududlarning barchasida o‘zimizning odamlarimiz yashaydi. Lekin nima uchun bir tumanda sanoat jadal rivojlanmoqda, ikkinchisida esa oqsoqlikka yo‘l qo‘yilmoqda? Holbuki, Toshkent viloyatida sanoat, ishlab chiqarishni izchil rivojlantirish uchun barcha shart-sharoit mavjud. Bu viloyat shunday ixcham joylashganki, uning bir tumanidan ikkinchi tumaniga borish juda qulay, ya’ni yo‘lkommunikatsiya masalasida bu yerda hech qanday to‘sinq yo‘q. Shunday ekan, talab ham shunga yarasha katta bo‘lishi tabiiy.

Mana, o‘zingiz ko‘ryapsiz, hozirgi kunda yoshlarimiz zamonaviy kasb-hunarlarini egalashga, hayotdan o‘z o‘rnini topishga intilmoqda. Lekin, nima uchun Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq, Quyi Chirchiq tumanlarida yangi, zamona-

viy sanoat korxonalarining salmog‘i va samarasi haligacha sezilmayapti?

Takror aytaman – bizga bo‘laveradi, degan eskicha qarash bilan faqat tomorqadan olinadigan daromad yoki oldi-sotdi ishlariga ko‘z tikib yashash bizga endi yarashmaydi. Buning uchun odamda, avvalo, g‘urur tuyg‘usi bo‘lishi lozim.

Bu muqaddas zaminda g‘urursiz, iftixorsiz yashab bo‘lmaydi. Shaxsan men, o‘zbek bolasi qayerda bo‘lmasin, doimo o‘z yurtiga sajda qilib, uning tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo etib yashashini istardim. Har qanday sharoitda ham ornomus degan tushunchani baland tutib, shunday buyuk yurtga munosib farzand bo‘lib yashash kerak. «Or-nomus» degan so‘zning boshqa tillarda o‘xhashi, tarjimasi yo‘qligining o‘zi ham Yaratganimiz bizning xalqimizga qanday ulug‘, qanday beqiyos fazilatlar ato etganini anglatmaydimi?

Men Prezident – davlat rahbari sifatida mammalakatimizni rivojlantirish, turmushimizni obod qilish, xalqimiz, avvalambor, yoshlarimizning erkin va farovon hayot kechirishi uchun nimaiki kerak bo‘lsa, barcha-barchasini tashkil qilib berishga, ana shu ezgu maqsad yo‘lida hayotimni bag‘ishlashga hamisha tayyorman.

Bu Vatan – o‘zimizniki, barchamizniki. Uning kamchiligi ham, yutug‘i ham o‘zimizniki. Shunday ekan, go‘zal va betakror yurtimizning bugungi va ertangi kuni, yorug‘ kelajagi uchun, avvalambor, o‘zimiz mas’ul ekanimizni unutmaslik kerak.

Shu nuqtayi nazardan fikrimizni davom ettiradigan bo‘lsak, Toshkent viloyatida ba’zi korxonalarining to‘la quvvat bilan ishlamayotganidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. O‘tgan yili viloyat korxonalarida ip-gazlama ishlab chiqarish bo‘yicha quvvatlardan atigi 34 foiz, trikotaj mato ishlab chiqarish bo‘yicha 52 foiz, trikotaj buyumlar ishlab chiqarish bo‘yicha esa 66 foiz foydalanilgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Ana shunday oqsoqlik tufayli so‘nggi besh yilda Toshkent viloyatida sanoat mahsulotlari hajmining o‘sish sur’atlari mamlakatimiz bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan ancha kam, ya’ni 2,5 foizga past bo‘lgani tashvish uyg‘otmasdan qolmaydi.

Bugungi kunda butun mamlakatimizda keng ko‘lamdagи qurilish va obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. Xususan, zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish masalasiga qanday katta ahamiyat berilayotgani barchamizga yaxshi ma’lum.

Toshkent viloyatida «Ohangaronsement», «Ohangaronshifer», «Bekobodsement» aksiyadorlik jamiyatlari, «G‘azalkentoyna» qo‘shma korxonasi va boshqa yirik quvvatlar bo‘lishiga qaramasdan, qurilish materiallari ishlab chiqaradigan tarmoqning yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi kamayib, 2000-yildagi 9,5 foizdan 2012-yilda 8,5 foizga tushib qolgan.

Eksport masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 2012-yilda bu boradagi dasturga kiritilgan korxonalardan 30 tasi belgilangan ko‘rsatkichlarni bajarmagani tufayli 36 million dollardan ortiq mahsulotni eksport qilish rejasi boy berilganini afsuslanib aytish lozim.

Viloyatda xorijiy sarmoyalar ishtirokida tashkil etilgan 451 ta korxonadan 21 tasi faoliyat ko‘rsatmayapti. Bunday korxonalarining asosiy qismi Ohangaron, O‘rta Chirchiq, Qibray tumanlarida, Olmaliq va Yangiyo‘l shaharlarida joylashgan.

Hech kimga sir emas, viloyat hududida ko‘mir, koalin, mis, asbest hamda qurilish xomashyolarining boy zaxiralari mavjud. Shuningdek, katta miqdorda meva-sabzavot, go‘sht, sut, pilla mahsulatlari yetishtiriladi. Lekin ming afsuski, ana shu qimmatbaho xomashyo va mahsulatlardan samarali foydalanish, ularni chuqur qayta ishlaydigan

zamonaviy korxonalar tashkil etib, qo'shimcha mablag', qo'shimcha daromad topish, eng muhi-mi, odamlarimiz uchun yangi-yangi ish o'rnlari yaratish masalalari e'tibordan chetda qolib kelmoqda.

Bunday ahvolni tubdan o'zgartirish uchun Vazirlar Mahkamasi tegishli vazirlik va idoralar, viloyat hokimligi bilan birgalikda aniq chora-tadbirlar dasturini amalga oshirishi zarur. Bunda, avvalambor, «Angren» maxsus industrial zonasida tashkil etilayotgan korxonalarga berilgan keng ko'lamli soliq va bojxona imtiyozlaridan samarali foydalanish, salohiyatl mahalliy ishlab chi-qaruvchilarga xorijiy sheriklarni jalb etish uchun ko'maklashish, shuning hisobidan yuqori texnologiyalar va innovatsion g'oyalar, tayyor mahsulot, ichki va tashqi bozorda raqobatdosh bo'lган tovarlarni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishni ko'zda tutish darkor.

Aziz do'stlar!

Toshkent viloyati azaldan o'zining dehqonchilik an'analari bilan shuhrat qozonib kelgani bar-chamizga yaxshi ma'lum.

Viloyatda hozirgi vaqtida 6 ming 100 dan ko'proq fermer xo'jaligi faoliyat yuritmoqda. O'tgan yili ular tomonidan qariyb 588 ming tonna

g‘alla, 241 ming 400 tonna paxta xirmoni bunyod etildi.

Bugun men, mana shu yuksak minbardan turib, viloyatning barcha dehqon va fermerlariga ana shunday fidokorona mehnatlari uchun chuqur minnatdorlik bildirishni o‘zimning burchim, deb bilaman.

Men yaxshi tushunaman, to‘g‘ri anglayman – qishloq xo‘jaligi shunday murakkab sohaki, unda har yili kutilmagan bir muammo paydo bo‘ladi. Dehqonning mehnati, chekkan mashaqqatini faqat dehqon biladi. Sanoat korxonasida ishlash ham albatta oson emas, lekin ishchi yoki muhandisning ish vaqtি aniq. Ammo aytinglar, dehqonning aniq ish vaqtি bormi? Agarki shunday mehnatni qadrlamasak, nimani qadrlashimiz kerak o‘zi?

Bugungi kunda dehqonning kosasini oqartiradigan bu – fermerlik harakati ekanini hammasiz yaxshi tushunib oldik, deb o‘ylayman. Biz shu yo‘lga o‘tdikmi, endi fermerlarimiz uchun yanada keng yo‘l ochib berishimiz kerak.

Ta’kidlash joizki, keyingi yillarda viloyatda nafaqat paxta va g‘allachilik, balki sabzavotchilik, uzumchilik, chorvachilik va boshqa sohalarda ham samarali faoliyat yuritayotgan, qurilish, xizmat ko‘rsatish, savdo, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini

qayta ishlash asosida yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etayotgan **o‘nlab ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari faoliyat ko‘rsatmoqda**.

Bugungi davr talabini, ertangi kunni o‘ylab ish olib borayotgan Piskent tumanidagi «Ziyo-da», Qibray tumanidagi «Shuhrat Mirahmedov», Yangiyo‘l tumanidagi «Mufassal agro», Yuqori Chirchiq tumanidagi «Kavsar zamin», Par-kent tumanidagi «Boyqozon baynalmilal», Zangiota tumanidagi «Sayfuddinova Xonzoda», O‘rta Chirchiq tumanidagi «Mirzakarim Teshaboy», Bo‘stonliq tumanidagi «Soyliq Azimjon», Oqqo‘rg‘on tumanidagi «Sarbon Samandar» kabi fermer xo‘jaliklarini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Albatta, hammamizga ayonki, mo‘l hosil yetishtirish uchun, avvalo, yerning unumdorligini oshirish lozim. Shu maqsadda, butun mammakatimizda bo‘lgani kabi, Toshkent viloyatida ham Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash davlat dasturi doirasida **oxirgi besh yilda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda**. Shu borada **46 milliard 100 million so‘m mablag‘ o‘zlashtirilib, 173 ta zamonaviy meliorativ texnika, jumladan, 95 ta ekskavator va buldozer xarid qilindi**.

Hozirgi kunda 88 kilometrdan ziyod kollektordrenaj tarmoqlari qurilgani va rekonstruksiya qilingani, qariyb 6 ming kilometrlik tarmoqda esa ta'mirlash-tiklash ishlari amalga oshirilgani, hech shubhasiz, o'z amaliy natijasini bermoqda. Jumladan, oxirgi 4 yilda viloyatda kartoshka yetishtirish 67 ming tonnaga, sabzavot 378 ming tonnaga, poliz mahsulotlari 28 ming tonnaga, meva va uzum esa 60 ming tonnaga oshgani ana shunday ishlarimiz samarasi, desak, yanglishmagan bo'lamiz.

Shu bilan birga, davlatimiz tomonidan ko'r-satilayotgan ulkan amaliy yordamga qaramasdan, Toshkent viloyatining bir qator tumanlarida so'nggi yillarda paxta va g'alla hosildorligining pasayish holatlari kuzatilayotgani barchamizni afsuslantiradi.

Agarki 2012-yilda paxta hosildorligi mamlakatimiz bo'yicha o'rtacha 26,8 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich O'rta Chirchiq tumanida 20,6 sentnerni, Bekobod va Bo'ka tumanlarida 25 sentnerni tashkil etgani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Yoki boshoqli don ekinlari hosildorligi mamlakatimiz bo'yicha 52,3 sentnerni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam Bekobod tumanida 37,7 sentnerni, Yangiyo'l tumanida esa 32,2 sentnerni tashkil etgan.

Viloyatdagi ayrim fermer xo‘jaliklari surunkali ravishda shartnoma majburiyatlarini bajarmasdan kelmoqda. O‘tgan yili viloyatda davlatga paxta va g‘alla sotish bo‘yicha shartnoma majburiyatları to‘liq bajarilgan bo‘lsa-da, 110 ta fermer xo‘jaligi paxta, 151 ta fermer xo‘jaligi esa g‘alla yetishtirish bo‘yicha zimmasiga olgan shartnoma majburiyatini uddalay olmagan.

Toshkent viloyati meva-sabzavot mahsulotlari va uzum yetishtirish, hosildorlikni oshirish va yangi agrotexnologiyalarni joriy etish, yuqori samara beradigan bog‘ va uzumzorlar yaratish bo‘yicha katta imkoniyatlarga ega ekani haqida ko‘p gapirish mumkin.

Viloyatda yangi mevali bog‘lar va tokzorlarni barpo etishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti. Misol uchun, 2012-yilda viloyat bo‘yicha atigi 623 hektar yangi bog‘ va 146 hektar tokzor tashkil etilgan. Yangiyo‘l, Quyi Chirchiq, Bo‘stonliq tumanlaridagi ayrim fermer xo‘jaliklarida mevali bog‘ maydonlaridan gektariga 50–55 sentner hosil yetishtirilgan, xolos.

O‘tgan 2012-yil mavsumida viloyatda meva ishlab chiqarishning o‘sish sur’atlari 4 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich Samarqand va Namangan viloyatlariga qaraganda 4–5 foiz past-

dir. Shuningdek, 2012-yilda viloyat bo'yicha meva-sabzavot va uzumni qayta ishlash quvvatlari dan foydalanish darajasi o'rtacha 40 foizni tashkil etganini qoniqarli baholab bo'lmaydi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qish mavsumi uchun sifatli saqlash maqsadida Toshkent viloyatida meva-sabzavotlarni saqlaydigan xolodilniklarning quvvati oxirgi besh yilda ikki barobar oshirilib, 80 ming tonnadan ortgani e'tiborga loyiq, albatta. Lekin, o'tgan yili tashkil etish rejashtirilgan 6 ta xolodilnikdan faqat 4 tasi ishga tushirilgani bu masalada ham oqsoqlik borligini ko'rsatadi.

Bugungi kunda viloyat qishloq xo'jaligi sohasini zamon talablari asosida rivojlantirish, jumladan, ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil qilish, ularning samarali ishlashi uchun barcha sharoitlarni yaratib berish hukumat va mutasaddi tashkilotlarning ustuvor vazifasi bo'lishi lozim. Bu borada biz yangi tashkil etilgan O'zbekiston Fermerlar kengashi va uning joylardagi bo'limlari tomonidan tashabbus va amaliy harakatlarni kutishga haqlimiz. Joriy yilda Toshkent viloyatida hokimliklar va fermerlar kengashlari boshchiligidagi 2 ming 260 dan ziyod ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini barpo etish bo'yicha 97 milliard

so‘m mablag‘ sarflash ko‘zda tutilayotgani bu masalaning ijobiy hal etilishiga ishonch tug‘diradi.

Muhtaram deputatlar!

Keyingi yillarda Toshkent viloyatida yo‘l-transport, kommunikatsiya infratuzilmasini jadal rivojlantirish masalasiga qanday katta e’tibor berilayotgani sizlarga yaxshi ma’lum, albatta.

Ayniqsa, Angren shahrida tashkil etilgan Xalqaro transport logistika markazi orqali 2010-yildan boshlab Farg‘ona vodiysi viloyatlariga va ulardan mamlakatimizning boshqa mintaqalariga 16 million tonnadan ortiq yuk yetkazib berilganini alohida ta’kidlash lozim.

Bizga suvdek, havodek zarur bo‘lgan bunday markazlarni, transport va kommunikatsiya tarmoqlarini jadal rivojlantirishni bugungi hayotning o‘zi talab qilayotganini hammamiz yaxshi tushunamiz. Shu maqsadda yaqinda 116 kilometr uzunlikdagi «Guliston – Ohangaron» yangi avtomobil yo‘li qurib bitkazilganidan xabardorsiz. Bu yo‘lning ahamiyati shundaki, u faqat masofani qisqartirib qolmasdan, Toshkent mintaqasi orqali o‘tadigan transport vositalari sonini optimallash-tirishga ham xizmat qiladi.

Bu sohada hali qiladigan ishlarimiz ko‘p. Jumladan, joriy yilning o‘zida 8 milliard so‘m mab-

lag‘ hisobidan mahalliy ahamiyatga molik avtomobil yo‘llarida qurilish-ta’mirlash, shuningdek, 10 milliard 600 million so‘m mablag‘ yo‘naltirib, 160 dan ortiq aholi punktidagi ichki yo‘llarda joriy va kapital ta’mirlash ishlarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Hurmatli majlis qatnashchilar!

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha qulay ishbilarmonlik muhiti yaratilganini Toshkent viloyati misolda ham yaqqol kuzatish mumkin.

Hozirgi paytda viloyatda 20 mingga yaqin kichik biznes subyekti faoliyat ko‘rsatmoqda. Agarki mamlakatimizda kichik biznes sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,6 foizni, sanoatdagi ulushi esa 22,2 foizni tashkil etayotgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkichlar Toshkent viloyatida tegishli ravishda 56,7 foiz hamda 21,9 foizni tashkil etmoqda. Ayni vaqtda mazkur sohada bir qator muammojar borligini ham aytmasdan o‘tolmaymiz. Xusan, 2012-yil yakunlariga ko‘ra, Bo‘ka, Zangiota, O‘rta Chirchiq tumanlarida yangitdan tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni kamayishiiga yo‘l qo‘yilgan.

Adliya organlari tomonidan 2011–2012-yillarda o‘tkazilgan o‘rganishlar davomida tadbirkor-

larning murojaatlarini ko‘rib chiqish borasida 224 ta qonunbuzilish holati aniqlangan.

Tadbirkorlar ba’zan o‘z biznesini tashkil etish uchun yer olish, kadastr organlarida hujjatlar ni rasmiylashtirish, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun tabiiy gaz, suv va elektr energiyasi bilan barqaror ta’milanishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Masalan, muhandislik tarmoqlariga ulanish bo‘yicha 253 ta murojaatdan 214 tasi hal etilmagani ham shuni ko‘rsatadi.

Eng yomoni, nazorat organlarining tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga noqonuniy aralashuvlari davom etmoqda. 2012-yilda adliya organlari tomonidan 46 ta ana shunday holat aniqlangan.

Shu munosabat bilan ilgari ham aytgan bir fikrni yana bir marta ta’kidlamoqchiman. Tadbirkorlik faoliyati yo‘liga to‘sinq qo‘yish, unga qarshi chiqish, bu – davlat siyosatiga, Prezident siyosatiga qarshi chiqish, deb baholanishi kerak. Buni qaysi lavozimda o‘tirganidan qat’i nazar, barcha mansabdor va mas’ul rahbarlar qulog‘iga quyib olishi shart.

Viloyatda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda ham muammolar ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, ayrim mahalliy hokimiyat organlari

rahbarlari tomonidan yetarlicha e'tibor berilmasi ligi oqibatida aloqa, transport, savdo va umumiy ovqatlanish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bajarilmayapti.

Viloyatda ko'plab dam olish maskanlari faoliyat ko'rsatayotganiga qaramasdan, jami xizmatlar hajmida turizm xizmatlarining salmog'i atigi 0,5 foizdan oshmayotgani albatta hech kimni qoniqtirmaydi. Aynan xususiy tadbirkorlik va kichik biznes sohasi odamlarimizni ish bilan ta'minlash va shuning hisobidan aholimiz daromadlarini oshirish, uning hayot darajasini yaxshilashda hal qiluvchi omil bo'lib kelayotganini unutmasligimiz zarur.

Oxirgi yillarda Toshkent viloyatida aholi daromadlari oshib borayotganini quyidagi raqamlar tasdiqlab bermoqda. Ayniqsa, **2000-yilga nisbatan aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlar 9,6 barobar o'sgani, o'rtacha ish haqi 14 barobar, pensiya va nafaqalar 12,5 barobar oshgani misolida buning amaliy ifodasini ko'rish qiyin emas, deb o'ylayman.**

Buning yana bir yaqqol tasdig'ini keyingi o'n yilda viloyatda yengil avtomobilga ega bo'lgan oilalar 15 foizdan 37 foizga, televizorga ega xonadonlar 80 foizdan 143 foizga, xo-

Iodilnikka ega oilalar 50 foizdan 93 foizga, kir yuvish mashinasi bo‘lgan oilalar 32 foizdan 72 foizga ko‘payganida kuzatish mumkin.

Biz uchun ustuvor maqsad bo‘lgan sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash masalasini ola-digan bo‘lsak, viloyatda keyingi to‘rt yilda 204 ta umumta’lim maktabi, 19 ta musiqa va san’at maktabi, 38 ta kasb-hunar kolleji va 6 ta akade-mik litsey zamonaviy asosda qurilgani va tubdan rekonstruksiya qilinganini ta’kidlash lozim.

Ana shu davrda sog‘liqni saqlash sohasida 1 ming 190 o‘ringa ega bo‘lgan tibbiyot muassasalari hamda bir smenada 1 ming 335 nafar bemorga xizmat ko‘rsatadigan poliklinikalar qurilgani va rekonstruksiya qilinganini qayd etish zarur. Fa-qat o‘tgan yilning o‘zida viloyatdagi tibbiy mu-assasalarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun markazlashtirilgan manbalar hisobidan 16 mil-liard 600 million so‘m yo‘naltirilganining o‘zi bu boradagi ishlarimizning miqyosi va ko‘lamini ko‘rsatadi. Shular qatorida keyingi vaqtida vi洛yatda 31 ta sport obyekti ishga tushirildi va re-konstruksiya qilindi.

Ana shunday qulayliklardan bahramand bo‘lib o‘sayotgan bugungi yoshlar hamma narsani tushu-nadi. Ular hozirgi axborot vositalari, ayniqsa, In-

ternet orqali ko‘p narsadan xabardor bo‘lmoqda. Internet tarmog‘ini qandaydir temir devor bilan to‘sib, taqiqlash, bu – mutlaqo aqlga sig‘maydigan ish. Mana, jahonning ayrim mintaqalarida, arab dunyosida turli notinchlik va qarama-qarshiliklar yuz bermoqda. Bu holatning sabablari ko‘p, lekin ularning aksariyati yoshlarga, ularning hayotiy manfaatlarini hal qilishga yetarli e’tibor bermaslik natijasida sodir bo‘layotganidan ham ko‘z yumib bo‘lmaydi. Shuning uchun barchamiz, birinchi navbatda, vazifada o‘tirgan rahbarlar yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta’minalash, ularga keng yo‘l ochib berish, iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarish bo‘yicha olib borayotgan ishlarimizni davr talablari bilan hamohang bo‘lib, yangi bosqichga ko‘tarish zarurligini hech qachon esidan chiqarmasligi kerak.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, Toshkent viloyatida yosh avlod tarbiyasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan soha va tarmoqlarda qo‘lga kiritilayotgan har tomonlama ta’sirchan yutuq va marralar so‘zsiz barchamizni quvontiradi, qalbimizga g‘urur va iftixor yetkazadi, albatta.

Ayni shu borada yana va yana bir bor e’tiboringizni bunday ko‘rsatkichlar negizida yotgan o‘ta muhim mezonlarga qaratmoqchiman.

Bugungi kunda Toshkent viloyatida 2 million 700 ming kishi, jumladan, 1 million 600 mingga yaqin mehnatga yaroqli odam istiqomat qilmoqda. Shu sababli **har qaysi oiladagi farovonlik, odamlarning hayotga bo‘lgan munosabati, jamiyatimizning ijtimoiy barqarorligi, avvalo, aholining ish bilan qanday ta’milanganiga, ularning ishi qanday tashkil etilganiga, o‘z mehnatiga munosib daromad topishiga chambarchas bog‘liq, desam, o‘ylaymanki, barchangiz shu fikrga qo‘silasiz.**

Masalaga shu ko‘z bilan qaraydigan bo‘lsak, viloyatda o‘tgan yili bandlik dasturi doirasida 87 mingdan ortiq ish o‘rni yaratilgan bo‘lsa ham, ishga joylashtirishga muhtoj kishilar soni 45 ming 400 nafarni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich Bekobod va Bo‘ka tumanlarida, Bekobod shahrida, ayniqsa, yuqori hisoblanadi.

Shuningdek, viloyatdagi kasb-hunar kollejlarini bitirib chiqayotgan yoshlarni o‘z egallagan mutaxassisliklari bo‘yicha ish bilan ta’milash borasida jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Masalan, 2012-yilda Oqqa‘rg‘on, Chinoz, Yuqori Chirchiq tumanlarida bu ko‘rsatkich respublikadagi eng past darajani tashkil etgani ham bu fikrni tasdiqlaydi.

Bugungi fursatdan foydalanib, yana bir bor ogohlantirib aytmoqchiman: mahalliy hokimiyat idoralari rahbarlarining faoliyatiga odamlarni, birinchi navbatda, kasb-hunar kollejlarini bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi ularning hududida qanday hal qilinayotganiga qarab baho beriladi.

Yana bir muhim masala – aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash haqida to'xtaladigan bo'lsak, keyingi to'rt yilda viloyatda suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlarini yaxshilashga markazlashtirilgan manbalardan 9 milliard 200 million so'm mablag' ajratilganini aytish lozim. Shu asosda 520 kilometr, jumladan, qishloq joylarda 490 kilometrdan ortiq suv tarmoqlari ishga tu-shirildi. Biroq, vodoprovod tarmoqlarining kattagina qismi eskirgani tufayli suv ta'minotida uzilishlarga yo'l qo'yilmoqda, iste'molchilar tomonidan to'lanmagan qarzlar hajmi ortib bormoqda. Bo'ka, O'rta Chirchiq, Quyi Chirchiq, Yuqori Chirchiq, Parkent tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi qoniqarsiz bo'lib qolmoqda.

Shu munosabat bilan viloyatda qo'shimcha vodoprovod tarmoqlarini qurish, jumladan, Chimyon–Chirchiq dam olish va hordiq chiqa-

rish hududida tozalash inshootlari quvvatlarini kengaytirish kerak. Shu o'rinda viloyatda joylashgan shaharlardagi ko'p qavatli uylarning issiqlik ta'minotini yaxshilash ishlari yetarli darajada emasligini afsus bilan aytishga to'g'ri keladi. Ko'pgina uylarning muhandislik uskunalarini va issiqlik tarmoqlari kapital va joriy ta'mirlashga muhtoj.

Kommunal xizmatlar uchun hisob-kitoblar intizomining pastligi sababli Chirchiq shahri, Oqqo'rg'on, Bo'stonliq tumanlarida muddati o'tgan debitorlik qarzlar saqlanib qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida, ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga salbiy ta'sir etmoqda.

Balki kimdir, Prezident shunday mayda kamchiliklarni aytib o'tiradimi, deb o'yashi ham mumkin. Men sizlarga do'st sifatida aytmoqchimanki, mening ishimda, har qaysi rahbarning faoliyatida ikkinchi darajali yoki mayda masalaning o'zi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Nega deganda,inson manfaati haqida gap ketganda, hech qachon mayda masalaning o'zi bo'lmaydi.

O'zingiz o'ylang, joylarda ichimlik suvi yetishmasa, ko'p qavatli uylarda tabiiy gaz, issiqlik yetkazishda uzilishlar bo'lsa, odamlar, ayniqsa, yosh bolali oilalar tepada – rahbarlik lavozi-

mida o‘tirganlarga nisbatan qanday fikr bildirishi mumkin?

Bu hayotdan hammamiz ham o‘tib ketamiz, hech kim dunyoga ustun bo‘lgan emas. Shuning uchun ham men doimo o‘zimga, sendan ertaga nima qoladi, deb savol beraman. Har bir odam bu savolni o‘ziga qayta-qayta bersa, savob ishni har kim qilishi kerak, savob ishni har kun qilish kerak, degan qoida bilan yashassa, o‘ylaymanki, Yaratgan ham, insonlar ham undan rozi bo‘ladi.

Muhtaram do‘stlar!

Qishloq aholi punktlarini zamonaviy loyihalar bo‘yicha kompleks qurishga qaratilgan dasturga muvofiq, 2009–2012-yillarda viloyatda namuna-viy loyihalar asosida 2 ming 355 ta uy-joy foydalnishga topshirildi. Bu maqsad uchun jami 228 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ sarflandi. Biroq taassufki, biz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan bu masalaga panja orasidan qarash tufayli ayrim tumanlarda uy-joylarni muddatidan kechiktirib va sifatsiz topshirish holatlariga yo‘l qo‘yilmoqda. Jumladan, 2011–2012-yillarda bu borada yo‘l qo‘yilgan jiddiy kamchilik va qonun-buzilishlari uchun Chinoz tumani hokimi A. Teshaboyev, Ohangaron tumani hokimi B. Soliboyev o‘z vazifasidan ozod etilgani, Quyi Chirchiq tu-

mani hokimining birinchi o‘rnbosari A. Otajonov va O‘rta Chirchiq tumani hokimining birinchi o‘rnbosari Sh. Shomansurov jinoiy javobgarlikka tortilgani, Bo‘stonliq, Yuqori Chirchiq, Qibray, Yangiyo‘l, O‘rta Chirchiq tumanlarining hokimlari va ularning birinchi o‘rnbosarlariga hayfsan e’lon qilingani ham buni tasdiqlaydi. Lekin gap faqat kimgadir jazo berishda emas, balki vaziyatni xolisona va tanqidiy baholab, zarur xulosa va saboq chiqarib olishda.

Joriy yilda viloyatdagi 39 ta massivda 1 ming 50 ta uy-joy qurish uchun 147 milliard so‘m, ya’ni o‘tgan yildagiga nisbatan 16,5 foiz ko‘p mablag‘ jalb etish nazarda tutilmoqda. Bu esa shu yo‘nalishda qo‘srimcha ishchi kuchi, moddiy va texnik resurslarni safarbar qilishni, ishni oqilona va samarali tashkil etishni taqozo etadi.

Hokimlar bu masalani bir-ikki yillik ish deb bilmasligi, aksincha, uzoq muddatli muhim ijtimoiy dastur deb qabul qilishi lozim. Nega deganda, bu boradagi ishlar qishloqda yashayotgan odamlarning sharoiti shahardagidan kam bo‘lmasligi kerak, degan ezgu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan.

Bugungi kunda aholining daromadi ortib boryapti. Lekin ba’zi odamlar uy qurish o‘rniga ma-

shina olishga shoshilyapti. Menga qolsa, mashina ham, uy ham kerak, lekin, baraka topkurlar, avval uy quringlar, keyin mashina olinglar. Yaxshi, zamonaviy uy qurgan odamlarning bolalari ertaga ota-onasiga rahmat aytadi. Eng muhimi, bunday shinam uylarda tug‘ilib voyaga yetgan bolalarning sog‘lig‘i, fikri, dunyoqarashi ham boshqacha bo‘ladi.

Men yaxshi eslayman, 1986-yili Qashqadaryoda ishlagan paytimda Shahrisabzda yangi uylar qurish tajribasini boshlagan edik. O‘sanda uylarning tashqi devorini pishiq g‘ishtdan, ichki devorini esa xom g‘ishtdan qurishga majbur bo‘lganmiz. Chunki pishiq g‘isht ham, g‘isht zavodlari ham bugungidek ko‘p emas edi. Bugun esa, mana, ko‘ryapmiz, har tomonlama qulay shart-sharoitlarga ega bo‘lgan uy-joylarni qurish uchun barcha sharoitlar yetarli.

Shu o‘rinda dolzarb bir masalaga e’tiboringizni qaratishni istardim. Mahalliy pudrat ishlari bozorini rivojlantirish borasida berilgan imtiyozlarga qaramasdan, **viloyatda bu boradagi ishlarni takomillashtirish, zarur qurilish asbob-anjomlari bilan ta’minlangan, malakali quruvchilarga ega bo‘lgan zamonaviy pudrat tashkilotlari ni shakllantirish, ularga kerakli moddiy baza**

yaratish uchun tegishli yordam berish masalalari viloyat hokimiyati e'tiboridan mutlaqo chetda qolganini ta'kidlashimiz lozim.

Davlat budjetidan katta hajmdagi moliyaviy resurslar ajratilayotganiga qaramasdan, viloyat rahbariyati va mutasaddi shaxslarning bu masalaga sovuqqonlik bilan qarashi natijasida muhim inshootlarni o‘z vaqtida va sifatli ishga tushirish rejalari barbod qilinmoqda. Misol uchun, 2009 – 2012-yillar mobaynida markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan ijtimoiy obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun 163 milliard so‘mdan ziyod mablag‘ ajratilgan bo‘lib, ularni o‘zlashtirish 156 milliard 500 million so‘mni yoki umumiy ko‘rsatkichga nisbatan 95,8 foizni tashkil etgan.

Toshkent viloyatining bugungi rivojlanish sur’atlari, bu borada yo‘l qo‘yilayotgan kamchilik va muammolar, ularni hal etish holati shuni tasdiqlaydiki, bu o‘ta muhim yo‘nalish bo‘yicha ishlar qoniqarli darajada emas. Bunday vaziyatni keskin o‘zgartirish, kerakli xulosalar chiqarish zarurati ko‘rinib turibdi. Mavjud ahvolni ijobiy tomonga o‘zgartirish uchun mamlakatimiz hukumat, vazirlik va idoralarning bevosita ko‘magida

kerakli chora va tadbirlarni amalga oshirishimiz zarur.

Hurmatli deputatlar!

Endi bugungi sessiya kun tartibidagi tashkiliy masalani ko'rib chiqishga o'tsak.

Hammamizga ma'lum, bundan to'rt yil oldin, ya'ni 2008-yilning dekabr oyida biz sizlar bilan birga Rustam Xolmatovga katta ishonch bildirib, uni Toshkent viloyatining hokimi lavozimiga tasdiqlagan edik.

Albatta, ulkan salohiyatga ega bo'lgan, mammakatimizda yetakchi o'rinn tutadigan Toshkent viloyatini boshqarish, rahbarlik qilish, uning ko'p tarmoqli iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirish, aholining hayot darajasini yuksaltirish – bunday vazifalarni uddalash og'ir va o'ta mas'uliyatli ishdir.

E'tirof etish kerakki, R. Xolmatovning ish faoliyati davomida dastlab viloyat taraqqiyoti yo'lida, ko'pgina muammolarni yechishda amaliy harakat va ijobjiy ishlar kuzatildi. Lekin, oxirgi yillarda uning ishga munosabati o'zgardi, o'ziga nisbatan talabchanlikni bo'shashtirib, xotirjamlik, o'zibo'larchilik kayfiyatiga berilib, viloyat rahbari va yetakchisi sifatida mas'uliyatni yo'qotishga yo'l qo'ydi. U o'ziga nisbatan bildi-

rilgan ko‘pgina ogohlantirish va tanqidiy gaplar-dan xulosa chiqarmadi, ahvolni ijobiy tomonga o‘zgartirish haqidagi va’dalari quruq gap bo‘lib qolaverdi. O‘z qo‘lida ishlaydigan ko‘pgina muovin va mutaxassislarning, faollarning boshini qovushtirish, ularga bir ko‘z bilan qarash, ularni birlashtirish o‘rniga, qo‘l ostidagilarga yuqorida qarash, mensimaslik, qo‘pol munosabatda bo‘lishni o‘ziga ma’qul topdi.

Albatta, odamlar har xil bo‘ladi, ularning yurish-turishi, fe’l-atvori ham bir-biridan farq qiladi. Lekin rahbar bo‘lib mas’uliyatni o‘z zimmasiga olgan odam, yoqadimi-yo‘qmi, har qaysi xodimga, avvalo, ishning manfaatini ko‘zlab, to‘g‘ri baho berishi kerak.

Viloyat hokimining ana shunday mezonlar asosida o‘zidan oldin ishlagan rahbarlarning xatolaridan xulosa chiqarib olmagani umumiyl ishga ziyon yetkazgani haqida ko‘p gapirish mumkin.

Biz odatda biron-bir rahbarning oddiy odamlar orasidan chiqqaniga e’tibor beramiz, lekin, afsuski, nafs balosi uni buzadi, natijada boshi aylanib, oyog‘i yerdan uziladi. Asosan, xushomadgo‘y odamlar, rahbarlar soyasida yurib biror narsa orttirishni o‘ylaydigan kimsalar bunga sabab bo‘ladi. Menga qolsa, rahbarga emas,

uni buzadigan ana shunday odamlarga jazo ber-
gan bo‘lardim.

Muxtasar qilib aytganda, mamlakatimizdagи
markaziy bir hududni boshqarish, odamlar bilan
til topishib, ularning ishonchini qozonib, obro‘
orttirish, ulkan maqsadlar sari safarbar etish
uchun R.Xolmatovga keng miqyosda fikrlash,
uzoqni ko‘rish, ulkan salohiyatlар viloyatni bosh-
qarish xususiyatlari – qurbi yetishmadi. O‘z-
o‘zidan ayonki, bunday holat oxir-oqibatda unga
bildirilgan ishonchni yo‘qotishga olib keldi.

Yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarga tan be-
rib, iqror bo‘lib, R.Xolmatov egallab turgan vazi-
fasidan ozod qilishni so‘rab, ariza bilan murojaat
qildi.

Majlis raisidan ushbu masalani ovozga qo‘yishni
so‘rayman.

Muhtaram do‘stlar!

Toshkent viloyatidek katta viloyatga yangi
rahbarni tanlash va tayinlash – o‘ta murakkab va
mas’uliyatlар ish. O‘ylaymanki, siz, hurmatli maj-
lis ishtirokchilari, barchangiz buni yaxshi anglab,
tushunib turibsiz.

Albatta, har bir nomzodni tavsiya qilayotgan-
da, biz faollar, deputatlar bilan ko‘p maslahatla-
shamiz, uning tarjimayi holi, dunyoqarashi, avval-

gi ish faoliyati, insoniy xususiyatlari, fe'l-atvori, har xil qing'ir-qiyshiq ishlardan uzoq bo'lganini birinchi navbatda e'tiborga olamiz. Bunday nomzodlarga qo'yiladigan eng asosiy talablar qatorida, avvalo, o'zini rahbar, yetakchi deb hisoblaydigan shaxs bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan, taraqqiy topayotgan zamon talablariga javob berishi, ertangi kunimizning eng dolzarb, eng ustuvor yo'nalishlarini o'ziga yaqqol tasavvur qilgan holda, unga ishonch bildirgan el-yurt oldida uning zimmasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda o'z mas'uliyatini chuqr sezishi, his qilishi shart.

Eng muhimi, rahbar xalq g'ami va tashvishi, umidi va intilishlari bilan yashashi, odamlarni bir-biridan ajratmasdan – bittasiga issiqroq, boshqasiga esa sovuqroq qaramasdan, oshnalog'aynigarchilikka berilmasdan, oyog'i yerdan uzilmasdan,adolat, talabchanlik va qat'iyat bilan ish olib borishi, bunday qarash, bunday munosabat uning burchiga, hayotiy maqsadiga aylanishi darkor.

Katta salohiyatga ega bo'lgan Toshkent viloyatini boshqarish uchun yuqori saviya, bilim va tajribaga ega bo'lgan yetakchi kerak. Hayot sinnovlarida toblangan, ulkan reja va dasturlarni

amalga oshirishga, yurtni obod, elning turmushi-ni yanada farovon qilishga qurbi-kuchi yctadigan rahbar kerak.

Viloyat deputatlari va faollari, jamoatchilik vakillari bilan maslahatlashganda, ayni shunday yuksak talablarga javob beradigan viloyat rahbari kerakligi haqida so‘z yuritildi. Shunday fikr-mulohazalar natijasida bugungi kunda Andijon viloyati hokimi lavozimida ishlab kelayotgan Ahmad Usmonov nomzodini Toshkent viloyati hokimi vazifasiga tavsiya etishga qaror qildik.

Ahmad Usmonovning tarjimayi holi haqida gapiradigan bo‘lsak, u 1957-yilda Samarqand viloyati Qo‘srbab tumanida tug‘ilib, Samarqand davlat universitetini 1981-yilda huquqshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha bitirgan.

Ko‘p yillar Jizzax, Sirdaryo, Namangan viloyatlarida mas’uliyatli vazifalarda ishlagan. Ichki ishlar vazirining o‘rinbosari lavozimida xizmat qilgan. Oxirgi yetti yil mobaynida Andijon viloyati hokimi bo‘lib ishlab kelmoqda.

Hammamizga ma’lum bo‘lishi kerak: oxirgi yillar davomida viloyatning qaysi sohasini olmaylik – bu qishloq xo‘jaligi bo‘ladimi, sanoat bo‘ladimi, ijtimoiy sohalar bo‘ladimi, Andijon viloyatining A. Usmonov rahbarligida o‘sish, ta-

raqqiy topish sur'atlari, shahar va qishloqlarning qiyoфasi tubdan o'зgarib va ochilib borayotgani ko'пchilikning havasini tortib kelmoqda, desak, hech qanday xato bo'lmaydi.

A. Usmonovni Toshkent viloyati hokimi vazifasiga tavsiya etar ekanmiz, avvalo, uning odamlar ko'ngliga yo'l topib ishlash, ularning dard-u tashvishlari bilan yashash, aholini rozi qilish va ishonchini qozonish, Toshkent viloyati xalqiga sidqidildan xizmat qilishda o'zining boy hayotiy va rahbarlik tajribasini ishga soladi va viloyat oldida turgan vazifalarni amalga oshirishda jonbozlik ko'rsatadi, deb ishonamiz.

Aziz va muhtaram vatandoshlar!

Takror-takror aytishni istardim, Toshkent viloyati – o'zining iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy obro'-e'tibori bilan tom ma'noda yurtimizda boshqalarga o'rnak bo'lib kelgan viloyatdir.

Shuning uchun bugun siz, azizlarga, viloyatning barcha faollari va fidoyilariga, ko'п millatli voha ahliga qarata aytmoqchiman: Toshkent viloyati hech qachon orqada yurishni o'ziga ma'qul topmagan va mamlakatimizning taraqqiyoti, el-yurtimiz farovonligi, Vatanimizning nufuzini oshirish yo'lida o'zining nimalarga qodir ekani-

ni ko'rsatish, namoyon etish uchun kuch-qudrati yetarli, desam, ayni haqiqatni aytgan bo'laman.

Toshkent viloyatining ko'pni ko'rgan, mehnatsevar va bag'rikeng xalqi bugun majlisimizda tasdiqlab olgan yangi rahbar atrofida jipslashib, bir yoqadan bosh chiqarib, mamlakatimizning yetakchi viloyatiga xos bo'lgan o'mini, obro'sini qo'ldan bermaydi.

Barchangizga shu yo'lda sihat-salomatlik, baxt va omad, yangi-yangi yutuqlar tilayman.

*Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining navbatdan tashqari
sessiyasidagi nutq,
2013-yil 1-aprel*

TARAQQIYOT VA FAROVONLIK OMILI

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, xonimlar va janoblar!

Siz, aziz mehmonlarimiz, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, ASEAN, UNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, moliya institutlari hamda boshqa tuzilmalar vakillarini, uy-joy qurilishi sohasidagi yirik kompaniyalar rahbarlari va yetakchi mutaxassislarini – bugungi konferensiyaning barcha qatnashchilarini qutlash, ushbu forumda ishtirok etayotganingiz uchun o‘zimning chuqur hurmatim va samimiy minnatdorligimni izhor etish menga katta mammuniyat bag‘ishlaydi.

Uy-joy qurilishi sohasi o‘tkir ijtimoiy muammlarni hal etish uchun ulkan ahamiyatga ega ekani, qurilish bilan bog‘liq ko‘plab tarmoqlar va butun mamlakat iqtisodiyotining mutanosib rivojlanishi hamda barqaror o‘sish sur’atlarini ta’minlaydigan eng muhim omil ekanini hisobga oladigan bo‘lsak, bugungi konferensiya uchun

tanlangan qishloqda uy-joy qurilishining roli haqidagi mavzuning dolzarbligi to‘g‘risida gapirib o‘tirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Ekspert markazlarining ma’lumotlariga ko‘ra, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda investitsiyalar tarkibida umumi sarmoyalar hajmining 20 foizidan 40 foizigacha bo‘lgan ulushi aynan uy-joy qurilishi sohasiga to‘g‘ri kelayotgani, albatta, bejiz emas.

Bugungi kunda uy-joy qurilishi va iqtisodiyotning mazkur soha bilan bog‘liq tarmoqlarini rivojlantirish moliya tizimini shakllantirish va barqaror rivojlantirishning eng muhim bo‘g‘inlaridan biri hamda banklar aktivlari va ishonchli resurs bazasining mustahkam manbayi bo‘lib qolmoqda.

Bu holat jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotgan hozirgi sharoitda alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Kredit mablag‘lari bilan yetarlicha ta‘minlanayotganiga qaramasdan, bu mablag‘lar yakuни истемолчи, я‘ни iqtisodiyotning real sektoriga yetib bormayotgani global moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan chiqishda jiddiy to‘sinqlardan biri ekani sir emas. Holbuki, asosiy zaxira valutalarini chiqaradigan emitent mamlakatlarda foiz stavkalari darajasi nihoyatda past. Ayrim hollarda bu stav-

kalar nol qiymatigacha tushib ketayotganiga esa ishonish qiyin.

Muxtasar aytganda, kredit resurslari hajmining yetarliligi ko‘plab holatlar, birinchi navbatda, 2008-yilda global moliyaviy-iqtisodiy inqirozni yuzaga keltirgan jiddiy sabablarning bartaraf etilmagani tufayli, afsuski, iqtisodiyotni jonlantiradigan turtki va omilga aylana olmayapti.

Bunday sharoitda uy-joy qurilishi va u bilan birgalikda rivojlanadigan infratuzilma – kommunal va ijtimoiy sektor, transport va kommunikatsiya tarmoqlari, zamonaviy qurilish materiallari hamda konstruksiyalarini ishlab chiqarish kapital va investitsiyalarni jalb etish, shuningdek, eng murakkab va jiddiy ijtimoiy masalalardan biri – aholi bandligi muammosini hal etishning g‘oyat maqbul va **samarali sohasi sifatida xizmat qila oladigan hamda xizmat qilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishga aylanmoqda**.

Aksariyat davlatlarning tarixiy tajribasi shundan dalolat beradiki, uy-joy qurilishi va infratuzilma sohasini taraqqiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilash milliy iqtisodiyotni qayta tiklashning hal qiluvchi vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, Buyuk depressiya deb atalgan 1930-yillardagi inqiroz davrida AQSHda Prezident

Ruzvelt yakka tartibdagi uy-joy qurilishini kredit bilan ta'minlash tizimini joriy qildi va bu islohot iqtisodiy o'sishni tiklashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

O'z vaqtida Germaniya, Buyuk Britaniya, Skandinaviya davlatlari va boshqa mamlakatlarda iqtisodiyotni rag'batlantirish hamda qayta tiklash maqsadida ana shunday dasturlar qabul qilingan.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan model – qishloqda uy-joy qurishni kompleks amalga oshirish dasturining mazmun-mohiyatini bayon etishdan oldin mamlakatimizni iqtisodiy, ijtimoiy rivojlantirish va modernizatsiya qilishning ana shu eng muhim sohasida yaqin-yaqingacha qanday muammolar to'planib qolgani, haqiqiy ahvol qanday bo'lgani haqida qisqacha to'xtalib o'tishga ijozat bergaysiz.

Bu sohaning bosh xususiyati shunda ediki, u deyarli boshqarilmas, boshqacha aytganda, o'zboshimchalik avj olgan edi.

Bu aslida nimani anglatar edi?

Qishloqda uy-joylar aholi punktlarini barpo etishda qo'llanishi zarur bo'lgan bosh rejalarsiz qurilar, hududlarning o'ziga xos tabiiy va iqlim xususiyatlari, o'zbek oilasining milliy an'analarini

hisobga olib, puxta ishlab chiqilgan namunaviy uy-joy loyihalari yo‘q edi.

O‘zi ham buyurtmachi, ham quruvchi bo‘lgan qishloq aholisining imkoniyatlari cheklangani, shuningdek, qurilish materiallarining doimiy tanqisligi hamda qishloqda rivojlangan qurilish sanoati bo‘lmagani uchun bu boradagi ishlar o‘z holiga tashlab qo‘yilgan edi. Boshqacha aytganda, uy-joylar qo‘lbola qurilish materiallari – xom g‘ishtdan qurilar, xonalariga yog‘ochdan pol qilinmas, tom yopish materiali sifatida, asosan, asbest shiferlardan foydalanilar edi.

Bosh rejasiz qurilgan uy-joylarni kommunal qulayliklar bilan ta’minalash, ichimlik suvi tarmog‘iga, elektr energiyasi va gaz tarmog‘iga ulash borasida jiddiy muammolar paydo bo‘lar edi.

Yangi qurilgan uy egalarining tibbiyot muassasalari, maktablar, bolalar bog‘chalari, savdo shoxobchalari, bozorlar, hovlisiga olib boradigan yo‘l, ya’ni oilaning qulay sharoitda yashashi uchun zarur bo‘lgan infratuzilma bilan ta’milanishda qanday muammolarga duch kelgani haqida gapirib o‘tirmasa ham bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston aholisining qariyb 50 foizi, ya’ni 15 millionga yaqin odam qishloq

joylarda istiqomat qilayotganini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda ushbu sohada hal qilishimiz lozim bo'lgan murakkab vazifalarning ko'lami va miqyosini tasavvur etish qiyin emas.

Bu borada shuni inobatga olish kerakki, O'zbekistonda qishloq joylarida har yili 150 mingdan ortiq yangi oila vujudga kelmoqda, mustaqil taraqqiyotimiz yillarida esa qishloqlarimizda 2 million 600 mingdan ziyod yosh oila paydo bo'ldi va ular o'z uyiga ega bo'lishga ehtiyoj sezmoqda. Shu munosabat bilan **hozirgi kunda qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurish bo'yicha uzoq yillar mobaynida shakllangan yondashuvlar, usul va amaliyotni** qayta ko'rib chiqish vaqtি kelgani, buni hayotning o'zi ilgari surayotgani yanada yaqqol ayon bo'lmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurish dasturining muhim xususiyatlari, dolzarbliги, unga bo'lgan talab va ehtiyojning prinsipial xususiyatlari nimalardan iborat?

Bu borada birinchi navbatda hal etish lozim bo'lgan prinsipial masalalardan biri – uy-joy qurilishining qonunchilik, huquqiy va normativ ba-

zasini tubdan qayta ko'rib chiqish hamda isloh etishdan iborat edi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan xususiy mulkning daxlsizligi haqidagi prinsipga asoslangan holda qabul qilingan Uy-joy va Shaharsozlik kodekslari, O'zbekiston Respublikasining «Ipoteka to'g'risida»gi Qonuni, boshqa qonun va me'yoriy hujjatlarda mulkdorning uy-joy hamda u barpo etilgan yer uchastkasiga muddatsiz egalik qilish va uni meros qilib olish huquqi mustahkamlab qo'yilgan.

Qishloq aholisiga yakka tartibda uy-joy qurish uchun yer uchastkalari bir oilaga 6 sotix hisobida umrbod meros qilib olish huquqi bilan bepul ajratilayotganini alohida ta'kidlashni istardim. Bu esa bizning yer resurslarimiz cheklangan sharoitda nihoyatda katta ahamiyatga egadir.

Tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarga muvofiq, qishloq joylarda uy-joy massivlarini qurish ishlari yakka tartibda uy-joy quruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan va ma'qullangan namunaviy loyihalar asosida, muhandislik-kommunikatsiya, ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyektlari bilan birgalikda barpo etilmoqda. Respublika va mahalliy budgetlar hisobidan avtomobil yo'llari,

ichki kommunikatsiya tarmoqlarini qurish, suv, gaz va energiya ta'minotini yo'lga qo'yish albatta amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim shartlar-dandir.

Yangi uy-joy massivlarida yashaydigan aholi soni inobatga olinib, maktablar, bolalar bog'-chalari, qishloq vrachlik punktlari, savdo shoxbchalari va sport inshootlari ham namunaviy loyihalar asosida barpo etilmoqda.

Qishloqlarda uy-joy komplekslarini qurishda muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan bir qatorda, yangi turdagি servis va elektron xizmatlar ko'rsatish obyektlarini barpo etish hamda ishga tushirish ham alohida e'tiborga loyiq masalalardandir.

Bu bilan men nima demoqchiman?

Bu o'rinda yangi, zamonaviy uy-joylar barpo etish bilan birga, qishloqdagi uylar, qishloqdagi oilalarga eng zamonaviy kompyuterlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, zamonaviy tele-kommunikatsiya tizimi, internet kirib borayotgani haqida so'z bormoqda.

Eng asosiysi, qishloq aholisi uchun deyarli yangi bo'lgan bunday turdagи xizmatlar odamlar ehtiyojini ta'minlash bilan birga, qishloq kasbhunar kollejlarida ta'lim olgan va kasb egallagan

minglab, o'n minglab yigit-qizlarni ish bilan band etish imkonini bermoqda.

Farzandlarimiz, unib-o'sib kelayotgan yosh avlod uchun bu qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanini o'zingizga bir tasavvur qiling. Buni so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi.

Shu o'rinda yakka tartibda uy-joy qurilishiga kredit ajratish mexanizmiga e'tibor qaratishni istardim. Qishloqda yashaydigan odam uyning namunaviy loyihasini tanlaganidan so'ng dastlabki badal sifatida uy qiymatining 25 foizi miqdorigagi o'z mablag'ini to'laydi. Unga qulay shartlar asosida uzoq muddatga – 15 yilga imtiyozli foiz stavkasi bo'yicha – birinchi yil belgilangan foizni to'lamaslik sharti bilan – 7 foiz miqdoridagi ipoteka krediti beriladi. Bu Markaziy bankning yillik 12 foiz miqdorida belgilangan qayta moliyalash stavkasidan ancha pastdir.

Qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurish bo'yicha kompleks ishlarni amalga oshirish uchun yaxlit institutsional tuzilma tashkil etildi.

Namunaviy uy-joylarni loyihalashtirish, ijtimoiy va muhandislik-kommunikatsiya infrazilmasiga ega bo'lgan uy-joy massivlarini kompleks qurish rejasini ishlab chiqish **«Qishloq qurilish loyiha»** ixtisoslashtirilgan loyiha-tad-

qiqot instituti zimmasiga yuklangan. Shu bilan birga, mazkur institut qurilish ishlari bajarilishi ustidan mualliflik nazoratini ham amalga oshirmoqda.

Namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagи uy-joylar qurilishini kredit asosida moliyalashni shu maqsadda tashkil etilgan «**Qishloq qurilish bank**» aksiyadorlik-tijorat banki amalga oshirmoqda. Uning nizom jamg‘armasi bugungi kunda qariyb 130 million dollar miqdoridagi mablag‘ga tengdir.

Mazkur bank tashkil etilganidan buyon o‘tgan to‘rt yil mobaynida qishloqda 23,6 ming nafar yakka tartibda uy-joy quruvchiga qiymati 677 million dollardan ziyod ipoteka kreditlari berildi.

Bank nafaqat aholi, balki qishloqda uy-joy va ishlab chiqarish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etayotgan qurilish tashkilotlari, shuningdek, qishloq qurilishida foydalilaniladigan zamонавиy materiallar va konstruksiyalar ishlab chiqaruvchi korxonalarni ham kredit bilan ta’milamoqda.

Qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurish dasturini amalga oshirishda mamlakatimizning boshqa banklari – Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy

banki va «Ipoteka-bank» aksiyadorlik tijorat banki ham faol ishtirok etmoqda.

Uy-joylarni namunaviy loyihalar asosida tayyor holda topshirish sharti bilan qurish borasidagi hamma ishlar «**Qishloq qurilish invest**» ixtisoslashtirilgan injiniring kompaniyasi zimmasiga yuklangan. Yagona buyurtmachi bo‘lgan ushbu kompaniya mamlakatimizning barcha hududlarida o‘z filiallariga ega bo‘lib, u qishloq joylarda uy-joy massivlarini sifatli qurish bo‘yicha yagona siyosatni amalga oshirmoqda.

Shu bilan birga, mamlakatimiz hududlarida tashkil etilgan 900 dan ortiq yangi ixtisoslashtirilgan pudratchi qurilish tashkilotlarida bugungi kunda 20 ming nafarga yaqin quruvchi mehnat qilmoqda, zamonaviy qurilish materiallari, konstruksiyalar, yog‘och pol, deraza panjaralari, tom yopish va boshqa materiallar ishlab chiqaradigan 60 dan ziyod korxona tashkil qilindi. **Keng ko‘lamli imtiyoz va preferensiyalar tizimi yaratildi.**

«**Qishloq qurilish bank**» kreditlari hisobidan yakka tartibda uy-joy qurayotgan qishloq aholisi ipoteka kreditlarini qaytarish va ularning ustama foizlarini qoplashga yo‘naltiriladigan daromad soliqlarini to‘lashdan ozod etilgan. Bundan tashqari,

ular sotib olgan uy-joydagi mulk uchun ipoteka kreditini to‘liq to‘lagunga qadar soliq to‘lashdan ozod etildi.

Qishloq joylarda uy-joy qurishda ishtirok etayotgan «**Qishloq qurilish invest**» injiniring kompaniyasi, pudratchi tashkilotlar va qurilish materiallari ishlab chiqaradigan ixtisoslashtirilgan korxonalar barcha turdagи soliqlar hamda maqsadli davlat fondlariga majburiy ajratmalar, shuningdek, olib kelinayotgan qurilish texnikasi va kichik mexanizatsiya vositalari uchun bojxona to‘lovlarini to‘lashdan ozod etilgan. Bu esa qishloq aholisi uchun qurilayotgan uy-joylar qiymatini sezilarli ravishda kamaytirish imkonini bermoqda. Bunday uy-joylarning bir kvadrat metri shahardagi uy-joy qiymatidan bugungi kunda o‘rtacha 2 barobar pastdir.

E’tiboringizni yana bir masalaga qaratmoq-chiman. 2009–2012-yillarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish bo‘yicha maxsus dasturning amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizning 159 ta qishloq tumanida 650 ta yangi qishloq uy-joy massivi barpo etildi, umumiy maydoni 3,2 million kvadrat metr bo‘lgan 23,6 mingdan ortiq yakka tartibdagi uy-joy qurildi. Ushbu maqsad-

larga 1,2 milliard dollardan ziyod miqdordagi investitsiyalar yo'naltirildi. Uzunligi 732 kilometr asfaltlangan avtomobil yo'llari, mingdan ziyod ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyektlari barpo etildi.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda qishloq aholisini markazlashgan tarmoqlar orqali toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 75,8 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlash darajasi esa 76,2 foizni tashkil etmoqda.

Joriy yilda ham qishloq joylarda uy-joylarni keng ko'lamda qurish ishlari ko'zda tutilgan. 353 ta qishloq massivi hududida boshlangan qurilish ishlari jadal davom ettirilmoqda. Ularda namunaviy loyihalar asosida umumiyl maydoni 1,4 million kvadrat metr bo'lgan 10 mingta barcha qulay shart-sharoitlarga ega uy-joy qurish ko'zda tutilgan bo'lib, bu o'tgan yilga nisbatan 17,5 foiz ko'pdir. Ayni paytda uzunligi 300 kilometrdan ortiq ichimlik suvi tarmoqlari va 280 kilometrdan ziyod elektr tarmoqlari ishga tushiriladi, qariyb 240 kilometrlik avtomobil yo'llari quriladi, keng ko'lami ijtimoiy va bozor infratuzilmasi yaratiladi. Bu maqsadlar uchun 2013-yilda salkam bir milliard dollar miqdoridagi investitsiya yo'naltiriladi.

Qishloqda qurilish hajmi ortib borayotgani munosabati bilan zamonaviy qurilish sanoati rivojlanmoqda, yangi ish o'rirlari tashkil etilmoqda, aholi bandligi ta'minlanib, uning daromadi va farovonligi tobora oshmoqda.

Biz uchun, ayniqsa, yangicha asosda mulkdorlar sinfi shakllanayotgani, qishloqlarimiz qiyofasi ko'z o'ngimizda tubdan o'zgarib horayotgani, odamlarning madaniyati yuksalib, ularning turmush tarzi, ong-u tafakkuri va mentaliteti o'zgarayotgani beqiyos ahamiyatga egadir.

Yangi va zamonaviy sharoitlarda voyaga yetayotgan, eski tuzumning barcha asoratlaridan xoli bo'lgan, o'z kelajagiga qat'iy ishonadigan, yuksak bilimli, mustaqil fikrlaydigan, barkamol o'g'il-qizlar haqli ravishda bizning g'ururimizdir.

Bunday avlod bilan, haqiqatan ham, faxrlanish va eng dadil istiqbol rejalarini tuzish mumkin.

Qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joy qurish bo'yicha maxsus dasturni amalga oshirishda Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, Jahon banki kabi ko'plab nufuzli xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari ham faol ishtirok etayotganini alohida mammuniyat bilan ta'kidlashni istardim. 2011-yilda Osiyo

taraqqiyot banki Direktorlar kengashi tomonidan jami 500 million AQSH dollari miqdoridagi «O‘zbekistonda qishloq joylarda uy-joylar qurishni rivojlantirish» loyihasini ko‘p transhli molialash dasturi ma’qullandi. 2012-yilda dastlabki transh doirasida 160 million dollar ajratilgan bo‘lsa, joriy yilda ushbu mablag‘ning 200 million dollarlik ikkinchi transhi taqdim etiladi.

Fursatdan foydalanim, ushbu yuksak minbar dan turib Osiyo taraqqiyot banki va boshqa xalqaro tuzilmalar rahbariyatiga bizga mazkur strategik muhim vazifani amalga oshirishda ko‘rsatayotgan qimmatli yordami uchun chuqur minnatdorligimizni izhor etmoqchiman.

Hurmatli konferensiya qatnashchilari!

Xonimlar va janoblar!

O‘zbekistonda ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan qishloq joylarda yakka tartibdagi uy-joylarni qurish dasturini mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ulkan demokratik o‘zgarish va yangilanishlar jarayonlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi.

Bugungi kunda O‘zbekistonning biz tanlab olgan ijtimoiy yo‘naltirilgan demokratik davlat barpo etish yo‘lidan jadal ilgarilab borayotgani, puxta o‘ylangan siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar-

ning ustuvor yo‘nalishlari, tub o‘zgarishlarni tadriiy, bosqichma-bosqich joriy etish strategiyasi tanlangani va izchil amalga oshirilayotgani shunday mustahkam va ishonchli asos bo‘lib xizmat qilmoqdaki, uning negizida milliy iqtisodiyotimiz barqaror hamda jadal rivojlanmoqda, aholi daromadlari va hayot darajasi muttasil oshib bormoqda, mamlakatimizning xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tibori yuksalmoqda, deb to‘la ishonch bilan aytishimiz mumkin.

Bu borada aniq raqamlarni keltirmoqchiman.

Global moliyaviy-iqtisodiy inqirozga qaramasdan, O‘zbekiston iqtisodiyoti dunyodagi sanqli davlatlar qatori yuksak barqaror o‘sish sur’atlari erishmoqda. So‘nggi 6 yilda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining yillik o‘sish sur’atlari 8 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Davlat budgetining barqaror profitsit bilan bajarilishi, oltin-valuta zaxirasining yetarliligi ta’milanganmoqda. Tashqi qarz yalpi ichki mahsulotga nisbatan 12 foizdan oshmasdan, pastligicha qolmoqda.

Davlat budgetining ijtimoiy yo‘naltirilgani uning o‘ziga xos xususiyati bo‘lib qolmoqda. Davlat sarf-xarajatlarining qariyb 60 foizi ijtimoiy sohalarni moliyalashga, jumladan, 34 foizi

ta’lim, 15 foizdan ortig‘i sog‘liqni saqlash sohasiga yo‘naltirilmoqda.

Bank tizimi ham ishonchli va barqaror faoliyat ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda bank kapitalining yetarlilik darajasi 24 foizni tashkil qilmoqda va bu ko‘rsatkich dunyoda umumiy qabul qilingan xalqaro standartlardan 3 barobar ko‘pdir. 2012-yil yakuni bo‘yicha bank tizimining likvidligi talab etilgan eng kam darajadan 2 barobar yuqori bo‘ldi.

Har yili yangi, zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarini modernizatsiya qilish va yangilash bo‘yicha yuzlab yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimizda 2000-yildagiga nisbatan investitsiyalarning yillik o‘sishi 4 barobar oshdi va so‘nggi yillarda o‘rtacha kamida 12 milliard dollarni tashkil etmoqda. Investitsiya mablag‘larining qariyb 78 foizi – shunga alohida e’tibor berishingizni so‘rardim – ichki manbalar hisobidan shakllantirilmoqda, jumladan, investitsiyalar umumiy hajmining 21 foizini aholi omonatlari tashkil etmoqda.

2012-yilda jami investitsiyalarning 22 foizdan ortig‘i yoki 2,5 milliard dollardan ko‘prog‘ini xo-

rijiy investitsiyalar tashkil etdi. Ularning 80 foizga yaqini to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalari-
dir. Bu, o‘z navbatida, xorijlik investorlarning O‘zbekistonga, mamlakatimizda biznes uchun
yaratilgan shart-sharoitlarga ishonchi tobora ortib
borayotganidan dalolat beradi.

Aholining banklardagi omonatlari hajmi o‘tgan 2012-yilda 35 foizga, 2000-yildagiga nisbatan esa 60 barobar oshdi.

O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi tashkil etildi va ayni paytda uning kapitali 15 milliard dollarga yetdi.

Bularning barchasi O‘zbekiston o‘zi tanlagan zamonaviy demokratik va iqtisodiyoti rivojlangan davlatlar qatoriga kirish, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratib berish va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallash yo‘lidan qat’iy ishonch bilan borayotganining yana bir tasdig‘i-
dir.

Qadrli do‘sstar!

Mazkur anjuman kun tartibiga kiritilgan masalalarni to‘liq muhokama etish, ushbu serqirra muammoning barcha jihatini qamrab olish imkonini yo‘qligini barchamiz yaxshi tushunamiz.

Qishloqda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirish bo‘yicha o‘z strategiyamizni shakl-

lantirishda konferensiya qatnashchilari tomonidan boshqa mamlakatlarda bu borada to‘plangan qimmatli tajribani e’tiborga olgan holda bildiriladigan tilak va takliflarni eshitish biz uchun juda foydali va muhimdir.

Shuni alohida ta’kidlashni istardimki, O‘zbekiston barcha xalqaro tashkilotlar va moliya institlari, chet el banklari va kompaniyalari, olimlar hamda ekspertlar bilan o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni ro‘yobga chiqarish – qishloqlarimiz qiyofasini tubdan o‘zgartirish, qishloq aholisining hayot darajasi va sifatini yanada izchil oshirish, ularni rivojlangan davlatlardagi standartlarga yaqinlashtirishda hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdordir.

Muhtaram mehmonlar va xalqaro konferensiya ishtirokchilari, sizlarning timsolingizda, biz, avvalo, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va mamlakatni modernizatsiya qilish yo‘lida erishilayotgan yutuqlardan chin dildan manfaatdor bo‘lgan insonlarni ko‘rib turibmiz.

Fursatdan foydalanim, Sizlarga o‘zimning churqur hurmatim va samimiyligimni yana bir bor izhor etmoqchiman.

Konferensiyaning barcha qatnashchilariga anjuman ishi samarali bo‘lishini, aziz meh-

monlarimizning saxovatli o‘zbek zaminiga tashrifi mazmunli o‘tishini hamda barchangizga mustahkam sog‘liq va faoliyatingizda muvaffaqiyatlar tilayman.

E’tiboringiz uchun rahmat.

*«Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarni kompleks rivojlantirish va qiyofasini o‘zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili» mavzusidagi xalqaro konferensianing ochilish marosimidagi nutq,
2013-yil 17-aprel*

SOG'LOM AVLOD – MILLAT KELAJAGI

Qadrli do'stlar!

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Avvalambor, siz, azizlarni – «Sog'lom avlod uchun» xayriya jamg'armasi tashkil etilganining 20 yilligiga bag'ishlab o'tkazilayotgan xalqaro anjuman qatnashchilarini, Jamg'armaning barcha xodimlari va faollarini bugungi qutlug' sana bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Mustaqil O'zbekiston tarixida hukumatga qarashli bo'lmagan birinchi jamg'arma sifatida tashkil topgan, noyob va betakror xususiyatlari bilan ajralib turadigan ushbu ijtimoiy tuzilma o'tgan davr mobaynida, o'ta muhim va mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirishda ko'pgina yutuq va marralarga erishdi.

Ayniqsa, yurtimizda onalik va bolalikni himoya qilishdek ezgu maqsadga qaratilgan, dunyo hamjamiyati tomonidan tan olingan «Sog'lom ona – sog'lom bola» dasturini hayotga joriy etishda Jamg'armaning beqiyos o'rni va mohiyatini o'lchash va baholash qiyin.

Azal-azaldan o‘zining bolajonligi, oilaga mehri va sadoqati bilan tanilgan el-yurtimizning, xalqimizning qalbida doim saqlanib kelayotgan bunday olivjanob intilishlar mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tom ma’nodagi umummilliy harakatga aylandi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mamlakatimizda o‘tgan yillar davomida millat genofondini yaxshilash, onalar va bolalar salomatligini mustahkamlash maqsadida Toshkent shahri va barcha viloyatlar markazlarida zamonaviy perinatal va skrining markazlari bunyod etilgani, birgina 2012-yilda tibbiyot muassasalarini qurish va rekonstruksiya qilish, diagnostika va davolash uskunalari bilan jihozlash uchun 263 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ sarflanganining o‘zi, o‘ylaymanki, bu yo‘nalishdagi ishlarimizning ko‘لامи va miqyosidan dalolat beradi.

Yurtimizda shakllangan reproduktiv salomatlikni ta’minlash bo‘yicha milliy model Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan Sharqiy Yevropa, Boltiqbo‘yi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari uchun eng yaxshi mintaqaviy dastur sifatida tavsiya etilgani, hech shubhasiz, xalqaro miqyosdagi yuksak e’tirokdir.

Bunday ulkan yutuqlarni qo‘lga kiritishda ko‘plab davlat va jamoat tashkilotlari bilan birgalikda «Sog‘lom avlod uchun» jamg‘armasi ham munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Buni Jamg‘arma tomonidan 1996-yildan buyon mamlakatimizning chekka va olis tumanlarida yashayotgan 3 milliondan ziyod yurtdoshlarimizga malakali tibbiyijitimoiy patronaj yordami ko‘rsatilgani misolida yaqqol ko‘rish mumkin.

Mazkur Jamg‘arma bilan deyarli bir vaqtda ta’sis etilgan, mustaqil Vatanimizning birinchi ordeni bo‘lgan «Sog‘lom avlod uchun» ordeni bilan shu kunga qadar jami 850 dan ortiq yurtdoshimiz, jumladan, chet el fuqarolari taqdirlangani va ularning safi tobora kengayib borayotgani chuqr ramziy ma’noga ega.

Bu chiroyli nishon ko‘ksini bezab turgan insonlarni ko‘rganda, mening nazarimda, mamlakatimizning bosh maydoni bo‘lmish Mustaqillik maydonida o‘rnatilgan «Baxtiyor ona» haykali siymosida aynan ana shu ordendagi ona va bola tasviri mujassam bo‘lgandek tuyuladi.

Mana shu quvonchli ayyomda «Sog‘lom avlod uchun» ordeni sohiblarini va bugun davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlangan vurtdoshlarimizni chin qalbdan tabriklashni o‘zim uchun katta sharaf, deb bilaman.

Fursatdan foydalanib, oila, onalik va bolarlikni muhofaza qilishdek mas'uliyatli vazifani o'z zimmasiga olgan sizlar kabi fidoyi insonlarga, Jamg'armaning barcha xodimlari va faollariga, avvalo, uning joylardagi bo'limlarida, mahallalarimizda sidqidildan xizmat qilayotgan jonkuyar opa-singillarimizga hurmat-ehtirom va minnatdorlik bildirishni o'zimning burchim, deb hisoblayman.

Shular qatorida mana shunday ezgu maqsad yo'lida Jamg'arma bilan doimiy va samarali hamkorlik qilib kelayotgan yurtimizdag'i va chet ellardagi homiy tashkilotlarga, xalqaro institutlarga samimiy tashakkur izhor etaman.

Qadrli do'stlar!

Barchangizni «Sog'lom avlod uchun» xalqaro xayriya jamg'armasining 20 yilligi bilan yana bir bor tabriklab, sizlarga sihat-salomatlik, oilalarингизга tinchlik-xotirjamlik, oliyjanob faoliyattingizda yangi-yangi yutuqlar tilayman.

*«Sog'lom avlod uchun» jamg'armasi tashkil
etilganining 20 yilligiga bag'ishlangan
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
ishtirokchilariga yo'llangan tabrik,
2013-yil 24-aprel*

XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASIDAGI NUTQ

Assalomu alaykum, hurmatli deputatlar!
Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, azizlar bilan, Andijon ahli vakillari, deputatlar va faollari bilan ko'rishib, barchangizni sog' va bardam ko'rib turganimdan va shu fursatdan foydalanib, sizlarga, sizlar orqali butun viloyat xalqiga o'zimning chuqur hurmat va ehtiromimni izhor etishdan baxtiyorman.

Majlisimizning kun tartibiga o'tishdan oldin, avvalo, siz, Andijon elining hol-ahvolini so'rab, tinch-omon yurganingizdan xabardor bo'lib, barchangizga kuch-quvvat va yangi omadlar tilash menga, haqiqatan ham, katta xursandchilik yetkazadi.

Hayotimiz qanday shiddat bilan o'zgarayotganini hisobga oladigan bo'lsak, siz hurmatli yurtdoshlarim bilan qancha tez uchrashib turish, yon-atrofimizdagi ahvol, paydo bo'layotgan turli muammolar haqida fikr almashish, ularning

yechimini topish zarurati va ehtiyoji ko‘payishi tabiiydir.

Bugungi uchrashuvimizga ham shu ko‘z bilan qarab, Andijon aholisining o‘tgan davr mobaynida qo‘lga kiritgan yutuqlarini sarhisob qilish bilan birga, sizlarning ertangi kunni qanday ko‘rayotganingiz, reja va maqsadlaringiz bilan yaqindan tanishib, bir yoqadan bosh chiqarib, harakatlarimizni birlashtirib ish tutsak, ayni muddao bo‘lur edi.

Hech shubhasiz, mamlakatimiz qo‘lga kiriyotgan, jahon hamjamiyati tan olayotgan yutuq va marralarga erishish yo‘lida butun O‘zbekistonimiz qatori Andijon viloyati mehnatkashlari ham munosib hissa qo‘shayotgani, ko‘p sohalarda yetakchi o‘rnlarni egallab kelayotganini e’tirof etish, viloyat markazi, barcha shahar va qishloqlar qiyofasi tubdan o‘zgarib, tobora obod bo‘lib, xalqning hayot sifati va darajasi yuksalib borayotgani, albatta, barchamizni quvontiradi va mammuniyat yetkazadi.

Haqiqatan ham, Andijon viloyatida keyingi yillar davomida amalga oshirilgan ishlarga xolisona baho berar ekanmiz, boshqalarga namuna qilib ko‘rsatishga arziydigan yutuq va natijalar haqida ko‘p gapirish mumkin.

Keyingi yetti yil mobaynida viloyatning yalpi hududiy mahsuloti 2 barobar, sanoat 2,9 barobar, qishloq xo‘jaligi 1,6 barobar, pullik xizmatlar 2,7 barobar, qurilish ishlari 3,4 barobar oshganini qayd etish zarur.

Bu raqamlarni gapirish, albatta, oson. Lekin ularning ortida qanday mashaqqatli mehnat yotgанини, о‘ylaymankи, hammamiz yaxshi tushunamiz. Hayotga xolisona ko‘z bilan qaraydigan odam bu raqamlarni eshitib, hayratga tushishi tabiiy.

E’tiborli tomoni shundaki, bunday ijobiy o‘zgarishlarni bugungi kunda butun Andijon viloyatida, qishloqlarda ham, shaharlarda ham ko‘rish, kuzatish mumkin. Sizlarning bunday yutuqlardan g‘ururlanib, lekin ularga mahliyo bo‘lmasdan, yana yangi marralarni egallaymiz, doimo oldinga intilamiz, degan kayfiyat bilan yashayotganingizni barchamiz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz.

Shu borada bir fikrni alohida ta’kidlab aytmoqchiman: kimki bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlarni ko‘rmoqchi, ulardan to‘liq xabardor bo‘lmoqchi bo‘lsa, birinchi galda Andijonga kelsin, o‘zini andijonlik deb ataydigan odamlarning mehnati, hayoti, bugungi yutuqlari bilan yaqindan tanishsin.

Ma'lumki, ilgarigi zamonda «Biz ko'rmaganni bolalarimiz ko'rsin», degan niyat va qarash, kerak bo'lsa, armon bilan ota-bobolarimiz dunyodan yashab o'tdi. Bugun esa zamonning talabi bosh-qacha. Ya'ni farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lishi shart, degan shior hayotimizdan chuqur joy olmoqda. Shu bilan birga, bugungi yashayotgan odamlar, xalqimiz hayotdan rozi bo'lib, hech kimdan kam bo'lmasdan, erkin va farovon yashashi kerak.

Bugun odamlarimizning yurish-turishi, muomala va kiyinish madaniyati, ayniqsa, ayollarimizning o'ziga, hayotga qarashi, umuman, xalqimizning turmush darajasi keskin o'zgarib borayotganiga barchamiz guvoh bo'lmoqdamiz. Bu, hech shubhasiz, ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagi o'zgarishlarning eng muhim natijasidir.

Andijon viloyatining ishlab chiqarish sohasida yangi tarmoqlar paydo bo'lishi bilan bir qatorda, sanoat sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, texnologik yangilash, mavjud mahalliy xomashyodan samarali foydalanish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilganini ta'kidlash lozim.

Ayniqsa, xalqaro bozorda raqobatdosh, qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ish-

lab chiqaradigan zamonaviy korxonalar barpo etish masalasiga jiddiy e'tibor qaratayotganimiz o'zining hosili va natijalarini bermoqda.

Bu borada iqtisodiyotimizning lokomotivi bo'lgan, ijtimoiy hayotning ma'no-mazmunini keskin o'zgartirishga xizmat qilayotgan korxonalar, birinchi navbatda, Asaka shahridagi avtomobil zavodi faoliyati haqida har qancha gapirsak arziydi, albatta.

Bu korxonaning mamlakatimiz uchun butunlay yangi bo'lgan zamonaviy avtomobilsozlik tarmog'inining shakllanishiga poydevor qo'ygani, yuksak texnologiyalarni, ilg'or ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirishda qanday katta rol o'ynayotganini barchamiz yaxshi bilamiz.

Xususan, 2008-yildan boshlab, jahon avtomobil sanoatida yetakchi hisoblangan «Jeneral Motors» kompaniyasi bilan hamkorlikda ushbu zavodda mashhur «Shevrolet» brendi bilan avtomillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgani sanoatimiz rivojida yangi tarixiy bosqich bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ayni shu asosda ishlab chiqarilayotgan avtomillarning turi, texnologik xususiyatlari tubdan yaxshilanib, mutlaqo yangi platformalar negizida «Lasetti», «Spark», «Kobalt» kabi 8 xildagi

zamonaviy avtomobil ishlab chiqarilayotgani bu fikrni isbotlab turibdi.

Ma'lumki, bugungi kunda kooperatsiya asosida avtommobilarga butlovchi va ehtiyyot qismlar yetkazib beradigan mashinasozlik korxonalari tarmog'i yurtimizda kengayib bormoqda. Birgina Andijon viloyatining o'zida bunday korxonalar soni so'nggi yetti yilda 47 tadan 108 taga, ular tomonidan tayyorlangan mahsulot hajmi esa 1 trillion 100 milliard so'mga yetdi. Bu esa mazkur tarmoqda mehnat qilayotgan ishchi-xizmatchilar sonini 22 ming 400 kishiga yetkazish imkonini berdi.

Mazkur tarmoqning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatini inobatga olib, sohani yuksak malakali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida Asaka tumanida ixtisoslashtirilgan kasb-hunar kollejini, Andijon muhandislik-iqtisodiyot instituti negizida Andijon mashinasozlik institutini, Toshkent shahrida esa Turin politexnika universitetini tashkil etganimiz, hech shubhasiz, O'zbekistonni zamonaviy avtomobilsozlik markaziga aylantirish yo'lida salmoqli qadamlar bo'ldi.

1996-yili bu noyob va ulkan korxonani qurishga kirishganimizda yuksak texnologiyalarga

asoslangan bunday zavodni o‘zimizning odamlar boshqarishiga kim ishonardi? O‘sha paytda chet-dan turib, O‘zbekiston endi avtomobilsiz qoladi, o‘zbeklar faqat shofyor bo‘lib ishlashga yaraydi, degan turli-tuman tuhmat gaplar ham bo‘lgan edi. Bugun Asakadagi zavodning eng zamonaviy avtomobillar ishlab chiqarayotganini ko‘rib, o‘sha odamlarga, qalaysiz endi, desangiz, ular jim, lom-mim deb ovoz chiqarolmaydi.

Ana shu zavodni bugungi kunda kim boshqarmoqda, kim uni butun dunyoga mashhur qilmoqda? O‘zimizning iste’dodli bolalarimiz, Janubiy Koreyada, boshqa mamlakatlarda o‘qib, bilim va malakasini oshirgan o‘z yoshlارимиз. Bu insonlarning barchasiga ana shunday fidoyi mehnati uchun shu yuksak minbardan turib, chin qalbimdan minnatdorlik bildirishni o‘z burchim deb bilaman.

Viloyat iqtisodiyotida alohida o‘rin tutadi-gan yengil sanoat tarmog‘ida ham keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bu haqda ko‘p gapirmasdan, faqat ayrim raqamlarga e’tiboringizni qaratmoqchiman.

Agar 2006-yilda viloyatda yetishtirilgan paxta tolasini qayta ishlash hajmi 31,5 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2012-yilda bu raqam 40 foizga yetdi. Shu o‘tgan davrda qiymati 66 million dollar-

lik 19 ta yirik loyiha amalga oshirilib, 45 ming tonnadan ortiq ip-kalava, qariyb 9 ming tonna trikotaj polotno, 9 million donadan ziyod tayyor tikuv-trikotaj buyumlari ishlab chiqarish bo'yicha qo'shimcha quvvatlar, eng muhimi, 3,5 mingta yangi ish o'rni yaratildi.

2006–2012-yillarda Andijonda poyafzal ishlab chiqarish 8,6 barobar, charm-galantereya buyumlari 11 barobar, mebel mahsulotlari ishlab chiqarish 13 barobar o'sgani ham viloyat iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar samarasidir.

Viloyatda o'tgan yetti yilda 224,5 million dollarga yaqin chet el investitsiyasi, jumladan, 174 million 200 ming dollarlik to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirildi.

Hozirgi vaqtida bu yerda chet el investitsiyasi ishtirokidagi 86 ta korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Yalpi sanoat mahsulotining qariyb 79 foizi, jami eksport hajmining esa salkam 89 foizi ana shu korxonalar hissasiga to'g'ri kelmoqda. **Viloyatda eksport tarkibi ham keskin o'zgarib, qayta ishlangan va tayyor mahsulotlar ulushi 87 foizdan 95 foizga ortgani, ayniqsa, muhim ahamiyatga ega.**

Albatta, yangi yutuqlar, qo'lga kiritilgan marralar bilan birga, yo'l qo'yilgan kamchiliklar,

ishga solinmagan ko‘pgina imkoniyatlar, bar-chamizni hali-beri tashvishga solayotgan muammolar borligini hech kim inkor etolmaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, viloyat sanoatini rivojlantirishda bir qator muammolar, nomutanosiblik holatlari ko‘zga tashlanayotgani ni ochiq aytish kerak. Masalan, ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining 92 foizi Andijon, Xonobod shaharlari, Asaka, Andijon, Shahrixon tumanlarining hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Qolgan 11 ta tumanda esa bu ko‘rsatkich, afsuski, past darajada qolmoqda.

Yengil sanoat tarmog‘idagi foydalanilmayotgan imkoniyatlar haqida gapirganda, viloyatdagi yigiruv fabrikalarining 63 foiz quvvat bilan ishlayotgani, albatta, hech kimni qoniqtirmaydi.

Andijon viloyatining 2013–2015-yillarga mo‘ljallangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida belgilangan loyihalarni o‘z vaqtida bajarish masalasi alohida e’tiborni talab qiladi.

Katta hajmdagi loyihalarni amalga oshirish uchun, albatta, viloyatdagi mavjud salohiyat bilan birga, hukumatimiz, tegishli vazirlik va idoralarining kuch-imkoniyatlarini safarbar etishimiz darkor.

Jumladan, «O'zqurilishmateriallar» kompaniyasi viloyat va tuman hokimliklari bilan birgalikda qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha qiymati 25 million dollarlik 174 ta loyihani amalga oshirishi lozim.

«O'zfarmsanoat» kompaniyasi mahalliy tadbirkorlar ishtirokida yaqin ikki yilda umumiyligi 10 million dollar bo'lgan 5 ta loyihani amalga oshirishi zarur.

«O'zeltexsanoat» uyushmasi esa viloyatda maishiy texnika mahsulotlarini ishlab chiqarishga qaratilgan, umumiyligi 10 million dollarga yaqin 5 ta loyihani amalga oshirishni ta'minlashi kerak.

Shuningdek, «O'zbekenergo», «O'ztransgaz» kompaniyalari hamda tegishli tijorat banklari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarni uzlusiz energiya manbalari va moliyaviy resurslar bilan kafolatlangan tarzda ta'minlash bo'yicha zarur choralar ko'rishi darkor.

Har qaysi korxona, har qaysi hudud, qolaversa, viloyat yoki butun mamlakatimiz miqyosida bo'ladimi, ishlab chiqarish sohalarini rivojlantirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, shiddat bilan o'sib borayotgan raqobatga bardosh be-

rish va daromad olish uchun sarmoya va yana bir bor sarmoya, ya’ni investitsiya kerak.

Doimo izlanishda bo‘lib, ertangi kunimizni o‘ylab, ishchilarimizga munosib maosh to‘lash, ularning hayotini farovon qilish uchun qo‘shma korxonalar tuzish, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish, bu boradagi sun’iy to‘siq va g‘ovlarni olib tashlash eng muhim masala, desam, o‘yaymanki, bu haqiqat bugun hech kimga sir emas.

Chunki ayni shu omillar hisobidan Andijon viloyatining eng o‘tkir muammolarini yechish mumkin, odamlarimizni rozi qilishimiz mumkin.

Agarki Andijon vohasida sug‘oriladigan, haydaladigan yer tanqisligi, aholining esa juda zich yashashi eng murakkab muammolardan biri ekanini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan shunday yo‘l yakka-yu yagona to‘g‘ri, o‘zini oqlagan yo‘l ekanini hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda. Lekin, ming afsuski, ayrim tumanlar, xususan, Paxtaobod, Ulug‘nor tumanlari ana shunday yo‘lni joriy etishda, ya’ni chetdan sarmoya olib kelishda o‘zini ko‘rsata olmayapti.

Hurmatli do‘stlar!

Andijon zaminida shakllangan qadimiyl dehqonchilik maktabining shuhrati nafaqat yurtimiz-

da, balki boshqa o'lkalarda ham yaxshi ma'lum. Tobora rivojlanib, bugungi kunda qishloqda hal qiluvchi kuchga aylanib borayotgan fermerlik harakati aynan Andijon zaminida toblanib, yangi tajriba va kuch topayotgani hech kimga sir emas.

O'z ishining chinakam fidoyisi va ustasi bo'lgan andijonlik dehqon va fermerlar o'tgan yili birinchilar qatori shartnoma majburiyatlarini bajarib, 293 ming tonna paxta, 508 ming tonna boshoqli don yetishtirib bergani har qanday tasanolarga arziydi.

Viloyatda keyingi olti yilda sabzavot yetishtirish hajmi 1,9 barobar, kartoshka – 2,2 barobar, poliz mahsulotlari – 3,5 barobar, meva – 1,8 barobar, uzum – 2,2 barobar ortib, ularni qayta ishlash hajmi o'sayotgani aynan fermerlarimiz va dehqonlarimizning ishga yondashuvi o'zgarib, o'z yeri, o'z mulkiga egalik hissiyoti kuchayib bora-yotganining natijasidir.

Chorvachilikni oladigan bo'lsak, so'nggi olti yilda qoramollar soni 1,6 barobar, parranda – 2,2 barobar, go'sht va sut yetishtirish – 1,5 barobar, tuxum yetishtirish – 1,8 barobar ko'payganini ko'rish mumkin.

Bularning barchasi nafaqat viloyat, balki mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulot-

lariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bilan birga, bozorlarimizdagi serobchilik va arzonchilikni ta’minlashda muhim rol o‘ynamoqda.

Bugun men, mana shu yuksak minbardan turib, viloyatning mirishkor dehqon va fermerlariga ana shunday fidokorona mehnatlari uchun chuqur minnatdorlik bildirishni o‘zimning burchim, deb bilaman.

Tabiiyki, bunday yutuqlar tufayli fermerlarining daromadiga daromad qo‘shilmoqda, eng asosiysi, ularning o‘rtalik – mulkdorlar sinfi sifatida mavqeyi oshib, qishloqda, haqiqatan ham, hal qiluvchi kuchga aylanmoqda.

Bu yutuqlar, birinchi navbatda, yurtdoshlarimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi tubdan o‘zgarib borayotganidan dalolat beradi. Bu odamlar endi 1990-yildagi kishilar emas. Men yurtimizda ham, chet ellarda ham bir fikrni ko‘p aytaman: biz erishgan yutuqlarni, ertangi kunimizning qanday yorug‘ bo‘lishini bilmoqchi bo‘lsangiz, avvalo, litsey va kollejlarimizga borib, yoshlarimiz bilan uchrashing, ularning yonib turgan ko‘zlariga qarang, shunda siz ko‘p narsani tushunib yetasiz, deyman va bu so‘zlarda chindan ham katta haqiqat bor.

O‘ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz, yerni asrab-avaylash, u bilan tillashib yashash

kerak. «Sen yerni boqsang – yer seni boqadi» degan chuqur ma’noli ibora, mening nazarimda, aynan o‘zbek zaminida paydo bo‘lgandek tuyuladi.

Tabiiyki, qishloq xo‘jaligida yuksak marralar ni qo‘lga kiritishda avvalambor yuqori hosildorlikka erishishning garovi – yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha amalga oshirayotgan keng ko‘lamli ishlarimiz poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.

Bu haqda so‘z yuritganda, **2008–2012-yillarda** viloyatda 6000 kilometrga yaqin ochiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 225 kilometrlik yopiq gorizontal drenaj tarmoqlari, Ulug‘nor meliorativ nasos stansiyasi, 180 ta melioratsiya inshooti, 365 ta drenaj quduq hamda boshqa obyektlarda qurilish va rekonstruksiya ishlari amalga oshirilganini aytish lozim.

Shu davrda viloyat bo‘yicha salkam 55 milliard so‘m mablag‘ sarflanib, 120 ming hektar sug‘oriladigan yerning meliorativ holati yaxshilangani natijasida **g‘alla hosildorligi o‘rtacha 6–8 sentnerga, paxta hosildorligi 4–5 sentnerga oshgani bu boradagi ishlarimizning eng muhim samarasi, desam, o‘ylaymanki, sizlar ham bu fikrga qo‘shilasiz.**

Viloyatda qishloq xo‘jaligi texnikasi parkini yangilash masalasiga ham alohida e’tibor berilmoxda. Shu maqsadda oxirgi yetti yilda qariyb 53 milliard so‘mlik 2 ming 300 dan ortiq zamonaviy texnika vositalari sotib olingani ham buni tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, bu yo‘nalishda hali ko‘p ish qilishimiz zarurligi, ayniqsa, bog‘ va tokzorlar orasiga ishlov beradigan maxsus texnikalarni sotib olishga e’tibor qaratish, mavjud texnika parkini har yili kamida 10 foizga yangilab borish lozimligini qayd etish joiz.

Ma’lumki, 2011-yilda Asaka tumani to‘liq meva-sabzavot yetishtirishga ixtisoslashtirildi. Buning natijasida, avvalo, tumanda yetishtiriladigan meva-sabzavot mahsulotlari hajmini 45–50 foizga oshirish, bozorlarda narx-navoning barqaror bo‘lishiga, dehqonchilikda daromad ancha ko‘payishiga erishildi.

Yangi imkoniyatlarni inobatga olgan holda, Respublika oziq-ovqat korxonalari uyushmasi tomonidan kelgusi uch yilda viloyatda meva-sabzavotni qayta ishlaydigan 27 ta, go‘sht va sut mahsulotlarini qayta ishlaydigan 48 ta, shuningdek, boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ish-

laydigan 140 ta korxona yangitdan tashkil qilinishi mo‘ljallanmoqda.

Qadrli yurtdoshlar!

Andijon xalqining izlanuvchanligi, yangilikka intilib yashashi, tashabbuskorligi – ana shunday fazilatlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirishda o‘z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunda Andijon viloyatida mazkur yo‘nalishda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 22 ming 200 tani tashkil etayotgani va ayni shu sohada aholining 80 foizdan ortig‘i band bo‘lganining o‘zi ko‘p narsadan dalolat beradi.

Agarki Andijon xalqining 80 foizi tadbirkorlik hisobidan yashayotgan bo‘lsa, qani, aytinglar, bu sohaga odamlarni jalg etish uchun yana qanday da’vat bo‘lishi mumkin? Erishilgan mana shunday marrani mahkam ushlashimiz kerak. Takror aytaman, kichik biznes va tadbirkorlik yo‘lida mavjud bo‘lgan har qanday sun’iy to‘sinqi olib tashlash lozim. Huquq-tartibot idoralari xodimlari, vazirlar va hokimlar buni chuqur tushunib olishi shart.

O‘zingiz o‘ylang, tadbirkor o‘z kuchi, o‘z sarmoyasi hisobidan o‘z ishini tashkil qiladi va shu

orgali daromad topadi. Bizning ishimizga xalaqit bermasangiz, o‘z oilamizni ham, el-yurtni ham boqishga hissa qo‘shamiz, deb mehnat qiladi. Bunday odamlarni faqat qo‘llab-quvvatlash, faqat yordam berish kerak.

Tadbirkorlik azal-azaldan xalqimizning qonda bor. Eng zo‘r hunarmandlar, savdogarlar, ustalar bizning yurtimizda bo‘lgan. Buyuk bobomiz Amir Temur o‘z davrida bu borada shunday tartib o‘rnatgan ediki, uning «Tuzuklar» asarida yozilishicha, agar sultanatning u chekkasidan bu chekkasiga yosh bola bir lagan tilloni boshiga qo‘yib boradigan bo‘lsa, unga hech kim daxl qilmas ekan.

Bu bilan ulug‘ ajdodimiz, o‘zi ishlamasdan, boshqalarning hisobidan kun ko‘radigan har xil qaroqchi va zo‘ravonlarning adabini berdim, butun mamlakatdaadolat o‘rnatdim, deb ta’kidlayotganini tushunish qiyin emas, deb o‘ylayman.

Men bir paytlar ertangi kuniimizni, kelajakni o‘ylab, fermerlik harakatiga o‘tganimizda, fermerlarga qarata, hech narsadan qo‘rqmasdan, oldinga bosaveringlar, ortingizda Prezident turibdi, deb aytgan edim. Bugun esa barcha tadbirkorlarga qarata aytmoqchiman: dadil qadam bosaveringlar, ortingizda Prezident turibdi.

Viloyatdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining zamonaviy ishlab chiqarish sohalariga, xususan, avtomobilsozlik va avtomobillarga xizmat ko'rsatish tarmog'iga keng jalb etilayotgani, umuman, zamonaviy servis sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilayotgani aholimizni ish bilan ta'minlashda, odamlarning daromadini oshirishda muhim o'rin tutmoqda.

Andijon viloyatida 2007–2012-yillarda, ya'ni oxirgi olti yilda xizmatlar hajmi 2,6 barobar ortib, mazkur sohada qariyb 160 mingta ish o'rni yaratilgani bu yo'nalishda ko'p ish qilinayotganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, mobil aloqa tarmog'ini kengaytirish, 160 kilometrdan ziyod optik tolali aloqa liniyasi ni barpo etish, 44 ta «Internet-kafe» tashkil qilish, avtomat telefon stansiyalarini yuz foiz raqamli tizimga o'tkazish bo'yicha amalga oshirilgan investitsiya dasturlari mobil aloqa abonentlari sonini 4,6 barobar, internetdan foydalanuvchilar sonini 7,8 barobar oshirish imkonini berdi. Buning natijasida aloqa va axborot xizmatlari hajmi 3,7 barobar o'sdi.

Ana shunday o'zgarishlar tufayli yalpi hududiy mahsulot tarkibida jami xizmatlarning ulushi

ortib, 2006-yildagi 31,5 foizdan 2012-yilda 45,5 foizga yetganini, albatta, ijobiy baholash lozim.

Hurmatli deputatlar!

Andijon viloyatida qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida uy-joylar qurish dasturining ijrosi alohida e'tiborga loyiq.

Men 2011-yilning kuzida Andijon tumanining O'rikzor massivida barpo etilgan ana shunday yangi hovli-joylarning egalari bilan uchrashganimda, ularning yuz-ko'zidagi xursandchilikni ko'rib, bu imoratlar, haqiqatan ham, xalqimiz orzu qilgan, uning ko'nglidagi uylar ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilgan edim.

O'tgan to'rt yil mobaynida Andijon viloyatida 89 ta mavzeda 2 ming 115 ta namunaviy uy-joy barpo etilib, ko'plab oilalar shahar sharoitidan aslo kam bo'limgan qulay uylarga ko'chib kirdi. Ana shu massivlarda qariyb 100 kilometrlik suv tarmog'i, 61 kilometr elektr tarmog'i, 76 kilometr tabiiy gaz tarmog'i, 56 kilometr ichki yo'llar va boshqa infratuzilma obyektlari barpo etilganini ta'kidlash lozim.

Sizlarga ma'lumki, shu yil 16–17-aprel kunlari Toshkent shahrida katta bir xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu anjumanda O'zbekistonda qishloq aholisi uchun zamonaviy uy-joylar qurish

tajribasi va erishilgan natijalarni o‘rganish uchun dunyoning 60 dan ortiq mamlakatidan, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valuta jamg‘armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom taraqqiyot banki, ASEAN, UNESKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar, moliya institutlaridan vakillar, uy-joy qurilishi sohasidagi yirik kompaniyalar rahbarlari va yetakchi mutaxassislar, jami 300 dan ziyod chet ellik mehmon ishtirok etdi.

Anjuman qatnashchilari yurtimizning bir qancha viloyat va tumanlarida bo‘lib, qishloq ahli uchun bunyod etilgan uylar bilan yaqindan tanishdilar, odamlarimiz bilan suhbatlashib, ularning hayotga qarashi, madaniy saviyasi, ertangi kunga ishonchi ortib borayotganiga yuksak baho berdilari. O‘zbekistonning qanday buyuk salohiyatga ega bo‘layotganiga, erkin va farovon hayot qurishdek ezgu maqsad yo‘lidan qat’iyat bilan bora-yotganiga, eng muhimmi, biz 22 yil oldin tanlagan taraqqiyot yo‘limiz to‘g‘ri ekaniga iqror bo‘ldilar.

Aziz do‘sstar!

Andijon viloyatida boshqa muhim ijtimoiy das-turlarni hayotga joriy qilish bo‘yicha ham salmoqli natijalarga erishilmoqda. Bu haqda gapirganda, keyingi yillarda aholini markazlashtirilgan tarmoqlar

orgali ichimlik suvi bilan ta'minlash 89,7 foizni, tabiiy gaz bilan ta'minlash esa 75,3 foizni tashkil etganini qayd etish lozim.

Bu boradagi ishlarimizni davom ettirgan hol-da, kelgusi uch yilda ichimlik va oqova suv ti-zimini kompleks rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi asosida viloyatda 150 kilometr ma-gistral suv tarmog'i barpo etiladi, 183 kilometrlik tarmoq esa rekonstruksiya qilinadi. Bu ishlarni amalga oshirish uchun davlat budgetidan 45 mil-liard so'mdan ziyod mablag' ajratish ko'zda tu-tilgan. Natijada viloyatdagi 230 dan ortiq qish-loqda ichimlik suvi ta'minotini yanada yaxshilab, bu boradagi ko'rsatkichni 92,3 foizga yetkazish mo'ljallanmoqda.

Aholiga transport xizmatini ko'rsatish mas-la-sini oladigan bo'lsak, viloyat bo'yicha 2006 – 2012-yillarda 490 tadan ortiq yangi avtobus sotib olinganini aytish lozim.

Yaqin kelgusida viloyatga yana 400 ta avto-bus olib kelish va shu assosda qishloq joylarda, ayniqsa, uzoq va chekka hududlarda yashaydigan aholiga transport xizmati ko'rsatishni yaxshilash rejalashtirilmoqda.

Xalqimizning turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan bunday ishlar haqida gapir-

ganda, sizlarning e'tiboringizni yana bir muhim strategik loyihaga qaratmoqchiman. Ushbu yirik loyihaga binoan, qiymati 1 milliard dollar, quv-vati 900 megavolt bo'lgan To'raqo'rg'on issiqlik elektr stansiyasi barpo etiladi.

Bu ulkan inshootning ishgaga tushirilishi Farg'ona, Namangan, Andijon viloyatlarining elektr energiyasiga bo'lgan bugungi ehtiyojin'i to'liq ta'minlash imkonini beribgina qolmasdan, bu hududlarning istiqboldagi rivojida qanday katta o'rinn tutishini, o'ylaymanki, hammamiz yaxshi tushunamiz.

Biz uchun suvdek, havodek zarur bo'lgan yana bir muhim tarmoq – transport-kommunikatsiya sohasini rivojlantirish bo'yicha ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Bu borada Qamchiq dovoni orqali o'tadigan avtomobil yo'lini kengaytirish va rekonstruksiya qilish uchun keyingi 5 yilda qariyb 630 milliard so'm, jumladan, yo'l texnikasi xarid qilishga 8 milliard so'm yo'naltirilganini ta'kidlash lozim. Bu esa Farg'ona vodiysi, jumladan, Andijon viloyatiga va bu yerdan mamlakatimizning boshqa mintaqalariga yuk va yo'lovchi tashish hajmi va sifatini yanada oshirish imkonini bermoqda.

Shu borada biz ko'pdan buyon o'ylab yurgan, bugungi kunga kelib ro'yobga chiqarish imkonini

paydo bo‘lgan yana bir muhim rejamiz haqida sizlarga axborot bermoqchiman. U ham bo‘lsa, Angren – Pop yo‘nalishida umumiy uzunligi qariyb 125 kilometr bo‘lgan elektrlashtirilgan temiryo‘l qurish loyihasini amalga oshirmoqchimiz.

Ma’lumki, Farg‘ona vodiysi mamlakatimizning temiryo‘l tarmoqlariga ulanish nuqtayi nazaridan O‘zbekistonning boshqa hududlaridan ajralib qolgan. Hozirgi kunda temiryo‘l orqali vodiyga borish uchun qayerdan o‘tishga to‘g‘ri keliшини sizlar yaxshi bilasiz.

Bugungi kunda Farg‘ona vodiyisida 10 milliondan ortiq aholi yashaydi. «Oltin vodiy» deb nom olgan bu mintaqani O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan temiryo‘l orqali bog‘lash masalasini e’tibordan chetda qoldirishga bizning haqqimiz yo‘q.

Ta’kidlash kerakki, aynan shu loyihaning joriy etilishi Farg‘ona vodiysi viloyatlarini mamlakatimiz temiryo‘llari tizimi bilan ishonchli asosda bevosita bog‘lash imkonini yaratadi. Shu tariqa biz butun O‘zbekistonning hudud va mintaqalarini qamrab oladigan yagona milliy temiryo‘l tarmog‘ini barpo etishga erishamiz. Hech shubhasiz, bu nafaqat iqtisodiy-ijtimoiy, kerak bo‘lsa, siyosiy ahamiyatga molik strategik loyihadir.

Bir paytlar O‘zbekistonning elektr, tabiiy gaz tarmoqlari, avtomobil yo‘llari boshqa davlatlarning hududi orqali o‘tardi. Keyingi o‘n yil ichida biz bu borada juda katta ishlarni amalga oshirish hisobidan ushbu kommunikatsiyalarning barchasini o‘z mamlakatimiz hududidan o‘tkazishga erishdik. 2014–2015-yillarda temiryo‘l masalasida ham bu ishni albatta oxiriga yetkazamiz. Nasib etsa, 2016-yilda mana shu temiryo‘l qurib bitkazilishi bilan vodiyga, jumladan, Andijonga poyezd bilan bemalol qatnash imkoniga ega bo‘lamiz.

Qadrli yurtdoshlar!

Ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar haqida so‘z yuritganda, avvalo, yosh avlodimizning sog‘lom va barkamol bo‘lib voyaga yetishida beqiyos o‘rin tutadigan ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan katta ishlar haqida gapirishimiz tabiiydir.

Viloyatda 2006–2012-yillarda 53 ta litsey va kollej, 159 ta umumta’lim maktabi, 17 ta musiqa va san’at maktabi qurilgani va rekonstruksiya qilingani bu boradagi dasturlarimiz izchillik bilan bajarilayotganidan dalolat beradi. Joriy yilda yana 6 ta maktab, 3 ta kasb-hunar kolleji va akademik litsey, 2 ta oliy o‘quv yurti rekonstruksiya qilinadi, 12 ta maktab va 6 ta kasb-hunar kolleji kapital ta’mirlanadi, Andijon

tibbiyot institutining axborot-resurs markazi barpo etiladi.

Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar ham viloyatda o‘zining ijobiy samarasini bermoqda. Buning tasdig‘ini shu o‘tgan davrda har smenada 3 ming nafardan ortiq kishiga xizmat ko‘rsatadigan poliklinika muassasalari, 930 o‘ringa ega bo‘lgan shifo maskanlari foydalanishga topshirilgani misolida ko‘rish mumkin.

2013-yilda yana 9 ta tibbiyot muassasasini, jumladan, viloyat onkologiya dispanseri, bolalar ko‘p tarmoqli tibbiyot markazi va bolalar sанatoriysi rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Bu maqsadlar uchun 54 milliard 900 million so‘m mablag‘ sarflash ko‘zda tutilmoqda.

Aholi salomatligini mustahkamlashning muhim omili bo‘lgan sport sohasida ham yuqori natijalar qo‘lga kiritilmoqda. Ayniqsa, viloyat yoshlarining mamlakatimiz va jahon miqyosidagi musobaqalarda yuqori o‘rinlarni egallab kelayotgani barchamizga g‘urur-iftixon bag‘ishlaydi.

Haqiqatan ham, 2006–2012-yillarda nufuzli xalqaro musobaqalarda Andijon yoshlari orasidan 107 nafar o‘quvchi, jumladan, 57 nafar qiz bola ishtirok etib, ularning 72 nafari sovrinli o‘rinlarni

qo‘lga kiritgani, albatta, hammamizni xursand qiladi.

Hozirgi kunda eng dolzarb ahamiyatga ega bo‘lgan aholini ish bilan ta’minlash masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, viloyatda 2006–2012-yillarda, ya’ni oxirgi yetti yilda yarim millionga yaqin ish o‘rni yaratilgani va buning qariyb 70 foizi qishloq joylarda tashkil etilganini katta yutug‘imiz sifatida qabul qilishimiz kerak.

Ayni vaqtida bu borada hali ko‘p ish qilishimiz zarurligini, o‘ylaymanki, barchamiz to‘g‘ri tushunamiz. Xususan, **joriy yilda tasdiqlangan das-turga ko‘ra, viloyat bo‘yicha qariyb 80 mingta yangi ish o‘rni tashkil etish nazarda tutilmoqda.** Bu borada barcha darajadagi rahbarlar uchun 53 ming 200 nafar kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarini ishga joylashtirish kun tartibidagi eng asosiy vazifa bo‘lib turganini alohida uqtirib o‘tmoqchiman.

Bu vazifani bir yoqadan bosh chiqarib, albatta, bajarish barcha-barchamizning eng oliyjanob burchimizdir.

So‘nggi 6 yil davomida viloyatda aholi daromadlari sezilarli darajada o‘sib, avvalo, shuning hisobidan xalqimizning hayot darjasini va

sifati oshib borayotganini biz yuqori baholaymiz.

Xalqimiz daromadlarining asosiy qismi, ya’ni 54 foizga yaqini tadbirkorlik hisobidan izchil oshib borayotganini alohida ta’kidlash zarur.

Bu shaxsan men uchun juda katta ahamiyatga ega bo’lgan ko’rsatkich. Bu raqam, avvalambor, Andijon ahlining o‘z mehnati, o‘z tadbirkorlik faoliyati, o‘z biznesi hisobidan o‘zini va oilasini boqayotganining yaqqol dalili, takror aytaman, bizning eng katta yutug‘imizdir.

Aholimizning farovonligi oshib borayotganini viloyatda xonadonlarning televizor, xolodilnik, mebel bilan ta’milnish ko’rsatkichlari mamlakatimizdagi o‘rtacha ko’rsatkichdan yuqori ekanini, avtomobilarga ega bo’lgan xonadonlar soni so‘nggi 6 yilda har 100 ta oilaga nisbatan olganda, 19 tadan 30 taga yetgani ham isbotlaydi.

Esingizda bo’lsa, sovet davrida odamlar mashina olish uchun o’n yillab navbatda turar edi. Menga qolsa, har yuzta oilaga yuzta avtomobil to‘g‘ri kelsayam, yomon bo‘lmas edi.

Hayotimizning ma’no-mazmunini o‘zgartirib borayotgan bunday yutuqlar haqida gap ketganda, men birinchi navbatda ayollarga munosib tur-

mush sharoiti yaratib berish to‘g‘risida gapishtidan hech charchamayman. Shaxsan men har yuzta xonadonda yuzta kir yuvish mashinasi bo‘lishini istardim.

Shu o‘rinda erkaklarga murojaat qilib aytmoq-chiman: ayollarga ko‘proq hurmat ko‘rsatish, ularga ko‘proq e’tibor berish, og‘irini yengil qilish biz, erkak zotining eng asosiy vazifasi, burchi bo‘lishi lozim. Nega deganda, ayol baxtli bo‘lsa, oila baxtli, oila baxtli bo‘lsa, butun jamiyat baxtlidir.

Andijon viloyatida keyingi yillarda amalga oshirilgan o‘zgarishlar, qo‘lga kiritilgan yutuqlar haqida gapirganda, keng ko‘lamli qurilish va obo-donlashtirish ishlari haqida alohida so‘z yuritish o‘rinlidir. Bu ishlarning yorqin namunasini viloyatning barcha shahar va qishloqlarida, ayniqsa, Andijon shahri misolida yaqqol ko‘rish, kuzatish mumkin.

Hozirgi vaqtida yurtimizning turli hududlaridan bu yerga ko‘plab mutaxassislar, me’mor va muhandislar kelib, sizlarning tajribangizni o‘rganayotgani ko‘pchilikka yaxshi ma’lum.

Ana shu ishlarni izchil davom ettirish maqsadida 2011–2015-yillarda Andijon viloyatining shahar va tumanlarida yakka tartibda uy-joy mas-

sivlarini qurish, kommunal infratuzilma tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ko‘zda tutadigan das tur qabul qilingan edi. Fursatdan foydalanib, ana shu dasturning dastlabki natijalari haqida qisqa cha to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Ikki yil davomida viloyatda 372 kilometrlik ichimlik suvi, 2 kilometrlik kanalizatsiya, 211 kilometrlik tabiiy gaz tarmog‘i tortildi va rekonstruksiya qilindi. 195 kilometrlik elektr tarmog‘i yangilandi, 121 ta transformator o‘rnatildi, 46 kilometrlik ko‘chalarda chiroqlar yangilanib, 2 ming 650 ta xonadonga telefon o‘rnatildi.

Asaka tumanidagi Shinam, Karvonsaroy, Umid, Imom Buxoriy ko‘chalari ta’mirlanib, elektr, tabiiy gaz va ichimlik suvi ta’minoti tar moqlari yangilandi. Xo‘jaobod, Oltinko‘l tumanlari markaziy ko‘chalarini namunaviy ko‘chalarga aylantirish maqsadida yo‘l bo‘yida zamonaviy uyojlar qurildi, ko‘chalarni yoritish tizimi va elektr tarmoqlari yangilanib, tabiiy gaz quvurlarining yer ostidan o‘tkazilishi natijasida ushbu maskan larning qiyofasi tanib bo‘lmas darajada o‘zgarib ketdi.

Hozirgi vaqtda Paxtaobod, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa, Andijon tumanlarining markaziy

ko‘chalarida ana shunday ishlar nihoyasiga yet-kazilmoqda va bunday ijobiy tajribalar boshqa hududlarda ham qo‘llanmoqda.

Amalga oshirilgan ana shunday keng ko‘lamli qurilish-obodonlashtirish ishlari tufayli 250 mingdan ziyod aholining elektr ta’minoti, 80 mingga yaqin aholining tabiiy gaz ta’minoti yax-shilangani, 35 kilometrdan ortiq magistral va 380 kilometrlik ichki avtomobil yo‘llari ta’mirlangani «Obod turmush yili» deb nom olgan joriy yilda biz belgilab olgan maqsad va vazifalarga hamo-hangligi bilan, ayniqsa, e’tiborlidir.

Hech ikkilanmasdan aytish kerak: Andijon viloyatining markazi, shahar va turarjoylarning ko‘rinishini butunlay o‘zgartirish, go‘zal va o‘ziga xos maydonlar, ko‘cha va uylarga barchaning havasini tortadigan yangi qiyofa berish, obod va betakror o‘lkaga aylantirish – bunday oliyanob va ulkan ishlarga qo‘l urgan barcha-barcha Andijon ahliga har qancha tasannolar aytsak, arziydi, al-batta.

Ko‘p yillar, balki yuz yillar o‘tar, lekin siz, azizlarning amalga oshirgan ishlaringiz abadiy saqlanib qolur.

Bir naql bor – katta, ulkan ishlarni uzoqdan ko‘rish mumkin. Shu ma’noda, bunday oliyanob

ishlarning ahamiyati uzoqdan qaraganda, baho berganda, ayniqsa, yaqqol ayon bo‘ladi.

Nima uchun bunday ishlar abadiy saqlanib qoladi? Chunki bu ishlar zamiridagi fidoyilik, o‘z yurtiga mehr va sadoqat tuyg‘usi hech qachon zavol bilmaydi. Andijon ahli bunday ishlari bilan, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘ziga haykal qo‘ydi. Bu – balandparvoz gap emas, ayni haqiqat va bu bilan g‘ururlansak arziydi. Hayotda g‘urur-iftixor bilan, shukronalik bilan yashaydigan odamning umri uzoq bo‘ladi.

Mening tilagim, istagim shuki, mana shunday obod shahar va qishloqlar, ko‘p-ko‘p sohalarda erishayotgan yutuqlar Andijon ahliga buyursin!

Hurmatli sessiya qatnashchilari!

Endi kun tartibiga kiritilgan tashkiliy masalani muhokama qilishga o‘tsak.

Bugungi majlisimizning asosiy maqsadi Andijon viloyatining hokimi vazifasida ishlab kelgan Ahmad Usmonovning Toshkent viloyati hokimi etib saylangani munosabati bilan Andijon viloyati hokimi lavozimiga yangi nomzodni saylab-tasdiqlab olishdan iborat.

Sizlarga yaxshi ma’lumki, O‘zbekistonimizning barcha hudud va mintaqalarini mutanosib va izchil rivojlantirish ustuvor vazifamizdir.

Bu haqda gapirganda, ulkan salohiyatga ega bo‘lgan, mamlakatimizda yetakchi o‘rin tutadi-gan Toshkent viloyatini boshqarish, uning ko‘p tarmoqli iqtisodiyotini barqaror sur’atlar bilan rivojlantirish, aholining hayot darajasini yuksaltirish – bunday vazifalarni uddalash g‘oyat og‘ir va mas’uliyatli ish ekanini yana bir bor ta’kidlash o‘rinlidir.

Toshkent viloyatida keyingi paytda o‘tkir muammolarning yechimi topilmasdan, ko‘pgina masalalarda oqsoqlikka yo‘l qo‘yilgani, birinchi rahbarda tashkilotchilik, yetakchilik qobiliyatları yetishmagani sababli uni ishdan ozod qilishga to‘g‘ri keldi.

Mana shu mas’uliyatli lavozimga, ya’ni Toshkent viloyatini boshqarishga Andijon viloyatida yetti yil davomida hokim bo‘lib ishlagan, el-yurtga bosh-qosh bo‘lib, viloyat erishgan yutuq va marralarga munosib hissa qo‘sghan Ahmad Usmonov nomzodi ma’qul deb topildi.

Ayni paytda Ahmad Usmonovga bildirilgan ishonch siz, Andijon eliga bildirilgan ishonch va hurmat belgisi, ifodasi, desam, siz, azizlar meni tushunasizlar, deb o‘ylayman.

Andijon ahli o‘z yurtiga bo‘lgan mehri va sa-doqatini, g‘urur va iftixorini, or-nomusini yuksak

qadrlab, o‘z kuchi va qudratiga ishonib yashaydigan xalq.

Bunday olivjanob fazilatlarga ega el-yurtni boshqaradigan, uning erishgan marralari, o‘sish sur’atlarini pasaytirmsandan, aholining boshini qovushtirib, yangi maqsad va ufqlarga safarbar eta oladigan yangi rahbar saylash bugungi majlisimiz kun tartibiga qo‘yilgan.

Keng va yuqori salohiyatga ega bo‘lgan, ham insoniylik, ham tashkilotchilik, ham talabchanlik nuqtayi nazaridan el-yurtning dard-u tashvishi bilan yashaydigan, odamlarning harakatiga harakat, intilishiga intilish, ishonchiga ishonch qo‘sib, yurtni yanada obod, xalqning hayot darajasi va sifatini oshirishga qurbi yetadigan rahbarni topish – o‘zingiz tushunasiz – bu og‘ir vazifa.

Shuni aytmoqchimanki, ko‘p joylarda yangi rahbarni lavozimga tavsiya etar ekanmiz, odamlar, avvalo, Prezident bildirgan taklifga ishonch bilan qaraydi. Men bu ishonchni yuksak qadrlayman va ayni vaqtda uning zamiridagi katta mas’uliyatni ham chuqur his qilaman.

Bugun Andijon viloyatida 2 million 700 mingdan ortiq aholi yashaydi. Ana shunday ulkan viloyat ahlining hayotiga, hududni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish, uning muammolarini hal

qilishga doimo jiddiy qarashimiz kerak. Bir paytlar shunga yetarli e'tibor bermaganimiz biz uchun katta saboq bo'ldi. Men kimnidir ayblamoqchi emasman, lekin bunday masalalarga, takror aytaman, beparvo bo'lishga haqqimiz yo'q. Binobarin, viloyatga yangi rahbar tanlashda ko'p va uzoq o'ylashga, jamoatchilik bilan kengashishga to'g'ri keldi. Ba'zan o'z joyida tappa-tuzuk ishlab turgan rahbar yangi joyda o'zini ko'rsatolmasligi, oqibatda o'ziga ham, umumiy ishga ham zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun bu masalada yetti o'lchab, bir kesish kerak.

Shularning barchasini inobatga olib, Andijon viloyati faollari va deputatlari, oqsoqollar bilan ko'p maslahatlashdik, ochiqchasiga gaplashib oldik. Bildirilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, hozirgi vaqtda Andijon viloyati hokimi vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi lavozimida ishlab kelayotgan Shuhratbek Abdurahmonov nomzodini Andijon viloyati hokimi vazifasiga tavsiya etishga qaror qildik.

Bu nomzodning tarjimayi holi haqida gapi-radigan bo'lsak, u 1969-yilda tug'ilgan. Andijon paxtachilik institutini 1992-yilda agronom mutaxassisligi bo'yicha bitirgan. Ko'p yillar Paxta-

obod tumani hokimi, viloyat hokimining muovini lavozimlarida ishlab, yetarli tajriba orttirgan. Eng muhimi, u Andijon viloyatining sharoiti, viloyat ahlining tabiat, orzu-intilishlari, tashvish va muammolarini yaxshi biladi, shu tuproqning tuzini ichib ulg‘aygan.

Odamning kimligini bilmoqchi bo‘lsang, unga amal berib ko‘r, degan gap bejiz aytilmagan. Haqiqatan ham, el-yurt har qanday rahbarni u amalga o‘tirgan paytdan boshlab sinaydi va unga baho beradi.

Aytish kerakki, Sh. Abdurahmonov oddiy brigada boshlig‘i lavozimidan shu darajaga ko‘tarilgan. Paxtaobod tumanida ko‘p yillar xizmat qilgan. Zarur paytda, masalan, ana shu tumannda fermerlikni joriy etishda o‘zini prinsipial jihatdan ko‘rsatgan.

Biz bugun yurtimizda yangi davlat, yangi jamiyat qurmoqdamiz. Shu nuqtayi nazardan qaraqanda, viloyatning yangi rahbari erishilgan marralarni yanada mustahkamlab, o‘sish sur’atlarini tezlashtirishga intilishi lozim. Yangi rahbarning kelishi bilan el-yurt qandaydir o‘zgarishlar bo‘ladi, deb kutadi. Agarki hech qanday o‘zgarish sezilmasa, odamlarning rahbarga bo‘lgan ishonchi yo‘qoladi.

Bu o'rinda rahbarning faqat va'da berishi emas, avvalo, Andijon ahliga, viloyatning deputat va faollariga, keng jamoatchilikka tayanib, ishni qanday tashkil etish, qanday reja va dasturlarni amalga oshirish borasidagi fikrlari muhimdir.

Viloyat hokimi, avvalo, unga ishonch bildirgan xalq oldida, uning vakillari bo'lmish deputatlar oldida o'z vaqtida hisob berib turishi kerak.

Qadrli va muhtaram yurtdoshlar!

Bugun siz, azizlar bilan birga keyingi davrda amalga oshirgan ishlarimizga yakun yasab, erishgan yutuqlarimizga baho berdik, yo'l qo'yilgan kamchilik va muammolar, oldimizda turgan vazifalar haqida ham fikr almashib oldik. Eng asosiysi, bugun Andijon viloyatida hukm surayotgan tinchlik-osoyishtalik, bag'rikenglik va ahillik muhitini ko'z qorachig'idek asrash, mustahkamlash bo'yicha siz, aziz deputat va faollarning fikrlarini tingladik, ertangi kuni-mizning rejalarini aniqlab oldik.

Shu o'rinda yuragimda, qalbimda bo'lgan bir fikrni aytishni istardim: men uchun doimo yaqin va qadrdon bo'lgan Andijon ahli erishgan barcha yutuqlarni men hamisha go'yoki o'zimning yutuqlarim, deb qabul qilaman va bu bilan faxrlanaman.

Ishonchim komil, hamisha zamon bilan ham-nafas bo‘lib, o‘zining mustahkam irodasi, yaratuv-chilik salohiyati, ona yurtga ulkan mehri va sa-doqatini namoyon etib kelayotgan Andijon xalqi yangi rahbar atrofida birlashib, u bilan bamasla-hat ish olib borib, Vatanimiz ravnaqi yo‘lida bar-cha kuch va imkoniyatlarini safarbar etadi.

Aziz do‘sstar, yana bir bor sizlarga o‘zimning samimiyl hurmatimni izhor etib, barchangizga si-hat-salomatlik, xonadonlaringizga tinchlik-xotir-jamlik, fayz-u baraka tilayman.

2013-yil 26-aprel

O'ZBEK XALQIGA TINCHLIK VA OMONLIK KERAK

Bugun xalqimiz Ikkinci jahon urushida fashizm ustidan qozonilgan G'alabaning 68 yilligini, 9-may – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlamoqda.

Shu kunlarda barcha yurtdoshlarimiz o'z insoniy burchini bajo etib, Vatanimiz ozodligi, musaffo osmonimiz uchun jon berib, qurban bo'lganlarning muqaddas xotirasi oldida bosh egib, ta'zim qilmoqda.

Bugungi kunda oramizda hayot bo'lib, bizga ma'naviy ibrat ko'rsatib yurgan muhtaram urush qatnashchilarini ana shu buyuk sana bilan chin qalbdan tabriklashni o'zim uchun katta sharaf deb bilaman.

Ayni vaqtida front ortida xizmat qilib, o'ta og'ir sharoitda g'alaba qozonishga katta hissa qo'shgan yurtdoshlarimizga, barcha faxriylarimizga sihat-salomatlik, uzoq umr tilab qolaman.

Bugun bu ulug' ayyomni nishonlar ekanmiz, Ikkinci jahon urushida erishilgan g'alabaning ko'pchilik qatori bizning xalqimiz uchun ham

naqadar qimmatga tushgani, el-yurtimiz mudhish qirg‘inlarda qancha qurbanlar, qancha yo‘qotishlar bergani, qancha yetim-yesirlarning oh-u faryodi, mislsiz azob-uqubatlarni ko‘rganini yodga olsak, aytish mumkinki, butun insoniyatning taqdiri, uning kelajagi hal bo‘lgan o‘sha musibatli davrlarni eslaydigan bo‘lsak, bu qonli urush odamlarimizning xotirasida hech qachon o‘chmasdan umrbod qolajagiga yana va yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Yillar, balki asrlar o‘tadi, bu yovuz, bu beshafqat urush xalqimizning tarixiy xotirasida abadiy saqlanadi. Nega deganda, yurtimizda bironta oila yo‘qki, uni bu dahshatli qirg‘in chetlab o‘tgan bo‘lsa. Ayniqsa, shu kunlarda, millati, tili va dinidan qat’i nazar, yurtimizda yashayotgan qaysi bir odam bilan gaplashmang, oradan 68 yil vaqt o‘tgan bo‘lsa ham, albatta ana shu urush haqida, uning qanday bitmas jarohatlar qoldirgani, jumladan, uning oilasi, ota-bobolari yoki qarindoshlari uchun og‘ir yo‘qotishlarga sabab bo‘lgani to‘g‘risida katta alam va iztirob bilan eslaydi.

Hozirgi kunda mamlakatimizdagи har bir xonadonda, farzandlari bag‘rida tinch-osuda hayot kechirayotgan keksa avlod vakillari, avvalo,

shunday yorug‘ kunlarga yetkazgani uchun shukronalar aytib, urush balosi hech qachon qaytarilmasın, degan ezgu orzu-niyatlar bilan bu sanani qarshilaydi. Albatta, orzu-niyat qilish o‘z yo‘li bilan, ayni vaqtda shunday fojiali voqealar boshqa takrorlanmasligi uchun kurashish, kerak bo‘lsa, barcha kuch va imkoniyatlarni shu maqsad yo‘lida ishlatish, safarbar etish zarur. Hayotning, zamonning o‘tkir talabi ham shundan iborat.

Aqli raso har qaysi odam tarixdan saboq chiqarib, tinchlikning qadri, urushning halokatli oqibatlari haqida chuqur o‘ylab, bugun paydo bo‘layotgan har xil xavf-xatarlarning qandaydir chorasi ko‘rish, mana shunday azoblarni ko‘rmagan, bilmagan bolalarimizga shunday kayfiyatni singdirishga harakat qiladi. Ayniqsa, bizning muhtaram faxriyalarimiz, urush davri va undan keyingi yillardagi azob-uqubatlarni ko‘rgan odamlarimiz, ishonchim komil, ayni shunday fikrlaydi.

Hozirgi vaqtda ba’zi davlatlarda aytilayotgan «Urushning eng og‘ir yukini biz ko‘tardik», degan mazmundagi gaplar, da’volarga xolisona baho berib, bu urushning zahmati, mashaqqatini sobiq SSSR tarkibida bo‘lgan barcha respublikalar, ularning xalqlari, ming-minglab oddiy odamlar o‘z

yelkasida birdek ko'targan, desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Bu haqda gapirganda, ba'zi bir raqamlarni keltirib o'tishni o'rinni deb bilaman.

Urushdan oldin O'zbekistonda 6,5 millionga yaqin aholi yashagan bo'lsa, shundan 1,5 millioni janglarda bevosita ishtirok etgan bo'lib, 500 mingga yaqin yurtdoshimiz shu urushda halok bo'lganini, qanchasi bedarak ketganini, qanchasi mayib-majruh bo'lib qaytganini hisobga oladigan bo'lsak, bizning xalqimiz fashizm balosiga qarshi kurashga qanday hissa qo'shganini tasavvur qilish qiyin emas.

Men bu raqamlarni hech kim hech qachon esidan chiqarmasligini istayman.

Hayotning o'zi bir haqiqatni takror va takror isbotlab bermoqda. Ya'ni, tarixni bilmagan, tarixni unutgan, tarixdan xulosa chiqarmagan har qanday inson, har qanday xalq o'z yo'lidan adashishi, bir vaqt yo'l qo'ygan xatolarni yana takrorlashi mumkin.

Tarix o'rgatadi, tarix ogoh etadi. Ayni paytda tarix bizga to'g'ri yo'lni tanlashda maslahat beradi. Bundan oldingi zamonlarda qanday voqealar bo'lganini, ulardan qanday xulosalar chiqarib, qaysi xatolarni takrorlamaslik kerakligini, qaysi

yo‘ldan oldinga borish lozimligini kim o‘rgatadi? Albatta, tarix o‘rgatadi. Dunyoda bunday o‘tkir va ta’sirchan boshqa biron kuch bormi? Menimcha, yo‘q.

Qancha vaqt, qancha zamonlar o‘tmasisin, tarixni chuqur anglash, tarixdan xulosa chiqarib yashash kerak. Ayniqsa, bugun – 9-may sanasida bu haqiqatni aslo unutmasligimizni shaxsan men juda-juda istardim.

Ayni shu kunlarda xalqimiz urush davrida boshidan kechirgan og‘ir sinovlarni yana va yana bir bor xayolimizdan o‘tkazar ekanmiz, o‘tmish voqealar, albatta, barchamizni o‘ylantiradi va kerakli xulosalar chiqarishga da’vat etadi.

Biz bugun qanday shiddat bilan o‘zgarib, yon-atrofimizda qarama-qarshilik, xavf-xatarlar kuchayib borayotgan notinch zamonda yashayotganimizni kuzatish va anglash qiyin emas.

Hech kimga sir emas – hozirgi kunda bizning hududimizda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik va barqarorlikka eng katta xavf-xatar – bu Afg‘onistonda o‘ttiz yildan ziyod davom etayotgan urushdir.

Ana shu o‘tgan davrda bu jafokash zaminda tinch hayot nima ekanini bilmaydigan yangi bir avlod voyaga yetdi. Urush boshlangan paytda

tug‘ilgan bolalar bugun 30–35 yoshga chiqdi. Bu avlodning izidan hozir yana bir yangi avlod ovoqqa turmoqda. Ular o‘z hayotida nimaga guvoh bo‘lishi mumkin? Faqat urush, odam o‘ldirish, qon to‘kish. Bu yoshlarning hayoti shundan iborat bo‘lib qolmayaptimi? O‘zingiz o‘ylang, shu ham hayotmi o‘zi?

Ko‘pni ko‘rgan afg‘on xalqining boshiga tushgan bunday ofatni boshqa hech kimga hech qachon ko‘rsatmasin. Shundan ogoh bo‘lish, shundan xulosa chiqarish zarur.

Bugun Afg‘onistonndagi mavjud vaziyatni ko‘pchilik xalqaro siyosatchilar nochor, o‘ta og‘ir va qaltis, deb baholamoqda.

Sodda qilib aytganda, ko‘p yillardan buyon davom etayotgan bu qonli urushni harbiy kuch bilan hal qilish yo‘li yo‘qligiga urushda qatna-shayotgan tomonlar tobora iqror bo‘lmoqda, ayni shu holatni ko‘pchilik tan olmoqda.

Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, bu urushni tezroq tugatish, afg‘on zaminida tinchlik o‘rnatish haqida bugun butun dunyo bong urmoqda. Vaziyat shu darajaga yetdiki, bir paytlar bu mojaroni siyosiy yo‘l bilan hal etishga mutlaqo qarshi chiqqanlar ham endi fikrini o‘z-gartirmoqda.

Boshqacha aytganda, bu inqirozni bartaraf etishning yagona yo‘li – siyosiy yo‘l bo‘lib, qanday qivin bo‘lmasin, qarama-qarshi kuchlarni muzokaralar orqali o‘zaro kelishuvga olib kelish ekani tobora o‘z tasdig‘ini topmoqda. Ayni shu asnoda vaqtinchalik hukumat tuzish, saylovlar o‘tkazish, Afg‘oniston oldida turgan og‘ir muammolarni hal etishga o‘tish imkonini paydo bo‘lishini ko‘pchilik e’tirof etmoqda.

NATOning 2008-yil Buxarest shahrida bo‘lib o‘tgan sammitida O‘zbekiston Prezidenti so‘zga chiqib, dunyodagi qudratli davlatlarning vakillariga mamlakatimizning bu boradagi qat’iy pozitsiyasini aniq-ravshan bayon qilgan edi.

Bu tashabbusning mazmun-mohiyati shundan iborat ediki, avvalo BMT rahbarligi ostida «6+3» muloqot guruhini tashkil etish ko‘zda tutilgan edi. Bu muloqot guruhi AQSH, NATO, Rossiya, shuningdek, Afg‘oniston bilan bevosita qo‘shni mamlakatlardan iborat bo‘lishi kerak edi. «6+3» muloqot guruhining eng muhim maqsadi – bir-biriga qarshi kurashayotgan tomonlarga Afg‘onistonda harbiy harakatlarni to‘xtatish dasturini taklif etish, mamlakatni parokanda qilayotgan asosiy muammo va ziddiyatlar bo‘yicha o‘zaro murosa asosidagi yechimlarni topish, xavfsizlikni ta’minlash hamda barcha tomonlarning man-

faatlarini hisobga olgan holda, zarur kafolatlarni berishdan iborat.

Ko'rib turibmizki, O'zbekistonning ana shu sammitda bildirgan amaliy, konstruktiv takliflari bugun ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q. Aksincha, yanada o'tkir ahamiyat kasb etib bormoqda.

Biz Afg'oniston xalqi bilan qadimdan yonmayon qo'shni bo'lib yashab, qiz berib, qiz olib, quda-andachilik qilib kelganmiz. Amudaryoning ikki tomonida turib bir-birimizning holimizdan doimo xabardor bo'lib turgamiz. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, afg'on fofiasini boshqalardan ham ko'ra o'ziga yaqin bilgan o'zbek xalqi, albatta, bu zaminda bo'layotgan voqealarni xayolidan, yuragidan mutlaqo boshqacha o'tkazadi.

Bu qonli to'qnashuvlar sodir bo'layotgan yurtdan uzoqda yashayotganlar esa, afsuski, ularni butunlay boshqacha qabul qiladi. Masalan, o'tgan asrning 60-yillarida Amerika Qo'shma Shtatlari tomonidan Vyetnamga qarshi olib borilgan urush haqida gap ketsa, ba'zi olis davlatlardagi odamlar Vyetnam dunyoning narigi chekkasida, bizga bu o'lkadagi voqealarning daxli yo'q, deb eslashi mumkin. Lekin Afg'oniston masalasida bizning qismatimiz shundayki, bunday fikrlashga,

bunday yondashishga mutlaqo haqqimiz yo‘q. Nega deganda, tarix yana avvalgi o‘zaniga qaytadi, xulosa chiqarmagan odamning boshiga kulfat yetkazadi. Bolalarimiz, nevaralarimizning taqdirini o‘ylamoqchi bo‘lsak, biz bugun ana shu muammo haqida jiddiy bosh qotirishimiz kerak.

Bu dunyo – qaytar dunyo, degan gap bor. Buxarest sammitida, jahon hamjamiyati vakillariga murojaat qilib, sizlar bir holatni hisobga olinglar, afg‘on mojarosini harbiy yo‘l bilan hal etishning imkonini yo‘q, deb O‘zbekiston nomidan ochiq aytilgan edi. Qariyb 35 yildan buyon davom etib kelayotgan urushni qanday to‘xtatish haqida o‘playdigan bo‘lsangiz, buni harbiy yo‘l bilan emas, balki faqat siyosiy yo‘l bilan yechish mumkin, degan fikr qat’iy ta’kidlangan edi.

Mana, shundan beri besh yil o‘tyapti. Kattakkatta davlatlar, Yevropa Ittifoqi va boshqa mamlakatlar vakillari o‘sha paytda, bu odam nima haqida gapiryapti, deb O‘zbekiston rahbari tomonidan bildirilgan amaliy taklif va xulosalarni inobatga olmagan edi.

Bugun endi nima bo‘lyapti? Ayni o‘sha siyosatchilar bu takliflarni eng to‘g‘ri taklif sifatida qabul qilishga majbur bo‘lyapti. Ya’ni, ularning hammasi shunday xulosaga kelyaptiki, haqiqatan

ham, afg‘on mojarosini yechishning harbiy yo‘li yo‘q ekan. Urush bilan, qon to‘kish, bir-birini o‘ldirish bilan bu urushni tugatib bo‘lmash ekan, deb ularning o‘zlarini shunga iqror bo‘lmoqda. Chindan ham, bunday dahshatli qirg‘inga yana qancha chidash mumkin?

Takror aytaman – faqat siyosiy muloqot yo‘li bilan bu inqirozni hal qilish mumkin. Ming af-suski, bugungi kunda Afg‘onistonning o‘zida va uning tashqarisidagi ayrim kuchlar o‘z manfaatlarini ko‘zlab, bu mojaroni siyosiy asosda yechishga qarshi chiqmoqda.

Bunday boshi berk yo‘l yana qancha odamning bevaqt hayotdan ko‘z yumishi, qancha-qancha go‘daklarning yetim, ayollarning beva, begunoh insonlarning mayib-majruh bo‘lib qolishiga olib kelishi mumkin. Lekin, mana, ko‘ryapmiz, buning yechimi bo‘yicha hali-beri biron-bir amaliy harakat sezilayotgani yo‘q. Butun bir yangi avlod maydonga chiqqani haqida gapiramiz, ammo ular ham mana shu urushda qurban bo‘lyapti. Bu nima degan gap axir? Bu o‘rinda butun bir xalq, butun bir mamlakat taqdiri haqida gap bormoqda.

Ilgari urushni faqat urush bilan yengish mumkin, faqat kuch bilan afg‘on muammosini hal etamiz, deb kerilib yurganlar ham bugun bu

yo'l bilan urushga barham berib bo'lmas ekan, deb aytishga majbur bo'lmoqda. Qishloqlar, shaharlar ustiga bomba tashlash, o't-olov yog'dirish qarama-qarshilikni battar kuchaytirishga olib kelmoqda, bunday yo'l bilan hech narsani yechib bo'lmaydi, degan fikrga bugun aksariyat ko'pchilik kelmoqda.

Agarki kimda ozgina insof, ozgina aql-zakovat, insoniylik, odamiylik xususiyatlari saqlanib qolgan bo'lsa, shu haqiqatga iqror bo'lmoqda.

Ming afsuski, Afg'onistonning o'zida ham, uning atrofida, undan uzoq-uzoq joylarda ham urushdan manfaatdor bo'lganlar, urushning jilovini qo'lida ushlab turgan kimsalar mavjud, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. Ular o'z g'arazli manfaatlarini ming-minglab odamlarning hayotidan ustun qo'ymoqda.

Bu haqda ko'p gapirish mumkin. Lekin bir narsa aniq – bunday odamlarning qabih yo'l bilan topgan davlati, mol-dunyosi baribir o'ziga buyurmaydi.

Yana bir bor ta'kidlamoqchiman, bugun turli siyosatchilar, kuzatuvchilar Afg'oniston zaminida tinchlik o'rnatishning qarama-qarshi kuchlar o'rtasida o'zaro kelishish, o'zaro muloqotni yo'lga qo'yishdan boshqa yo'li yo'q ekanini

baralla aytmoqda. Haqiqatan ham, qanday qiyin bo‘lmasin, orada qancha alam, adovat o‘tgan bo‘lmasin, bunday kuchlarni bir joyga yig‘ib, bu masalaning yechimi avvalo sizlarning qo‘lingizda, urushni to‘xtatishning baribir bundan boshqa yo‘li yo‘q, deb butun jahon hamjamiyati, birinchi navbatda qudratli davlatlar mana shu sivosiy pozitsiyada qat’iy tursa, men ishonaman, muammoning yechimi albatta topiladi.

Harbiy yo‘l bilan Afg‘oniston mojarosini hal etib bo‘lmasligi haqida NATO kuchlari, AQSH, Yevropa davlatlarining rahbarlari xulosa chiqarib, mana shunday o‘ta og‘ir va tahlikali bir vaziyatda asosan AQSH va Yevropa davlatlarining AYSEF, ya’ni tinchlik o‘rnatish kuchlari deb nom olgan harbiy qo‘shinini 2014-yilning oxirigacha Afg‘onistondan olib chiqib ketishni rejalashtirmoqda. Ochig‘ini aytadigan bo‘lsak, bu jarayon hozirdanoq boshlandi.

Bularning barchasini inobatga oladigan bo‘lsak, savol tug‘iladi: mazkur qo‘shin Afg‘oniston hududidan olib chiqib ketilishi bilan bu mam-lakatda ahvol qanday tus oladi?

Ming afsuski, bu o‘zgarishdan keyin Afg‘onistonda o‘zaro qarama-qarshi kuchlar o‘rtasidagi kurashning avjiga chiqishi, terrorchilik, qurol-

yarog‘ savdosi, narkotrafik, turli diniy, millatlararo nizolar kuchayib borishining xavfi ortadi.

Yana bir o‘rinli savol shundan iboratki, bunday keskin vaziyat qo‘sni davlatlarga qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tarix saboqlarini hisobga oladigan bo‘lsak, buning ta’siri salbiy bo‘lishi tabiiy. Ya’ni, Afg‘onistonning vaziyat to‘liq hal qilinmasdan turib koalitsiya kuchlarining bu mamlakatdan olib chiqib ketilishi Markaziy Osiyoda keskinlikni yanada oshiradi. Buning oqibatida mintaqalari uchun xavf-xatar ortishi mumkin.

Bu haqda men g‘oyat tashvishlanib, afsus bilan gapiryapman. Bu – hayot haqiqati, undan hech qayerga qochib bo‘lmaydi.

Bizning bu masalaga yondashishimiz, shu boradagi siyosatimiz qanday bo‘lishi kerak, degan savolga javoban aytish kerakki, ana shunday qaltis vaziyatda milliy taraqqiyotimizni, mamlakatimizning rivojlanish sur’atlarini, eng muhimi, xalqimizning tinch-osoyishta hayotini saqlash uchun barcha zarur choralarни ko‘rish masalasi oldimizda juda jiddiy vazifa bo‘lib turibdi.

O‘zbekistonning Afg‘oniston davlatiga nisbatan olib borayotgan siyosati aniq va ochiq.

O‘zbekiston Afg‘onistonning ichki ishlariiga aralashmaslik, Afg‘onistonga qarshi

qaratilgan turli harbiv-sivosiy birlashmalarda qatnashmaslik, Afg'oniston bilan aloqalarimiz va hamkorligimizni faqatgina ikki tomonlama asosda tashkil qilish, afg'on xalqi tanlangan hukumatni qo'llab-quvvatlash siyosatini o'ziga ma'qul topadi.

Bunday yondashuv, bunday pozitsiya bizning mamlakatimizda qabul qilingan qonunlar bilan muhrlab qo'yilgan.

Ayni shunday siyosatni olib borishni:

- kimningdir «o'yin»lariga qo'shilmaslik;
- qo'shnilarimiz bilan tinch-osoyishta yashash;
- el-yurtimizning tinchligi va manfaatlarini himoyalash;
- yaqin tariximizning saboqlari va boshimizdan kechirayotgan o'ta murakkab zamonning o'zi talab qilmoqda.

Biz 2012-yilda «O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati konsepsiysi to'g'risida»gi qonunni qabul qildik.

Bu qonunning ahamiyati nimadan iborat?

Afg'onistonda 30 yildan ziyod davom etayotgan urushni hisobga oladigan bo'lsak, shu davrda bu muammo atrofida juda ko'p chalkash, ziddiyatli, hatto bir-biriga mutlaqo qarama-qarshi bo'lgan fikrlar bildirildi.

Shu mavzuda turli-tuman konferensiyalar, sammitlar, qancha-qancha suhbatlar, muloqotlar o‘tkazilyapti. Muxtasar aytadigan bo‘lsak, o‘zini siyosatchi degan odam borki, shu mavzuda gapirib obro‘ topmoqchi bo‘ladi. Baraka topkur, aniq bir taklifing, amaliy dasturing bo‘lmasa, nima qilasan o‘zingni ham, boshqalarni ham chalg‘itib!

Axir, Afg‘oniston birinchi navbatda O‘zbekiston bilan, Tojikiston va Turkmaniston bilan bevosita chegaradosh emasmi? Shunday ekan, bu muammoning qanday katta xavfi borligini avvalo qo‘shni davlatlar biladi. Shuning uchun O‘zbekiston bu masalada doimo jon kuydirib kelmoqda.

Bizga nima kerak? Tinchlik kerak! Yana bir bor tinchlik va qo‘shni davlatlar bilan hamjihatlik kerak. Mana shunday xulosa negizida biz tashqi siyosatimizning har tomonlama asoslangan tamoyillarini qonuniy asosda belgilab oldik.

Sovet davrida biz afg‘on urushida majburan qatnashganmiz. Xalqimizda «Ko‘r hassasini bir marta yo‘qotadi», degan gap bor. Shu sababli biz qandaydir harbiy birlashmalarga kirib, boshqalar bilan birga Afg‘onistonga qarshi chiqmaymiz. Bunday birlashmalar keladi-yu ketadi, o‘z ishini bitiradi, biz esa shu yerda qolib, afg‘on xalqi bilan doimo yonma-yon yashashimiz kerak.

Bizga manfaati bo'lsa, afg'on xalqiga manfaati bo'lsa, faqat ikki tomonlama aloqalarni o'rnamatamiz va bunday munosabatlarni qo'llab-quvvatlaymiz.

Ko'pni ko'rgan xalqimiz qo'shnichilikning qadrini yaxshi biladi. Binobarin, biz qo'shnilarimizga nisbatan munosabatda hech qachon milliy o'zligimiz, mehr-oqibatimizni yo'qotmag'anmiz. Bizga tinchlik kerak degan da'vat bugun butun xalqimiz uchun yagona da'vat bo'lishi lozim. O'zbekistonga tinchlik kerak, osuda havot kerak. Taraqqiyotimiz uchun biron ta ham to'siq kerak emas. Biz ba'zi davlatlarning «o'yin»iga qo'shib, baloga qolishni hech qachon xohlamaymiz.

Yana bir bor ta'kidlayman, biz biron ta harbiy blokka qo'shilmaymiz. Bunday birlashmalar qanday atalmasin, agar asl negizini ko'radigan bo'lsak, harbiy tuzilma bo'lib chiqadi. Bunday bloklarda biz qatnashmaymiz.

Takror-takror aytaman, biz tarixdan saboq chiqarib, xulosa chiqarib, siyosat olib borishni o'zimiz uchun to'g'ri yo'l deb qabul qilganimizni butun dunyoga e'lon qildik. Jahonda biron ta davlat yo'qki, bizning bu qarorimizga qarshi chiqqan bo'lsa.

Biz bu siyosatni amalga oshirish uchun qanday mezon va omillarga suyanishimiz kerak?

Biz qat’iy tayanib ish olib boradigan birinchi va asosiy omil haqida gapiradigan bo‘lsak, bu – tinchlik va osoyishtalikdir.

Hammamizga ayon, xalqimiz qachon. qaverda bo‘lmasin. duoga qo‘l ochar ekan. avvalo tinchlik bo‘lsin. omonlik bo‘lsin. deb nivat qiladi. Yaratgandan shuni so‘ravdi. Bu ikki so‘z el-yurtimizning qon-qoni. vurak-vuragi. suyak-suvagiga singib, uning uchun hayot mazmuniga – beba ho qadriyatga aylanib ketgan.

Odamlarimiz boshi uzra charaqlab turgan oftobni, mana shu musaffo osmonni ulkan baxt, tinchlik-osoyishtalik, farovonlik belgisi sifatida qabul qiladi. Ana shunday beg‘ubor osmon ostida shukronalik tuyg‘usi bilan yashayotgan insonlar bunday baxtni, bunday quvonchni boshqalar bilan baham ko‘rishni, hayot lazzatini o‘z yaqinlari, do‘satlari bilan birgalikda totishni istaydi. Inson aslida baxt uchun yaratilgan. Inson inson bo‘lib yashash uchun dunyoga kelgan.

Ma’lumki, biz yaqinda Vatanimiz mustaqilligining 22 yilligini katta bayram qilamiz. Ana shu davrda bosib o‘tgan yo‘limizdan xulosa chiqarib aytadigan bo‘lsak, biz oxirgi yillarda O‘zbekiston taraqqiyotida juda katta o‘sish sur’atlariga, boshqalarning havasi, e’tiborini

tortadigan natija va marralarga erishmoqdamiz. Buni hech kim inkor eta olmaydi. Ana shu yo‘lda tinchlik-osoyishtalik, millatlar va fuqarolararo totuvlik, o‘zaro mehr-oqibat va hamjihatlik barcha yutuqlarimizning asosiy omili bo‘lmoqda.

Chindan ham, tinchlik bo‘lgan joyda taraqqiyot bo‘ladi. Bir-birini ko‘rolmasdan, gijgijlashgan, nizo-adovatga borgan jamoada ham, el-yurtda ham hech qachon rivojlanish, ravnaq bo‘lmaydi. Bu haqiqatni ong-u shuurimizga chuqur singdirib, uning qadr-qimmatini unutmasligimiz zarur.

Ikkinchi masala shuki, tinchlik osmon-dan tushmaydi. Tinchlik-osoyishtalik mustaqil taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning asosi ekan, buning uchun kurashish, kerak bo‘lsa, bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatish lozim. «Olma pish – og‘zimga tush» degan nomaqbul qarashlarning vaqtি allaqachon o‘tib ketdi. Bizning bugungi yoshlarimiz bunday kaltabin qarashlarni hech qachon qabul qilmaydi. O‘zligini, kimlarning avlodi ekanini anglagan, zamonaviy ilm-fan va kasb-hunarlarni puxta egallagan o‘g‘il-qizlarimiz bugun mutlaqo boshqacha fikrlaydi.

Tinch-osoyishta hayot, barqarorlikning eng muhim sharti shuki, beg‘amlik va beparvolikka yo‘l qo‘ymasdan, doimo ogoh, har tomonlama sezgir va uyg‘oq bo‘lish, tarixdan, hayotdan

xulosa chiqarib yashash kerak. Bunday qarash, bunday kayfiyat shu aziz yurtimizdagি barcha vatandoshlarimizning hayotiy maqsadiga aylanishini istardim.

Ogoh bo‘lib yashaydigan odam chetdan kelayotgan xavf-xatarni oldindan ko‘rib, uni bartaraf etishi oson kechadi. Agarki turli balo-qazolardan o‘z vaqtida ogoh bo‘lmasa, ularga beparvo qarasa, keyin ularni yo‘q qilish juda qiyin bo‘ladi. Bu haqiqat necha ming yillik tariximizda ko‘p bor isbotini topgan.

Xavf-xatarni oldindan ko‘rsang – chorasini topasan, oldindan ko‘rolmasang – chorasini topishga vaqting ham, imkoning ham qolmaydi.

Shu o‘rinda yana bir fikrga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Go‘zal va betakror diyorimizda yashayotgan odamlar, birinchi navbatda yoshlarimiz – mening farzandlarim «Bu Vatan – meniki, agarki uni har qanday balo-qazolardan asrash, himoya qilish uchun men kurashmasam, kim kurashadi?» degan fikr bilan yashasa, mana shunday qarash unib-o‘sib kelayotgan bolalarimiz uchun eng katta da’vatga, hayotiy e’tiqodga aylanib, ularning qalbidan, ong-u tafakkuridan chuqr joy olsa, aytinglar, bunday xalqni yo‘lidan qaytarib bo‘ladimi, bunday xalqni yengib bo‘ladimi?!

Hozirgi murakkab zamonda har birimiz shunday ezgu maqsad bilan yashasak, birinchidan, hech qachon kam bo‘lmaymiz, ikkinchidan, kelajak – bizniki, marra albatta bizniki bo‘ladi.

Bugungi marosim, bugungi bayramdan kelib chiqadigan eng asosiy xulosa shuki, el-yurtimiz boshidan kechirgan shuncha qiyinchiliklar, qancha-qancha qurbanlar, yo‘qotishlar, azob-u uqubatlarning hammasini hisobga oladigan bo‘lsak, mening ishonchim komil: bunday sinovlar, bo‘ron va to‘fonlar oldida xalqimiz hech qachon bo‘sh kelmagan. Ulardan munosib tarzda o‘tib, mardlik va matonat ko‘rsatib, hech kimning oldida bosh egmagan va aminman, bundan buyon ham hech kimning oldida hech qachon bosh egmaydi, o‘z maqsad-muddaolariga albatta yetadi.

Mening istagim shu – Xudoning o‘zi yurtimizni, xalqimizni yomon ko‘zlardan, hasidlardan asrasin! Shu yurda yashayotgan har qaysi oila, har qaysi inson, har qaysi vurtdoshimiz baxtli bo‘lsin, tinchlik va omonlik ularga hamisha yor bo‘lsin!

*Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan
ommaviy axborot vositalari uchun
berilgan intervyyu,
2013-yil 9-may*

«UNIVERSIADA – 2013» SPORT O‘YINLARI ISHTIROKCHILARIGA

Qadrli o‘g‘il-qizlarim!

Muhtaram ustoz va murabbiylar, hurmatli mehmonlar!

Bugun unib-o‘sib, katta niyat va ishonch bilan hayotga kirib kelayotgan siz, aziz farzandlarimni O‘zbekiston yoshlarining hayotidagi ulkan voqeа – yoshlik, go‘zallik va sport bayrami bo‘lmish «Universiada – 2013» o‘yinlarining tantanali ochilishi bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

O‘lkamizdagи barcha sport muxlislari, millionlab yoshlarimiz, butun xalqimizning diqqat-e’tiborini bugun o‘ziga tortayotgan bu sport bayramining «Ko‘hna va boqiy Buxoro» deb nom olgan tabarruk zaminda o‘tkazilayotgani ushbu tantanaga alohida ma’no-mazmun va ko‘tarinki ruh bag‘ishlamoqda, desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman.

Aziz «Universiada» qatnashchilar!

Sizlarning «Kichik Olimpiada» deb atalgan mana shu nufuzli musobaqaga qanday keskin

kurash va bellashuvlar orqali yetib kelganingiz, o‘z oldingizga qo‘ygan maqsad yo‘lida azm-u shijoat va qat’iyat ko‘rsatib, oliv o‘quv yurtlarida ilm-u fan cho‘qqilarini egallash bilan birga, sport maydonlarida ham umidbaxsh natijalarga erishganingiz, mamlakatimizda o‘tkaziladigan sport o‘yinlarining eng yuqori bosqichi bo‘lgan 2013-yilgi «Universiada» finaliga chiqqaniningizning o‘zi, hech shubhatsiz, har biringiz o‘zingiz tanlagan sport turi bo‘yicha katta yutuqlarni qo‘lga kiritganingizdan guvohlik beradi.

Albatta, bunday yuksak marralar va shoh-supalarga ko‘tarilish uchun qancha-qancha harakat, qancha kuch-quvvat, iroda va mardlik kerakligini ana shunday holatlarni boshidan kechirgan har qaysi odam o‘ziga yaxshi tasavvur qilishi muqarrar.

Bu fikrlarning tasdig‘ini quyidagi raqam va misollar yaqqol namoyish qiladi.

«Universiada» o‘yinlarining saralash bosqichlarida ishtirok etgan qariyb 138 ming talaba orasidan yakuniy bosqichga 1020 nafar qatnashchining yetib kelgani bu musobaqalarning miyyosi naqadar kengligi va ularning nechog‘li qattiq kurashlar asosida o‘tganini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda oltinchi bor tashkil etilayotgan «Universiada» bellashuvlarini yuqori saviyada, uyushqoqlik bilan o'tkazish uchun, avvalo, joylarda, viloyat va shaharlarda zarur sharoitlar yaratilgani, jumladan, Buxoro shahrida o'nlab muhtasham sport saroylari va majmualari bунyod etilgani, qariyb 93,5 milliard so'm mablag' sarflanib, katta hajmdagi qurilish, rekonstruksiya va obodonlashtirish ishlari amalga oshirilganini inobatga oladigan bo'lsak, har uch yilda o'tkaziladigan bu sport bayramiga davlatimiz va jamiyatimiz tomonidan qanday ulkan e'tibor va ahamiyat berilayotgani yanada yaqqol ayon bo'ladi.

Bularning barchasi, avvalambor, siz, aziz bolalarimizni jismoniy va ma'naviy jihatdan sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, voyaga yetayotgan farzandlarimizning taraqqiy topgan davlatlardagi tengdoshlaridan kam bo'lmasligi, ular bilan bema-lol bellashuvga tayyor bo'lishi uchun, lo'nda qilib aytganda, navqiron yoshlarimizning xalqimiz, O'zbekistonimizning tayanchi va suyanchi, biz intilayotgan yuksak marralarga yetish yo'lida hal qiluvchi kuch bo'lib hayotga kirishi uchun – ana shunday buyuk maqsadlarga erishish uchun amalga oshirilayotganini tushunish, anglash qiyin emas.

Qadrli farzandlarim!

Xalqimiz, jamoatchiligidan yaxshi tanish bo‘lgan, hammamizga kuch-quvvat bag‘ishlaydigan, ertangi kunga ishonch tug‘diradigan «Biz hech kimdan kam emasmiz va hech qachon kam bo‘lmaymiz!» degan oliyjanob da’vat barchamizni mana shunday go‘zal va betakror Vatanimizga mehr qo‘yib, g‘urur va iftixor bilan yashashga chorlaydi.

Hozirgi vaqtida milliy sportimiz iftixoriga aylangan Rishod Sobirov, Abbas Ato耶ev, Rustam Qosimjonov, Oqgul Omonmurodova, Svetlana Radzivil, Sevara Qodirova, Denis Istomin, Saida Iskandarova, Vadim Menkov, Dilshod Mansurov kabi o‘nlab iste’dodli yoshlarimizning sport olamidagi yutuqlari uchun aynan «Universiada» musobaqalari parvoz maydonchasi bo‘lib xizmat qilgani yaxshi ma’lum. Sizlar ham ana shunday mohir sportchilarimizning izidan borib, kelajakda Vatanimiz bayrog‘ini jahon sport maydonlari-da baland ko‘tarishingizga barchamiz tilakdoshmiz.

Hech shubhasiz, «Universiada – 2013» belashuvlari el-yurtimizga xos bo‘lgan halollik, mardlik va o‘zaro hurmat ruhida o‘tadi, qadimiy Buxoro zaminida yashab o‘tgan buyuk ajdodlari-

mizning ruhi poklari sizlarni qo'llab-quvvatlaydi,
deb ishonaman.

Fursatdan foydalanib, sizlarga atab yuksak talablarga javob beradigan zamonaviy sport majmualarini barpo etgan quruvchi va muhandislarga, mutasaddi va homiy tashkilotlarga, bag'rikeng, mehmondo'st Buxoro ahliga o'z nomimidan, xalqimiz nomidan samimiyl minnatdorlik izhor etaman.

Aziz o'g'il-qizlarim!

Barchangizni bag'rimga bosib, sizlarga sihat-salomatlik, baxt va omad hamisha yor bo'lishini tilayman.

*Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
2013-yil 6-iyun*

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA

Qadrli do'stlar!

Avvalambor, siz, azizlarni, ommaviy axborot vositalari, nashriyot va matbaa sohasida xizmat qilayotgan insonlarni bugungi kasb bayramingiz bilan chin qalbimdan muborakbod etishdan va barchangizga o'z hurmat-ehtiromimni bildirish-dan xursandman.

27-iyun kuni – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni deb e'lon qilingan bu sanaga bu yil roppa-rosa yigirma yil to'layotgani nafaqat soha xizmatchilari, balki ularning ijod va mehnat mahsulidan bahramand bo'ladigan millionlab mushtariylar, barcha ziyolilarimiz tomonidan mamlakatimizda qutlug' bayram sifatida nishonlanayotgani hammamizga katta mamnuniyat yetkazadi.

Hech shubhasiz, ana shu tarixan qisqa davrda O'zbekiston ommaviy axborot vositalari jamiyatimizda amalga oshirilayotgan chuqr ijtimoiy-siyosiy islohotlar, zamon talablariga javob beradigan demokratik yangilanishlarning

ko‘zgusiga, odamlarimizni, keng ommani yan-gicha fikrlashga, ma’naviy uyg‘oqlikka, ong-u tafakkurimizni o‘zgartirishga da’vat etadigan qudratli kuchga, qisqacha aytganda, kundalik hamrohimizga aylanib borayotganining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Yurtimizda yangi hayot qurish, yangi marralar-ni egallash borasida bosib o‘tgan mustaqil taraqqiyot yo‘limizni sarhisob qilar ekanmiz, Vatanimiz erishgan barcha-barcha yutuqlarda, hayotimizda amalga oshirilayotgan, o‘zgalarning havasini tortayotgan ulkan o‘zgarishlarda siz, azizlarning munosib hissangiz borligini xalqimiz yaxshi bila-di va yuksak qadrlaydi.

Matbuot va ommaviy axborot vositalarining hayotimizdagи o‘rni va ta’siri ortib, xalqimiz o‘rtasida «To‘rtinchi hokimiyat» sifatida tobo-ra katta ishonch va hurmat qozonib borayotgan ekan, buning negizida, avvalambor, jurnalistlar, ko‘p holatlarda ko‘zga tashlanmaydigan kamta-rin muharrirlar, noshirlar, matbaa sohasi va za-monaviy axborot-kommunikatsiya tarmoqlarining ming-minglab zahmatkash ishchi-xizmatchilarini ning kundalik og‘ir va sermashaqqat mehnati mu-jassam, desam, o‘ylaymanki, ko‘pchilikning fikri ni ifoda etgan bo‘laman.

Shu borada jamiyatimizning bugungi va ertangi kuni bo‘ladimi, uzoq kelajagi va porloq ufqlari bo‘ladimi, bir so‘z bilan aytganda, O‘zbekistonni dunyodagi taraqqiy topgan mamlakatlar qatoriga ko‘tarishdek yuksak marralarni ko‘zlagan qonunlarimiz, dasturlarimiz bo‘ladimi – bularning barchasini amalga oshirish uchun xalqimizga ochiq va ravshan qilib yetkazish, el-yurtimizni safarbarlikka chorlash, ruhini ko‘tarish yo‘lida matbuot va axborot vositalarining o‘rni va ahamiyati beqiyos desam, ayni haqiqatni aytgan bo‘laman. Va bu og‘ir yukni, bunday mas’uliyatli vazifani siz, aziz do‘stilarim sharaf bilan o‘z zimmangizda, o‘z yelkangizda ko‘tarib kelmoqdasiz.

Matbuot, televideniye, turli informatsiya vositalarining – bugungi globallashuv zamonida jahon miqyosida barcha-barcha o‘lkalar va xalqlar hayotida hal qiluvchi o‘rin olayotgan bu sohaning tobora oshib borayotgan ahamiyati va ta’siri haqida ortiqcha gapirishga hojat yo‘q, deb o‘ylayman.

Bugungi kunda jamiyat, fuqarolik institutlari, qolaversa, har qaysi insonning hayoti aynan axborot-kommunikatsiya sohalari bilan uzviy va chambarchas bog‘lanib borayotganini inobatga olmaydigan mamlakat o‘z rivojida umumbashariy

taraqqiyotdan chetda qolib ketishi va intellektual boyligidan judo bo‘lishi tabiiydir.

Hayotda o‘z tasdig‘ini topgan ana shu haqiqatni hisobga olgan holda, mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari faoliyatini davr talablari darajasiga ko‘tarish uchun ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha xodimlarining ijtimoiy hayotdagi o‘rni va nufuzini oshirish, mashaqqatli mehnatini rag‘batlantirish maqsadida markaziy va hududiy tele-radiokanallar, viloyat va tuman gazetalarida, mavjud 150 dan ziyod nashriyot, 1630 dan ortiq matbaa korxonasida keng ko‘lamli islohotlar, texnik va texnologik yangilash jarayonlari amalga oshirilganini alohida ta’kidlash lozim.

Shular qatorida matbuot va ommaviy axborot vositalari, nashriyot, matbaa korxonalari va matbuot tarqatuvchi tashkilotlar uchun qo‘srimcha soliq imtiyozlari va afzalliklar berilgani, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar bugungi kunda o‘zining katta amaliy samarasini bermoqda.

Ayni vaqtida aholining tezkor va haqqoniy axborot olishga bo‘lgan ehtiyojini yuksak darajada ta’minalash, teleko‘rsatuvlarning mazmuni va sifatini oshirish maqsadida mamlakatimiz-

da raqamli televide niyega o'tish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Faqatgina joriy yilning o'zida bu boradagi ko'rsatkichni 42 foizdan 45 foizga yetkazish ko'zda tutilayotgani ayniqsa e'tiborlidir.

Jumladan, oxirgi vaqtida O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi tarkibida «Madaniyat va ma'rifat», «Dunyo bo'ylab», «Bolajon» telekanallari tashkil etilgani, hech shubhasiz, bu yo'ldagi yana bir muhim qadam bo'ldi.

O'zbekiston ommaviy axborot vositalarining salohiyati tobora o'sib borayotganining tasdig'ini yurtimizda ommaviy axborot vositalari soni 1991-yilga nisbatan qariyb 3,5 barobar ortib, 1326 taga yetgani, fuqarolik jamiyatining muhim sharti bo'lgan nodavlat ommaviy axborot vositalari tarmog'i shakllanib, samarali faoliyat ko'rsatayotgani, an'anaviy axborot tizimlari bilan birga internet saytlari, internet-radio, internet-televide niye ham hayotimizdan keng o'rin egallab borayotgani misolida yaqqol ko'rish mumkin.

O'zbekiston tele-radio kanallari tomonidan tayyorlanayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar global tarmoq orqali real vaqt rejimida dunyoning ko'plab davlatlariga uzatilayotgani, yurtimiz ommaviy axborot vositalarining aksariyati internet-

da o‘z veb-saytiga ega ekani mamlakatimizning xalqaro mediamakondan munosib o‘rin egallashi uchun xizmat qilishi shubhasiz.

Bugungi bayram kunida nafaqat ana shunday ijobiy natijalar haqida so‘z yuritish, balki matbuot va ommaviy axborot vositalarimizning oldida tur-gan dolzarb vazifalar, yo‘limizda hali-beri to‘sinq‘ov bo‘lib, o‘z yechimini kutayotgan masalalar haqida xolisona va atroflicha fikr almashib olishimiz ayni muddao bo‘lardi.

Shu ma’noda, ma’naviy hayotimizni, bu yo‘nalishda olib borayotgan siyosatimizni, bugun shiddat bilan o‘zgarib borayotgan zamon bilan uyg‘un va hamohang rivojlantirish maqsadida bizning o‘zligimiz, hayot va tafakkur tarzimizning ifodasi bo‘lgan milliy qadriyatlarni ko‘z qorachig‘idek asrab, shu bilan birga, jahon miqyosida erishilgan, e’tirof etilgan umumbashariy yutuqlarga tayanib, ularni o‘zlashtirib ish olib borishimiz zarur. Va aynan ana shunday mezonlar matbuot va ommaviy axborot vositalari faoliyatining asosiy tamoyillarini tashkil qilishi kerak.

Hozirgi vaqtida mamlakatimizda ana shu talab-larga javob bera oladigan, eski tuzum asoratlari va qoliplaridan butunlay xoli bo‘lgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, chet

tillarni puxta egallagan jurnalistlarning yangi avlodni shakllanib kelayotgani barchamizni quvontiradi.

O‘zbekiston ommaviy axborot vositalarining jahon axborot maydonida o‘zini munosib namoyon eta olishi bugungi kunda juda katta ahamiyatga ega. Mana shunday o‘ta muhim va dolzarb vazifani amalga oshirishda davlatimiz, butun jamiyatimiz, shaxsan o‘zim zarur ko‘mak va rag‘batlantirish choralarini ko‘rishga, siz, jurnalistlarning oldingizda paydo bo‘layotgan turli muammolarni birgalashib yechishga tayyor ekanimni bildirishni istardim.

Barchamizga yaxshi ayonki, el-yurtimiz, jamiyatimiz jurnalistlar faoliyatiga avvalambor ularning o‘z Vatani, o‘z xalqi hayotiga daxldorlik tuyg‘usi, grajdaniq pozitsiyasi, ijtimoiy mas’uliyatiga qarab baho beradi va o‘ylaymanki, bu eng to‘g‘ri va haqqoniy bahodir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi notinch va tahlikali zamonda yurtimizdagi tinch va osuda, erkin va farovon hayotni asrash va mustahkamlashda siz, aziz jurnalistlardan xalqimiz yanada ko‘proq faollik va jonbozlik ko‘rsatishni kutishga haqlidir. Ayniqsa, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, bizning

qanday buyuk tarix va merosga ega ekanimizni anglab, ana shu bebaho boylikni qadrlab yashay-digan, biz boshlagan ulug‘ ishlarning munosib davomchilari bo‘lgan insonlar etib voyaga yet-kazishda matbuot ahlining haqqoniy so‘zi, uning ta’siri g‘oyat muhim, aytish mumkinki, hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz lozim.

Muhtaram do‘stlar!

Bugun yurtimizda matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari bayramini keng nishonlar ekanmiz, milliy jurnalistikamiz rivoji yo‘lida o‘zini ayamasdan, fidokorona mehnat qilib kelayotgan barcha insonlarni, muhtaram faxriylarimizni ushbu qutlug‘ sana bilan yana bir bor samimiyl tabriklayman.

Doimo sog‘-omon bo‘ling, umringizdan, mehnatingizdan baraka toping, azizlarim!

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
2013-yil 27-iyun*

O'ZBEKISTON G'ALLAKORLARIGA

Qadrli do'stlar!

Siz, aziz dehqon va fermerlarimizni, barcha dala mehnatkashlarini rizq-ro'zimiz va boyligimiz manbayi, dasturxonlarimizning to'kinligi, to'qchilik belgisi bo'l mish g'alladan 7 million 610 ming tonnadan ziyod yuksak xirmon bunyod etib, ulkan mehnat g'alabasini qo'lga kiritganingiz bilan chin qalbimdan muborakbod etaman.

Bugun O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarixida birinchi bor mana shunday misli ko'rilmagan natijaga erishib, ko'pchilik viloyat va tumanlarda, fermer xo'jaliklarida hosildorlikni yuksak darajaga yetkazganimiz fidoyi dehqon va fermerlarimiz qanday buyuk ishlarga qodir ekanini namoyon etib, butun xalqimizning kayfiyati va ruhini ko'tardi, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Xalqimizga mansub bo'lgan azaliy qadriyatga ko'ra, nonni aziz va tabarruk ne'mat sifatida qadrlab, e'zozlab, uni doimo ko'ziga to'tiyo qilib yashaydigan el-yurtimiz bu yutuq qanday og'ir

va mashaqqatli mehnatingiz, azm-u shijoatingiz evaziga qo‘lga kiritilganini yaxshi biladi va yuskak baholaydi.

Haqiqatan ham, bu yilgi mavsumda o‘rtacha hosildorlikni 55 sentnerga yetkazganingiz, o‘tgan yilga nisbatan qariyb 500 ming tonna ko‘p g‘alla olishga erishganingiz har qancha tahsin va tasanolarga munosibdir.

Aziz do‘stilarim, qadrdonlarim!

Joriy yilda barpo etilgan ulkan g‘alla xirmonini 90-yillarda mamlakatimizda shu borada mavjud bo‘lgan holat bilan qiyoslab, solishtiradigan bo‘lsak, bizning tarixan qisqa davrda tasavvur qilishning o‘zi ham qiyin bo‘lgan buyuk yo‘lni bosib o‘tganimiz, bu g‘alabaning naqadar yuksak, yurtimiz uchun naqadar qadrli ekani yana va yana bir bor ayon bo‘ladi.

1991-yilda, O‘zbekiston endi mustaqillikka erishgan kunlarda o‘lkamizda jami 940 ming tonna g‘alla yetishtirilib, o‘rtacha hosildorlik boryo‘g‘i 17 sentnerni tashkil etganini, respublikamiz don va un ta’minoti bo‘yicha butunlay Markazga qaram bo‘lib kun kechirganini o‘zimizga faraz qilsak, o‘tgan yillar mobaynida g‘alla mustaqilligini qo‘lga kiritganimiz, hosildorlik 3 karradan ko‘proq oshgani, umumiy hosil 7 barobardan zi-

yod ko‘paygani, hozirgi vaqtda nafaqat o‘z ehtiyo-jimizni ta‘minlash, ayni paytda xorijiy davlatlarga don eksport qilishga erishganimiz bizning qanday yuksak marralarni zabit etganimizdan yaqqol da-lolat beradi va o‘zgalarning hayratini tortadi.

Albatta, qo‘lga kiritilgan bunday ulkan natija-larning asosiy omil va mezonlari nimalardan iborat, degan tabiiy savol tug‘iladi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab bizning bugungi kunda dunyo hamjamiyati to-monidan e’tirof etilgan, rivojlanishning «o‘zbek modeli» deb nom olgan taraqqiyot yo‘lini, demokratlashtirish va yangilanish yo‘lini tanlaganimiz, xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksalti-rish maqsadida chuqur o‘ylangan, keng ko‘lamli islohot va o‘zgarishlarni, avvalo, iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i bo‘lmish qishloq xo‘jaligidan boshlaganimiz mana shunday yutuqlarimizning negizini tashkil etmoqda, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

O‘zini oqlamagan eski tizimning o‘zagi bo‘lgan mulkchilik shakllaridan voz kechib, bo-zor munosabatlari va xususiy mulkchilikni joriy etganimiz qishloq xo‘jaligida mutlaqo yangi ish-lab chiqarish munosabatlarini rivoj toptirishda, eng muhimmi, qishloq ahlining butunlay yangicha

fikrlash, o‘z mehnatiga yangicha qarashini shaklantirishda eng asosiy va muhim omil bo‘ldi.

Shu borada fermerlik harakatiga keng yo‘l ochib berganimiz, uni mustahkamlash va taraqqiy ettirish uchun huquqiy, tashkiliy va moliyaviy zamin yaratib berganimiz, bu harakatni har tomonlama rag‘batlantirib, qo‘llab-quvvatlaganimiz bugungi kunda uning qishloq xo‘jaligida chindan ham hal qiluvchi kuch bo‘lib maydonga chiqishi-da, dehqon o‘zini haqiqiy yer egasi, mulk sohibi deb his qilishida, fermerlarni, ta‘bir joiz bo‘lsa, jamiyatimizning tayanchiga aylantirishda beqiyos ahamiyat kasb etdi.

Shu ma’noda, barchamizni boqadigan, jamiki noz-ne’mat va boyliklarning bunyodkori bo‘lmish dehqon va fermerlarimizning dunyoqarashi, ong-u tafakkuri, hayotga munosabati, siyosiy saviya-si va ijtimoiy faolligi yuksalib borayotgani bugun qo‘lga kiritayotgan ulkan marralarimizning asosiy sharti va garovi bo‘lmoqda, desak, hech qanday xato bo‘lmaydi.

Aytish kerakki, bu yilgi mavsum o‘tgan mavsumlarga nisbatan oson bo‘lgani yo‘q. G‘allakorlarimiz tabiat va iqlim qiyinchiliklari bilan bog‘liq turli sinovlarni yengib o‘tishlariga to‘g‘ri keldi. Qish faslida havoning sovuqlik da-

rajasi me'yoridan ortiq bo'lgani, mart oyida esa haroratning odatdagidan ko'ra pasayib ketgani, do'l va jalalar yog'ishi dehqonlarimiz uchun jiddiy tashvish va muammolar tug'dirdi.

Ayni shunday murakkab sharoitda dala mehnatkashlari, avvalo, ishni to'g'ri tashkil qilish, zamonaviy agrotexnologiyalardan samarali foydalanish hisobidan hosilni saqlab qolishga va belgilangan marralarni egallashga muvaffaq bo'ldilar.

Bu haqda gapirganda, mavsum davomida g'allazorlarga jami 12 million tonna, har hektar maydonga o'rtacha 10 tonnadan ortiq mahalliy o'g'it berilgani, dehqonlarimizning har tup ko'chat ustida parvona bo'lib, o'zini ayamasdan mehnat qilganini minnatdorlik bilan ta'kidlash lozim.

Albatta, mana shunday yuksak xirmon yaratishga erishganimizning omillari haqida so'z yuritganda, oxirgi yillarda yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, seleksiya ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, g'alla navlarini har bir hududning iqlim va tuproq sharoitini, suv bilan ta'minlanish darajasini inobatga olgan holda joylashtirish, zamonaviy texnika, yangi kombaynlar, mineral o'g'itlar, yoqilg'i-moylash materiallarini o'z vaqtida yetkazib berish, hasharot va zararkunandalar-

ga qarshi kurashish – albatta, bularning barchasi amaliy samarasini bergenini unutmasligimiz kerak.

Ishning ko‘zini bilib amalga oshirilgan ana shunday muhim chora-tadbirlar tufayli barcha viloyat, jumladan, nisbatan og‘ir sharoitda bo‘lgan Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyati g‘allakorlari ham davlatga don sotish shartnoma majburiyatini bajarishga erishdilar. Ayniqsa, Qashqadaryo, Andijon, Samarqand, Namangan, Farg‘ona, Buxoro va Toshkent viloyatlarida sug‘oriladigan yerlarda hosildorlik o‘rtacha 57–63 sentnerni tashkil qilganini bu yilgi mavsumning eng muhim natijasi sifatida baholash o‘rinlidir.

Boshqalarga ibrat va namuna bo‘lgan Uchqo‘rg‘on, Norin, Uychi, Sariosiyo, Vobkent, Yakkabog‘, Qarshi, Oltinko‘l, Ishtixon, Paxtaobod, Izboskan, Baliqchi, Oqdaryo, Uchko‘prik, Koston, Do‘slik, Romitan, Toshloq, Furqat, Piskent, Yuqori Chirchiq, Xatirchi tumanlarida hosildorlik 60 – 75 sentnerdan oshganini alohida qayd etish joiz.

Kattaqo‘rg‘on tumanidagi «Hosil», «Shakar ota», Uchko‘prik tumanidagi «Farovon hayot sari», Norin tumanidagi «Ahmadjon Alijon ota

o‘g‘li», Uchqo‘rg‘on tumanidagi «Gulxumor», Buvayda tumanidagi «Yoqubjon ota», Oltinko‘l tumanidagi «Namuna serhosil yeri», Jondor tumanidagi «Baxtiyor Yarash o‘g‘li», Do‘stlik tumanidagi «Omonturdi ota», Xatirchi tumanidagi «Tasmachi iqboli», O‘rta Chirchiq tumanidagi «Ibrohim Abdurahmonov» kabi o‘nlab fermer xo‘jaliklarida gektaridan 100 sentner va undan oshirib hosil olingani yurtimiz dehqonlarining haqiqiy omilkorlik fazilatlari va mehnat jasoratining yana bir amaliy ifodasi bo‘ldi.

Eng asosiysi, yetishtirilgan jami hosilning qariyb 50 foizi yoki 3 million 524 ming tonnasi fermer xo‘jaliklari ixtiyorida qoldirilganini dehqonlarning omborlari donga, ro‘zg‘orlari qutbarakaga to‘lib borayotgani, ular o‘z mehnatidan katta manfaat ko‘rayotganining yorqin dalili sifatida qabul qilamiz.

Qadrli va muhtaram do‘stlarim!

Ishonchim komil – bugungi quvonchli ayyomda siz, aziz g‘allakorlarimiz, dehqon va fermerlarmiz erishgan bu ulkan g‘alaba O‘zbekistonimizda katta-yu kichik barchani, kasb-u kori, vazifasidan qat‘i nazar, hech kimni befarq qoldirmaydi.

Bugun el-yurtimizning tilida va dilida sizlarning sha’ningizga bag‘ishlab, «Barakalla, bar-

chamizni qoyil qoldirdingiz, hech qachon kam bo‘lmang!» deb aytiladigan his-tuyg‘ular, ezgu tilaklar mujassam, desam, o‘ylaymanki, yanglish-magan bo‘laman.

Mana shunday xursandchilik kunda siz, mireishkor dehqon va fermerlarni, mexanizator va kombaynchilarni, qishloq xo‘jaligi mutaxassislarini, yuksak xirmonga munosib hissa qo‘shtgan barcha-barcha yurtdoshlarimizni bag‘rimga bosib, yana bir bor samimiy tabriklayman.

Fidokorona va halol mehnatingiz uchun o‘z nomimdan, butun xalqimiz nomidan ta’zim qilaman.

Doimo sog‘-omon bo‘ling, azizlarim, qadrdonlarim!

Go‘zal va betakror, muqaddas Vatanimizni, zahmatkash va olivjanob xalqimizni Yaratganimiz doimo o‘z panohida asrasin!

*Islom KARIMOV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti,
2013-yil 16-iyul*

MUNDARIJA

TAQDIRIMSAN, BAXTIMSAN, ERKIN VA OZOD VATAN!

*O'zbekiston Pespublikasi mustaqilligining 21 yilligiga
bag'ishlangan tantanali marosimdag'i tabrik so'zi.*

2012-yil 31-avgust 3

BARQAROR IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNING

*MUHIM OMILI. «O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy
siyosatni amalg'a oshirishda kichik biznes va xususiy
tadbirkorlikning roli va ahamiyati» mavzusidagi
xalqaro konferensiya ochilishidagi nutq.*

2012-yil 14-sentabr 12

ZAMONAVIY, GO'ZAL VA BETAKROR.

*«Bunyodkor» sport kompleksining ochilishiga bag'ishlangan
tantanali marosimdag'i nutq. 2012-yil 28-sentabr 36*

O'ZBEKISTON O'QITUVCHI VA MURABBIYLARIGA

2012-yil 28-sentabr 47

XALQ DEPUTATLARI XORAZM VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASIDAGI NUTQ.

2012-yil 9-oktabr 53

O'ZBEKISTON PAXTAKORLARI VA BARCHA

MEHNATKASHLARIGA. 2012-yil 19-oktabr 84

INSON MANFAATI, HUQUQ VA ERKINLIKLERINI TA'MINLASH, HAYOTIMIZNING YANADA ERKIN VA OBOD BO'LISHIGA ERISHISH – BIZNING BOSH MAQSADIMIZDIR. O'zbekiston Pespublikasi

*Konstitutsiyasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali
marosimdag'i ma'ruza. 2012-yil 7-dekabr 92*

XALQ DEPUTATLARI FARG'ONA VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASIDAGI NUTQ. 2012-yil 14-dekabr	128
O'ZBEKISTON XALQIGA YANGI YIL TABRIGI. 2012-yil 31-dekabr	166
O'ZBEKISTON PESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI TASHKIL ETILGANINING 21 YILLIGI MUNOSABATI BILAN VATAN HIMOYACHILARIGA BAYRAM TABRIGI. 2013-yil 11-yanvar	173
BOSH MAQSADIMIZ – KENG KO'LAMLI ISLOHOTLAR VA MODERNIZATSIYA YO'LINI QAT'IYAT BILAN DAVOM ETTIRISH. 2012-yilda mamlakatimizni <i>ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2013-yilga</i> <i>mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor</i> <i>yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining</i> <i>majlisidagi ma'ruza. 2013-yil 18-yanvar</i>	183
O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING RESPUBLIKA KONFERENSIYASI ISHTIROKCHILARIGA BAYRAM TABRIGI. 2013-yil 25-yanvar.....	234
O'ZBEKISTON XOTIN-QIZLARIGA BAYRAM TABRIGI. 2013-yil 7-mart	239
SPORT – BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHNING ENG MUHIM VA SAMARALI OMILIDIR. <i>O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi</i> <i>Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishidagi nutq.</i> 2013-yil 16-mart	245
EZGULIK, GO'ZALLIK VA OBODLIK AYYOMI. <i>Navro'z bayramiga bag'ishlangan tantanali</i> <i>marosimdagisi tabrik so'zi. 2013-yil 19-mart</i>	268

MAMLAKATIMIZNING TARAQQIYOTI, EL-YURTIMIZ FAROVONLIGI, VATANIMIZNING OBRO‘-E‘TIBORINI YANADA OSHIRISH YO‘LIDA MEHNAT QILISH – MUQADDAS BURCHIMIZ. <i>Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutq. 2013-yil 1-aprel</i>	272
 TARAQQIYOT VA FAROVONLIK OMILI. «Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarni kompleks rivojlantirish va qiyofasini o‘zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili» mavzusidagi xalqaro konferensianing ochilish marosimidagi nutq. 2013-yil 17-aprel	310
 SOG‘LOM AVLOD – MILLAT KELAJAGI. «Sog‘lom avlod uchun» jamg‘armasi tashkil etilganining 20 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ishtirokchilariga yo‘llangan tabrik. 2013-yil 24-aprel	330
 XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING NAVBATDAN TASHQARI SESSIYASIDAGI NUTQ. 2013-yil 26-aprel	334
 O‘ZBEK XALQIGA TINCHLIK VA OMONLIK KERAK. <i>Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan ommaviy axborot vositalari uchun berilgan intervyu.</i> 2013-yil 9-may	371
 «UNIVERSIADA – 2013» SPORT O‘YINLARI ISHTIROKCHILARIGA. 2013-yil 6-iyun	391
 MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARIGA. 2013-yil 27-iyun	396
 O‘ZBEKİSTON G‘ALLAKORLARIGA. 2013-yil 16-iyul	404

Islom Abdug‘aniyevich Karimov

**MAMLAKATIMIZNI YANADA OBOD ETISH
VA MODERNIZATSIIYA QILISHNI QAT’IYAT BILAN
DAVOM ETTIRISH YO’LIDA**

21-jild

Nashr uchun mas’ul *G. Azizova*

Badiiy muharrir *H. Qutluqov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Kichik muharrir *D. Xolmatova*

Musahhih *M. Ishonxonova*

Kompyuterda tayyorlovchi *L. Abkerimova*

Nashriyot litsenziyası Al № 158, 14.08.09.

Bosishga 2013-yil 7-noyabrda ruxsat etildi. Qog’oz formati 84x108^{1/32}.

Ofset qog’ozi. «Tayms» garniturada ofset usulida bosildi.

Shartli bosma tabog’i 21.84. Nashr tabog’i 16,24.

Tiraji 3 000. Buyurtma №.13-310.

O’zbekiston Matbuot va axborot agentligining

«O’zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100129, Toshkent, Navoiy ko’chasi, 30.

Karimov, Islom Abdug‘aniyevich.

K 25 Mamlakatimizni yanada obod etish va modernizatsiya qilishni qatiyat bilan davom ettirish yo‘lida. T. 21 / I.A. Karimov. – Toshkent: «O‘zbekiston», 2013. – 416 b.

ISBN 978-9943-01-980-5

UO‘K: 323(575.1)

KBK 66.3(5O‘)